BOOKMANY PRINT

ISBN 978-9910-08-379-4

YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Xazrat Jabborov

YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

Xazrat Jabborov

YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Monografiya

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 152.22
KBK: 88.5
J 11

Jabborov Xazrat Xusenovich.
Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari [Matn]: metodik qo‘llanma / X.X. Jabborov. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 252 b.

Mas’ul muharrir:
Sh.Baratov – Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti rektori, psixologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:
Sh.Abdullayeva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Pedagogika va Psixologiya” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor.
D.Abdullayeva - Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Psixologiya” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

Jahonda bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan axborot oqimi, vertuallashish millat va elatlarni madaniy uyg‘unlashuvini namoyon qilayotir, odamlar orasidagi marginallashuv kabi jihatlar asosida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatida uning axloqi, ta’lim-tarbiyasini oshirishda ijtimoiy o‘zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, YUNESKO ning 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida alohida e’tibor qaratilgan. Unda milliy tarbiya, axloq va milliy qadriyat masalasi alohida dolzarb vazifa etib belgilangan.

Monografiya doktorantlar, ilmiy tadqiqotchilar va ma’naviyat targ‘ibotchilari hamda keng kitobxonlar ommasiga bag‘ishlangan.

Mazkur monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 3-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-374-9

© Jabborov X.X., 2025.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Milliy tarbiya - ma’naviy taraqqiyot asosi sifatida

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lutolar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya'ni milliy tarbiyaga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xo‘sh nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e'tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishiga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo‘ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo‘lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Davlatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan aksariyat chiqishlarida “Har bir ishning ilmi bor”, deb ta’kidlaydilar. Tarbiyaning ham ilmi bor. Uning nomi – pedagogika va bugungi kunda psixologiya fani predmetiga ham aylanib ulgirdi. Ayniqsa farzand tarbiyasi masalasida ota-onalarning bilimlari puxta, amaliy bo‘lishi - millatimiz uchun hayot-mamot masalasi. Zero bu davrda 20 yildan keyin keladigan avlod qanday bo‘lishi hal qilinadi.

Shuningdek milliy tarbiya masalasiga qaratilgan tadqiqotlarimiz va davlatimiz rahbarining tarbiya masalasiga bag‘ishlangan chiqishlari, nutqlari va asarlarida milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Ya’ni tarbiya orqali milliy o‘zlikni anglash mumkin, milliy o‘zlikni anglash orqali shaxs o‘z milliy xarakteri, milliy qadriyatlari, milliy an’analarini bilish mumkin.

Milliy tarbiyaning- ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqinini davlatimiz rahbari tomonidan aytilayotgan “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”, “Ma’rifatli jamiyat quraylik”, “Jamoatchilik nazorati kuchaysin”, “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”,

“Halollik vaksinasi”, “Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi!”,“Inson manfaatlari hamma narsadan ulug‘”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”, “Xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi”, “Adolat – qonun ustuvorligida”, “Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir”, “Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”, “Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz” kabi g‘oyaviy qarashlarda ming asrlik milliy qadriyatlarimiz, milliy o‘zligimiz va milliy tarbiyamizning asoslariga urg‘u berilayotganligida ham ko‘rish mumkin.

Yangi O‘zbekistonda tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 14 fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida bolalarimizni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi, dedi.

Biz tarbiya haqida buyuk mutafakkirlarimiz va allomalarimiz aytgan yuzlab durdona fikrlarni bilamiz. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savolga buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlash lozim, deb javob bergan. Chunki bolaning ma’rifatiga, odob-axloqiga yoki umumiy ma’noda uning tarbiyasiga ham aynan shu paytdan asos solinadi.

Bugungi yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy ma’rifat egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Biz

tadqiqotimiz davomida ota-onalarni farzand tarbiyasi masalasidagi ikki xil qarash va yondashuvini kuzatdik, ya’ni biri “milliy tarbiya”, “zamonaviy tarbiya”. Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida katta tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ana shu vazifalar ijrosidan kelib chiqib, qaralganda Xazrat Jabborovning “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishinig ijtimoiy-psixologik omillari” nomli monografiyasi bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarda milliy tarbiya masalasini ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish va zarur tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilganligi bilan juda ahamyatlidir.

Qolaversa yosh tadqiqotchi Xazrat Jabborov ushbu masala yuzasidan ancha vaqtdan buyon izlanishlar olib boradi. Ushbu mavzuga doir ellikdan ortiq ilmiy maqolalari xorijiy va mahalliy nashrlarda chop etildi. Qator xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma’ruzalar qildi. Psixologiya fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini oldi. Ana shu bir necha yillik ilmiy tadqiqot samarsi sifatida mazkur monografiya dunyoga keldi.

Monografiyda tadqiqot ishi milliy tarbiyani shakllanish jarayoni bo‘yicha tadqiqotchi har bir zamon va makondagi insoniyat avlodlari o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va ijtimoy normalarini ishlab chiqish jarayonida o‘z ajdodlarining milliy xarakter va milliy qadriyatlarini ijodiy o‘zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o‘zgartiruvchilik xususiyatini namoyon qilib borishligini ilmiy xulosalaydi. Har bir avlodning ana shunday ijtimoiy reproduktiv burchlarini amalga oshirilishi ijtimoiy barhayotlikni va insoniyat taraqqiyotining boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Demak yuqoridagi ilmiy xulosalangan fikrga ko‘ra ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik nuqtai-nazardan har bir avlod vakillari tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi milliy tarbiyaning mahsulidir deyishimiz mumkin ekan.

Monografiyada tadqiqotchi mazkur masalani o‘rganilganlik darajasida juda ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni o‘rgangan, o‘z tadqiqoti doirasida tahlil qilib ilmiy izohlantirgan va ixtiboslar keltirgan.

XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, “Boshqa dunyo kishisi” muammosini o‘rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya - milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o‘rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

“Boshqa dunyo kishisi”ni o‘rganish taraqqiyparvar yangilik edi. U “Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?”, “U o‘zini o‘rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?”, “U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?”, “U o‘z xatti harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo‘l tutadi?" kabi savollarga javob berish kerak edi. Bizningcha bu milliy tarbiyaga ijtimoiy va etnopsixologik bilimlarga ehiyoj sezilganligini ham bildiradi, shuningdek o‘sha davrlardan boshlab milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillariga qiziqish ortib borgan.

Monografiyaning «Milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik muammo sifatida» deb nomlangan birinchi bobida milliy tarbiya fenomeni, uning ko‘rinishlari, mexanizmlari, xulq-atvorda namoyon bo‘lishi va

shakllarini ifodalovchi asosiy nazariy tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan. Shuningdek, milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida tadqiq qilinishi, muammoning Sharq mutafakkirlari tomonidan o‘rganilishi, jahon tarbiyaviy konsepsiyalari ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur bobda milliy tarbiya, mafkuraviy immunitet, milliy fazilat, milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishga oid ilmiy izlanishlar dunyoning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta`lim muassasalari tomonidan olib borilgan izlanishlarninig empirik ma‘lumotlari tahlili keltirilgan.

Ushbu bobda xorijiy davlatlarning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta`lim muassasalarida olib borilayotgan milliy tarbiya jarayonlarining shakllantirishning metodologik va metodik asoslarini shakllantirishga doir tadqiqotlar tahlili keltirilgan. O‘quvchilarning milliy tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish bo`yicha ilmiy izlanishlarni tahlil qilish, ilmiy manbalar talqini va tadqiqot muammosiga oid ma‘lumotlar o‘rganilgan. Shuningdek «tarbiya», «milliy tarbiya» tushunchasining ijtimoiy-psixologik komponentlari va yo‘nalishlari, shaxs xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, adabiyotlardagi talqini va tadqiqot muammosiga oid manbalarni tahlil qilish asosida «milliy tarbiya» tushunchasining psixologik talqini berilgan.

Yuqoridagi nazariy tahlillar keyingi yillarda milliy tarbiyani tadqiq qilishning konseptual asoslari va o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlari bo‘yicha ilmiy asoslangan manbalariga ehtiyoj ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Monografiyaning ikkinchi bobi «Milliy tarbiyani tadqiq qilishning konseptual asoslari» deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari, o‘quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirish usullari, tamoyillari, tarbiya jarayonlarining komponentlari, tarbiyani shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari, o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari, jumladan axloqiy, aqliy, vatanparvarlik va g‘oyaviy tarbiyalanganlik mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlari yoritib berilgan.

Xususan, axborot vositalarining milliy tarbiyaga ta’siri, yoshlar tarbiyasida milliy fazilat va milliy xarakterni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur bobda yuqoridagi milliy tarbiyani shakllantirish muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik tomonlarini o‘rganish va tadqiq qilishga mo‘ljallangan milliy tarbiya funksiyalari ham bayon etilgan.

Mazkur bobda O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari, jumladan uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi ijtimoiy-psixologik jihatdan ilmiy asoslangan va uning milliy tarbiya shakllanishidagi g‘oyaviy jihatlari aniqlangan.

Shuningdek bobda yoshlarda milliy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiyaning xomiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish, tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish, oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish va milliy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanish kerakligi ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar kesimida ilmiy asoslangan.

Mazkur bobda milliy tarbiya metodlari algaritmi, ota-ona va pedagoglar tomonidan ko‘p aytilayotgan, bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan so‘zlar, amallar va odatlar, yoshlar xulq-atvorida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilat va salbiy illatlar omili ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslab berilgan.

Monografiyaning uchinchi bobi «Milliy tarbiya shakllanganligini o‘rganishning psixodiagnostik asoslari» deb nomlangan uchinchi bobi o‘rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog‘lanishlar o‘z aksini topgan. Shuningdek bobda o‘quvchilarning milliy tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan omillarga bevosita aloqador bo‘lgan hissiy-emotsional holatlar, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvor

xususiyatlari hamda o‘quv faoliyati mobaynida «guruhni idrok etish» va «guruhda xulq-atvor motivatsiyasi» larining darajalari empirik jihatdan o‘z aksini topgan.

Tadqiqotchi mazkur bobda tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda, yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, milliy tarbiyani shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganishga e’tiborini qaratgan. Ishda ushbu maqsadga erishish uchun nazariy, uslubiy, empirik vazifalar belgilangan va amalga oshirish ketma-ketligi bayon etilgan.

Nazariy vazifalar: 1) yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar va vositalarni asoslab berish; 2) yoshlarning milliy tarbiyasini asosida turadigan xulq-atvor sog‘lomligi yoki uni buzilishini yuzaga keltiradigan yoshlarning axborot muhiti bilan ularning milliy tarbiyasi va dunyoqarashi o‘zgarishidagi o‘zaro aloqani tadqiq qilish; 4) yoshlarning milliy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi omillar.

Uslubiy vazifalar: 1) tadqiqot maqsadlariga mos keladigan uslubiy apparat va olingan ma'lumotlar tahlilining umumlashtiruvchi tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish; 2) milliy tarbiya shakllanish jarayonlarini o‘rganishdagi mezonli va sifat usullarni ko‘rib chiqish.

Empirik vazifalar: 1) ijtimoiy va madaniy muhitda yoshlarning milliy tarbiyasiga ta’sir etuvchi milliylik kasb etuvchi milliy fazilatlarni saralash; 2) yoshlarni milliy tarbiyasidagi o‘ziga xos ijobiy sifat va fazilatlarni kognitiv va motivatsion parametrlari asosida taqqoslash; 3) yoshlarda milliy tarbiya shakllanishida yoshlar guruhi va xulq-atvoridagi qaramlik, mustaqillik, muloqotmandlik, odamovilik, “kurash”ga tayyorlik, “kurash”dan qochish, individuallik, jamoaviylik, pragmatik, ijtimoiy nufuz, prestijga intilish, raqobatga intilish, maqsadga erishishga intilish kabi omillarni o‘zaro bog‘liqligini aniqlash; 4) yoshlar xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan erishilgan yutuqlar, tan olish, tartib, namoyishkoronalik, avtonomiya, affiliatsiya, o‘zini bilib ish qilish, ko‘makni qabul qilish, ustunlik qilish, bo‘ysunish, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, o‘zgaruvchanlik,

chidamlilik va agressiya kabi tayanch omillarni milliy tarbiyani shakllanishiga ta’sirini o‘rganish; 5) ota-onalarni farzand tarbiyasida qo‘llaydigan haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishi, yoki g‘amxo‘rlikning ozligi, hamma narsaga ruxsat berishi, kuchli hissiy aloqa bildirishi, qat’iyatsizligi, bolaning sog‘ligi uchun ko‘p qayg‘urishi, o‘z farzandini yoqimsiz, kutilmagan bola deb hisoblashishi, ota-onalar o‘rtasidagi ichki kelishmovchilik, zolimlik, ayollarga nisbatan hurmatsizlik metodlarni ijobiy va salbiy ta’sirini ilmiy asoslash; 6) milliy tarbiya shakllanishida internal, eksternal, umumiy internallik, muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik, omadsizliklar sohasidagi internallik, yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallik, oilaviy munosabatlardagi internallik, shaxslararo munosabatlardagi internallik va sog‘liq va kasallik bo‘yicha internallik kabi omillarini ta’sirini aniqlash; 7) yoshlarni o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘z qobiliyatlarini, energiyasini, mustaqilligini, o‘ziga ishonch darajasini anglash, autosempatiya, ijobiy yoki salbiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini ayblash tendensiyasi, boshqalardan ijobiy munosabatni kutish, shaxsiy manfaat, ektermal vaziyatlarda holatga va harakatga yo‘nalganligi kabi omillarni xulq-atvor bilan aloqadorligini aniqlash.

Monografiyaning «O‘smirda milliy tarbiya shakllantirishning psixokorreksion asoslari» deb nomlangan to‘rtinchi bobida o‘smirlar milliy tarbiyani shakllantirishning ilmiy uslubiy asoslari va tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, olib borilgan nazariy-empirik tahlillar asosida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish bo‘yicha model, milliy tarbiya mezonlari, darajalar va ko‘rsatkichlar asosida maxsus psixologik rivojlantiruvchi trening dasturi ishlab chiqildi va uning samaradorligi o‘rganilgan.

Yosh olim sifatida Xazrat Jabborov milliy tarbiyaga oid ilmiy tadqiqotlarini ilmiy xulosalari asosida “Yosh ota-ona kitobi”, “Baxtli bola ma’naviyati”, “Fazilatli avlod”, “Ma’naviy balog‘at”, “Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi”, “Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!”, “Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari”, “Targ‘ibot tadbirlarining ilmiy-amaliy ta’sirchanligini oshirish mexanizmlari”,

“Jonajon O‘zbekistonim mangu bo‘l omon!”, “Rahbar ma’naviyati” kabi qo‘llanmalarda mualliflik qildi.

Xazrat Jabborovning mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-ma’naviy islohotlar doirasidagi daxldorligi “O‘zbekiston-24”, “Yoshlar”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Dunyo bo‘ylab”, “Zo‘r TV”, “Mening yurtim”, “Sevimli” telekanalari va hududiy Qaraqalpog‘iston TV, Andijon viloyatining telekanalarida 70 dan ortiq chiqishlarida aks etdi. Ya’ni muallifning aholining turli qatlam vakillarida mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishning ma’naviy, g‘oyaviy, mafkuraviy va psixologik omillari bo‘yicha ekspertlik intervyulari efirga uzatildi.

Yosh tadqiqotchi o‘zining ilmiy tadqiqotlarining ilmiy xulosalari asosida “Nomzodning ma’naviy portreti” (NMP), “Tahdidlar narvoni metodi” (TNM), “Allomani bilasizmi?” (O‘z o‘zini baholash metodi), “Ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetning “Axborotni saralash”, “Himoyalanish”, “Qarshi kurash”, “Boshqarish” kabi funksiyalarini shakllantirish” (KEYS METODI), “Ma’naviy-ma’rifiy tadbir samaradoligini belgilovchi asosiy tamoyil shkalalar”, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofiserlarining kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasi”, “Ofiserlarni ma’naviy, intelektual potensialini baholovchi “Munosabatlar ierarxiyasi” (MI) testi, “Ma’naviy-ma’rifiy xodimlarni pedagogik mahoratni baholash uchun bir soatlik dars tahlili”, “Targ‘ibot tadbirlarida yozilgan esselarni baholash uchun “Essesining mazmun-mohiyati va himoyasini baholash” mezonlari metodikasi”, “Targ‘ibot tadbirlarida “KORRUPSIYA” illatini profilaktikasiga mo‘ljallangan so‘rovnoma” va “Hududlarning ijtimoiy – ma’naviy muhitini o‘rganish va sog‘lomlashtirish texnologiyasi(MMST)” kabi hammualliflikdagi ta’sirchan psixologik va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqdi va amaliyotga tadbiq qildi.

Uning faoliyatida dastlabki yillardanoq ilmga chanqoqlik, g‘ayrat-shijoatlilik, ishga o‘ta mas’uliyat bilan yondashish, o‘z ilmiy-ma’rifiy dunyoqarashini rivojlantirib borish yo‘lida hamisha izlanuvchanlik va fidoyilik xislatlari yaqqol sezilib turdi. Mehnat

faoliyati davomida o‘zining bilimdonligi, tirishqoqligi va izlanuvchanligini namoyon eta oldi. O‘z ustida tinimsiz mehnat qiladi.

Yosh olim sifatida Xazrat Jabborov xalqimizga sodiqlik, o‘zgalarni hurmat qilish singari yuksak axloqiy va insoniy fazilatlarga ega shaxs. Shu bois Xazrat Jabborov o‘z sohasi, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha sanoqli izlanuvchilardan biriga aylandi. Mazkur monografiya bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Yosh olim Xazrat Jabborov tanlagan mavzu o‘zining dozarbligini hech qachon yo‘qotmaydi. Shunday ekan Xazrat Jabborov yosh olim sifatida mazkur masaladagi tadqiqotlar maydonini va auditoriyasini yanada kengaytirishi va yana ham jiddiyroq tadqiqot natijalariga erishib borishi maqsadga muvofiq. Mazkur monografiya talablar darajasida tayyorlangan. Xazrat Jabborovning keyingi, yangi, innovatsion va ta’sirchan ilmiy izlanishlariga muvoffaqiyat tilab qolaman.

Muhammadjon Quronov,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti rahbarining birinchi o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH

Jahonda bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan axborot oqimi, vertuallashish millat va ellatlarni madaniy uyg‘unlashuvini namoyon qilayotir, odamlar orasidagi marginallashuv kabi jihatlar asosida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatida uning axloqi, ta’lim-tarbiyasini oshirishda ijtimoiy o‘zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, YUNESKO ning 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida[1] alohida e’tibor qaratilgan. Unda milliy tarbiya, axloq va milliy qadriyat masalasi alohida dolzarb vazifa etib belgilangan. Qolaversa mazkur masala bo‘yicha BMTning 2019-yil 25-iyuldagi Bosh assambleyasining 73-Sessiyasida 5 aprelni Xalqaro axloq kuni deb taklif qilindi va axloq kunini nishonlash butun dunyoda barqaror tinchlik, hamjihatlik va unga erishish uchun tinchlik, bag‘rikenglik, birdamlik, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash yo‘lida xalqaro hamjamiyat sa’yi-harakatlarini doimiy safarbar etish vositasi ekanligiga alohida e’tibor qaratdi[2]. Shu bois hozirda tarbiyaning tayanch mezonlari va ijtimoiy-psixologik omillari masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida axborot ko‘lamining kengligi, vertuallashishning inson xulq-atvori va tarbiyasiga ta’siri, ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq-atvor, ideal shaxs modeli, barkamol shaxs portreti, g‘oyaviy shaxs modeli, milliy fazilatlar, umuminsoniy fazilatlar, milliy va zamonaviy tarbiya metodlari, texnologiyalari, shaxsning ijtimoiy shartlanishidagi milliy fazilatlar, milliy xarakter, milliy o‘zlik, dunyo odamlari modeli kabi tadqiqotlar olib borilmoqda va ilmiy asoslangan ilmiy xulosalar taqdim qilinmoqda. Biroq bu borada, oilaviy tarbiya metodlarini farzand xulq-atvoriga ta’siri, yoshlar milliy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy-

[1] Designing effective monitoring and evaluation of education systems for 2030: A global synthesiss of policies and practices (UNESCO Education Sector Division for Policies and Lifelong Learning Systems, January 2016), p 38,52,77

[2] https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N19/233/17/PDF/N1923317.pdf?OpenElement

psixologik omillarni erta psixodiagnostika qilish orqali korreksiyalashni amalga oshirish, milliy tarbiya, milliy axloq jarayonidagi muammolarni ilmiy asosda aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda barkamol shaxs va umuminsoniy fazilatlarga ega shaxs g‘oyalari, va bugungi kunda esa «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yildi va unda tarbiya masalasiga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish kabi masalalar tadqiq qilinib kelinmoqda. Qolaversa, mazkur masalada davlatimizda alohida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiya”[5] sini qabul qilinishi ham jamiyatda mazkur masalani nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi, 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qaror, 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrlagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1059 – son qarori, shuningdek mazkur masalaga oid hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning quyidagi vazifalari ishlab chiqilgan:

milliy tarbiya muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish;

yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash (yosh, jins, hudud kesimida) va qiyosiy tahlil qilish;

yoshlarda milliy tarbiyani shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tahlil etish;

yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash;

yoshlarda milliy tarbiyalanganlik darajalarini aniqlash va uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning empirik natijalari asosida quyidagi ilmiy yangiliklar aniqlangan:

yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi “ijobiy taqlid”, “ijobiy motivatsiya”, “o‘zini-o‘zi nazorat qilish”, “o‘zini-o‘zi baholash” kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlangan;

yoshlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda yot, buzg‘unchi va vayronkor odatlarga nisbatan “fazilatlarni saralash”, “salbiy odatlarga nisbatan himoyalanish”, “yot qadriyatlarga nisbatan qarshi kurash” va “o‘zini-o‘zi boshqarish” singari yetakchi ijtimoiy-psixologik sifatlari aniqlangan;

yoshlarda milliy tarbiyalanganligini ta’minlovchi “o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni ijobiyligi”, “o‘ziga ishonchni ijobiyligi”, o‘z-o‘zini hurmat qilish”, “boshqalardan ijobiy munosabatni kutish” va “Menlik”ni-“Bizlik”ka proeksalanishi” kabi tayanch mezonlari aniqlangan;

yoshlarda milliy tarbiya fazilatlarini shakllantirishda ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib “individual”, “jamoaviy” va “pargmatik” usullarda ta’sir ko‘rsatish samarali ekanligi aniqlangan;

yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishda ijtimoiy xulqqa aloqador “tan olish”, “tartib-intizom”, “avtonomiya”, “affiliatsiya”, “ko‘makni qabul qilish”, “ustunlik qilish”, “bo‘ysunish”, “g‘amxo‘rlik

ko‘rsatish” va “chidamlilik” kabi ehtiyojlarni inobatga olish ta’sirli ekanligi aniqlandi;

yoshlarda milliy trabiya fazilatlarini shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi “alienatsiya”, “marginalizatsiya”, “egotsentrizm”, “eskapizm”, “abuliya”, “apatiya” kabi sifatlar aniqlangan;

yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishda ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan “haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilish”, “hamma narsaga ruxsat berish”, “kuchli hissiy reaksiya bildirish”, “muloqotdagi qat’iyatsizlik”, “rad etish”, “qarg‘ash” metodlar salbiy ta’sirga ega ekanligi aniqlangan;

milliy tarbiya asosida ta’lim muassalarida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga xizmat qiluvchi “Siz va farzandlaringiz” so‘rovnomasi, “Ta’lim muassalarida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi texnologiyasi” (TMIPMST), “Milliy tarbiya metodlari algaritmi”, “100 ijobiy fazilat” menyusi ishlab chiqilgan;

yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi “ijobiy taqlid”, “ijobiy motivatsiya”, “o‘zini-o‘zi nazorat qilish”, “o‘zini-o‘zi baholash” kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlangan;

yoshlarda milliy tarabiya fazilatlarini shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi “alienatsiya”, “marginalizatsiya”, “egotsentrizm”, “eskapizm”, “abuliya”, “apatiya” kabi sifatlar aniqlangan;

yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishda ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan “haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilish”, “hamma narsaga ruxsat berish”, “kuchli hissiy reaksiya bildirish”, “muloqotdagi qat’iyatsizlik”, “rad etish”, “qarg‘ash” metodlar salbiy ta’sirga ega ekanligi aniqlangan;

milliy tarbiyaga oid ilmiy tadqiqotlarini ilmiy xulosalari asosida “Yosh ota-ona kitobi”, “Baxtli bola ma’naviyati”, “Fazilatli avlod”, “Ma’naviy balog‘at”, “Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi” kabi qo‘llanmalar nashr qilingan.

I BOB. MILLIY TARBIYA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1. Milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida

Davlatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan aksariyat chiqishlarida “Har bir ishning ilmi bor”, deb ta’kidlaydilar. Tarbiyaning ham ilmi bor. Uning nomi – pedagogika va bugungi kunda psixologiya fani predmetiga ham aylanib ulgirdi. Ayniqsa farzand tarbiyasi masalasida ota-onalarning bilimlari puxta, amaliy bo‘lishi - millatimiz uchun hayot-mamot masalasi. Zero bu davrda 20 yildan keyin keladigan avlod qanday bo‘lishi hal qilinadi.

Shuningdek milliy tarbiya masalasiga qaratilgan tadqiqotlarimiz va davlatimiz rahbarining tarbiya masalasiga bag‘ishlangan chiqishlari, nutqlari va asarlarida milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Ya’ni tarbiya orqali milliy o‘zlikni anglash mumkin, milliy o‘zlikni anglash orqali shaxs o‘z milliy xarakteri, milliy qadriyatlari, milliy an’analarini bilish mumkin.

Milliy tarbiyaning- ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqinini davlatimiz rahbari tomonidan aytilayotgan “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”, “Ma’rifatli jamiyat quraylik”, “Jamoatchilik nazorati kuchaysin”, “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”**,** “Halollik vaksinasi”, “Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi!”,“Inson manfaatlari hamma narsadan ulug‘”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”, “Xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi”, “Adolat – qonun ustuvorligida”, “Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir”, “Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”, “Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz” kabi g‘oyaviy qarashlarda ming asrlik milliy qadriyatlarimiz, milliy o‘zligimiz va milliy tarbiyamizning asoslariga urg‘u berilayotganligida ham ko‘rish mumkin.

Yangi O‘zbekistonda tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev 2018 yil 14 fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida bolalarimizni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi, dedi.

Biz tarbiya haqida buyuk mutafakkirlarimiz va allomalarimiz aytgan yuzlab durdona fikrlarni bilamiz. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savolga buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlash lozim, deb javob bergan. Chunki bolaning ma’rifatiga, odob-axloqiga yoki umumiy ma’noda uning tarbiyasiga ham aynan shu paytdan asos solinadi.

Bugungi yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy ma’rifat egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Biz tadqiqotimiz davomida ota-onalarni farzand tarbiyasi masalasidagi ikki xil qarash va yondashuvini kuzatdik, ya’ni biri “milliy tarbiya”, “zamonaviy tarbiya”. Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular

orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida katta tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

O‘rganishlarimiz o‘zbek xalqi tarbiya an’analarida yaqinlik va masofaning muayyan nisbati belgilangan. Go‘dakka kerakli bo‘lgan darajadagi yaqinlik aksariyat bobolar va buvilar tomonidan ko‘rsatilgan. Chunki bobo va buvilar bola bilan ko‘proq “muloqot”da bo‘lib, “mehr-muhabbat” va o‘zaro “ishonch” bilan ularni tarbiyalaganlar.

Aynan ota-ona va farzand orasidagi muloqotning kamligi, “mehr-muhabbat” ni yetishmasligi, aniq mexanizmlar asosida qo‘llanmasligi va o‘zaro “ishonch” ning sustligi bugungi kunda tarbiya jarayonida yetishmayotgan deprivatsion psixologik jihatlardan biri ekanligini tadqiqotimizning keyingi bob va paragriflarida ko‘rib o‘tamiz.

Kattalar tomonidan bolaga qo‘llaniladigan tarbiyaviy ta’sir ostida bola uch yoshga kirganda o‘zini tuta bilishni o‘rganadi. Mavjud odatlarga ko‘ra, farzand bu paytda butun oilaning e’tibor ob’ektiga aylanadi. Shuning uchun ham “bola uchga kirsa – butun oila gapirishni o‘rganadi” [180], degan ibora mashhurdir.

Tarbiya masalasi bilan shug‘ulangan aksariyat ijtimoiy psixologlar va jamoat arboblari ham go‘daklik davridagi tarbiyaning shaxs shakllanishdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatib o‘tganlar. Aksariyat olimlarning xulosalariga ko‘ra, uch yoshgacha bo‘lgan go‘dak o‘zining rivojlanishida shuncha ko‘p narsani egallaydiki, u

yana shuncha bilimni o‘n sakkiz yoshga qadar egallashi mumkin bo‘ladi [112].

Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda [145].

Aniqlanishicha, inson xarakteri asosan go‘daklik paytida shakllanadi va bu davrda unda qanday xarakter xislatlari shakllansa – uning ikkinchi tabiati sifatida mustahkam o‘rnashadi. Keyingi o‘zlashtiriladigan narsalar ular kabi chuqur o‘rnashmaydi [68]. Demak, har bir ota-ona milliy tarbiya an’analarida go‘daklikdagi tarbiyaga katta e’tibor qaratishlari zarur.

Bolalarga xulq-atvor qoidalari bir xil tarzda o‘rgatib borilgan. Garchi tarbiyadagi faollik darajalari bilan ajralib tursada, lekin oilaning barcha a’zolari tarbiyada ishtirok etgan.

Ota-ona bilan bo‘ladigan har kungi muloqot orqali bolalar dastlab, kattalarning xatti-harakatlari, odatlari va keyin ichki sifatlari; fikrlash tarzlari, ijtimoiy burchini bajarishga va boshqa shu kabilarga bo‘lgan munosabatlarni dastlab ongsiz ravishda keyinchalik ayniqsa kichik maktab yoshidan boshlab ongli ravishda taqlid qiladilar va o‘zlashtiradilar.

Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jarayonlarini Z.T.Nishonova “O‘quvchilarda milliy xususiyatlarni tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari” [130] nomli tadqiqotlarida, milliy an’analar va ijtimoiy omillar ta’sirida ilk o‘spirinlarda ma’naviy tassavurlarni shakllanishi masalasi tadqiqotchi M.T.Isoqovaning [69] ishlarida, vataparvarlik tarbiyasi [19], yoshlarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish [17], o‘smirlar ma'naviyati shakllanishi [20], milliy g‘oya tarbiyasi [32], internet o‘yinlarining o‘smir tarbiyasiga salbiy ta’siri [33], milliy tarbiyani shakllantirish orqali tahdidbardoshlikni rivojlantirish [34] kabilarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Shunigdek milliy tarbiyani shakllanishida o‘smir xulq-atvori, xarakterologik va etnopsixologik jihatlarini Bojovich L.I.[41], Bodalyov A.A [44], Bandura A [46], Uolters R [46], Bjezinskiy Z [48], Bogomaz S.A [49], Gladkix A.G [49], Vasil'ev I.A [192],

Volovik M.V, Vid D.V [193], Vasserman L.I, Klubova Y.B [194], Gadjimirzaev M.M [65], Grachev G.V, Mel'nik I.K [66] o‘z tadqiqotlarida yoritishgan.

Amerikalik olima M.Midning fikricha, taqlid muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat orqali shakllanadi. Bu jarayon boshqalarni ijtimoiy rolini qabul qilish, ularga o‘xshashga intilishning ko‘rinishidir [110].

Taqlid bolaning yoshiga, idrokiga bog‘liq ravishda ongli yoki ongsiz tarzda yuz berishi mumkin. Bola go‘dak yoshida kattalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qiladi, buni ongsiz holatdagi taqlid deyishimiz mumkin.

Fransuz olimi E.Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug‘iladi, o‘smir yoshiga yetganda esa taqlid qilish faqat tanlov asosidagina amalga oshib, ijtimoiy tajribani keng ma’noda egallay boshlashi, natijada bolaning xarakteri, temperamenti, qiziqishlari ham shakllanadi. Demak, bola o‘sgan sari, taqlid jarayoni mazmunan o‘zgaradi va ongli xarakter kasb etadi[56].

Tadqiqotchi kanadalik psixolog A.Bandura taqlidni bola sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, kattalarga taqlid qilish asosida bolalarning axloq sohasidagi ijobiy fikrlari mustahkamlanishi yoki, aksincha, ularda tajovuzkorona xislatlar ham rivojlanishi mumkin [47]. Tadqiqotchi A.Banduraning bu qarashlari ham milliy tarbiya-ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligining yana bir dalilidir.

Kattalar bilan bo‘ladigan har kungi muloqot orqali bolalar dastlab, kattalarning xatti-harakatlari, odatlari, ichki sifatlari; fikrlash tarzlari, ijtimoiy burchini bajarishga va boshqa shu kabilarga bo‘lgan munosabatlariga taqlid qiladilar va o‘zlashtiradilar.

Yuqoridagi masala yuzasidan adabiyotlar tahliliga asoslanib shuni aytish mumkinki, avlodlar ota-onalar va tengqurlardan taqlid orqali muayyan axloqiy va tarbiyaviy stereotiplarni qabul qiladi. Har bir bola go‘daklik chog‘idayoq ixtiyorsiz ravishda o‘zi dunyoga kelgan oila muhitidagi turli-tuman ta’sirlar va tassurotlar ostida o‘z xalqining mentalitetini va milliy fazilatlarini o‘zlashtira boshlaydi. Bu bola ona tilini o‘rganib alla, ertaklarni eshitganda, maishiy hayot sharoitga qo‘shilganda yuz beradi [114]. Aynan shuning uchun ham milliy tarbiya ijtimoiy- psixologik jarayondir.

Bolalarni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodlari, jumladan ertak va dostonlardan foydalanish milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jarayoni sifatida muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, bolalarni tartib-intizomga o‘rgatish, uning yoshi bilan uzviy aloqador. Bu sohada har bir xalqning o‘ziga xos usuli va yondashuvi bo‘lib, intizomga o‘rgatish va ularga nisbatan qattiqqo‘llik darajasi yosh bosqichlari bilan bog‘liq. Tadqiqotchilar shu prinsipda jamiyatlarni to‘rt tipga ajratadilar:

go‘daklikda ham va bolalikning keyingi davrida ham intizomga talab kuchsiz;

go‘daklikda ham va bolalikning keyingi davrida ham intizomga talab qattiq;

go‘daklikda intizomga talab qattiq, keyingi davrda esa talab va nazoratning kuchsizlanishi;

go‘daklikda bolani erkinroq qo‘yilishi, ya’ni talabning kuchsizligi va keyingi davrda talabchanlik va qattiqqo‘llikning kuchaytirilishi [104].

Makur yondashuvni o‘rganishimiz, o‘zbek xalqining bola tarbiyalash an’anasidagi usul to‘rtinchi tipga tegishli bo‘lgan. Ya’ni, go‘daklik va ilk bolalik paytida (5-6 yosh) ular e’zozlanib, erkin qo‘yilgan, 6-7 yoshdan bolaning tarbiyasiga bo‘lgan talab kuchaytirib borilgan. Keyingi yillarda ota-onalarning bolaning yoshiga qarab intizomga o‘rgatish bo‘yicha qarashlari ularning dunyoqarashlariga bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, azaldan o‘zbek xalqining tarbiya usullarida go‘daklarni e’zozlash, kichik yoshli bolalarni erkin qo‘yish, ularga qattiq intizom talabi qo‘yilmasligi kabilar o‘z ifodasini topib kelgan. Tartib-intizomga bo‘lgan talabning kuchayishi bolaning keyingi yosh bosqichlarida (5–6 yoshdan so‘ng) amalga oshirilgan. Mazkur yondashuvlar masalaga daxldor tadqiqotchi M.Quronov va X.Jabborov [146] larning “Baxtli bola ma’naviyati” nomli kitobida ham ko‘rish mumkin.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish,

tarbiyada **tushuntirish/ko‘rsatish/o‘rgatish/namuna** bo‘lish kabi ta’sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari inson e’tiborini tortadi.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish xalqimiz ehtiyoji, davr talabi va bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini quyidagi qaror, farmon va dasturlar bilan izohlash mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli [2] , 2019 yil 3-maydagi PQ- 4307-sonli [3], 2021 yil 26 martdagi PQ- 5040-sonli Qarorlari [4] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi 1059-sonli [5] qarorlarida tarbiya masalasiga alohida qaralishi kerakligi, milliy fazilatlarni yoshlarimiz xulq-atvori va xarakterida shakllantirish bo‘yicha ta’sirchan pedagogik va psixologik texnologiyalarni ishlab chiqish, bu bo‘yicha xalqaro va jahon tajribasini o‘rganish, o‘zimizning sharq mutafakkirlarimizni nodir va durdona asarlarini o‘rganish va ularni tajribalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi.

Shu o‘rinda biz mazkur tadqiqotda yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini bugungi kundagi ahamiyati, milliy tarbiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, yondashuvlar, konsepsiyalar asosida mazkur jarayonni bugungi ijtimoiy hayotimizdagi dolzarbligini yoritishga harakat qilamiz.

Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishida psixologik va ijtimoiy-psixologik nazariyalar va konsepsiyalarni tadqiqotchi Ye.V.Subbotskiyning maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy

rivojlanishining genezisi haqidagi nazariy konstruksiyasi, S.G.Yakobsonning shaxs o‘zini-o‘zi tartibga solishda axloqiy tanlovning psixologik tabiati nazariyasi, L.S.Vigotskiyning tarbiya masalasida madaniy-tarixiy konsepsiyasi, A.N.Leontiev, A.V.Zaporojes, D.B.Elkoninlarning bola tarbiyasida uning psixik rivojlanishi nazariyasi, P.Ya.Galperinning inson faoliyatining tizimli bosqichma-bosqich shakllanish konsepsiyasi, B.G.Ananev, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteynlarning shaxsni rivojlanishida sub’ekt-faoliyat yondashuvi, G.Olportning shaxs yetukligi konsepsiyasi kabilardir. Mazkur konsepsiya va yondashuvlar asosida biz yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy psixologik omillarini ochib berishga harakat qildik. Mazkur konsepsiya va yondashuvlarga biz keyingi paragrifda kengroq to‘xtalamiz.

Endi milliy tarbiyani ijtimoiy-psixologik, tarixiy va etimologik jihatlariga to‘xtalishni maqsad qildik. Jumladan antropologlarning ilmiy xulosalari, odamzodning tashqi ko‘rinishi kechki paleolit – kromanonlar davri- bundan 40000 yildan buyon o‘zgarmasdan kelmoqdaligini ta’kidlashadi [195]. Bu fikrning zamonaviy fanlar tomonidan tasdiqlanganligi odamning biologik evolyusiyasi tugallangan, degan xulosani berdi.

Odamdagi evolyusion rivojlanishning yakunlanishi undagi madaniy rivojlanishni boshlab beradi. Oliy taraqqiy etgan turlarga xos bo‘lgan emotsional-instinktiv xususiyatlar genetik meros sifatida mavjud bo‘lib, bu xususiyatlarni chaqaloq dunyoga kelganida, uning rivojlanishining ilk oylarida kuzatish mumkin. Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) esa odam mohiyatini go‘daklikdan boshlab insoniylashuv, madaniylashuv tomonga o‘zgartira boradi [149]. Buni psixologik yosh bilan belgilaydigan bo‘lsak ilk bolalik yoshiga to‘g‘ri keladi, ya’ni bir va uch yoshlar oralig‘i.

Har bir zamon va makondagi insoniyat avlodlari o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va ijtimoy normalarini ishlab chiqish jarayonida o‘z ajdodlarining milliy xarakter va milliy qadriyatlarini ijodiy o‘zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o‘zgartiruvchilik xususiyatini namoyon qilib boradi. Har bir avlodning ana shunday ijtimoiy reproduktiv burchlarini amalga oshirilishi ijtimoiy barhayotlikni va insoniyat taraqqiyotining boy,

rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Demak, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik nuqtai-nazardan har bir avlod vakillari tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi milliy tarbiyaning mahsulidir.

Mazkur masaladagi izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, barcha davrlarda milliy xarakter va milliy tarbiyani o‘rganishda tadqiqotchilar turli xalqlarning bir-birlarini tanishida, bilishida, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning milliy jihatlariga e’tibor berilgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar, jumladan, Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayxon Beruniy, Mikluxo Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, H.Vamberi va boshqalar qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta’limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o‘rganish yo‘nalishi mavjudligi bizga ma’lum.

Milliy tarbiya masalasiga daxldor tadqiqotchi M.Quronovning “Milliy tarbiya” nomli monografiyasida qayd qililinishicha XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, “Boshqa dunyo kishisi” muammosini o‘rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya - milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o‘rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

“Boshqa dunyo kishisi”ni o‘rganish taraqqiyparvar yangilik edi. U “Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?”, “U o‘zini o‘rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?”, “U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?”, “U o‘z hatti harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo‘l tutadi?" kabi savollarga javob berish kerak edi. Bizningcha bu milliy tarbiyaga ijtimoiy va etnopsixologik bilimlarga ehtiyoj sezilganligini ham bildiradi, shuningdek o‘sha davrlardan boshlab milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarga qiziqish ortib borgan.

Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi yerlar ochilib, savdo-sotiq, munosabatlari kengaya borgani sari bu muammoga qiziqish orta bordi. Ayniqsa, Yevropada bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllana borishi va u bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ayniqsa mustamlakachilik davri milliy xususiyatlarni

o‘rganishga kuchli turtki bo‘ldi. Chunki mustamlakachi, missioner, plantatorlar uchun o‘z mustamlakalari - mahalliy xalqlar haqida hech bo‘lmasa ibtidoiy tasavvurga ega bo‘lish foydali edi. Qolaversa, bizning bu ishlarning g‘oyaviy jihatlari bu masala mustamlakachilikning kelajagi - mahalliy xalqlarni “madaniy-oqartuv” orqali inglizlashtirish, fransuzlashtirish, ruslashtirish, ya’ni madaniy-ma’naviy mustamlakalarga aylantirishning samaradorlagini oshirishlari uchun kerak edi.

O‘zga xalqlarning milliy xarakterini o‘rganish faqat mo‘may foyda orttirish maqsadi bilan cheklanib qolmadi. Chunki mustamlakachilar va mahalliy xalqlar milliy qadriyatlari orasidagi tafovutni yechish ilmiy muammoga ham aylanib ulgurgan edi. Zero, ovrupolikning boshqa millatlar haqidagi tasavvurida noovrupoliklar shaxs emas, balki qandaydir aqlga zid afsonalar, mistika ta’sirida yashovchi individlar, deb idrok qilinar edi (N.S.Trubeskoy, N.A.Berdyaev).

Chunki Osiyoliklar va Afrikaliklar o‘zlari uchun milliy, ovrupoliklar uchun g‘alati, axloq-odob, urf-odat, an’analarga rioya qilar edilar. Ikkinchi tomondan mahalliy xalqlar uchun ovrupoliklarning hatti-harakatlari, odob-axloqi, urf- odatlari g‘alati ko‘rinar edi.

Shu tariqa XIX asrda madaniy antropologiya asosida “noevrupa jamiyatida madaniyat va shaxs”, “etnopsixologiya” ilmiy yo‘nalishlarini yuqoridagi o‘zaro milliy-madaniy tushunmovchiliklar, ziddiyatlarni yechish, bir-birini tushunish ehtiyojlarini yuzaga keltirdi. Natijada “fe’l-atvorning milliyligi” ilk bor ijtimoiy-siyosiy, keyinchalak esa ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik ilmiy tushunchalarga aylana bordi.

O‘rganishlarimiz milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid bo‘ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip(odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig‘indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip(o‘z xalqi haqidagi bilimlar yig‘indisi)ning shakllanishiga ham turtki bo‘ldi. Zero M.Mid tomonidan 1927 yili nashr ettirilgan “Soming on’ age Samoa” (Samoada ulg‘ayish) kitobi tarbiyaning milliyligi isbotlangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasi edi. Biz

uchun ushbu tadqiqotning ijtimoiy-psixologik jihati muhimdir va biz buni dissertatsiyamizning tadqiqotlari davomida izohlantirib boramiz.

M.Mid har bir kishining ma’lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta’sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta’sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe’l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tib keluvchi an’analar, marosim, udum, ishlab-chiqarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari, bolalarga, o‘smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o‘ziga xosligi katta rol o‘ynashini M.Mid alohida qayd etadi.

Demak yuqoridagi nazariy tahlillarga asoslanib, milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omili – inson xarakterining milliyligidir deb ayta olamiz. Milliy xarakter konsepsiyasi amerika etnopsixologiya maktabida yaratilgan bo‘lib, turli etnoslarda ularning o‘zlarigagina xos milliy xarakter mavjud: shaxsning milliy xarakteri ustivor psixologik hodisa bo‘lib, bu uning milliy xulq-atvorida namoyon bo‘ladi; ana shu ko‘rsatkichlarga asoslanib. u yoki bu xalqqa, millatga mansub kishilar xarakterining modelini - o‘rtacha milliy xarakter namunasini yaratish mumkin, degan xulosalarni asoslaydi.

Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo‘lgan fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan namunaviy milliy shaxs siymosi mavjudligini birinchi bo‘lib A.Kardiner qayd qiladi. U "milliy shaxs"ning shakllanishida eng avvalo oilaning milliy tarbiyaviy ta’sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining yetakchi rolini alohida qayd qildi.

AQSH etnopsixologlari ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya va g‘arbiy Germaniya aholisining mentalitetini o‘rganib, millat uning qadriyatlar tizimi, muloqat shakllari va boshqa ko‘rsatkichlari milliy madaniyat ta’sirida shakllanishini asosladilar. Turli mintaqalarda o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarining umumlashtirilishi: muayyan xalqqa xos dunyoqarash, turmush tarzining mavjudligi–xalqlarning turli "namunalari"ni hosil qiladi: turli “namunalar”ning mavjudligi esa bolalarni tarbiyalashda o‘ziga xoslikning mavjudligiga, qadriyatlar

tizimining kattalar xulq-atvorida aks etishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Biroq, o‘tkazilgan etnografik va etnopsixologik tadqiqotlar bir xalqning milliy xarakterini o‘rganayotgan olimning boshqa madaniyatga mansubligi, o‘rganayotgan millat madaniyatidan yaxshi xabardor emasligi natijasida tadqiqot ma’lumotlarini talqin qilishda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishini ko‘rsatdi. 50-yillarda amerika etnopsixologiyasining milliy xarakter konsepsiyasiga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarining bosh sababi ham shunda edi. Bu tanqid milliy xarakter kotsepsiyasiga xos ob’ektiv mohiyatni o‘zgartirmadi, aksincha, tadqiqot uslubiyatini takomillashtirishga turtki bo‘ldi, xolos.

Bizningcha har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehtiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog‘i kerak. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqlarga bir xil qimmatlidir.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga rahna solib turgan mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, erta turmush, farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, yoshlar orasidagi jinoyatchilik va korrupsiya kabi ichki tahdidlar, terrorizm, ekstremizm, separatizm, radikalizm, kosmopoltizm, giyohvanlik, odam savdosi va “ommaviy madaniyat” [85] kabi tashqi tahdidlarni "milliy tarbiya fazilatlarini kuchaytirish orqali mustahkam mafkuraviy immunitet"ga erishmay turib bartaraf qilish qiyindir.

Etnopsixologlarning bergan xulosalariga ko‘ra, milliy psixologiyani aynan o‘sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqatlari jarayonlari orqali o‘rganish mumkin. Bizningcha, milliy tarbiya jarayoning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun ham aynan shu yo‘ldan bormoq samaralidir. Zero milliy tarbiya (ichki) milliy va millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Milliy tarbiya jarayonida makondagi muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta’minlovchi etnik, milliy ma’lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan avlodga uzatiladi.

Shunday qilib, faqat shu millatgagina xos bo‘lgan o‘ziga xos tarbiyaviy tizim ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazirligini ta’minlaydi. Shu o‘rinda bugungi ijtimoiy psixologiyada har bir millat yoki har bir avlodni milliy tarbiya fazilatlariga odatlantirishda psixodiagnostik metodlar orqali uni monitoring qilib borish, yangi avlod vakillarida milliy tarbiya fazilatlarini singdirish ishlarida qo‘l keladi degan umidamiz.

Agarda milliy tarbiya e’tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o‘zligini anglash darajasi, milliy g‘ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi.

Chunki har bir individ o‘ziga xos milliy-madaniy an’analar, me’yorlari bo‘lgan, ya’ni bugungi ijtimoiy psixologik tushunchalar bilan aytganda ijtimoiy norma, ijtimoiy qoida, ijtimoiy qonuniyat va ijtimoiy talablar asosida o‘zi yashab turgan jamiyatida shakllanadi. Ana shu urf-odat, me’yorlar, an’analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a’zosiga aylantiradi. Bu jarayonni boshqacha tarzda chaqaloqning yo fransuz, yo hind, yo o‘zbek bolasiga, o‘smirga aylanish jarayoni deb ham ifodalash mumkin. Chaqaloqning (milliy tarbiya ob’ekti sifatida) o‘zbek sifatida shakllanishi o‘zbeklar uchun an’anaviy bo‘lganligi tufayli ko‘zga tashlanmaydi, tadqiqotlar shuni qayd qilmoqdaki, shaxs madaniylasha (ukrainlasha, arablasha, o‘zbeklasha...) borar ekan, bu milliylashuv jarayoni milliy-ijtimoiy rollar talablaridan kelib chiqib, jamiyatning uzluksiz nazorati ostida amalga oshadi. “Milliy-ijtimoiy rol” tushunchasi, zamonaviy ijtimoiy rollar sotsiologik konsepsiyasi va I.S.Konning (132) ijtimoiy rolga bergan ta’rifidan foydalangan holda milliy rolni muayyan milliy birlik ichida an’anaviy ma’qullangan, shu millatga mansub a’zolaridan ularning yoshi, jinsi va muayyan vaziyatdan kelib chiqib kutiladigan xulq-atvor namunasi" deb ta’riflash mumkin.

Milliy tarbiyani tahlil qilish uchun “O‘quvchining milliy roli” tushunchasi sotsiologik kalit vazifasini o‘taydi. Chunki bu tushunchaning ko‘pqirraligi milliy-zamonaviy hayot jabhalarini, milliy tarbiya yo‘nalishlarini ilg‘ab olish imkonini beradi. Milliy tarbiya tizimini "milliy rol" tushunchasi orqali o‘rganish har bir o‘zbek o‘g‘il-qizining ilk yoshlaridan "yaxshi bola", "yaxshi aka, uka,

singil, opa" yaxshi jiyan, tog‘a, bo‘la..."; "yaxshi mehmon, mezbon"; "yaxshi do‘st", "odobli bola" kabi "unvonli" munosabatga tayyorlash mexanizmini ochib beradi. Keng ma’noda esa o‘quvchining milliy rolini o‘zlashtirishga o‘z ichiga milliy fazilatlarni, milliy axloq me’yorlarini singdirish, milliy-ijtimoiy hayotga tayyorgarlik jarayonlarini ham anglatadi [86].

Ijtimoiy rollarni miliy tarbiya omil asosida tasniflash, ularning kundalik hayotda, munosabatlarda bajarilishini ilmiy-pedagogik kuzatish - eng zamonaviy va istiqbolli usuldir. U bolaning "qarshisida" turib emas, balki milliy-ilmiy kuzatish imkonini beradi. Bu esa tadqiqotning ob’ektiv natijalariga ega bo‘lishining asosiy shartlaridan biridir.

Zamonaviy fanlar ijtimoiy rollarning quyidagi tasnifiga ega: tug‘ma, mavqeli ijtimioy rollar - sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fanlari odam tug‘ilgandanoq yoki hayotning u yoki bu bosqichida kirishadigan "meros qilib olinuvchi" rolli (jinsiy, diniy, milliy, davlat fuqarosi, go‘daklik, o‘smirlik, yigitlik, muysafidlik); o‘zgaruvchan, ijtimoiy rollar - doimiy bo‘lmagan, o‘zgarishi mumkin bo‘lgan rollardir. Masalan, u yoki bu kasbni egallash biror uyushmagan. jamiyatga a’zo bo‘lish va undan chiqish, o‘zgartirish, hatto fuqarolikni o‘zgartirish mumkin.

Biroq tug‘ma milliy rollar (o‘zbeklik, fransuzlik va h.k.)dan chiqib bo‘lmaydi. Muayyan vaziyatdagi ijtimoiy rollar-yo‘lovchilik, xaridorlik, mehmonlik, mezbonlik va h.k. Bu guruh rollari o‘zgaruvchan rollar bilan kamroq, tug‘ma rollar bilan ko‘proq aloqada bo‘ladi. Muayyan vaziyatdagi rollar maxsus va shaxsiy aђamiyatga egaligi tufayli kishini yo‘llovchi, xaridor, mehmon, mezbonga “aylantirsa”, shaxsiy fazilatlari mohiyatidan kelib chiqib shaxsni “do‘st”, “dushman”. "mehribon kishi", “taqvodor kishi”, “fidoyi odam” va boshqalarga aylantiradi. Demak shaxs tashqi muhit (tabiat, jamiyat, shaxslar) bilan munosabatga kirishganida milliy xususiyat (o‘ziga xos bo‘lgan "ukraincha", "xakascha", "gruzincha" yondashuv) kasb etadi. Bu fikr ilk bor nemis sotsiologi U.Gerxard tomonidan tug‘ma ijtimoiy rol sifatida taklif qilingan, keyinchalik Yu.A.Sorokin, Ye.A.Tarasov, N.V.Ufimsevalar tomonidan ijtimoiy fanlar istifodasiga kiritishga harakat qilingan edi. Lekin nazariy jihatdan

asoslanganligiga qaramasdan milliy rolning tug‘ma meros, vorislik xususiyatini o‘rganish, rivojlantirish sotsialistik internatsionalizm tamoyillariga mos kelmasligi tufayli rivojlantirilmadi.

Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir! Shunday ekan biz tadiqoqtimizda o‘quvchi uchun tadqiqotimiz bir butun yaxlit idrok etilish uchun bu so‘zlarning ham etimalogiyasiga to‘xtalishni maqsad qildi.

"Millat", "milliylik", "milliy g‘urur", "milliy odob", "millatlararo muloqat madaniyati" tushunchalarining o‘zagini arabcha "mil" so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada "o‘zak", "'tub mohiyat", "negiz" ma’nolarini anglatadi. "Millat" so‘zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi. "Millat", "milliylik" tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zbeklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovrupo xalqlari tillariga "millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib singdi.

"Tarbiya" so‘zi "milliy tarbiya" tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak. Arabcha "tarbiya", "tarbiyat" so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘pqirrali mazmunga ega. "Tarbiyachi" so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaga quyidagicha **mualliflik ta’rifini** berish mumkin **Milliy tarbiya - yosh avlodni xulq-atvorida o‘z xalqiga xos milliy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.**

Milliy tarbiyani milliy g‘oya, milliy o‘zlik, milliy qadriyat, milliy ma’naviyat, milliy xulq-atvor va ijtimoiylashuv jarayoni bilan aloqadorligini Begmatov A, Rustamov R [50], Begmurodov M [51], Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R [54], Jo‘raev N [88], Jakbarov M, Abbasova Sh, Jo‘raev T, Yaxshiev A [89], Zakrullaev A [203], Iminov B [70], Karimova V, Qur'onov M [94], Kenjaeva. D.T [97] kabilar o‘z tadqiqotlarida yoritganlar.

Yuqorida masalani o‘rgangan tadqiqotchilarni qarashlariga ko‘ra yoshlarni milliy tarbiya omillari asosida ijtimoiylashuv va milliy tarbiya ta’sirlari orasidagi uyg‘unlik yoki ziddiyat milliy-ma’naviy taraqqiyotga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tiborga bog‘liqdir. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosat o‘zbek davlatchiligi, an’analari va milliy, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilishga, inson qadrini eng oliy darajaga chiqarishga asoslanadi; iqtisodiyot milliy xususiyatga ega; O‘zbekiston xalqining umumiy davlat manfaatlarini ifodalovchi milliy bosh milliy g‘oyasi mavjud: xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar tili - Davlat tilidir va h.k.

“Milliy tarbiya, milliylashuv esa rivojlanayotgan bola shaxsiga ilk yoshlardanoq bevosita ta’sir qilish orqali samaradorlik, tabiiylik, ustuvorlik kasb etadi. Dastlab birinchi, keyinchalik ikkinchi signallar sistemasi mazmunini belgilovchi milliy muhit, milliy ruh, oila, mahalla, qishloq muhiti shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi nazariy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, milliy tarbiya-ijtimoiy psixologik jarayon bo‘lib, uni quyidagicha izohlashimiz mumkin, jumladan,

− milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig‘ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir: shaxsning milliyligi va zamonaviyligi - uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir;

− har bir milliy madaniyat - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko‘rinishidir. Chunki insoniyat - bu xalqlar, millatlardir. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya - har bir insonni o‘z milliy madaniyati manbaida, ya’ni muayyan umuminsoniy qadriyat asosida shakllantirishdir;

− har bir inson o‘z Hayoti davomida turli ijtimoiy rollarni o‘taydi. Bu rollar mazmuni, ko‘lami, namoyon bo‘lish jabhalari ilk yoshlardan boshlab ko‘payib, kengayib, murakkablashib, milliylashib boradi. Ana shunday tug‘ma va ilk o‘zlashtiriluvchi ijtimoiy rollardan biri – shaxsning milliy rolidir;

− xalqlar, millatlar mavjud ekan, milliy tarbiya jarayoni bizning xoxishimizdan tashqari ravishda, madaniy determinizm asosida

davom etaveradi. Shuning uchun bu jarayonni davlatning manfaatlariga mos ravishda maqsadga yo‘naltirilsa, milliy tarbiya ulkan yaratuvchan taraqqiyparvar ma’naviy kuchga aylanadi;

− har bir zamonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakillari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o‘zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog‘liqliklarni psxodiagnostik metodlar orqali doimiy ravishda tekshirib, ahamiyatga molik jihatlarini monitoringini olib borish maqsadga muvofiq;

− oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota–onaning sa’yi- harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi;

− farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo‘g‘rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilishimiz va qo‘lga kiritilgan tahliliy malumotlar asosida maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqib uni amaliyotga tabiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz mazkur paragrifda milliy tarbiyani ijtimoiy psixologik jarayon ekanligini ilmiy izohlantirdik, endi keying paragrifda milliy tarbiyani sharq mutafakkirlari tomonidan o‘rganilishini ko‘rib chiqamiz.

1.2.Muammoning Sharq mutafakkirlari tomonidan o‘rganilishi

Bizga ma’lumki millatimizda milliy tarbiya masalasi eng ulug‘ va eng ma’suliyatli ishlardan biri sifatida qaralib kelingan. Milliy tarbiyamiz ota-onalarning farzandlari bilan juda yumshoq munosabatda bo‘lish kerakligini taqozo qiladi. Onaxon va otaxonlar “Bolani uch yoshga qadar faqat erkalatish va yumshoq muomalada bo‘lish kerak, aksincha, qattiq gapirsa bola o‘jar va qaysar bo‘ladi”, deyishadi. Ko‘pchilik zamondosh ota-onalarning fikricha ham, uch yoshga qadar bolani o‘z erkiga qo‘yish, unga faqat yaxshi gapirish

kerak, agar go‘dak yoshida bola urib-so‘kilmasa, unga yaxshi muomala qilinsa, bola kattalarni gapini tinglaydigan, itoatli va yuvosh bo‘lib o‘sadi.

Umuman olganda bizning bobo-momolarimiz yosh bolaning o‘ta ta’sirchan, his-tuyg‘ularga beriluvchan bo‘lishini anglaganlar. Bu jarayon ularni bola psixologiyasi va milliy tarbiyada ijtimoiy-psixologik qonuniyatlardan xabardor ekanligini bildiradi. Shuning uchun ularga juda yumshoq muomalada bo‘lganlar, to esini tanimaguncha ko‘nglini cho‘ktirmaslikka, sindirmaslikka harakat qilganlar.

Demak, badjahllik, o‘ta qattiqqo‘llik va hamma narsaga qat’iy talab qo‘yib chegaralash, go‘daklarning ma’naviyatiga, axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini o‘z tajribalarida kuzatgandirlar. O‘zbeklarning yosh go‘daklarga e’zoz bilan munosabatda bo‘lganliklarini Markaziy Osiyo xalqlarini o‘rgangan ko‘p tadqiqotchilar yozib ketishgan [136]. Demak bugungi kunda ko‘plab ota-onalarni bolasi g‘azabnok, jahldor, agressiv bo‘lib qoldi kabi gap so‘zlaridan bilish mumkinki, bugungi yosh ota-oanalar ota-bobolari bola tarbiyasida qo‘llagan ijtimoiy-psixologik bilimlarni unutishgan va bilishga intilishmayapti.

Tarbiyaning mayin, mehrli usullari orqali inson ruhiyatida bag‘rikenglik, bosiqlik, his-tuyg‘ularini jilovlay olish kabi xislatlar shakllantirilgan. Yosh bolalarga “podsho” kabi e’zoz bilan munosabatda bo‘lish nafaqat o‘zbeklarga, balki butun sharq xalqlariga xos xususiyatdir. Masalan, yaponlar ham o‘zbeklar kabi go‘dakni iloji boricha yig‘latmaslikka harakat qilishadi. Ayniqsa, o‘g‘il bolalarni besh yoshga qadar sira ham tergashmaydi [105].

Psixologlar va pediatr-shifokorlarning tajribasiga ko‘ra, uch yoshgacha bo‘lgan bolalarning bir necha oy ota-ona mehri-muhabbatidan mahrum qilishning o‘zi unga katta ma’naviy zarba bo‘lib, uning aqliy, axloqiy va hissiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazar ekan. Aynan kattalar bilan muloqotda go‘dak nutq va fikrlash ko‘nikmalarini o‘rganadi. Go‘dak hayotining ikki yoshga qadar bo‘lgan davridagi ota-ona bilan muloqot jarayonida shaxsning muhim xususiyatlaridan biri – yaqinlik tuyg‘usi tarbiyalanadi [112].

Amerikalik mashhur vrach-pedagog Benjamin Spok ham go‘daklarga hamma narsadan ham ota-ona muhabbati kerak, deydi

[171]. Demak, yaqinlik, samimiy muhabbat, g‘amxo‘rlik go‘dak ruhiyatiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi va keyingi taraqqiyotida, go‘dakni jismonan va ruhan ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog‘lom shakllanishi, unga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog‘lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo‘lib, ezgu va sog‘lom g‘oya hamda mafkura asosida o‘z yo‘lidan adashmay o‘z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida hamda “Avesto” va “Qur’on” kabi muqaddas kitoblarimizda ham shaxs kamoloti, go‘zal xulqli insonning chiroyli fazilatlari, ezgulikka va bunyodkorlikka yo‘g‘rilgan g‘oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to‘g‘ri yo‘lga solish, sog‘lom bo‘lmagan xulq egalarini zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo‘llar, buzg‘unchi fikr va g‘oyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Kishilik jamiyatining ko‘p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qarashlar, g‘oya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo‘lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzg‘unchi va vayronkor qarashlar, g‘oya va mafkuralar ham mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Bugungi yangi davr ham mazkur tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo‘yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo‘lishligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta’lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslangan, qat’iy talablar bilan yondashish juda muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya hamda komil inson haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar islomiy ma’naviyat bilan hamo-hangdir. Sharq

mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e’tibor berganlar. Inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati rivojlana boradi. Bunda insonning aqliy rivojlanishi uchun sharoitlar bo‘lishi kerak.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Allomalarimiz inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Sharq allomalar fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Sharq mutafakkirlari Ahmad al Farg‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Iso at- Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz insonning ta’lim-tarbiyasi, odob-axloqi, muloqoti va boshqa ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni qoldirganlar.

Pedagogika tarixi qadimgi zamonlardan, hozirgi kungacha bo‘lgan turli xil davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyasining taraqqiyotini davrlar taraqqiyoti talabi asosida o‘rganib keladi. Har bir ijtimoiy tuzum uning kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning turmush darajasini fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.

Sharq mutafakkirlari inson kamolotida ilmlilik va axloqlilikni eng muhim mezoni deb hisoblaydi. Odobli, axloqli ilimli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Shunday ekan mutafakkirlarimiz ilm va odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi rolini ko‘rsatib berar ekan, yoshlarimizga buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosidan bahramand qilib borishimiz maqsadga muofiqdir.

Markaziy Osiyo xalqlarining shonli tarixidagi eng yorqin sahifalaridan biri bo‘lgan ilk o‘rta asrlar haqli ravishda uyg‘onish

davri deb ataladi. Chunki bu davrdagi ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot, falsafiy, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo‘shilgan katta hissa bo‘lib, asrlar mobaynida necha-necha avlodlarimizni o‘zining sermazmunligi, insonparvarligi bilan hayratga solib kelmoqda. Xususan, O‘zbekistonning bugungi mustaqillik sharoitida o‘tmish ajdodlarimizning g‘oyalari, namunali ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Musulmonlarning muqaddas kitobi «Qur’on”ning «Zumar” surasining 9- oyatida shunday deyiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmu?». Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat qila olurlar.

Sharq uyg‘onish davrida Markaziy Osiyo xalqlarining fan va madaniyati yangi sharoit va ehtiyojlar asosida rivojlantirildi. Masalan, savdo va tashqi aloqalarni mustahkamlash borasida karvonlarning kechalari cho‘llarda adashmay yurishlari uchun sharq, g‘arb, shimol, janub tomonlarni bilish, yulduzlardan, ya’ni qutb yulduzidan yo‘lni aniqlash kabi ehtiyojlar tug‘ildi. Davr va ijtimoiy muhit ehtiyojlari negizida falakiyot, matematika, tibbiyot hamda ijtimoiy fanlar va qadriyatlarimiz rivojlandi. Ijtimoiy muhitning shakllanishi va rivojida ajdodlarga xos oliy, o‘lmas qadriyatlarning ham ahamiyati kattadir.

Qadriyat bu jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an’ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Inson butun umri davomida, son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi. Ana shu milliy qadriyatlarimizdan biri O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy muhit va ta’lim- tarbiyaning aloqadorligi haqidagi qimmatli fikrlaridir.

Abu Nasr Forobiy (873 - 950) o‘rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim – tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy” - «Ikkinchi muallim” deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy (to‘liq nomi Abu Nasr Muxammad ibn Muxammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) xijriy 260 yil (milodiy

873 yil) da Shosh – Toshkentga yaqin Forob (O‘tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Forobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim – tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim – tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi.

«Fozil odamlar shaxri”, «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, «Ixso – al - ulum”, «Ilmlarning kelib chiqishi”, «Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonllik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish, adolatliylik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz.

Forobiy inson tarbiyada kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi. Bunga ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni aqliy va axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi.

Demak, Forobiy tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk barkamol insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy bobomiz milliy tarbiya shakllanishinig ijtimoiy-psixologik omili sifatida “Bizlik” masalasini o‘rtaga qo‘yganlar, ya’ni fozil odamlar shahrini ma’lum fazilatlarga ega bo‘lgan fuqarolargina tashkil etadi. Ya’ni mazkur mutafakkirimiz jamoatchilik nazorati, fuqarolarni daxldorlik fazilati, ma’suliyat, burch, jonkuyarlik, vatanparvarlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarni fuqarolar xulq-atvori va xarakterida shakllanishi juda muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida qayd etadi.

Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. “Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir” deydi olim. Allomaning ta’kidlashicha, «Ta’lim - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasida tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunar, o‘rganishidir”.

Forobiy tarbiya deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarinlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz.

Forobiyning tarbiya yo‘llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l - ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Forobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarlarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Forobiy bobomiz tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. «Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-

hunar) lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi - qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo‘l (yoki usul) - majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Demak Farobiy bobomizni tarbiya borasidagi izlanishlariga asoslanib shuni aytish muumkinki, Forobiy bobomiz milliy tarbiyani shakllanishi uchun juda muhim hisoblangan va ta’sirchan hisoblangan “rag‘batlantirish”, “odatlantirish”, “majbur etish” kabi metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Demak Forobiy bobomizning tarbiya haqidagi qarashlarining asosida komil insonni shakllantirish, insonning o‘z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan psixologik qarashi yotadi.

Ibn Sino bobomiz ham tarbiya, milliy tarbiya, odob-axloq, xulq-atvor masalasiga ko‘proq murojaat qilgan mutafakkirlardan hisoblanadilar. Jumladan, Ibn Sino: “Agar yomon xulq odatga kirib qolsa....” Buyuk alloma Ibn Sino ham ta’lim-tarbiya va axloqqa oid “Tadbir almanozil”, “Risola fi ilm al-axloq”, “Risola fi al-ahd”, “Risola fi tazkiyai an-nafs”, “Siyosat al-badan”, “Kitob al-ansof” kabi asarlar yaratgan. Ibn Sinoning fikricha, bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-ona shug‘ullanmog‘i lozim. “Bola axloqi shakllanishida, – deydi u, – er-xotinning bir-biriga bo‘lgan munosabati muhim o‘rin tutadi. Buning uchun oila a’zolarining har biriga ma’lum vazifalar yuklatilgan bo‘lishi kerak” [91].

Ibn Sino bobomiz bola xulqini mo‘tadillikda saqlashga katta e’tibor beradi. Uning fikricha, buning uchun hamma vaqt bolaning

istagan narsasini muhayyo qilishga va istamagan narsasidan uzoqlashtirishga tayyor turish lozim. Ana shundagina bola yoshlikdan yaxshi xulqli, es-hushi raso bo‘lib tarbiyalanadi. Bunday tarbiya usulini qo‘llamaydigan oilalarda bolalar qiziqqon, jahldor, qo‘rqoq va nozik bo‘lib o‘sadilar.

Ibn Sino “agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g‘azab kuchli qizdiradi, qayg‘u kuchli ozdiradi, hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo‘shashtirib, mijozni balg‘amlikka moyil qiladi. Xulqning mo‘tadilligi natijasida, ham nafas, ham badan sog‘lom bo‘ladi” [169]. Ibn Sino axloqqa oid ko‘plab muammolarni odamning ruhiy holati va ma’naviy xossalarining his-hayajonli paydo bo‘lishi asosida talqin etadi.

Shu kabi fikrlarni biz Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y.) asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Beruniyning ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bog‘liq ta’limotida mehnat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar, ilm-ma’rifat uzviy mushtaraklikda, bir butunlikda tahlil etilgan. Inson amaliy faoliyatining biron-bir sohasi ularning o‘zaro ta’sirisiz amalga oshmaydi, deb yozgani ham bejiz emas, albatta.

Abu Rayhon Beruniy bobomizning milliy tarbiyaga qaratilgan ishlarida ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, tuhmat, qo‘pollik, o‘g‘rilik, bir-birining payiga tushish, xudbinlik singari yomon xulqlar toifasiga kiritiladi. Rostlik, odillik, adolat, bular Beruniy fikricha, go‘zal odob-axloq belgisidir. O‘z zararing hisobiga bo‘lsa-da, rost gapir, haqiqatdan yuz o‘girma, har bir narsaga odilona va xolisona yondash, deb ta’lim beradi va o‘zi mazkur g‘oya va ta’limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylanadi.

Beruniyning fikricha, insonparvarlik - kishilarning tarbiyasining eng yuksak darajasi, u o‘zida ijobiy axloqiy xislatlarni tarbiyalay olishi bilan ham bog‘liq. Aqlli odam faqat o‘tkinchi bo‘lmagan aqliy ishlar, qadriyatidan lazzatlanadi. Insonning axloqiy qiyofasi va turmush tarzi esa uning o‘z his-tuyg‘ularini qanday boshqara olishi bilan bog‘liq.

Abu Rayhon Beruniy insonga tabiatning gultojisi deb qarar ekan, har bir inson aql-zakovatli, yuksak axloqli, bilim-ma’rifatli bo‘lishi lozim deydi. Uning hamma asarlarida inson kamoloti uning

tafakkurining rivojlanishi, sog‘lom va jismonan baquvvat bo‘lishiga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Beruniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari uning ilm olish, bilish jarayoni haqidagi fikrlarida o‘z ifodasini topadi.

Beruniy ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarni zeriktirmaslik, yangi mavzularni qiziqarli, asosli, ko‘rgazmali bayon etishni tavsiya etadi.

Beruniyning fikricha, aqliy tarbiyani amalga oshirishdan maqsad barkamol insonni tarbiyalashdir. U barcha salbiy illatlarning kelib chiqishidagi asosiy sabab ilmsizlik, deb tushuntiradi. Beruniy o‘z asarlarida jamiyat ravnaqi ma’rifatning rivojlanishiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari surgan. Abu Rayhon Beruniy tarbiya insonning go‘zalligini belgilab berishini odamzod tarbiyasi bilan boshqalarda yaxshi yoki salbiy tasurot qoldiradi deydi, tarbiyalanganlikni muloqot, muomila, izzat- ikrom, hurmat, e’zozlash umuman olganda insonparvarlik deya ta’kidlaydi.

“Saxix” yo‘nalishining asoschisi eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo‘minin”, “Imom al-muxaddisiyn” (“Barcha muxaddislarning peshvosi”) degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan. U 810 yilning 13 mayida (ba’zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida) (xijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug‘ilgan. Go‘dakligida otadan yetim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan, 10 yoshidayoq arab tilida yaratilgan kitoblar yordamida hamda ruboiylardan og‘zaki ravishda eshitish asosida hadislarni yodlay boshlagan.

Alloma hadis ilmini zo‘r ishtiyoq va katta qiziqish bilan o‘rgandi. Abdullox ibn al-Muborak, Vaqi’ ibn Jarrox kabi olimlar tomonidan to‘plagan hadislarni yod olgan, shuningdek, hadis rivoyatchilari xususida so‘z yuritilgan bahslarda ishtirok etgan.

Islom dini insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi ta’limotdir. Shu sababli Qur’oni Karimda ham, hadislarda xam yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat’iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ‘ib etilgan. Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-saxix” asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo‘lsa, “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) nomli asarda ham ijtimoiy turmushda

hamda insonlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tashkil etish chog‘ida amal qilinishi lozim bo‘lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batafsil ma’lumotlar berilgan.

Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 ta hadisni o‘z ichiga olgan. Yuqoridagi Ismoil al-Buxoriyning asaridan ko‘rinib turibdiki tarbiya insonning odob-axloqi ekanligini tushunishimiz qiyin emas. Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Muxammad ibn Iso at- Termiziy bo‘lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘i (xozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani) da tug‘ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi tadqiqotchilar uning otasi asli marvlik bo‘lgan deb qayd etadilar.

Alloma tomonidan o‘ndan ortiq asarlar yaratilganligi ma’lum. Bular qatoridan

“Al-jome’ as-saxix” (“Ishonchli to‘plam”), “Ash-shamoil an-nabaviya” (“Payg‘ambarning aloxida fazilatlari”), “Al-ilal fi-l-hadiys” (“Hadislardagi illatlar va og‘ishlar haqida”) kabi asarlari o‘rin olgan bo‘lib, ular juda mashhurdir.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan hadislar ham Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislari kabi insonni halollik, adolat, e’tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar, ota-ona va qarindoshlarga hurmat g‘oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko‘ra shaxs tarbiyasini tashkil etishini ta’kidlaydi.

Najmiddin Kubro (1145-1221) ning maqsadi odamlarni ham jismonan, ham aqlan, ham ruhiy-ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash bo‘lgan. Ta’lim-tarbiya axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g‘oyalarini targ‘ib etdi. Ilohni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaradi, nafsni qattiq nazorat etib, ya’ni qoralab, ulug‘ taqvo piri degan nom chiqardi. U insonni «kichik olam” deb. uning kamoloti cheksiz ekanini ta’kidlayli. Biz bu fikrlarni xulosalab tarbiya axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik kabi tushunchalarni olishimiz mumkin.

Xo‘ja Axmad Yassaviy (XI asrning o‘rtalari) insonni ta’lim-tarbiyasida uni asl komillikka eltadigan din, iymon, xudo yo‘lida

fidoiylik, e’tiqodda sobitlik, halollik, poklik g‘oyalari ekanini ta’kidlaydi.

Yassaviy insondagi yomon illatlarni nafs bilan bog‘laydi va unga qarshi kurash lozimligini uqtiradi. Nafsni tiyish, mol-dunyoga hirs qo‘yish, ta’magirlik, badnafslik nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi. Nafsni tarbiyalash nafaqat insonning shaxsiy xarakteri, balki ijtimoiy muhitga ham salmoqli ta’sir etishini ta’kidlaydi. Uning ta’rificha, nafs «yabon qushdek ko‘lga ko‘nmas” bir narsa.

Bu «qush” o‘z hohishicha «parvoz” etaversa odamni kundan-kunga odamiylikdan chiqaraveradi, azim gunohlarni qilishga sababchi bo‘lib, badnom etadi, chunki nafs domiga tushgandan keyin kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan hazar etmaydi, boshqalar hisobiga bo‘lsa ham yaxshi yashashni o‘ylaydi, oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo‘lib qoladi.

Faylasuf shoirni komil insonlikka yetishish bosqichlarida kishi intilishlariga xalaqit beradigan barcha to‘siqlar, ya’ni shayton vasvasasi tufayli yuzaga keladigan barcha illatlar g‘azablantiradi.

Ulardan biri adolatsizlikdir. Mutafakkir g‘oyalarining asosiy mazmuni, «bu dunyoning dog‘larini insonga yuqtirmaslik”, uning «Olloh yaratgan chog‘idagi musaffoligini saqlash”, bir so‘z bilan - komil, barkamol inson qiyofasiga erishish. Umuman, Yassaviyning barkamol inson haqidagi g‘oyalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim dastur sifatida xizmat qiladi. Mutafakkirning fikrlaridan shuni anglashimiz kerakki tarbiya iymon e’tiqodga sodiqliq va unga amal qilish ekanligi tushunishimiz kerak.

Bahouddin Naqshbandning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari g‘oyat qadrlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta’kidlab shunday degan edi: «Adab hulqni chiroyli qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir”. Odab saqlash - muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar odabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘yilsa nimaiki qilsang ham, beadablik ko‘rinadi. Zero, beadablar yashaydigan ijtimoiy-ruhiy muhit nosog‘lom bo‘lib, nafaqat insonlarga, balki boshqa jonzotlarga ham salbiy ta’sir etishi tabiiy. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘riiishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir kilish) ta’masi paydo bo‘lmasin.

Yana bir fikr: «Niyat - kasb qilib topadigan narsa emas, balki, u g‘ayb olamidandir. Niyatning haqiqati ixtiyor ostida emas. Agar niyat yo‘q bo‘lsa, umid natija bermaydi”. Sabr va chidamda nog‘ora kabi bo‘lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq o‘z adabiga xilof ovoz chiqarmaydi”. Bahovuddin Naqshband o‘z pedagogik faoliyati davrida mehnat va hunarga alohida e’tibor bergan. Madrasaga qabul qilinadigan bolalardan eng oldin: «Siz Madrasaga qabul qilingansiz, qaysi hunarni bilasiz”, -deb so‘ragan. Hunarsiz o‘quvchilarni biror-bir hunar o‘rganishga da’vat etgan, unga yetarli muhit yaratib bergan, so‘ngra islom ilmini o‘rganish lozimligini ta’kidlagan. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki bolaga ta’lim berish jarayonida uning qiziqishi va bolalarni to‘g‘ri faoliyat turini tanlashni nazardan qochirmaslik zarurligini va maqsadini bilish zarur ekan.

Nosir Xisrav (1044-1088) ta’limotida ta’lim-tarbiya jaryonida ijtimoiy muhitning o‘rni haqidagi g‘oyalari kattalarga izzat, kichiklarga shafqat, ota-onaga xizmat, do‘stlik, har bir ishni ilm va akl-zakovatga suyangan holda bajarishga da’vat, jaholat va razolatni la’natlash g‘oyalari kuchlidir.

Nosir Xisrav qarashlarining asosiy mohiyati shundan iboratki, ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining imkoniyatlari hisobga olinishi alohida ahamiyatga egadir. Chunki tarbiyalanuvchi ham tabiiy, ham ijtimoiy jihatdan ta’lim-tarbiyaga xohish bildirmas ekan, uni majburan biror-bir hunarga o‘rgatish mutlaqo mumkin emas. Nosir Xisravning fikricha tarbiyada avvalo muhitni yaxshi bo‘lishini zarurligini ta’kidlagan. Nosir Xisravning muhit haqidagi fikrlarini ko‘proq tadqiq qilishimiz maqsadga muvofiq.

Xo‘ja Abdulholiq G‘ijduvoniy (1103-1179) o‘z ta’limotida «Odam halol mehnat bilan yashashi lozim. Halol yegil va shubhadan parhez etgil, ya’ni halolligi shubhali ovqatdan qo‘l tortgil”, - deydi.

Tarbiyalanganlik darajasiga erishish shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlaridan iboratdir. Shariatsiz tariqatga kirib bo‘lmaydi va tariqatsiz haqiqatga erishilmaydi. Shariat-nazariya, tariqat-amaliyotdir. Haqiqat-maqsad, tariqat-uslub, faoliyat shaklidir. Ta’limotda «Shariat-yong‘oqning po‘chog‘i bo‘lsa, tariqat po‘choq ichidagi mag‘izdir”, «Shariat-yer, tariqat mazkur yerda ungan daraxt, haqiqat esa shu daraxtning mevasi”, «Tariqat-fano, ya’ni o‘zidan

kechish, haqiqat-baqo, ya’ni botil (buzilgan, behuda ishlardan kechib haq ishlarga bog‘lanmoq), «Shariat-qonun, tariqat-yo‘l”, «Qonun” vujud va qalbni tarbiyalaydi. «Yo‘l ko‘ngilni poklab, ruhni nurlantiradi”, kabi ta’riflar ham mavjud.

G‘ijduvoniy qarashlarining asl mohiyati inson ham zohiriy, ham botiniy axloq bilimlariga va milliy tarbiya fazilatlariga jumladan, faqat halollik, mehnasevarlik orqaligina erishadi. Zero insonni o‘rab turgan muhit uning qo‘li bilan bunyod etiladi.

Tarbiyasi yuksak, barkamol shaxs, komil inson tushunchalari o‘rta asrlarda ishlab chiqilgan bo‘lib, musulmon Sharqida asosan islomiy nuqtai nazardan ta’riflab kelingan.

G‘azzoliy (Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G‘azzoliy, 1059-1111) qarashlarida komil inson tarbiyasi faqatgina g‘oyalar orqali amalga oshishini ilgari suradi. G‘azzoliy inson yetukligini uning borliqni bilish insonning dilida yuzaga keladi va dilida mujassamlanadi, degan qarorga keladi.

Amir Temur ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri madaniyati va ma’naviyati, birinchi navbatda, Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Amir Temur islom dinini, shariat qonun-qoidalarini xurofot, bid’at, johillik, razolat, shakkoklik, diyonatsizlik kabi illatlardan astoydil turib himoya qilgan. Ilmiy, falsafiy, tarixiy manbalarda, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida Amir Temurning Movarounnahr, Xurosonning bir necha ming yillik ilm-fan, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari, milliy qadriyatlarini chuqur bilganligi va astoydil hurmat qilganligi haqida aniq ma’lumotlar mavjud.

Sohibqironning tarbiya, tartib-intizom, ma’rifat, din, odob-axloq haqidagi ta’limoti asoslari, murakkab va serqirra hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati uning «Tarjimai hol” va «Temur tuzuklari” da chuqur bayon etilgan. Amir Temuring adolat, qadr- qimmat, or-nomus, burch, mas’uliyat, vijdon, imon-ye’tiqod, halollik, fidoiylik singari ma’naviy-axloqiy qadriyatlar haqida necha-necha avlodu ajdodlarga dastur va yo‘l- yo‘riq bo‘lib xizmat qiladigan ta’limoti uning «Adovat emas, adolat yengadi”, «Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi”, «Yaxshilarga - yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z

yomonliklariga topshirdim”, «O‘z saltanimni shariat bilan bezadim” kabi o‘gitlarida o‘z ifodasini topgan.

Amir Temur nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrning qariyib qirq yillik hukmdori sifatida ilm-fan, madaniyat va ma’rifat rivojlanishiga alohida e’tibor bilan qaraydi, insoniyat ma’naviy-axloqiy, axloqiy qarashlari va ta’limotlari rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shadi.

Ulug‘bek ta’limotida ilm inson ma’naviyatining asosi ekanligi haqidagi g‘oya yetakchi o‘rin tutadi. Ilm insonni g‘aflat uyqusidan uyg‘otadi, fikrini teranlashtiradi, tafakkuripi o‘tkirlashtiradi. Inson ilm-ma’rifat yordamida ulug‘lar darajasiga yetadi.

Ulug‘bekning fikricha, odob va axloq inson ma’naviyati va ma’rifati kamolotida katta o‘rin egallaydi. Insonlar orasidagi tarbiya o‘zaro munosabat, odamgarchilik, mehr-muhabbat, do‘stlik, birdamlik, jasurlik, mardlik, chidamlilik, ahillik, vatanni sevish, xalqparvarlik asosida yashash tarbiyalanganlikga bog‘liqdir.

Alisher Navoiy (Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, 1441-1501 y.) ning ta’lim- tarbiya haqidagi qarashlari Sharqda keng tarqalgan “Vahdat ul-vujud” (borliq va xudoning birligi) ta’limotiga asoslangandir.

Bu ta’limotga ko‘ra, borliq, narsa va hodisalar, shu jumladan, inson ham, Olloh tomonidan, yaratilgan, Olloh tabiatda namoyon bo‘ladi, zuhur etiladi. Navoiy talqinida inson boshqa mavjudotlar ichida a’losi, ularning gultoji hisoblanadi. Zeroki u, sezgi va hissiyotlari orqali tabiat va uning sir-asrorini bilishga qodir, ya’ni inson uni o‘rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitga ta’sir etish imkoniyatiga ega. Bu esa faqatgina ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi deydi.

Navoiy o‘zining «Xamsa” dostonida inson ta’lim-tarbiyasida ijtimoiy muhitning o‘rni muhim ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa, mehnasevarlik, poklanish, halollik, iymon-e’tiqodli bo‘lish orqali amalga oshishi alloma tomonidan ilmiy asoslab beriladi. Uning «Mahbub ul-qulub” asarida, inson va uning eng yaxshi fazilatlarini tasvirlab, komil inson timsolini yaratdi. Asarda u insonni komillikka eltuvchi yagona vosita - bu sabr. «Sabr, - deydi u - achchiq, ammo foyda keltiruvchi, u qattiq, ammo ziyon-zahmatlarni daf etuvchi. Sabr

-nasihatgo‘y, achitib gapiradigan, kishi tabiati undan ozor chekadi, lekin amal qilgan oxirida murodiga yetadi. Sabr - tabib, badxo‘r dori, bemor undan ozor tortadi, ammo so‘ngida sog‘liqqa erishadi”.

Alisher Navoiyning bizgacha 30 dan ortiq badiiy va tarbiyaga oid boy adabiy va ilmiy merosi yetib kelgan. "Mezon ul- avzon" ("Vaznlar o‘lchovi") (1492). "Lisonut - tayr" (1498). "Muhokamat ul-lug‘atayn"(1499)."Mahbub ul- qulub"(1500). "Xazoyin ul-maoniy" (1491-1498). "Badoyi ul-bidoya (1500). "Xoloti Sayid Hasan Ardasher"(1490). "Majolis un-nafois" (1491). "Nasoyimul – muhabbat"(«Muhabbat shabadalari", 1496). "Vaqfiya"(1482). "Nazmul-javohir" (1485). "Tarixi anbiyo va hukamo" («Payg‘ambarlar va podsholar tarixi", 1488). "Siroj ul- muslimin" («Musul.monlik nuri", 1488) va boshqa asarlar muallifidir.

XV asrda yashab ijod etgan mutafakkir Alisher Navoiy ijodida komil inson g‘oyasi bosh mavzu bo‘lib, uni shakllantirishning ruhiy mazmuni, yo‘llari usullarini bayon qilinishi bilan boshqalardan farq qiladi.

U o‘z asarlarida komil inson obrazini yaratib, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etgan.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha faoliyat turlarini o‘rganish kerakligini aytib, bilim olish yo‘llari haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etadi. U bilimlarni tinmay, uzluksiz o‘rganishni, bunda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish o‘rganish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi.

Demak, buyuk alloma bilim olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini ham belgilab bergan: ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida maktab, madrasalarda o‘qish, olim hunarmandlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo‘lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, ishq va vafo va shu kabi fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asari ana shu mavzuga

qaratilgan. Asarning birinchi qismi har-xil toifali odamlar fe’l atvor va ahvoli; ikkinchi qismi yaxshi fe’llar va yomon fe’llar; uchinchi qismi esa xilma-xil foydalar va qissalar ko‘rinishi, ya’ni yaxshi fe’llar va xislatlarga oid tashbehlardan iborat. Mutaffakkir asar muqaddimasida avvalo kishilarni ikki guruhga - “Munosib kishilar” va “Nomunosib kishilar”ga bo‘ladi. Hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o‘zlarini tiyishi va yaxshi-yomonni ajrata olishda “Maxbub ul-qulub”dan foydalanishi zarurligini ta’kidlaydi.

Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo‘lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asaridan foydalanishi mumkin deydi.

Jumladan Navoiy ushbu asarning birinchi qismida turli tabaqa kishilari haqida fikr yuritib, “... Bu xildagi hamsuhbat va do‘stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rindiki, har toifaning xislatlaridan ma’lumotlari va tabaqaning ahvolidan bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. Shayton sifatlarning hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa bu kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”.

Navoiyning nazarida komil inson pok, mehnatsevar, sof vijdonli, insofli, to‘g‘ri, saxovatli, odobli, kamtar, hayoli, muruvvatli shaxs. Bunday hislatlarni odamlarda tarkib toptirish uchun ularda ana shu oliyjanob xislatlarni tarbiyalash kerak deydi va axloqiy fazilatlarga ta’rif beradi, ularning oqibatlarini tushuntiradi.

Alisher Navoiy “Olamdan g‘amsiz o‘tay desang, ilmu hunar o‘rgan. Dunyodan kamolotga yetmay o‘tish, hammomdan toza bo‘lmay chiqishning xuddi o‘zi” deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, yosh avlodni kamolotli bo‘lishi xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega qilib yetishtirishdir. Bunda tarbiya yetakchi rol o‘ynaydi. Tarbiya orqali qobiliyatli bolalar bilan birga, bolalarning yomon xulqini tuzatish mumkinligini uqtiradi. Navoiy bolalarga ilm-ma’rifat berish bilan birga ularni odobga o‘rgatishni ham vazifa qilib qo‘yadi. Bola shaxsining kamolotida tarbiyaning yuksakligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida insonning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishida kishilarning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga ham jiddiy e’tibor berilgan. Masalan, uning qahramonlari Farxod Qays, Iskandar obrazlarida jismoniy tarbiya va dilovorlik ta’limini ko‘ramiz. Zero. Bunday ta’lim-tarbiya qadim davrlardan boshlab an’anaviy tarzda davom etib, takomillashib borgan. “Nazmul Javohir” asaridagi bir ruboida esa taom yeyish qoidalariga rioya etish sihat-salomatlikni saqlashning eng muhim talabi sifatida talqin etilgan. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash uslub va usullari, vositalari ham ifodalangan. Navoiy asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug‘ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etiladi. A.Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo‘lishlikni lekin bunda ham me’yoridan oshmaslikni maslahat beradi. Bundan o‘qituvchining talabchan bo‘lishga undagani, ammo har ikkalasida ham ma’lum me’yorni bilish zarurligini uqtirgani ma’lum bo‘ladi. Tarbiya haqida gapirar ekan “ qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, shunga tarbiyatingni nobud qilma,” deydi.

XVI-XVIII asrlarda ham Turkistonda madaniy-ma’naviy yuksalish an’analari davom etdi. Boborahim Mashrab, Mujrim Obid, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Muhammad Rizo Ogahiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi fan arboblari va atoqli shoir, yozuvchilar asarlarida o‘sha davrning ma’naviyati va ma’rifati inson kamoloti haqidagi qimmatli fikrlari keltirilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ta’lim-tarbiya masalarida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, Tavallo singari xalqimizning faylasuflari, adiblari, davlat va siyosat arboblari ham katta ma’lumotlar qoldirgan.

Ma’rifatparvarlardan bizga ilmiy, madaniy meros bo‘lib kelayotgan «Nodir voqealar”, «Farzandlarga vasiyat”, «Kasb va hunarning foydalari haqida”, «Buxoro amirlarining tarixi”, «Turkiy guliston yohud axloq”, «O‘tgan kunlar”, «Mehrobdan chayon”, «Obid ketmon”, «Padarkush” kabi ko‘plab asarlarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi, axloq va odobni kuylovchi, ma’naviyat haqidagi fikr va

mulohazalar o‘z o‘rnini munosib topgan. Mazkur asarlar markazida inson hayoti asosiy o‘rin tutadi.

Ularda insonning insoniyligi, avvalo, uning ichki ruhiy olamiga bog‘liqligi, ana shu ruhiy olam unga kuch-quvvat, qaltis davrlarda ko‘mak, irodasini baquvvat qilishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi g‘oyasi asoslangan.

Yuqoridagi manbalarga asoslanib shuni aytishimiz kerakki bizning mutafakkirlarimiz ya’ni buyuk bobokalonlarimiz ta’lim-tarbiyada biz uchun juda katta boylik qoldirganlar. Mutafakkirlarimiz tamonidan aytilgan barkamol shaxsni tarbiyalashda avvalo tarbiya shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, ta’lim, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati va eng muhimi bizningcha uni ijtimoiy-psixologk omillarini o‘rganish ahamiyatga egadir.

Fikrimizcha barkamol shaxsni tarbiyashda ta’lim-tarbiya jarayonida buyuk allomalarimizning o‘gitlaridan foydalanishi zarur, zero har birining ta’limiy-tarbiyaviy usullari, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ta’lim nazariyasi va amaliyoti, ta’lim tizimini boshqarishda, farzand tarbiyasida mutafakkirlarimizning har-bir asarlari va fikrlari barkamol insonni tarbiyalashda millliylik va o‘ziga xos tarzda ajralib turadi. Shunday ekan sharq allomalari me’rosidan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha tarbiyaning makoni va zamoni bo‘ladi va biz sharq mutafakkirlarini tarbiya bo‘yicha oltinga teng qarashlarini bugungi zamon va makonga moslashtirib amaliyotga tatbiq etishimiz maqsadga muvofiq.

Hamma zamonlarda ham tarbiya masalasida ikki avlod orasida (ota-ona - farzand), uch avlod orasida (ota-ona-farzand, bobo-buvi) tortishuvlar bo‘lgan bunga sabab bizningcha tarbiyaning zamoni va makoni talablarini inobatga olmaslikdir. Mazkur fikrimizni tarbiyashunos olim M.Quronovning quyidagi fikrlari bilan izohlantiramiz “Tarbiyaning makoni? Ha. Tarbiyaning makoni bo‘ladi. Allomalarimiz yozgan pedagogik asarlar - al-adaba kitoblarida ham ular yozilgan makon «ko‘rinib» turadi”. Bu tabiiy, chunki qo‘lingizdagi kitobni o‘qigan, ushbu kitob asosida o‘tkaziladigan treninglarda ishtirok etgan ota-onalar real makon - tuman, shahar yoki

viloyatda yashaydilar. Ana shu mahalliy xususiyat aks etmasa, berilayotgan tavsiyalarni qo‘llash qiyinlashadi. Shunday bo‘lmasligi uchun mazkur tadqiqotni XXI asrdagi, Yangi O‘zbekiston talablaridan kelib chiqib yozishga harakat qildik. Hozirgi zamon - sokin yillar emas. Globallashuv, hayot o‘ta tezlashgan, taxlikali, turli oqu-qora axborotlarga to‘la murakkab zamon.

Tarbiyaning zamoni. XXI asr ilgari bobo-momolarimiz duch kelmagan tarbiyaviy vazifalarni, talablarni oldimizga qo‘ymoqda. Zamon talablarini sezmasdan, nuqul bobo-momolarimiz bilgan narsalarni takrorlab yashayversak, tarbiyamiz zamondan orqada qoladi. Masalan, bolamizga Internetdan foydalanishni o‘rgatish uchun uni avval o‘zimiz bilishimiz kerak. O‘zimiz bilmasak, Poliglot, Skype dasturlaridan foydalanishga bolamizni qanday qiziqtiramiz? Yangi zamon, globallashuv bobo - momolarimiz bilgan udumlarni ham, ular bilmagan yangi, zamonaviy tarbiyaviy bilim va texnologiyalarni ham qo‘llashimizni talab qilmoqda. Buning uchun zamonaviy ota, zamonaviy ona bo‘lishimiz talab etilmoqda. Demak, modernizatsiya har birimizga, har kuni kerak.

Ba’zi ota-onalarning e’tiborsizligi tufayli farzandlari ulardan olgan pullarini internet klublarda befoyda o‘yinlarga to‘lab, o‘zlariga zarar sotib olmoqda. E’tiborli va pedagogik bilimga ega bo‘lgan ota-onalarning farzandlari esa shu vaqtini foydali ishga sarflab, o‘zbek tilini tushunadigan robotlar yaratdi; jahonning manaman degan kompyuter texnologiyalari korporatsiyalarining (masalan, Apple) iltimoslariga ko‘ra, ulardan buyurtma olib, kompyuter dasturlarini ishlab chiqmoqda.

Demak yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishda sharq mutafakkirlari va ma’rifatparvar olimlarimizni ta’limotlari va qarashlaridagi ilmiy asoslangan va hayot davomida kuzatilib, ijtimoiy hayotga tatbiq qilingan tajriba asosiga qurshimiz kafolatlangan tarbiya ishi hisoblanadi.

Biz mazkur paragrifda milliy tarabiyaning ijtimoiy psixologik omillarini sharq mutafakkirlari asarlari va qarashlarida keltirilgan misollar bilan izohlantirdik, endi navbatdagi paragrifda masala bo‘yicha jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarini ijtimoiy-psixologik tahlil qilishni maqsad qildik.

1.3. Tarbiya konsepsiyasi bo‘yicha xorij tajribasi

Masalani o‘rganishimiz va kuzatishlarimiz eng rivojlangan davlatlar yuksalish arafasida tarbiya masalasini birinchi o‘ringa qo‘yishganligi ko‘rsatdi. Ular o‘z yoshlarini ertangi kunning yuksak talablariga puxta tayyorlab kirib borishgan. Chunki, bu raqobatli dunyoda ertaning talablari yangicha, murakkabroq, qiyinroq bo‘lgan.

Biz jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining ijtimoiy-psixologik tahlili paragrifida tarbiya masalasi bo‘yicha ko‘plab konsepsiyalar ishlab chiqqan davlatlar Amerika, Germaniya, Fransiya, Angliya, Italiya, Golandiya, Finlandiya, Shvetsiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon kabilarni yoshlar tarbiyasiga qaratilgan konsepsiyalari, yondashuvlari bo‘yicha tajribalarini o‘rgandik va ularni o‘zimizning mavzuimiz doirasida izohlantirib bordik.

Yuqoridagi biz tomonimizdan tahlil qilingan davlatlarni milliy tarbiya masalasiga ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik jarayon deb qaragan va bola tarbiyasida ijtimoiy psixologik omillar, jumladan oila, multfilm, xalq og‘zaki ijodi namunalari hikoya, ertaklar, kino-filmlar, jamiyat (atrofidagi odamlar, millatidagi ijtimoiy norma va odatlar), OAV kabilar o‘rganilgan.

Yevropa Ittifoqining ta’lim tizimini yangilash, ijtimoiy buyurtmaga yaqinlashtirishga qaratilgan tavsiyalarida ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mustaqil hayotga, konstruktiv amaliy faoliyatga tayyorlik sifatini baholashga kompetentli yondashuvni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi. Rossiya Federatsiyasida kompetentlilikka yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish 2001 yildan amalga oshirildi.

Ijtimoiy kompetensiyalar – har bir insonning kundalik hayotda duch keladigan yoshiga mos vazifalar hamda shu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalar tengligidir (V.Slot, X.Spaniyard).

Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni etib yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlar belgilab olinadi va amal qilinadi. Yoshlar tarbiyasi “Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish” g‘oyasi asosida tashkil etiladi. Yoshlar shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg‘un tutishga o‘rgatib boriladi.

AQShda fuqaro tarbiyasida shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o‘z aqli va iste’dodi bilangina yetishadi, kimgadir va nimagadir orqa qilish emas, balki o‘z kuchiga tayanish, milliy g‘oya vazifasini bajaruvchi “amerika orzusi”ga ishonch kabi fazilatlar yetakchilik qiladi. “Amerika orzusi”ning asosiy tushunchalarini shaxs erkinligi, erkin tadbirkorlik, demokratiya, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan mehnat tashkil qiladi.

«Amerika — 2000: ta’limni rivojlantirish strategiyasi(1991)» dasturida yetuk shaxsga xos fazilatlar sifatida rostgo‘ylik, maqsadda sobitqadamlik, to‘g‘ri- lik(ro‘y-rostlik), puxtalik va shaxsiy mas’uliyatga ustuvorlik berildi. Shuningdek, yosh amerikaliklarda jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat’iylik, tirishqoqlik, hamdardlik, bag‘rikenglik singari asosiy fazilatlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi erkinlik bola tarbiyasida ham o‘z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 yoshlarida o‘yinchoqlarning barxa turi bilan tanishishadi, ko‘pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalari bir marotaba o‘ynalgan o‘yinchoqlar bilan to‘lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go‘dakligidanoq amerikalik bolakaylar «Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisan”, degan so‘zlarni har kuni eshitgan holda o‘sishadi.

Maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: «Yana bir marotaba harakat qilib ko‘r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo‘rsan!» deya qo‘llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o‘zining mevasini beradi.

Amerika tarbiyasi: Bolakay, sen zo‘rsan! Oiladagi ta’lim amerikaliklar uchun hali ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar, hatto ish bilan band bo‘lsalar ham, farzandlariga iloji boricha ko‘p vaqt sarflash, ularning muvaffaqiyat va rivojlanishlari bilan qiziqish, o‘zlarining sevimli mashg‘ulotlariga va muammolariga e’tibor berishga burchli hisoblaydilar. Tabiatga tashrif buyuradigan oilaviy sayohatlar, ekskursiyalar, pikniklar, kamida muntazam ovqatlanish - ko‘plab Amerika oilalarining hayotining ajralmas qismi.

Bolaning ilmiy yutuqlari (masalan, o‘qish yoki yozishni erta boshlash) Amerikalik ota-onalarga juda ozdir. Vaqti kelganda, bola bu bilimlarning barchasini albatta bilib olishi mumkin.

Qiziqish uyg‘otadigan va o‘yin-kulgilarni, shu jumladan ko‘chirish, chizish va tayyorlash, qo‘shiqlarni, she’rlarni, taymerlarni o‘rganish usullarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bola tasavvurlarini va xayollarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun chaqaloqlar rasmdagi kitobni "tuzish" va keyin hikoyani o‘rtoqlari va o‘qituvchilarga aytib berishlari mumkin

Amerika qonunchiligi bolalarning jismoniy jazolanishini ochiqchasiga ta’qiqlamaydi, ammo jamiyatda bunday qarashlar ta’lim sohasidagi tadbirlar o‘tmishning ajralmas qismidir va ularni qo‘llayotgan ota-onalarning aqliy va axloqiy darajasi pastligidan dalolat beradi.

Itoatsiz go‘daklar uchun jazo sifatida o‘yin-kulgilardan, shirinliklar, o‘yinchoqlar va boshqa lazzatlar jazolanadi, lekin agar bola bu haqda boshqalarga shikoyat qilsa, ota-onaning bunday xatti-harakati (jismoniy yoki ma’naviy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan noqonuniy harakatlar) deb hisoblanishi mumkin. Oxir-oqibat, bolani noto‘g‘ri tutganligiga ishonch hosil qilishning eng yaxshi usuli - bu gapirish.

Har qanday jazo uning sabablarini batafsil tushuntirish bilan birga bo‘lishi kerak, deb hisoblanmoqda. Bir qarashda bu yondashuv juda murakkab va samarasiz bo‘lib tuyulishi mumkin, bu bolalarning ruxsatisiz kechishiga olib keladi, ammo amalda bu usul bolalar va ota-onalarni tarbiyalaydi.

Amerikalik ota-onalar bolaligidanoq o‘z farzandlarini rag‘batlantiradilar - sen, buni qila olasan. Taslim bo‘lma! Ushbu tarbiya usuli tufayli bola o‘z-o‘zini hurmat qiladi, boshqalarning mehr va madadini sezib o‘sadi.

Hech kim amerika onalaridan “O‘chir ovozingni!”, "Tegma", "Ahmoq!", "Eshak", “Mol”, “O‘l” degan atama va qarg‘ishlarni eshitmaydi.

AQShda yashovchi bolalar harakat erkinligiga ega. Ota-onalar ularning har bir qadamini nazorat qilmaydi.

Bu - jasur, erkin, yangi ishlarni boshlashdan qo‘rqmaydigan yangi odamlarni o‘stiruvchi tarbiya modeli hisoblanadi.

Oiladagi tarbiya amerikaliklar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ota onalar, hatto band bo‘lganlar va ish bilan band bo‘lsalar ham,

farzandlariga iloji boricha ko‘p vaqt sarflash, ularning muvaffaqiyat va rivojlanishlari bilan qiziqish, o‘zlarining sevimli mashg‘ulotlariga va muammolariga e’tibor berishga burchli hisoblaydilar. Tabiatga tashrif buyuradigan oilaviy sayohatlar, ekskursiyalar, pikniklar, kamida muntazam ovqatlanish - ko‘plab Amerika oilalarining hayotining ajralmas qismi.

Bolaning ilmiy yutuqlari (masalan, o‘qish yoki yozishni erta boshlash) Amerikalik ota-onalar uchun muhim emas. Vaqti kelganda, bola bu bilimlarning barchasini albatta bilib oladi, deb hisoblashadi.

Hatto juda boy amerikaliklar ham o‘z farzandlarini “paxtaga o‘rab” o‘stirishga moyil emaslar. Axir, bolalar bunday "kuch tejash rejimiga" hayot yashash uchun olmaysiz, ular o‘g‘illari va qizlari kundalik hayot tarziga ko‘nikib Mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan, shuning uchun, bozor sharoitlari va raqobat moslashish kerak

O‘quv jarayonida ayniqsa qiziqish uyg‘otadigan va ishtirok etishga undaydigan o‘yin-kulgilarni, shu jumladan ko‘chirish, chizish va tayyorlash, qo‘shiqlarni, she’rlarni, taymerlarni o‘rganish usullarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bola tasavvurlarini va xayollarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bolalar rasm asosida kitob "tuzish" va keyin hikoyani o‘rtoqlari va o‘qituvchilarga aytib beradilar.

Amerika qonunchiligi bolalarning jismoniy jazolanishini ochiqchasiga ta’qiqlamaydi, ammo jamiyatda bunday qarash qoralanadi. Ularni qo‘llayotgan ota-onalarning aqliy va axloqiy darajasi pastligidan dalolat beradi.

Itoatsiz bolalar uchun jazo sifatida o‘yin-kulgilardan, shirinliklar, o‘yinchoqlar va boshqa lazzatlar chetlab o‘tiladi. Lekin agar bola bu haqda boshqalarga shikoyat qilsa, ota-onaning bunday xatti-harakati (jismoniy yoki ma’naviy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan noqonuniy harakatlar) deb hisoblanishi mumkin. Oxir-oqibat, bolani noto‘g‘ri tutganligiga uni ishontirishning eng yaxshi usuli – bu u bilan suhbatlashish, tushuntirishdir.

Har qanday jazo uning sabablarini batafsil tushuntirish bilan birga qo‘llanishi kerak, deb hisoblanadi. Bir qarashda bu yondashuv juda murakkab va samarasiz bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo amalda bu usul bolalarni ham, onalarni ham va tarbiyalaydi.

Amerikaning ta’lim tizimi Yevropaning ta’siri ostida shakllandi. Axir, Amerika - qadimgi dunyo davlatlaridan kelgan odamlar to‘plangan muhojirlar mamlakati. Yevropada bo‘lgani kabi, bolaning individualligi va amaldagi erkinlik Amerika tizimida birinchi o‘rinda turadi. Amerikalik onalar bolalarni o‘zlari tarbiyalashni afzal ko‘rgan holda, maktabgacha tarbiya muassasalariga bolalarini berishga shoshilmaydilar. Amerikada bolani bolalar bog‘chasi yoki bog‘chasiga berish orqali ota-onalar uni bolaligidan mahrum qiladi, deb hisoblaydi.

Amerikada oila qadriyatining ajralmas qismi bolalardir. Biroq, bunga qaramay, ota-onalar bolalarga sig‘inishmaydi. Amerikalik oilaning asosiy farqlaridan biri e’tibor markazida bola turmaydi. Hamma narsa, bolaga bo‘ysundirilgan emas. Amerika oilasida «bosh» er-xotin hisoblanadi.

Amerikalik turmush tarzi xususiyatlaridan biri, ular o‘zlari bilan hamma joyga bolalarini olib borish odatga aylangan. Agar yosh ota-onalar dam olishni xohlashsa, do‘stlar bilan oqshomda dam olishlari kerak bo‘lsa ham bolalarini olib borishadi. Bolalar tabiiy ravishda harakat qilishadi: uxlashadi, qo‘llarida o‘tirishadi, ba’zan yig‘laydilar. Ammo atrofida hech kim hayratlantirmaydi va bundan aslo asabiylashmaydi. Barcha jamoat tashkilotlarida siz chaqaloqni emizish, kiyimini almashtirish uchun qulayliklar bor.

Amerikadagi bolalarning itoatkorligiga ishontirish orqali erishiladi.

Amerika maktabgacha ta’lim tizimining muammolaridan biri ota-onalarning bolaning maktabgacha ta’limiga nisbatan befarq munosabatidir. Shuning uchun Amerikalik ba’zi bolalar birinchi sinfga o‘qishni, yozishni bilmaydilar. Va jamiyat bunga odatiy munosabatda. Vaqt keladi, o‘zi o‘rganadi - hatto eng taniqli va mashhur amerikalik onalarning asosiy qoida.

Amerikalik ota-onalar mustaqillikni qadrlashadi va o‘z farzandlarini o‘ziga ishonish hissi bilan o‘sishni va hayotda mustaqil yashab, muvaffaqiyatga erishishlarini istashadi. Farzandlari hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishini, o‘rganishini istashadi.

Shu maqsadda bolalar omma oldida gapirishga o‘rgatiladi, ular omma oldida gapirishga va his-tuyg‘ularini, fikrlarini baland ovozda aytishga o‘rgatiladi. Qo‘shma Shtatlarda kattalar bolalarni o‘zlariga

teng deb bilishadi. Bolaning shaxsiyati, fikri, e’tiqodi, kattalar tomonidan hurmat qilinadi.

Amerika tizimi ijodiy shaxslarni tarbiyalash uchun yaxshi, biroq ayni paytda boshliqlarning buyrug‘larini shubhasiz bajaruvchi, intizomli ishchilarni tayyorlashga qodir emas, deb hisoblanadi.

Ulardan nima o‘rganish mumkin? Bolaning muvaffaqiyatlarida quvonish, qobiliyati, unda orzusiga albatta erishishiga ishonchni singdirishni, hatto erisha olmagan taqdirda ham sevimli va ajoyib farzand ekanlini singdirishni o‘rganish mumkin. Farzandlarga ko‘proq ishonish, ularga iloji boricha ko‘proq ma’lumot berish, ayni paytda tanlov erkinligini qoldirish odamga o‘z ishi va kelajagiga jiddiy munosabatni tarbiyalashda yordam beradi.

Amerikalik onalar bolalarini maktabgacha ta’lim olish uchun ularni maktablarga bermay, o‘zlari shug‘ullanishini afzal ko‘radilar. Qo‘shma Shtatlarda ko‘pgina oilalar bolalar bog‘chasiga yuborilgan bola bolaligidan mahrum bo‘lgan deb hisoblashadi, chunki u yerda pedagoglarning aniq talablarini bajarish kerak bo‘ladi. Shu sababli amerikaliklarning ko‘pchiligi maktabga o‘qish-yozishni bilmay maktabga borishadi. Jamiyatda bu odatiy hisoblanadi[3].

Buyuk Britaniyada ta’lim bo‘yicha Milliy komissiya (1993) maktabga: yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldida burchga sodiqlik, odamlarga g‘amxo‘rlik, madaniy merosga hurmatni shakllantirish, demokratik erkin jamiyat fuqarolari bo‘lish, bag‘rikenglik fazilatlarini singdirish, axloqan va ma’nan kuchli shaxslar qilib yetishtirish vazifalarini yukladi.

Fransiya ta’lim vazirligi ko‘rsatmalarida (1995) mas’uliyatli, g‘ururli, o‘zgalarni hurmat qiluvchi, boshqalar bilan hamkorlikka tayyor, irqchilikka murosasiz madaniy turfa xillikka moyil qiluvchi, Fransiyaga muhabbatini Ozodlik, Tenglik, Qardoshlik g‘oyalari bilan uyg‘un rivojlantirgan demokratik jamiyat kishisi fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash nazarda tutilgan.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda maktabga tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

---

[3] http://ped-kopilka.ru/pedagogika/vospitanie-detei-v-ssha.html https://m-mcfaul.livejournal.com/14939.html. http://nashiusa.com/interesno/amerikanskie-osobennosti-vospitaniya-detej/. http://www.kraskizhizni.com/edu/teach/1826-amerikanskaya-sistema-vospitaniya-detej

Ya’ni: shaxs sifatlarini to‘liq rivojlantirish; tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash, haqiqatparvarlik va adolatlilik; shaxsiy erkinlik; mehnatsevarlik; mas’uliyatlilik; mustaqil fikrlilik; o‘zgalar bilan hamkorlik; an’anaviylik bilan zamonaviylikni anglash; xalqaro hamkorlikka tayyorlik; kundalik turmush malakalariga egalik; ruhan va jismonan kuchlilik; o‘zini baxtli va boshqalar bilan uyg‘un qila olish fazilatlari shakllantirilmoqda.

Rim klubi. Klub a’zolari bugungi avlodlar tarbiyasida insoniyatni tashvishga solayotgan muammolar: ekologik inqiroz, bedavo kasalliklar, diniy-etnik nizolar, urushlar, favqulodda vaziyatlarning oldini olishni tavsiya etmoqda. Yuksak texnologiyalar global rivojlanayotgan XXI asrda intellektual boylik yetakchilik qiladi. Shuning uchun bugunning komil insonlariga O‘zbekiston qo‘yayotgan talablar bir tomondan yuksak rivojlangan davlatlar bilan hamohang ekani, ikkinchi tomondan, ma’naviyat, intellekt ustuvorligi bilan ajralib turadi.

Bular: intellektual rivojlanganlik, yuksak ma’naviyat, axloqiy sog‘lomlik, jismoniy chiniqqanlik, mustaqillik ideallariga cheksiz sadoqat, Vatani va xalqiga sodiq, milliy o‘zligimizga yot g‘oya, qarashlarga murosasizlikni mujassam etish taqozo etilmoqda.

Shaxs taraqqiyotining har bir davri psixik rivojlanishning o‘ziga xos sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi. Ko‘pchilik psixik xususiyatlar birgalikda shaxsning rivojlanishidagi vaziyatlar majmuasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular jumlasiga shaxsning turmush tarzi, ijtimoiy shart-sharoitlari, tarbiyasi va faoliyati xususiyatlari, jinsiy, tipologik va individual xususiyatlarni kiritish mumkin.

Insonning, jumladan yoshlarning ijtimoiy mavqei (uning o‘quv-tarbiya muassasadagi, oiladagi o‘rni) muloqot shakllari va faoliyat turlari bilan belgilanadi.

Shvetsiyada bolalarga shakllangan shaxs sifatida qarashadi. Ularning ham o‘z huquqlari va majburiyatlari bor. Shuningdek, shvedlardagi bag‘rikenglik, o‘zgaga, uning qarashlariga, madaniyati, dini, irqiga nisbatan hurmatda va sabrli bo‘lish, agarda insonning biror-bir jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo‘lsa, unga tengqur sifatida qarash bolalikdanoq yosh avlod ongiga singdiriladi. 8-sinfdan boshlab o‘quvchilarga «Bolalar haqida” degan fan o‘tiladi. Ular oila qurish,

homiladorlik, undan saqlanish yo‘llari, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, bola tarbiyasi va balog‘at yoshida o‘smirlar bilishi zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

«Save the children» deb ataluvchi Amerikadagi tashkilot har yili dunyo mamlakatlarining qaysi birida onalar va bolalar yaxshi yashashlarining ro‘yxatidan iborat Mothers Index (Onalar indeksi)ni tuzib chiqadi. Unda Shvetsiya deyarli har yili birinchi o‘rinni egallaydi. Chaqaloq dunyoga kelgach, yosh shved onalar davlat tomonidan har tomonlama qo‘llabquvvatlanadi. Finlyandiya dunyodagi eng bolajon mamlakat, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Unda jismoniy imkoniyati chegaralangan bolalar oddiy bog‘cha va maktablarga borishadi. Bu yerda nogiron va sog‘lom bolaga ajratish qabul qilinmagan.

O‘yin bolani rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Ota-onalar ham bunga katta e’tibor berishadi. Fransiyada bolalarni chaqaloqlik davridanoq bolalar bog‘chasiga berish odatiy holdir. Birinchidan, bu frantsuz ayollariga ishlash imkoniyatini bersa ikkinchidan, ular go‘dakligidanoq jamoaga moslashadi va mustaqil bo‘lib o‘sadilar. 6 yoshidanoq fransuz bolakay o‘zi mustaqil maktabga boradi, do‘kondan narsa xarid qiladi, uyda yolg‘iz qoladi. Shunga qaramay, fransuzlar 30-35 yoshgacha ota-ona uyida yashashlari va o‘z oilasiga ega bo‘lishga shoshilmasliklari mumkin.Onalar o‘z farzandlariga ovozlarini ko‘tarib urishishsada, hech qachon urmaydilar. Jamiyat qator qonunlar orqali bola huquqlarini himoya qiladi. Ota-onalar va vasiy shaxslar birinchi galda bolalarning rivoji hamda sog‘ligi uchun mas’uldirlar.

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e’tibor beriladi. Onalar o‘z farzandlarini boshlang‘ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo‘lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo‘lib o‘ynash, o‘zaro muloqotga o‘rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlarga bola borganidan so‘nggina uni bolalar bog‘chasiga berishadi. Chunki farzandning bog‘chaga ko‘nikishi oson kechadi va bolalar bu erda o‘zlarini erkin his qiladilar. Bog‘chada bolaga o‘z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o‘rgatishadi. Angliyada bolalar bosqichma-bosqich tarbiyalanishadi. Chunki bu yerda kech

turmushga chiqish yoki uylanish odatiy hol. Koʻpincha inglizlar 35-40 yoshlarida ota-onalik baxtiga erishishadi. Shuning uchun ham farzand tarbiyasiga juda katta va jiddiy e'tibor berishadi. 2-3 yoshidan boshlab unga dasturxon atrofida oʻzini tutishni, tevarakdagi odamlar bilan muomalada boʻlishni, oʻz hissiyotlarini yashirishni oʻrgatishadi. Angliya shaharlarining koʻchalarida bolasini erkalayotgan ota-onani kamdan-kam uchratish mumkin.

Tarbiya rivojlanishi shaxs rivojining senzitiv davrlarida, ayniqsa, faol yuz beradi. Bunday hol shaxsning oʻz hayotidagi muayyan davrda yuksak darajadagi ma'naviy, ahloqiy, estetik va bilish ehtiyojlari bilan bogʻlangan boʻladi.

Oʻsmirlik davrida shaxs oʻzining axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarni qoʻyadi. Bunga mazkur jarayonning rivojlanishi uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlarning muvofiqligi katta ta'sir oʻtkazadi.

Shaxs taraqqiyotining har bir davri psixik rivojlanishning oʻziga xos sifat koʻrsatkichlariga ega boʻladi. Koʻpchilik psixik xususiyatlar birgalikda shaxsning rivojlanishidagi vaziyatlar majmuasi bilan bogʻliq boʻlib, ular jumlasiga shaxsning turmush tarzi, ijtimoiy shart-sharoitlari, tarbiyasi va faoliyati xususiyatlari, jinsiy, tipologik va individual xususiyatlarni kiritish mumkin. Insonning, jumladan oʻsmirning ijtimoiy mavqei (uning oʻquv-tarbiya muassasadagi, oiladagi oʻrni) muloqot shakllari va faoliyat turlari bilan belgilanadi.

Oʻsmirlik davrida bola hayotiy makonining kengayishi faqat geografik ma'noda emas (sayohat, turizm va h.k.larga intilish), shuningdek, ijtimoiy muhitning (oʻsmir kirayotgan guruhning soni koʻpligi, unda adabiyot, sa'nat, siyosat, iqtisod va h.k.ga qiziqish kuchayishi) ham yuz beradi. Lekin hayotiy makonning jiddiy oʻzgarishi zamon oʻlchovida yuz beradi. Endi bola kelajakni tasvirlashga intila boshlaydi.

Tadqiqlotlarimiz davomida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omili sifatida davlatlarni milliy gʻoyasi va mazkur milliy gʻoya asosida milliy oʻzligi, milliy qadrityalari, milliy xarakteri, milliy oldatlari, milliy mafkurasi va milliy tarbiyasini yoshlari ongiga singdirish yoʻllarini ham oʻrgandik (1-jadval).

1-jadval

Milliy xarakter tarbiyasida milliy g‘oyanning o‘rni bo‘yicha tajribalar[4]

№	Rossiya davlati	Qozog‘iston davlati	Ozarbayjon davlati
Milliy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan g‘oyalar			
1	Oliy qadriyat	“Mangulik el” “Abadiy mamlakat”	Ozarbayjonliklar
2	E’tiqod va din	Qozog‘iston mustaqilligi	Milliy qadriyatlar va milliy davlat manfaatiga asoslanib dunyo tarixida millat tarixini tutgan o‘rni
3	Mehnatga bo‘lgan munosabat	Milliy birlik, jamiyatdagi tinchlik va hamjihatlik	Milliy tafakkur va milliy tarix yutuqlarini rivojlantirish
4	Davlat tuzilish	Dunyo jamiyat va yuksak ma’naviyat	Globallashuv sharoitida Ozarbayjonini siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiyasini kuchaytirish
5	Amaldorlar	Sanoatlashtirish va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy o‘sish	Jamiyat va davlat boshqaruvi
6	Barcha boylik va tabiiy boylik Rossiyaiga tegishli	Umumjahon jamiyati	Ijtimoiy kelajakni loyhalashning ijodiy tamoyili
7	Huquqlar	Tarix, madaniyat va tilning umumilliyligi	Ozarbayjon xalqining milliy, siyosiy identifikasiyasini saqlash
8	Oila	Milliy xavsizlik va global va mintaqaviy muammolarni hal	

[4] Rossiya davlatining milliy g‘oyasi: https://sirius-ru.net/books/rus-nazional-ideia/rus-nazional-ideia.htm Azarbayjon davlatining milliy g‘oyasi: ttps://azertag.az/ru/xeber/ Nacionalnaya_ideya_Azerbaidzhana_kredo_i_cennosti_dostoinogo_zhiznennogo_puti-1153948 Qozog‘iston davlatining milliy g‘oyasi: https://articlekz.com/article/21534

		qilishda mamlakatning ishtiroki	
9	Harbiy doktrina		
10	San’at		

Janubiy Koreyada milliy g‘oya yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib boriladi. Yoshlarni hayotga tayyorlashda oila, maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda o‘rtacha koreys oilasida umumiy byudjetning 56 foizi inson kapitali uchun sarflanmoqda.

Janubiy Koreyada yuksalish arafasida «tabiiy resurslar cheklangan, ijodga esa chegara yo‘q» degan shior ko‘tarilgan ekan. Bu yuksak aql-zakovatni komil inson fazilatlarining gultojiga aylantirishga da’vat edi. Shunga amal qilib, kam bo‘lishmadi. Tarbiyaga amaliy, pragmatik yondashgan davlatlar tezda nazariy qoidalardan bugungi va ertangi kun uchun «foyda» chiqarib oldi. Eng e’tiborlisi tarbiyaning ko‘zga ko‘rinmaydigan nazariy abstrakt tushunchalarini ko‘rinadigan narsalarga - obrazlarga, zamonaviy texnologiyalarga aylantirishdi. Biz ham milliy tarbiya shakllantirish ishlarida shu tajribani moifikauiyaladi va milliy qadriyatlarimizga aoslangan yo‘lni tutdik (O‘Zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkasining 2019 yil 31 dekabrlagi 1059-qarori). Hal qiluvchi omillarga e’tiborni kuchaytirib, boshqalardan o‘sib ketishdi. O‘sha sinalgan fazilatlar yangi xislatlar bilan boyitilib, shakllantirilmoqda.

Janubiy Koreyada “Onam doim yonimda” konsepsiyasi ishlaydi. Koreya sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar bo‘yicha instituti tomonidan 2003 yil 4 noyabrda chop etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Janubiy Koreyaning o‘rtacha oilasi har oylik xarajatlarining 56% dan ortig‘ini bolalarning tarbiyasi, ta’lim va parvarishi uchun to‘lanadi. Ushbu va boshqa ma’lumotlar institut tomonidan joriy yilning may-iyun oylarida o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida olingan. Tadqiqotda Janubiy Koreyaning 4500 dan ortiq oilasi ishtirok etgan. Koreyada bir bolani tarbiyalash, tayyorlash va parvarish qilish bo‘yicha hozirda o‘rtacha 1 million 320 ming von, ya’ni 1100 dollardan ko‘proq mablag‘ sarflanadi. Ushbu mablag‘larning qariyb 35 foizi davlat va xususiy maktablarda ta’lim xarajatlarini qoplashga sarflanadi.

Janubiy koreyaliklarning ta’limga bo‘lgan xarajatlari dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, ular mamlakat yalpi ichki mahsulotining 7 foizini tashkil qiladi. Bu dunyoda Daniyadan keyingi ikkinchi ko‘rsatkich. Janubiy koreyaliklarning xususiy repetitorlar xizmatiga haq to‘lashlari narxi haqida gap ketganda, bu ko‘rsatkich bo‘yicha ularga teng keladigan millat dunyoda yo‘q. Janubiy Koreyada repetitorlarga YaIMning 3% i to‘lanadi.

An’anaviy Koreya madaniyatida bolalarning tug‘ilishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki ularning tushunchalariga ko‘ra farzand faqatgina ularning nasl-nasablari davomchisi bo‘libgina qolmay, balki keyingi hayotlari uchun taqdir taqdim etgan ne’mat, ya’ni ajdodlarning ruhlarini shod qilishadi.

Bola bir yoshga kirganda o‘tkaziladigan tol marosimi an’anaviy koreys urf-odatlar tizimida katta ahamiyatga ega bo‘lgan va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. Bu marosim bugungi kunda ham o‘ta tantanali nishonlanmoqda.

Tantanali marosim mutasaddisi, uning uchun maxsus tikilgan rangbarang ipak libos kiygan bola, ota-onasining yonida o‘tirib, o‘zining sharafiga o‘tkaziladigan marosimni tomosha qiladi. Shu vaqtdan boshlab bolakay uchun kattalar ishtirok etadigan an’anaviy marosimlarda, festivallarda ishtiroki koreys hayoti uchun tabiiy holga aylanadi. Bu yerda bola ko‘p odamlar bilan birinchi marta muloqot qiladi. U dam olish (ruhiy quvonch) borligini, unga nisbatan sevgi va hurmat his etayotgan qarindosh-urug‘larini tanib oladi, o‘zini to‘la-to‘kis oila a’zosi deb bila boshlaydi. O‘ziga tegishli sovg‘alarni oladi. Eng muhimi, u birinchi marta qarindoshlari, mehmonlari uchun yuqori mas’uliyat hissini sezadi va ularning o‘gitlari va istaklariga diqqat bilan quloq soladi.

Koreyaliklarning bolalarga bo‘lgan ehtiromi ajoyib. Oila a’zolarining barcha ruhiy kuchlari, barcha moddiy imkoniyatlari bolaga fido qilinadi. Hatto turmushda er-xotin o‘rtasida chiqib turadigan nizolar ham kamdan-kam hollarda bolalar ta’sir qiladi. Chunki Koreyada bola yetti yoshga qadar ilohiy ne’mat hisoblangan.

Koreyada go‘dak bolalar juda erkin bo‘lishadi. 5-6 yoshga kirgan bolaga hamma narsa mumkin, deb hisoblanadi. U qo‘liga istagan

joyida yurishi, istagan narsani olib ko‘rishi, o‘ynashi mumkin. Uning asariyat iltimoslari bajariladi. U kamdan-kam hollarda tanqid qilinadi va deyarli hech qachon jazolanmaydi. U doim onasining yonida bo‘ladi.

Koreyada bolalar ota-onaning doimiy nazorati ostida bo‘lishadi. Janubiy Koreya – ayollari ishlamaydigan yoki noto‘liq ish kuniga ega uy bekalari diyori. Doktor Li Mi "Koreys bolalari o‘zlarining Yevropalik va Amerikalik tengdoshlari bilan solishtirganda, haddan tashqari onalariga bog‘lanib qolishgan», deb hisoblaydi.

Yosh bolaligidanoq har bir bolaga birinchi navbatda otaga hurmat tuyg‘usi singdiriladi. Unga hatto eng kichik itoatsizlik ham darhol va qattiq jazolanadi. Onaga itoatsizlik bu boshqa masala. Garchi bolalar ota-onasini hurmat qilishlari kerak bo‘lsada, aksariyat hollarda ko‘pincha onaga nisbatan itoatsizlik uchrab turadi. 1475 yilda qirol Soxye tomonidan yozilgan "Ne xun" ("Ichki o‘gitlar” risolasida "o‘g‘il hurmati” tushunchasini shunday ifodalaydi -" hurmat o‘g‘li rahmat ko‘zlari va quloqlari bilan ota-onani rohat beradi. Ularga osoyish beradi, tinchlantiradi, ularga oziq-ovqat, ichimlik beradi. Ota-onasi irodasiga zid bo‘lmagan gaplarni aytib alqaydi". Bu qarashlar bugungi kunda ham koreys oilalarida oilaviy munosabatlar asoslarini belgilaydi.

Koreyaliklar orasida bolalarni oilada mehnatga hurmatni tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun, koreyalik oilalarda, bolaning olti yoshidan boshlab, mehnatga muhabbat hissi uyg‘otiladi. O‘g‘il bolalar erta yoshdan boshlab qishloq xo‘jaligiga, chinakam erkaklar ishini egallashgan. Koreyada, dehqonning mehnatsevarligi, otalar tomonidan vasiyat qilingan muqaddas burch deb hisoblanadi. Bu an’analar bugungi kunda tirikdir va u bolalarning oilaviy tarbiyasiga asos bo‘lib qolmoqda. Qizlar tarbiyasida keksalar bilan muloqot qilishda mehribonlik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, axloq qoidalariga sodiqlik va axloqiy me’yorlar qoidalari ishlab chiqilgan. Axloq qoidalarini buzganlarga qattiq choralar ko‘rishgan.

Bola oqsoqollarga muloyim shakllarda murojaat qilish, biror narsani bermoqchi bo‘lsa, uni ikkala qo‘l bilan uzatish yoki qabul qilishni o‘rgatishadi. Bu qoida, martabasi yuqori bo‘lgan odamlarning oldida ma’sum va kamtarona tutish, ularning buyrug‘larini bajarish

uchun o‘zini tayyor tutish qat’iy qo‘llaniladi. Bu an’anaviy koreys etiketining qat’iy talablaridan biridir.

Yaponiyada fuqaroni tarbiyalash – “axloqiy tarbiya” tizimi “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”, “fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash” vazifasini o‘taydi.

Yaponiya - kun chiqar mamlakat aholisi farzandlarining tarbiyasiga o‘ta jiddiy qarashadi. Bu erda har bir yoshga nisbatan ma’lum bir munosabatda bo‘linadi va ayrim tarbiya usullari qo‘llaniladi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko‘ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin.Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo‘lgan kichkintoyga qiroldek muomala qilishadi.

Ular istaganlaricha o‘ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog‘chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to‘ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o‘z farzandlarini o‘yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi.

«Ideal yaponning fazilatlari» deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 ta fazilatni shakllantirish belgilab berilgan. 16 fazilat 4 ta guruhga bo‘linadi. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o‘ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo‘lish, o‘z xohishlarini idora qila olish, pietet (ehtirom) tuyg‘usiga egalik; 2) oila boshlig‘iga xos sifatlar: o‘z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o‘z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlari: vatanga sodiq bo‘lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo‘lishni o‘rgatadi.

Yaponiya : “Sen jamoa a’zosisan!” Besh yoshgacha farzand — poshsho, o‘n besh yoshgacha — qul, o‘n besh yoshdan keyin — do‘st!

Yaponlardan juda ko‘p narsani o‘rganish mumkin. Ayniqsa, bu kunchiqar davlatning farzandlariga tarbiya berish usullari ko‘pchilikni hayratga solib kelgan. Ularning tarbiya berish usuli «ikudzi» deb

nomlanib, bu faqat pedagogik ta’lim berish majmui bo‘libgina qolmay, yangi avlod ta’lim olishiga yo‘naltirilgan falsafadir!

Tarbiyaviy ta’lim – muomala, odob qoidalarini maxsus o‘rgatish jahon miqyosida yangilik emas va o‘rnak olsa arzigulik misollar bor. Masalan, Yaponiya oilalarida bolalarga "yapon xulq-atvori" sirlari o‘rgatiladi. Bunda muomala, odob-axloqning eng nozik qirralarigacha maxsus mashq qildiriladi. Jumladan, mehmon kelganda mezbon eshikni qanday ochishi kerakligigacha va h.k. [140]. Xullas, milliy tarbiyaviy ta’lim milliy fazilatlarni bolalarning dastlab birinchi, keyin esa ikkinchi signallar sistemasiga aylantirishga, pirovard natijada esa, o‘quvchilarning shaxsiy xislatlariga, odatlariga aylanishida pedagogik texnologiya vazifasini o‘taydi.

Ona va bola birdamligi. Yaponiyada ona «amae» deb nomlanadi. Bu so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib, uning chuqur ma’nosini yetkazib berish juda qiyin. Lekin bu so‘z «amaeru» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «erkalash», «homiylik qilmoq» ma’nolarini anglatadi. Asrdan asrga yaponiyalik oilalarda bola tarbiyasi — ayol kishining mas’uliyati hisoblanib keladi. Albatta, XXI asr tarbiya berish taomillari nihoyatda farqlidir. Masalan, avvallari ayollar faqat xonadon ishlari bilan shug‘ullanishgan bo‘lsa, zamonaviy yapon ayollari ta’lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi. Shunga qaramay, agar ayol ona bo‘lishga qaror qilsa, u o‘zini butunlay oilaga bag‘ishlashi kerak. Farzand 3 yoshga to‘lmaguniga qadar ona bolasini o‘zi o‘stirishi va ishga chiqmasligi lozim. Ayolning asosiy majburiyati — ona bo‘lishdir, zero, Yaponiyada o‘z majburiyatlarini birovning zimmasiga yuklab qo‘yish tartibi mavjud emas.

Bundan tashqari, kichkintoy bir yoshga to‘lmaguniga qadar ona va bola — bu bir butunni tashkil qiladi. Ona qaerga bormasin, nima ish qilmasin, chaqaloq doim ona bilan bo‘lishi zarur! Oxirgi paytlarda «Bebi-sling»lar, ya’ni bolalarni kenguru qopchasiga o‘xshash qopchalarda ko‘tarib yurish Yaponiyada juda ilgaritdan mavjud bo‘lib, uning hozirgi kundagisi mukammallashgan zamonaviy ko‘rinishidir.

«Amae» — o‘z farzandining soyasidir. Muntazam jismoniy va ruhiy munosabat — onaga bo‘lgan mustahkam obro‘-e’tiborning

negizidir. Yapon ayollari uchun o‘z bolasini xafa qilish va ranjitishdanda og‘irroq narsa yo‘q dunyoda.

Bola - poshsho. Ikudzi nuqtai-nazarlariga ko‘ra besh yoshgacha bola — farishtadir. U uchun man qilingan narsaning o‘zi yo‘q, unga hech kim ovoz ko‘tarishmaydi va hech qachon jozalamaydilar. U uchun «mukin emas», «yomon», «zararli» degan so‘zlar mavjud emas. Bolakay o‘zining bilim orttirish dunyosida erkin hayot kechiradi.

Yevropalik hamda amerikalik ota-onalarning fikriga ko‘ra injiqliklariga erk berish orqali erkalash va nazoratning umuman yo‘qligidir. Aslida, Yaponiyada ota-onaning hukmronligi G‘arb mamlakatlariga nisbatan kuchliroqdir. Sababi, ularning tarbiyasi asosida keyingilar yotadi:

* shaxsiy namuna;

* his-tuyg‘ularga munosabat bilidirish.

1994 yili Amerika va Yaponiya bolalariga tarbiya hamda bilim berish xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tekshirishi o‘tkazilgan. Olim Azuma Xiroshi ikki xil madaniyat vakillari ona-bolasidan piramida-konstruktorini yig‘ish shartini e’lon qildi. Natijada, tadqiqotchilar shuni guvohi bo‘lishdiki, yapon ona avval konstruktorni o‘zi yig‘ib, buni o‘z farzandiga ko‘rsatgan. Keyin bolasidan o‘zi — mustaqil ravishda yig‘ib ko‘rishini so‘ragan. Bolaning qo‘lidan kelmasa, ona yana bir marotaba yasab ko‘rsatib bergan.

Amerikaliklar esa boshqa yo‘l bilan yasagan. Ular konstruktorni yasashdan avval, uning yasalish algoritmini bolasiga tushuntirgan, so‘ngra ona-bola konstruktorni yasashni boshlashgan.

Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning «tushuntiruvchanlik» turi deya sharhladi. Ya’ni, yaponiyalik ayollar o‘z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali «tushuntirishadi».

Shu bilan birga farzandlariga yoshligidanoq o‘z hissiyotlarga, yaqinlari va hatto buyumlarga ham e’tiborli bo‘lishni o‘rgatishadi. Sho‘x kichkintoyni hech qachon issiq choynak oldidan haydashmaydi, bolakay kuyib qolsa, «amae» undan uzur so‘ragan holda ish-harakatlari unga og‘riq yetkazganini eslatib qo‘yadi.

Boshqa misol: erkalanib ketgan bolakay hamma o‘yinchoqlarini sindirib tashlaganda amerikalik yoki yevropalik onalar qanday yo‘l tutadilar? Taxmin qilish mumkinki, qo‘lidan o‘yinchoqni tortib olib, uni sotib olish uchun qancha mehnat qilganligi haqida «ma’ruza» o‘qib beradi… Yaponiyalik ayol esa hech qanday chora qo‘llamaydi. Shunchaki «Sen uning jonini og‘rityapsan» deydi.

Shunday qilib, rasmiy jihatdan yaponiyalik bolakaylarga 5 yoshgacha hamma narsa mumkin. Bu bilan birga bolada «Men» timsoli hamda «yaxshi» — tarbiyali va chin dildan sevuvchi ota-ona fikri shakllanadi.

Bola — qul. Besh yoshida bola «shavqatsiz haqiqat» bilan yuzlanadi, ular rioya qilishi shart bo‘lgan berahm qoida va cheklanishlar nimaligini ko‘radi.

Bola uchun bunday keskin o‘zgarish og‘irlik qilsa kerak, deb o‘ylashingiz ham mumkin, albatta. Gap shundaki, asrdan-asrga yaponiyalik jamiyat — jamoaga qarashlidir. Tabiat va ob-havo hamda iqtisod sharoitlari odamlar bir-biri bilan jambul-jam bo‘lib ishlashi va yashashiga majburlaydi.

Yapon bolakaylarining sevimli mashg‘uloti — komandada bajariladigan sport o‘yinlari, estafeta va xor qo‘shiqlarini kuylashdir.

Guruh qoidalariga rioya qilish ham ona bog‘lanib qolishda yordam beradi. Axir, jamoa tartibini buzsa, «amae» juda qattiq ranjiydi, bu esa onasiga emas, shu bolaning o‘ziga isnod degani.

Shunday qilib, bolakayning keyingi hayoti guruhning bir qismi bo‘lishga, jamoada kelishib ishlashga o‘rgatadi. Bunga ko‘ra unda guruhiy ongi hamda jamoaviy javobgarligi shakllanadi.

Bola — do‘st.15 yoshga kirib, bola to‘laqonli shakllanib voyaga yetgan shaxs sanaladi. Endi uning tarbiyasi teng huquqlik bosqichiga kirib keladi.

«Ikudzi — bizning tushunchamizga ko‘ra tarbiya berishning mantiqqa zid shaklidir. Biroq bu usul asrlar mobaynida tekshirilgan va Vataniga sodiq, qonunlarga rioya qiluvchi tarbiyali fuqaroni katta qilishda yordam beradi.[5] »

Gollandiya: Bolalarga baqirish mumkin emas. Bu mamlakatda farzand tug‘ilishi bilanoq shaxsga aylanadi, deyish mumkin.

[5] Avitsenna.Uz. 2018 йил 16 август.

Gollandlarda bolalarga baqirish, ayniqsa, ularni urish mumkin emas (buning uchun ota-onalik huquqidan mahrum etiladi).

Bolalar erkin va jur’atli etib tarbiyalanadi. Shu sababli har qanday kichkintoy tanishu notanish kimsa (masalan, avtobus haydovchisi, sotuvchi) bilan bemalol suhbatga kirishib ketaveradi. Kattalar notanish bo‘lsa-da, kichkintoy bilan hurmat yuzasidan muloqot qiladilar, uning savollariga e’tibor bilan javob beradilar.

Gollandiyada bolalarning huquqi yuqori darajada himoya qilingan, ular uchun hamma sharoitlar yaratib berilgan. Ammo intizom masalasi qattiq qo‘yilgan. Bolalar juda erta — kechki soat 7-8 larda uyquga yotishadi. Kattalar esa soat 22-23da.

O‘yinchoqlar faqat bayram yoki biror kattaroq sabab tufayli olib beriladi. Yana ularga yoshligidanoq turli qonun va qoidalar yaxshilab o‘rgatiladi hamda qat’iy amal qilish malakasi singdiriladi. Shu sababli gollandlar qonunni hurmat qiluvchi inson bo‘lib yetishadilar.

Shvetsiya: «Ura, shanba! Konfet yesak bo‘ladi!» Shvetsiyada bolalarga jismoniy jazo berish 1979 yildan qonun tomonidan taqiqlangan. Shved ota-onalari farzandlariga erkinlik berish barobarida, ularni o‘zlariga teng ko‘rishlari tufayli jahonga mashhur.

Biroq ular juda qat’iy turib talab qiladigan narsalar ham bor. Masalan, shirinliklarni cheklash. Shved kichkintoylari faqat shanba kunlari shirinlik yeyishlari mumkin. Shu sababali shanba kunlari do‘konlarning shirinlik sotiladigan bo‘limlarida yosh bolalar ko‘p bo‘ladi. Bunday munosabat ular orasida kariesning ancha kamayishiga olib keldi.

Bola bog‘chaga borganida bog‘cha opasi ham u bilan xuddi o‘z tengidek muloqot qiladi. Uni kichkina deb kamsitish, erkinligini cheklash umuman mumkin emas.

Doim yosh bolaning fikrini tinglashadi.

U bilan hisoblashishadi.

Bundan tashqari, bog‘chadayoq bolalar pichoq va sanchqi bilan ovqatlanishadi.

Italiya: oilaviy qadriyatlar har narsadan ustun! Bu yerda yosh bola oilaning diqqati markazida turadi. Hamma uning atrofida aylanadi go‘yo. Ota-ona u bilan yoki u haqda ko‘p suhbatlashishadi.

Maktablarda bolaning murg‘ak ruhiyatiga zarar yetkazmaslik uchun uzoq vaqtgacha baho qo‘yilmaydi. Uyda esa bolaga umuman ish buyurilmaydi. Qiz bolalar-ku u-bu ro‘zg‘or ishlariga qarashib turishlari mumkin, ammo o‘g‘il bolalar umuman hech ish qilishmaydi.

Oilada farzand tarbiyasida ona asosiy rol o‘ynaydi. U xuddi ona tovuq jo‘jalarini qanotlari ostida saqlagandek, bolalarini bir dasturxon atrofida jam qilib o‘tirishni yaxshi ko‘radi. Shu sababli Italiyada boshqa Yevropa mamlakatlaridan farqli ravishda o‘g‘illar yoshi o‘ttizdan oshsa ham, onasi bilan yashaydi.

Italiyaliklar oilaviy mehmondorchilikni yaxshi ko‘rishadi: bugun biz siznikiga mehmonga boramiz, ertaga javoban siz biznikiga, indinga hammamiz falonchinikiga, deyishadi.

Yuqoridagi milliy tarbiya shakllanishi bo‘yicha xorij konsepsilarida asosiy masala bolani milliy tarbiyasi yosh, jins, hudud omillari bilan birga biz tadqiq etayotgan omillar o‘quvchi shaxsini etnik va individual xususiyatlari, ota-ona, ta’lim, jamiyat va ommaviy axborot vositalari kabilarni ham ta’siri alohida inobatga olinishi kerakligi qayd qilingan.

Shuningdek yuqoridagi fikrlar, ya’ni yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishda yosh, jins, hudud, o‘quvchi shaxsini etnik va individual xususiyatlari, ota-ona, ta’lim, jamiyat va ommaviy axborot vositalarini ta’sirini Zasurskiy I.I [204], Zelinskiy S.A [205], Druzin V.N [57], Dosenko Y.J [58], Ionin L [74], Karayani A.G [102], Kolotilova I.V [103], Leont'ev D.A [107], Morosanova V.I [113], Rastorguev S.P [162], Skinner B.F [172], Stolin V.V [173], Uznadze D.B [189] kabilar o‘z tadqiqotlarida ilmiy asoslab berishgan.

BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kundagi taqchilligi va tizimlashtirilmaganligi hamda shu bilan birga dolzarbligini ko‘rsatdi. Ayni paytda, Sharq allomalari, xorij hamda mamlakatimizda aynan ushbu muammo bo‘yicha nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari bo‘yicha nazariy-ilmiy manbalar milliy tarbiya tushunchasining tarkibiy qismini aniqlash va yoshlar xulq-atvori va xarakterida milliy fazilatlarni shakllantirish borasida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi.

2. Milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig‘ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya esa - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir. Shu bois shaxsning milliyligi va zamonaviyligi - uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir deb aytishimizga asosdir.

3. Har bir milliy madaniyat - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko‘rinishi ekan. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya - har bir insonni o‘z milliy madaniyati manbaida, ya’ni muayyan umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar asosida shakllantirilishi lozimligini ko‘rsatdi.

4. Milliy tarbiya shakllantirishda ijtimoiy rol omili muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Jumladan har bir inson o‘z hayoti davomida turli ijtimoiy rollarni o‘taydi. Bu rollar mazmuni, ko‘lami, namoyon bo‘lish jabhalari ilk yoshlardan boshlab ko‘payib, kengayib, murakkablashib, milliylashib boradi. Ana shunday tug‘ma va ilk o‘zlashtiriluvchi ijtimoiy rollardan biri – shaxsning milliy roli ekanligini ko‘rsatdi.

5. Har bir zamonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakllari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o‘zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog‘liqliklarni ijtimoiy psixodiagnostik metodlar orqali doimiy ravishda tekshirib, ahamiyatga molik jihatlarini monitoringini olib borish maqsadga muvofiq ekan.

6. Sharq mutafakkirlarini masala bo‘yicha yondashuvlariga asoslanib eng ustuvor jihat tarbiyada ota-onaning roli ekanligi aniqlandi. Oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota–onaning sa’yi- harakati hisoblanadi. Bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada

shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib borishligi yana bir bor nazariy jihatdan asoslandi.

7. Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omilidan asosiylaridan biri – inson xarakterining milliylik kasb etishi ekanligi aniqlandi. Shaxsning milliy xarakteri ustivor psixologik hodisa bo‘lib, bu uning milliy xulq-atvorida namoyon bo‘ladi, ana shu ko‘rsatkichlarga asoslanib u yoki bu xalqqa, millatga mansub kishilar xarakterining modelini - o‘rtacha milliy xarakter namunasini yaratish mumkin, degan xulosalarni asoslaydi.

8. O‘rganishlarimiz har bir kishining ma’lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta’sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta’sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe’l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud.

9. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tib keluvchi an’analar, marosim, udum, ishlab-chiqarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari, bolalarga, o‘smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o‘ziga xosligi katta ahamiyatga kasb etar ekan.

10.Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish ishlarida nafaqat geterostereotip (odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig‘indisi) omili, balki avtostereotip (o‘z xalqi haqidagi bilimlar yig‘indisi) kabi omillar bo‘yicha asosli, ob’ektv bilimlarga ega bo‘lish kerakligini ko‘rsatdi.

11.O‘rganishlarimiz har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor isbotladi. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog‘i kerak ekan.

12.Masalani etnopsixologik o‘rganishlarimiz milliy psixologiyani aynan o‘sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqatlari jarayonlari orqali o‘rganish mumkinlini ko‘rsatdi. Bizningcha, milliy tarbiya jarayoning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun ham aynan shu yo‘ldan bormoq samaralidir. Zero milliy tarbiya (ichki) millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Milliy tarbiya jarayonida makondagi

muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta’minlovchi etnik, milliy ma’lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan avlodga uzatilishi aniqlandi.

13.Demak har bir individ o‘ziga xos milliy-madaniy an’analar, me’yorlari bo‘lgan, ya’ni bugungi ijtimoiy psixologik tushunchalar bilan aytganda ijtimoiy norma, ijtimoiy qoida, ijtimoiy qonuniyat va ijtimoiy talablar asosida o‘zi yashab turgan jamiyatida shakllanar ekan. Ana shu urf-odat, me’yorlar, an’analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a’zosiga aylantiradi. Demak milliylashuv jarayoni milliy-ijtimoiy rollar talablaridan kelib chiqib, jamiyatning uzluksiz nazorati ostida samaraliroq amalga oshar ekan.

II BOB. MILLIY TARBIYANI TADQIQ QILISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

2.1. O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari

O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini ishlab chiqishdagi zaruratni bugungi kundagi glabalashuvning tarbiya jarayoniga ta’sir masalasi tezlashtirdi nazarimizda.

Aslida O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari chuqur ildizi va qadimiy tarixga borib taqaladi. Buni tadqiqotimiz birinchi bobida batafsil ko‘rib chiqqanimizdek ko‘plab sharq mutafakkirlarini asarlarida tarbiya jarayonini ko‘tarilishi, komil inson, barkamol avlod orzulari va obrazlari misolida ham sezish mumkin.

Bu masalaga dastlab O‘zbeksiton Respublikasining 1992 yil keyin 1997 yildagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da so‘ngra 2020 yildagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida Qarorida o‘z aksini topib takomilashib bordi.

O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini yaratilishida o‘zbek olimlari M.Quronov [144], V.Karimova, Mavrulov A [115], Begmurodov M, Z.Nishonova, Ochildiev A [137], Otamuratov S [138], Paxrutdinov Sh [141], Muxtorov A [116], Mo‘minov A [117], Mahkamov U [118], Madaeva Sh.O [119], Madraximova F [120], Mamatov M [114], Maxmutova G.I [121], Mirziyotov I [122], Nazarov Q [131], Nishonova S [132], Ro‘zieva D.I [163], Rayimov Sh.K[164], Samarov R [174], To‘laganova G.Q [177], Tashanov A [181], Umarov B.M [184], Xojieva M [197], Xushmurodova I [198], Xalilova N.I [199], Shamsiev O‘.B [216], G‘oyibnazarov Sh [210],

G‘aniev A [212], O.Bozorov, U.D.Qodirov [157], Jabborov X.X [87] tadqiqotlari asos bo‘lib xizmat qilgan.

Jumladan yosh tadqiqotchi Otabek Bozorov o‘z ilmiy izlanishlarida “Globallashuvning yoshlar tarbiyasiga o‘tkazayotgan ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘layotganligini asoslab beradi va bizningcha mazkur masala O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslariga ham ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Jumladan ular quyidagilar:

Birinchidan, axborot vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq, internet, uyali aloqa telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar” ko‘p hollarda yoshlarimizni o‘zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo‘ymoqda, boshqacha aytganda, o‘ziga xos “ildizi yo‘q individ”larning shakllanishiga, o‘z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda. Yoki bu jarayonni bizning ta’birimiz bilan aytganda, ko‘plab odamlar orasida kuzatilayotgan “marginallashuv”, ya’ni olamlarni o‘z milliy madaniyati, o‘z milliy tarbiyasi, o‘z milliy qadriyatlar va milliy o‘zligidan begonalashayotganligi va ijtimoiy yakkalanayotganligi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, “ommaviy madaniyat” turli xil ko‘rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi. Bular asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo‘sh vaqtni o‘tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadriyatlarga munosabatda namoyon bo‘lmoqda. Yot madaniyat qadriyatlarini o‘zida ifoda etayotgan “ommaviy madaniyat” yoshlarimizda g‘arbona individualizm, egotsentrizm, nigilizm, andishasizlik, behayolik va zo‘ravonlik, milliy qadriyatlar va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda. Bizningcha bu illatlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari odamlarimizni o‘zi yashab turgan muhiti va o‘zligiga nisbatan daxldorlik fazilatini kamayib borishi, psixologik oqibatlari esa odamlarimiz hatti-harakatlari va xulq-atvorida “apatiya” va “abuliya” kabi qa’tiyatsizlik, umidsizlik, bo‘shanglik, dangasalik, boqimandalik va tushkunlik kabi buzilishlarni kuchaytirmoqda.

Uchinchidan, yoshlar orasida taqlidchilik, g‘arbona ideallarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Bunda,

xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma’naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini chulg‘ab olayotganini sezish qiyin emas. Oqibatda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlari oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz bo‘lgan turli janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda” [190]. Buning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini yoshlar orasida real voqeliklarga nisbatan vertual voqeliklar ichida yashashga nisbatan oshiqish, ludomaniya, internetga tobelik kabi buzilishlar bilan izohlash mumkin.

“Xo‘sh, bunday murakkab va shiddatli kechayotgan sharoitlarda, globallashuvning yoshlar tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirlaridan qanday himoyalanish mumkin?

Fikrimizcha, buning uchun quyidagi yo‘nalishlarga asosiy e’tibor qaratish lozim:

-milliy tarbiyaning zamonaviy va ta’sirchan vositalari, milliy tarbiya fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tahliliy ishlarini yangicha metod va texnologiyalarga asoslanishi, miliy tarbiya shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish va qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni amaliyotga tatbiq etish;

– milliy tarbiya ishlarida milliy va uminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga erishish. Bunda, asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onani ulug‘lash, oilani muqaddas saqlash, farzandning burchi, o‘zaro mehr-oqibat, iffat, or-nomus, hayo kabi fzilatlar, ustoz va shogirdlar odobi kabi ezgu qadriyatlarga sodiq qolishimiz va uni yoshlar ongiga singdirishning ijtimoiy-psixologik texnologiyalaridan foydalanish;

– yoshlar ongida milliy tarbiya prinsiplarini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq va kamchiliklarni o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish, boshqa milatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalarining aks etishiga qaratilgan psixologik texnologiya va psixotreninglardan kengroq foydalanish;

– tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqish va faoliyat doirasini tashkil

etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olish. Bunda, axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet) xizmatidan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettiradigan internet saytlari, multimediya va roliklarni ko‘paytirish. Yoshlar ongiga ijobiy ta’sir etuvchi musiqa va kino san’atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish;

– milliy intellektual salohiyatni rivojlantirish. Buning uchun milliy tarbiyani rivojlantirish urf-odat, an’ana va qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga uyg‘un holda yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish. Yoshlarning g‘oyaviy, siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish;

– yoshlarda umummilliy va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo‘ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun ijtimoiy va psixologik sharoit yaratish;

– yoshlarda milliy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarini izchil davom ettirish” [190].

O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini mustahkamlashda ikki bosqichni nazarda tutish maqsadga muvofiq. Jumaladan, Birinchi bosqich milliy tarbiyamiz tarixiy takomilidan kelib chiquvchi shaxs xulq-atvorining asosiy tarkibiy jihatlari – imon, ilm, mas’uliyat, mehr tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, e’tiqod tarbiyasidan boshlanadi. Ikkinchi bosqich tarbiyaning moddiy voqelikda akslanishi, ya’ni madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy-psixologik va siyosat kesishuvida shakllanadigan murakkab tarbiya yo‘nalishlaridan iborat bo‘ladi”.

“Xo‘sh, bunday vaziyatda yoshlarimiz ongiga ijobiy milliy fazilatlarni singdirish, milliy o‘zlik, ya’ni ajdodlarimiz qoldirgan bebaho tarbiyaviy merosga yuksak hurmat tuyg‘ularini shakllanirish uchun nimalar qilish lozim?

Birinchidan, bugungi zamonaviy yoshlarni ta’lim-tarbiya tizimida o‘qitishning yangi, izchil va samarali usullarni joriy etilishi darkor. Ya’ni bugungi yoshlarni o‘quv faoliyatida ustuvor motivlar,

o‘quv ustanovkalar, qiziqishlar va hokazo. Bunda Prezidantimiz Sh.Mirziyoyevning “Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas” fikrlarini eslash juda o‘rinlidir. Qolaversa Prezidentimiz raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi fikrlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman, ya’ni Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan **6 ta** farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining **21 ta** qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi. Ta’lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o‘qituvchilarning alohida o‘rni va ta’siri borligi hisobga olinib, ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta’limi tizimiga **12 ming 871** nafar erkak o‘qituvchi qaytdi. Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha **2,5 barobar oshirildi.** Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlarga **50 foizgacha qo‘shimcha** oylik ustamalar to‘lanmoqda. Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an’ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi. Maktablardagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona “Tarbiya” fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi va maktablarda 1-11 sinflarga alohida “Tarbiya” fanini joriy etildi va mazkur darsliklarda o‘quvchilarni yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga holda tarbiya fazilatlarini singdirib boriladi.

Yuqoridagi vedoselektorda Prezidentimiz tomonidan maktabda ta’lim va tarbiyani uzluksizligi va tizililigini rivojlantirish biz uchun

buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”gi qayd qilib o‘tildi.

O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari bo‘yicha navbatgi ishlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 29 apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini **2030** yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda o‘quvchilarni tarbiyasi bo‘yicha **48 ta maqsadli** ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Shuningdek, maktab, litsey yoki kollej uchun yangi bino qurish, uni zamonaviy asbob-anjomlar bilan jihozlash mumkin, ammo o‘qitishda sifat o‘zgarishlariga erishmasdan, yuksak malakali, kasbini joni dili bilan sevgan fidoyi muallimlarni tayyorlamasdan ko‘zlangan maqsadlarga erishish qiyin. bizningcha pedagog kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi ana shu maqsadga yo‘naltirilishi lozim.

Ikkinchidan, farzandlar ta’lim-tarbiyasi borasida faqat o‘quv yurtininggina emas, ota-ona, mahalla-ko‘y va keng jamoatchilik mas’uliyati ham oshirilishi shart. Ayrim yoshlarimizning aqidaparastlar ta’siriga berilayotgani, giyohvandlik va jinoyatchilik yo‘liga kirib qolayotgani ta’lim-tarbiya jarayonida jiddiy nuqsonlar mavjudligi, o‘quv yurti, ota-ona, keng jamoatchilik, saylovlar paytidagina jonlanib qoladigan siyosiy partiyalar, yoshlar tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan tashkilotlar faoliyatidagi nomuvofiqlikdan, ular o‘rtasida izchil va samarali hamorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganidan darak beradi. Bizningcha, tadbirbozlik va va’zxonlik amaliyotidan voz kechib, mamlakat miqyosida milliy g‘oya konsepsiyasiga tayangan holda yoshlar ta’lim-tarbiyasiga aloqador tashkilot va muassasalar faoliyatini uyg‘unlashtirishni nazarda tutgan umummilliy harakat dasturining yaratilishi va hayotga tatbiq qilinishi yuqorida tilga olingan muammolarining hal etilishiga ko‘maklashgan bo‘lur edi.

Bizningcha O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini mustahkamlashda hayotga kirib kelgan g‘oyalar ham juda muhim va ular quyidagilarni tashkil etadi. Jumladan, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”, “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, “Halollik vaksinasi”, “Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi!”,“Inson manfaatlari hamma narsadan ulug‘”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham

boy va qudratli bo‘ladi”, “Xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi”, “Adolat – qonun ustuvorligida”, “Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir”, “Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”, “Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz”, “Inson qadri” kabi tamoyillarni amaliyotga tatbiq qilinayotganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to‘xtalib, “**Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi**”, - deya alohida ta’kidladi va bu bizningcha O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini tashkil etadi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Shunday bir vaziyatda O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari bo‘yicha asosiy ishlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining chiqishi bo‘lib, mazkur konsepsiya millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga xos tarixiy voqelik bo‘ldi. Mazkur konsepsiya **8 ta bob** va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan

61 ta maqsadli va manzilli tabirlar rejasidan iborat bo‘lib, uning amalga oshirilishi **4 bosqichdan** iborat bo‘ldi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

“... hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg‘asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo‘lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o‘g‘il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o‘zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilib, modifikatsiyalanib, amaliyotga tatbiq qilingan.

Konsepsiyada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish va uning ijtimoiy-psixologik omillari borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta

ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tariladi.

Konsepsiya oldiga qo‘yilgan vazifalar:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; bizningcha mazkur vazifada milliy tarbiya shakllanishiga xizmat qiladigan ijtimoiy-psixologik omillarni baholash xususiyatiga ega bo‘lgan psixologik indikatorni ham amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr: *1-davr* – homila davri, *2-davr* – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3-6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr: *1-davr* – 7 (6)-10 yosh boshlang‘ich sinf, *2-davr* – 11-17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr: *1-davr* – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17-

30 yosh, *2-davr* – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

Konsepsiya ijrosi uchun mas’ul vazirlik va idoralar:

- Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi **“Ma’naviy tarbiya”** respublika jamoatchilik kengashini tashkil etish.

- **“Uzluksiz ma’naviy tarbiya”** ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o‘smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik majmuasini yaratish.

- Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari asosida o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirish.

- I-XI sinflar uchun “Tarbiya” fanini joriy qilish.

- Umumta’lim muassasalarining **“Tarbiya”** fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

- Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini axloqiy fazilatlar majmui bo‘lgan milliy tarbiya an’analari, vositalari, shakllarini o‘rganish maqsadida mamlakatimiz hududlariga etnopedagogik ekspeditsiyalarni tashkil etish. To‘plangan tarbiyaviy meros asosida kitob va qo‘llanmalar, ko‘pjildli **“Milliy tarbiya ensiklopediyasi**”ni yaratish hamda chop etish.

- Jamiyatda milliy tarbiya an’analari, qadriyatlarini tiklashga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish;

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish;

- yoshlarda turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish va shu kabi **61 ta** Respublika va xalqaro miqyosidagi tadbirlarni samarali o‘tkazish bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Konsepsiyada bunga tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, tayanch fazilatlarni kafolatli loyihalashtirish va o‘rgatishda oila, maktabgacha ta’lim muassasasi hamda umumiy o‘rta ta’lim

muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ishlatish va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarish masalasi rejalashtirilgan.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, buning oqibatida tarbiya uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermayotganligi kabi jtimoiy oqibatlar qayd qilinib o‘tiladi. Buning oqibatida yo‘l qo‘yilgan xatolardan eng ko‘p tarqalgani – og‘zaki tarbiya davom etayotganligi, ota-onalar, maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, maktab o‘qituvchilari bolalarga Vatanga sadoqat, mas’uliyat, tadbirkorlik va boshqa fazilatlar nazariy ma’lumotlarga aylanib, bolalarning odatlariga aylanmayotganligi, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalga erishmayotganligi natijasida yoshlarning Vatanga sadoqat, mas’uliyat, tadbirkorlik, mehr-oqibat haqida so‘zlari bilan yoshiga mos amallari orasida tafovut namoyon bo‘layotganligi qayd qilinadi.

Konsepsiyada tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar birdaniga ko‘rinmasligi, noto‘g‘ri tarbiyaning asoratlari oradan ko‘p yillar o‘tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko‘rinishi mumkinligi qayd qilib o‘tilgan.

O‘rganishlarimiz asosida aytish mumkinki, mazkur uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasidan tarbiyaning tizimli va uzviyligini ta’minlashda quyidagicha natijalar kutilmoqda va u milliy tarbiyaning konseptual asoslarini tashkil etadi bizningcha:

- konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

- oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

- jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

- oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi.

- konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Biz yuqorida O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini yaqin 2019-2023 yillar oralig‘idagi hujjatlar asosida ko‘rib chiqdik, vaholangki davlatimiz o‘z mustaqilligi ega bo‘lishi bilan mazkur masala davlatimiz e’tiboridagi masalalaridan biri bo‘lgan. Biz keyingi paragriflarda o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini o‘rganish orqali milliy tarbiyani shakllanganlik darajalarini tahlil qilishni maqsad qildik.

Endi milliy tarbiyaning konseptual asoslariga xizmat qiladigan metologik yondashuvlarni korib chiqamiz.

O‘smirlada milliy tarbiya shakllantirishning pedagogik omillari M.Quronov tadqiqotlarida “Milliy tarbiya [149], “Biz anglayotgan haqiqat” [151], “Ogohlik: tarix va zamon saboqlari” [152], “Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi” [153], “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” [154], “Yoshlarda barqaror

mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari” [155] kabi bir qancha tadiqotlarida yoritilgan.

F.Ravshanovning tadqiqotlarida milliy tarbiya milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi yoshlarni bunyodkor g‘oyalarga undashi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, buyuk kelajak sari aniq maqsadlar qo‘yish orqali turli xil illatlardan himoyalanishning vositasi sifatida yoritilgan [168].

Tadqiotchi Z.Qosimovaning tadqiqotlarida talaba yoshlarni milliy tarbiyasi ularni turli xil buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashishning o‘ziga xos pedagogik omillari tahlil qilingan [159].

Yana bir pedagog olima Sh.Akramovaning Tadqiqotlarida ham yoshlarda milliy tarbiyani kuchaytirish orqali mafkuraviy tahdidlardan asrashning pedagogik tamoyillari ishlab chiqilganligini ko‘rish mumkin [21].

Tadqiqotchi M.Abdujabborovaning ishlarida yoshlarni milliy fazilatlatlari vayronkor g‘oyalardan himoya qilish xususiyatiga ega bo‘lgan mafkuraviy profilaktikani ko‘rish mumkin [22].

S.Otamuratovning ishlarida milliy o‘zlikni anglash, milliy birlik tuyg‘ularining o‘ziga xos jihatlari, milliylik, milliy xarakter, milliy mafkuraning g‘oyaviy-nazariy tizimi, milliy ma'naviyatimizning ildizlari, unga tahdidlar (o‘tmishdagi, bugungi tahdidlarni) atroflicha o‘rganilgan [138] .

Mazkur masalada falsafiy tadqiqotlar olib borgan S.Mamashokirovning “Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari”, “G‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar” muammo doirasida olib borgan izlanishlarida milliy ma'naviyatimiz asosida turli illatlarga nisbatan kurashish mumkinligining falsafiy xususiyatlari yoritib berilgan [123].

Tadqiqotchi A.Ochildiev ishlarida globallashuv sharoitidagi yoshlarda milliy tarbiya masalasi uni turli xil zararli odatlardan himoyalovchi mafkuraviy tizim sifadida o‘rganiladi [137].

Tadqiqotchi M.Yuldashevaning “Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining xususiyatlari va ularning oldini olish yo‘llari” nomli tadqiqotlarida g‘oyaviy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlari yoritib berilgan [201].

Tadqiqotchi Dj.Bayalievning tadqiqotlarida ham yoshlarda mafkuraviy tahdidlarga nisbatan milliy tarbiyalanganlik darajalarini ko‘tarish orqali erishs mumkinligi tahlil qilingan [52].

“Globallashuv sharoitida milliy mafkurani takomillashtirish muammolari” nomli nomzodlik dissertasiyasida D.Himmatov milliy tarbiya va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish orqali turli xil illatlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi [67].

Tadqiqotchi Sh.G‘oyibnazarov “Ommaviy madaniyat” [210] , “Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai” [211] kabi tatqiqotlarida yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan “Ommaviy madaniyat”ning o‘ziga xosligini yoshlarning axloqsizlik, zo‘ravonlik, xudbinlik, vatansizlik, hayotga yengil-elpi qarash kabi g‘oyalarga undash hamda millatimiz uchun yot madaniyatlar, vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarning salbiy oqibatlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi A.Tashanovning muammo doirasidagi izlanishlarida milliy insonparvar va umuminsoniy qadriyatlarga zarar yetkazuvchi xususiyatga ega buzg‘unchi mafkuralarning kelib chiqish omillari, salbiy oqibatlari, tarqalish xususiyatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar falsafiy nuqtai nazardan yoritib berilgan [181].

A.O‘tamurodov, Sh.To‘raevlar “Milliy g‘oya va ijtimoiy taraqqiyot” nomli o‘quv qo‘lanmasida milliy g‘oya milliy tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning to‘laqonli anglanilishi, jamiyat kishilarining barqaror mafkuraviy immunitetga ega bo‘lishi – bu ijtimoiy taraqqiyot garovidir va aynan shunday g‘oyaviy birlik asosida yoshlarni milliy anglashni kuchaytirish mumkin degan ilmiy xulosalar ilgari surilgan [206].

N.Salievaning tadqiqotlarida yoshlar milliy ma'naviy sohadagi xavf-xatarlarning ko‘rinishlari, ma'naviy tahdidlar va mafkuraviy immunitet, yoshlar va milliy g‘oya, sport, yoshlar va millat ruhiyati, an'analar – milliy tarbiya omili kabi bugungi kunning dolzarb mavzulari tarixiy va falsafiy jihatdan atroflicha yoritilgan [175].

Z.Islomov tahriri ostida chop etilgan “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari” o‘quv qo‘llanmasida yoshlar tarbiyasidagi bo‘shlik ularni diniy ekstremizm va terrorizm kabi oqimlarga chalinishini tezlashtiradi kabi ilmiy xulosalar keltiriladi [71].

Taraqqiyot – milliy g‘oya va milliy tarbiya tarixi, tarixda bunyodkorlik g‘oyalari, yovuz g‘oya, g‘oyaviy mafkuralarni mutlaqlashtirishning salbiy oqibatlari kabi mavzularning nazariy va amaliy tahlilini D.Alimovaning “Insoniyat tarixi – g‘oyalar va mafkuralar tarixidir” kabi tadqiqotlarida uchratish mumkin [23].

A.Sharipov o‘z tadqiqodlarida ijtimoiy hamkorlik milliy g‘oya va milliy o‘zlikni tamoyilining asosiy nazariy qoidasi hamdir. Zero, milliy mafkura tizimidagi g‘oyalar millatga zid illatlarga qarshi kurashni ilmiy yondashuv asosida belgilab olingan asosiy ma'rifiy vosita hisoblanadi [217].

N.Shabkarova tadqiqotlarida milliy g‘oya birinchi navbatda, yosh avlodning milliy tarbiyasida yangicha ma'no va mazmun baxsh etishga, unda faol hayotiy pozisiyani shakllantirish ishlari yoritilgan [218].

Tadqiqotchi Sh.Usmonov milliy tarbiya, demokratiya va ma'naviy qadriyatlar uyg‘unligi, va uning omillarini tahlil qilib, o‘z tadqiqotlariga quyidagicha xulosa yasaydi: Insoniyat tarixida bo‘lib o‘tgan turli voqea-hodisalardan to‘g‘ri va xolis xulosalar chiqarish inson ma'naviy kamoloti uchun zamin bo‘lgan. O‘tmish falsafiy tafakkuri tarixini o‘rganishdan maqsad – tarixda ro‘y bergan voqea-hodisalarni millat va xalq ongida qanday aks etib, qanday g‘oyalarning tug‘ilishiga sabab bo‘lgani, ularning milliy taraqqiyotga qanday ta'sir ko‘rsatgani, qaysi mafkura ko‘proq rivojlanish yoki tanazzul tomon yetaklagani kabi haqiqatlarni bilishdir [191].

Tadqiqotchi I.Mirziyotov o‘z tadqiqotlarida yoshlardagi iymon-e'tiqodning roli, sog‘lom e'tiqod va uni shakllantirishning nazariy shakllari, o‘quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda sog‘lom e'tiqodning, pedagogik usul, shakl va omillarning nazariy va amaliy xususiyatlarini asoslab bergan [122].

I.Xushmurodovaning ishlarida tahlili qilingan yoshlarda turli xil illatlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini shakllantirishda pedagogik mezonlar, Sharq mutafakkirlari ijodida ma'naviy-axloqiy tushunchalarning yoritilishi, milliy g‘oya, milliy mafkura va ma'naviyatning o‘zaro pedagogik aloqasi kabi masalalar yoritilgan [198].

F.Madraximovaning tadqiqotlarida insonning milliy qadriyatlariga, ma'naviyatiga salbiy ta'sir qilish xususiyatiga ega bo‘lgan “ommaviy madaniyat”ning ma'no mazmuni, uni tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan [120] .

M.G.Davletshin tadqiqotlarida, milliy ma'naviyat, milliy xarakter xususiyatlari hamda etnik xususiyatlarning psixologik asoslarini tahlil qilganligini kuzatishimiz mumkin [53] .

G‘.B.Shoumarov va uning shogirdlari ishlarida tarbiya oila institutida tashkilashtirilishi lozimligi o‘rganilgan [214] .

E.G‘.G‘oziyev tadqiqotlarida barkamol shaxsning psixologik qiyofasi, barkamol shaxs konsepsiyasi, milliy xarakterning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, shaxs ma'naviyati, mentalitet tuzilmasi, umumilliylik va xususiylik munosabati, XXI asr odamlarining psixologik tuzilmasi kabi masalalarning psixologik tamoyillarini asoslab bergan [208].

A.M.Jabborov va uning shogirtlari tomonidan esa milliy tarbiya aloqador bo‘lgan milliy qadriyatlar tizimi, milliy xarakter sifatlarining shakllanish qonuniyatlari kabi tadqiqotlar olib borilganligini ko‘rish mumkin [76] .

Sh.R.Baratovning “Istiqlol g‘oyasining ijtimoiy psixologik asoslari”, “Milliy istiqlol g‘oyasi targ‘ibotining ilmiy asoslari”, “Ko‘k kit” tuzog‘iga qarshi kurashishning psixologik mexanizmlari”, “Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari” kabi ilmiy izlanishlarida o‘quvchilardagi tarbiyalanganlik darajalarini tahlilini ko‘rish mumkin [31].

V.M.Karimova tadqiqotlarida milliy tarbiyaning oila barqarorlashuviga ta'siri, oilaviy qadriyatlar, ma'naviy qiyofaning psixologik tuzilmasi, o‘quvchilarda sog‘lom mafkura va ma'naviy yuksaklik sifatlarini shakllantirishning psixologik asoslari kabi masalalarni tahlil qilgan [94].

R.S.Samarov ishlarida turli xil illatlarga nisbatan yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik omillari yoritilgan [174].

N.S.Safaev tomonidan olib borilgan ishlarda milliy tarbiyaga aloqador milliy o‘zini o‘zi anglash fenomenining mohiyati to‘la ochib beriladi [176].

B.M.Umarovning qator tadqiqotlarida tarbiyaviy og‘ishish yoshlarda o‘z joniga qasd qilish, voyaga yetmagan bolalar orasida jinoyatchilikning yuzaga keltiruvchi omillari sifatida o‘rganiladi [183].

M.Mamatovning ishlarida yoshlar axloqiy qiyofaning psixologik aspektlari, ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘lik psixologik xususiyatlar va etnopsixologik xususiyatlar tahlil qilinadi [114].

Tadqiqotchi Z.X.Abdurahmonova ishlarida milliy tarbiya aloqador yoshlarda ma'naviy sifatlarni kuchaytirish, milliy birlik asosida ularda milliy istiqlol g‘oyasiga hamda milliy mafkuraga nisbatan hurmat hissini oshirib, ularni amaliyotga tatbiq qilishning psixologik mexanizmlari psixologik jihatdan ilmiy asoslab berilgan [17].

Tadqiqotchi E.M.Muxtorov ishlarida yoshlar xulq-atvorida turli xil illatlarga nisbatan psixologik muhofaza shakllantirish kerakligi ilmiy asoslangan [124].

Tadqiqotchi N.I.Xalilova ishlarida milliy tarbiyaga aloqador shaxsning o‘zini o‘zi nazorat qilishi, birinchi navbatda, uning psixologik bilish jarayonlari, individual psixologik xususiyatlari hamda irodaviy-emosional holatlarining shakllanish darajasiga, ikkinchidan, uning ma'naviy bilimlari shakllanganlik darajasiga, uchinchidan shaxs mafkurasi, fikr mulohaza va tafakkurining shakllanganlik darajalari bilan tahlil qilinadi [199].

Tadqiqotchi Sh.Alimbaeva ishlarida o‘smirlarda yuzaga kelishi muqarrar inqirozlar ularda tarbiyasi qiyinlikni oshiradi, shuningdek ulardagi xavotirlanish hissining kuchayishiga sabab bo‘ladi degan ilmiy xulosalar bizning ishimizga ham ma'lum darajada asos bo‘ldi [24].

Tadqiqotchi M.T.Isokova ishlarida milliy qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, milliy an'analar, ijtimoiy normalar yoshlarni turli xil destruktiv g‘oyalardan saqlashi mumkinligi ilmiy asoslanadi [69].

Tadqiqotchi U.A.Qosimovning ishlarida milliy tarbiyaga aloqador barkamollik xususiyatlari, ma'naviy bilimlari illatlarga qarshi kurash asosi ekanligi ilmiy asoslanadi [158].

Tadqiqotchi B.M.Botirovning ishlarida milliy xarakterning shakllanish qonuniyatlari, milliy qadriyatlar tizimi shakllanishiga

ta'sir qiladigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, gender tafovutlar kabi masalalar psixologik jihatdan yoritilgan [35].

Tadqiqotchi D.M.Anvarovaning ishlarida shaxslarda ma'naviyat shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari va aynan o‘smirlik yoshida kechadigan inqirozli holatlarda yoshlarda shakllangan ma'naviy bilimlar uning ko‘plab ma’naviy illatlardan himoyalaydi [20].

Tadqiqotchi U.D.Qodirov ishlarida yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari sifatida ularda milliy va ijobiy fazilatlarni shakllantirish muhimligi ilmiy asoslab berilgan [157].

Tadqiqotchi X.X.Jabborovning “O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari” nomli dissertasion ishlarida oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik, oilaviy va milliy qadriyatkarga e’tiborsilik xususiyatlari o‘rganilgan [87].

Tadqiqotchi S.Yu.Kulatova ishlarida milliy tarbiyaga aloqador voyaga yetmaganlarda axborot-psixologik xavsizlikni ta'minlashning shaxs xususiyatlari, destruktiv axborotlarga nisbatan yoshlarda axboriy-psixologik xavsizlikni kuchaytirash masalalari o‘rganilgan[104].

Yuqoridagi masalaga daxldor juda ko‘plab tadqiqotlarni ko‘rib chiqdik va nazariy tahlil qildik. O‘rganishlarimiz hozirga qadar aynan ijtimoiy psixologiyada tadqiqot predmeti sifatida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishing ijtimoiy psixologik omillarini o‘rganmagan, mazkur masala bo‘yicha maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi aniqlandi.

2.2. Milliy tarbiya mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlari

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini

o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Jamiyat taraqqiyotining mavjud bosqichida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashdan iborat ijtimoiy buyurtmani to‘laqonli bajarish uzluksiz tarbiya tizimi mazmunida quyidagi asosiy yo‘nalishlarning aks etishini taqozo qilmoqda:

Axloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, Vatanparvarlik tarbiyasi, millatlararo totuvlik tarbiyasi, g‘oyaviy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, kasbiy tarbiya, huquqiy (fuqarolik) tarbiya, badiiy-estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, oila tarbiyasi va o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlari bo‘yicha tadqiqotlarni M.Quronov [156], G‘oziyev E.G‘ [209], Karimova V.M [95], Musurmonova O [125], O.Bozorov, X.Jabborov [81], Abdullaeva Sh.X [25], Akramova F.A [15], Asqarov A [26], Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B [55], Karimov X.K [96], Lutfullayeva N.X [108], Mahkamov S [118], Norqulov H [133], Rasulova Z [165], Ro‘ziqulov F.R [166], Ubaydullayeva B [187], Umarov B., Nazarova F [186], Fayziyeva M.X [62], Xalmatova M [200] kabilarni ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Muayyan hududda tashkil etilayotgan tarbiya jarayoniga salbiy, buzg‘unchi g‘oyalarni singdirishga bo‘lgan urinishlar hamda ularning oldini olish quyidagilarni ham mustaqil yo‘nalishlar sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda: Milliy g‘urur tarbiyasi. Tarixiy tafakkur tarbiyasi. Jamoaviylik tarbiyasi. Diniy bag‘rikenglik tarbiyasi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda yo‘nalishlarning soni ortib boradi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida yoshlar tarbiyasini tashkil etishga doir respublika hukumatining qarorlari, mazkur jarayonga mas’ul bo‘lgan tegishli vazirlik hamda idoralarning me’yoriy hujjatlari asosida tarbiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari ham ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi.

Ma’lum milliy fazilat shaxsda tarbiyalanganlik darajasi muayyan mezonlar asosida baholanadi. Bizni tomonimizdan quyidagicha milliy fazilatlar shaxsning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlar sifatida qaraladi.

Axloqiy tarbiyalanganlik mezonlari:

- axloqlilik va axloqsizlik, yaxshilik va yomonlikning mohiyatini ochib berish;
- yuksak darajada axloqli bo‘lgan kishilar haqidagi misollarni keltira olish;
- muayyan axloqiy sifatlar (kamtarlik, mehnatsevarlik, odoblilik, samimiylik, to‘g‘riso‘zlik, halollik, atrofdagilarni tushuna olish, ularga yordam qo‘lini cho‘zish, yaqinlarini qo‘llab-quvvatlay olish, mas’uliyatlilik, oqibatlilik, e’tiqodlilik, adolat uchun kurashuvchi, sadoqatlilik, bir so‘zlilik va boshqalar)ga egalik;
- atrofidagi odamlarning ma’qul va noma’qul xulqlarini ko‘rsata olish; - axloqsizlikning bir ko‘rishda tanib olish va tushunish;
- axloqsizlikka qarshi kurashish lozimligini asoslay olish;
- o‘z xulqidagi kamchiliklarni tahlil qilish va baholash;
- tengdoshlarining ijobiy va salbiy xulqini ko‘rsata olish;
- ikkiyuzlamachilik, ko‘zbo‘yamachilik, millatni, jamoani, odamlarni ajratib yuboradigan illatlar (millatchilik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, guruhbozlik va hokazolar) ni isbotlash va ularga qarshi tura olish;
- millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni izohlash;
- behayolikka nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish zarurligini asoslay olish.

Aqliy tarbiyalanganlik mezonlari:

- insonning intellektual salohiyati mohiyatini ochib berish;
- muayyan vaziyat, voqea-hodisalarning mohiyatini mantiqiy tahlil qilish, ob’ektiv baholash va istiqbolini bashorat qila olish;
- iqtidori va qobiliyatining rivojlanishiga e’tibor berish; -
- o‘z ustida mustaqil va ijodiy ishlay olish;
- mavjud vaziyatlarni to‘g‘ri va yetarlicha baholay olish;
- yuzaga kelgan vaziyatning mohiyatini har tomonlama tahlil qila olish, yanglishishlarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish;
- muammo yechimlarini oldindan bashorat qilish;

- muayyan muammo yechimini topishda imkoniyatlaridan to‘la foydalanish;

- muammolarni hal etishning samarali yo‘llarini aniqlash va ularning yechimini topish.

Vatanparvarlikning tarbiyalanganligi mezonlari:

- «vatanparvarlik» tushunchasining mohiyatini yoshiga mos darajada tushuntira olish;

- vatanparvar shaxslar, ularning xizmatlari haqida hikoya qilib bera olish;

- vataniga muhabbatli bo‘lish, uning tashvishlaridan aziyat chekish, yutuqlaridan quvonish;

- vatan tuprog‘ini bebaho bilish, uni asrash;

- yurt mustaqilligini mustahkamlash, vatandoshlarining baxt-saodati yo‘lida mehnat qilish;

- vataniga, millatiga xiyonat qilgan kimsalarga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalay olish;

- o‘z manfaatlaridan Vatan manfaatlarini ustun qo‘yish kerakligini misollar bilan asoslab bera olish;

- bo‘lajak kasbining Vatan taraqqiyotini ta’minlashdagi ahamiyatini asoslab bera olish;

- milliy g‘urur, o‘z xalqi tarixi, tili, madaniyat va san’ati, istiqboli haqidagi tushunchalarni asosli bayon etish;

- vatandoshlarni hurmat qilish va bunga o‘z hayotidan misollar keltira olish;

- respublika mustaqilligiga, konstitutsiyaviy tuzumga tahdid solayotgan kuchlarni bilish va ularga nafratni ifodalay olish;

- vatan ravnaqi, yurt tinchligini ta’minlashga qo‘shayotgan hissasini ko‘rsata olish.

G‘oyaviy tarbiyalanganlik mezonlari

- milliy istiqlol mafkurasi, milliy g‘oya mohiyatini bilish, o‘z hayoti, kelajagi bilan bog‘lab tushuntira olish va ularga amal qilish;

- milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadi va asosiy g‘oyalarini bilish va misollar bilan asoslash;

- O‘zbekiston Respublikasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlardan xabardor bo‘lish va ular haqida hikoya qilib bera olish;

- yot mafkuralar, informatsion xurujlar, ularning salbiy natijalari, oqibatlarini misollar asosida yoritish;

- yot mafkuralarni fosh qilish ko‘nikma va malakalar shakllanganligi;

- yot mafkuralarning ta’sir ko‘rsatish usullarini bilish va ularga qarshi javobni ayta olish; -

- mamlakat va xorijda ro‘y bergan eng so‘nggi yangiliklardan xabardorlik.

Demak yuqoridagi mezonlarni shakllanganligiga asoslanib shuni aytish mumkinki, yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida ahamiyat kasb etadigan milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari, omillari, indikatorlari, mezonlari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas’ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari va omillarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta’sirchanligi sust bo‘ladi.

Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta’siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 1059-sonli qarorida bugungi kunda yoshlarimizning shaxsiy va ijtimoiy farovon, baxtli hayot qura olishlari uchun zarur bo‘lgan aniq fazilatlar va indikatorlar majmui belgilab berildi.

Bu haqda Qarorning 2-bandida Konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yunalishlaridan biri etib “yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish” [5] ta’kidlangan. Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondoshishda maqsadli innovatsion yondoshuv

bo‘lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-psixologik indikatorlari ishlab chiqishimizni talab qiladi.

Shu o‘rida biz mazkur tadqiqotimizda milliy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati, ota-onalarni milliy tarbiya metodlarini bilish darajasi, milliy tarbiyani baholashning ijtimoiy-psixologik indikatorlari milliy tarbiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, mazkur jarayonni bugungi ijtimoiy hayotimizdagi dolzarbligini yoritishga harakat qilamiz.

Biz masalaga daxldor adabiyotlarni o‘rganib milliy tarbiyada qo‘llanilgan quyidagicha metodlarni aniqlashga muyassar bo‘ldik va ularni pedagogik-psixologik izohlarini keltiramiz. Hozir biz ro‘yxatini keltiradigan milliy tarbiya metodlari – bu o‘zbek xalqining o‘z farzandlarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, salbiy xulq-atvorlarni bartaraf qilish maqsadida qo‘llagan va qo‘llayotgan yo‘l-yo‘riqlar, harakat tartiblari, tarzlari tizimidir.

Quyida sharhlanayotgan **“Milliy tarbiya metodlari algaritmi”** xalqimizning o‘g‘il-qizlarga madaniy, mehrli-talabchan munosabatini, bola shaxsiga hurmatini saqlab qolib, oilada va maktab tarbiyasida qo‘llash imkonini beradi. Bolaga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning salbiy usullari ham mavjud. Amaliyotda bartaraf qilish uchun ular ham tahlil qilinib, o‘rganilmog‘i kerak. Bu, ayrim o‘qituvchilar, ota-onalarda uchrab turadigan pedagogik-psixologik xatolarni tuzatib olishlariga yordam beradi.

Ayblamoq - bolani qilgan gunohi, xatosi uchun adolatli ravishda aybli deb topmoq, ayb qo‘ymoq va bolaning buni anglashiga erishmoq.

Arazlamoq - qilgan salbiy qilig‘i uchun bolani aybsitib, undan o‘pka qilib yurmoq yoki tarbiyaviy maqsadda vaqtincha yuz o‘girmoq.

Baholamoq - bola xulqiga uning ahamiyati, qadr, qiymati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq.

Bahslashmoq - o‘quvchi bilan(maktabda), o‘g‘il-qiz (farzand) bilan maktabda, uyda ilmiy, adabiy, ahloqiy, milliy-mafkuraviy mazmunda munozara qilmoq.

Begona qilmoq - bolaning yolg‘on gapirganligi aniqlangach, qo‘polligi muhokama qilingach va h.k. undagi vijdonni junbushga

keltirish, qilgan ishi uchun pushaymon qilishi uchun o‘qituvchi, yoki ota-ona, yoki ona uni o‘zidan vaqtincha uzoq tutib yurishi.

Biriktirmoq - odob-ahloqda, biror hunarda ko‘pchilikka namuna bo‘lgan ustoz tarbiyasiga bermoq. O‘tmishda qo‘shni ko‘rgan ota-onalar farzandlarining hayotini, odamlar, begonalar bilan muomala qilishni o‘rgansinlar deb o‘g‘illarini choyxonachiga xizmatkorlikka bergan ekanlar.

Bitim – bolaning hayotiga, o‘qishiga, kelajagiga oid jiddiy masalani uning o‘zi bilan muhokama qilib, o‘zaro ijobiy kelishuv, to‘xtam, qarorga kelmoq.

Buyurmoq - vaziyatning taqozosi bilan tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqan holda bolaning o‘zi uchun, jamoa, millat, Vatan manfaatlarini ko‘zlab buyruq bermoq.

Va’da olmoq - bolaning o‘z so‘ziga sodiqligini, so‘zi va ishi birligini sinash maqsadida undan biror ishning, majburiyatning bajarilishi haqida so‘z olmoq.

Girgitton bo‘lmoq - mehribonlik bilan, “aylanay”, “o‘rgilay” so‘zlarini ishlatib, ismiga “jon”, “xon” qo‘shib bolani erkalash.

Yorilmoq - bolaning sizdan noo‘rin xafaligini bilgach, tanho qoldirib, asl maqsadingiz – uning muvaffaqiyati ekanligini aytishingiz. Xayrixohlik, samimiylik bu usulga muvaffaqiyat keltiradi.

Inoqlashmoq - bola bilan yaqin, do‘stona munosabat bog‘lamoq, ahillashib ketmoq.

Kafil bo‘lmoq - bola bilmay, adashib xatoga yo‘l qo‘ygan chog‘da uning yaxshiligi haqida boshqalar (o‘qituvi, o‘quvchilar)ni ishontirib, bola uchun mas’uliyatni o‘z ustiga olmoq.

Kengashmoq - bola sinf jamoasi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq.

Koyimoq - jazo berishning yengil turi. Bolaga tanbehlovchi so‘z aytmoq, tanbeh bermoq, urishib qo‘ymoq.

Kuzatmoq - sinf ahlining, har bir bolaning xulq-atvorini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko‘zdan kechirmoq, qayd qilmoq.

Ko‘rsatmoq - bolaga, bolalarga o‘rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat e’tiborlarini jalb qilish.

Maqtamoq - bolani uning o‘ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko‘rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko‘rsatmoq.

Nasihat - sokin, xayrixohlik vaziyatda bolani yaxshi yo‘lga solish, ta’lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git.

Ovutmoq - bolaning, uning oilasining boshiga biror kulfat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, ovuntirmoq, yig‘lashdan to‘xtatmoq.

Odatlantirmoq - odob me’yorlarini mashq qildirish. Masalan, salomlashish, murojaat qilish, mehribonlik ko‘rsatish va hokazolarga odat paydo etmoq, o‘rgatmoq.

Oqlamoq - shunday vaziyatlar bo‘ladiki, bola yil bo‘yi ajoyib xulq-atvor, namunalarini ko‘rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo‘l qo‘yadi. Masalan, birov bilan urishib qoladi; hasharga kelmay qoladi va h.k. Shunday holda o‘qituvchi - sinf tarbiyachisi uni (oldingi namunali xulqi hurmati) oqlamog‘i kerak.

So‘ramoq - bolaning ilmiy va axloqiy bilimlari haqida ma’lumot olmoq, tekshirmoq, norasmiy imtihon qilmoq.

Talab - tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qa’iyat bilan so‘rab turish.

Tasalli bermoq - muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolani yupatish, ko‘ngil ko‘tarish uchun gapirmoq, ish-harakat qilmoq.

Ta’birlamoq- bo‘lada. Sinf ahlida, jamoat ahlida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatlamoq.

Ta’kidlamoq - bolalar bilan o‘tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlab bermoq.

Taqdirlamoq - o‘quvchini, farzandni qadrlamoq, munosib baholamoq, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirmoq.

Taqiqlamoq - tarbiyaviy maqsadda bolaga, o‘quvchiga biron narsani ma’n etmoq.

Tahsinlamoq - o‘quvchini, farzandni “balli”, “ofarin” kabi so‘zlar bilan qarshi olmoq, maktab yuksak baholamoq.

Tenglashmoq - bola, o‘quvchi biror taqsinga sazovor ish qilganda uning hatti-harakatini eng hurmatli, aziz kishilar hulqiga qiyoslash, yomon ish qilganida esa o‘z qishlog‘i, mahallasi, hududidagi “yomon” deb nom qozongan shaxs xulqiga o‘xshatmoq, taqqoslamoq.

Tergamoq - vaqti-vaqti bilan bolaga yetarli davrajada qattiqqo‘llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo‘ya xatti-harakatlari uchun koyib “yo‘li”dan qaytarib turish.

Uyaltirmoq - noma’qul qilig‘i uchun bolaga o‘ta noqulaylik tug‘dirish, hijolat, andisha, nomus qildirmoq.

Shavqlantirmoq - bolaning xulqi, o‘qishidagi muvaffaqiyatlari. Kelajagiga g‘oyat mamnunlik hissi bilan berilmoq, ruhiy ko‘tarinkilik bilan qiziqmoq, zavqlanmoq va zavqlantirmoq, qanoatlantirmoq.

Erkalatmoq - o‘g‘il bolani “qo‘zichog‘im”, “she’rim”, qiz bolani esa “oppog‘im”, “onajonim” deya silab-siypalamoq, suymoq.

Yalinmoq - agarda boshqa xil usul kor qilmasligiga ko‘z yetsa, bola qalbida mehrni yangilash, uyg‘otish maqsadida uni biror narsaga ko‘ndirish uchun iltimos qilmoq; o‘tinib so‘ramoq.

Yarashtirish – oilada, sinfda ba’zan uchraydigan o‘zaro urush-janjalni to‘xtatish, urishmaslikka ahd qildirmoq, munosabatni yaxshilamoq, totuvlashtirmoq.

O‘ynamoq - bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish, salbiy sifatlarni yo‘qotish maqsadiga yo‘naltirilgan ma’lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o‘yinlarni birga o‘ynash usuli.

O‘rgatmoq - bolaga biror ish harakat (masalan, choy damlashni, turli joy, vaziyatlarda o‘zini tutishni, gapirishni va h.k.) bajarish usulini, yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilmoq.

O‘qitmoq - yozilgan narsani yoki matnni undagi belgilar, harflar vositasida aynan aytib, eshittirmoq.

Qaytarmoq - bola, o‘quvchi jahli chiqib, qizishib biror kor hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko‘rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo‘ya ishdan, xatti-harakatdan o‘zini tutishga undamoq, tiymoq.

Qiziqchilik qilmoq - o‘quvchi, bola bilan munosabatda rasmiyatchilikni, psixologik tanglikni bartaraf qilish maqsadida mavzuni burib yuborish, ermak, hazil qilish, bolani kuldirish.

Sovg‘a berish – bolaga bayram, hayitlar munosabati bilan imkon darajasida tuhfalar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish.

Homiylik qilish – bolaga biror sohaga qiziqib, berilib shug‘ullansa, bu ishda unga yordam, madad berish, muhofaza etish.

Quyida sharhlanayotgan milliy tarbiya metodlari xalqimizning o‘g‘il-qizlarga madaniy, mehrli-talabchan munosabatini, bola shaxsiga hurmatini saqlab qolib, oilada va maktab tarbiyasida qo‘llash imkonini beradi. O‘rganishlarimiz davomida bolaga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning salbiy usullari ham mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Bizningcha amaliyotda bartaraf qilish uchun ular ham tahlil qilinib, o‘rganilmog‘i kerak. Bu, ayrim o‘qituvchilar, ota-onalarda uchrab turadigan pedagogik-psixologik xatolarni tuzatib olishlariga yordam beradi.

Masala bo‘yicha o‘rganishlarimizdan ayon bo‘layaptiki, har bir ota-ona o‘z farzandining sog‘lom va baxtli bo‘lishini istaydi. Shunga qaramay, ba’zan o‘zimiz bilib-bilmay bunga qarshi ish qilamiz. Farzand taryabisiga yondashuvda shunday gaplar borki, ularni farzandingizga qancha gapirsangiz ham arziydi - bular motivatsiya, qo‘llab-quvvatlovchi, maqtovchi, hamdardlik bildiruvchi so‘zlardir. Bundan tashqari yana shunday gaplar, iboralar borki, ularni aslo tilga ola ko‘rmang. Quyida e’tiboringizga farzandingizning tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ayrim bir yondashuvlarni havola etamiz.

"Ahmoqona gaplarni gapirma!". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolalar kattalardan farqli o‘laroq, hech qachon bekorchi gaplarni gapirishmaydi. Sizga har qancha kulgili yoki bema’ni tuyilmasin, farzandingiz sizga aytgisi kelgan har bir so‘z u uchun muhim ahamiyatga ega. Uni inkor etib, bolaning so‘zlari siz uchun ahamiyatsiz ekanligini bildirgan bo‘lasiz. Keyin farzandingiz sizdan ko‘p narsani sir tutadigan bo‘lib qolsa, ajablanmang. Qanday gap gapirmasin, uning yutuqlari uchun xursand bo‘ling, so‘zlarini diqqat bilan tinglang. Agar u biror bir muammo bilan kelgan bo‘lsa, uni hal qilishga urinib ko‘ring.

"Mana ol-da, nari ket!" Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolaning talabiga javob berishning eng yomon usuli. Unga minnat qilayotganingiz yetmagandek, undan ketishni talab qilyapsiz. Bolalar o‘z istagiga erishish yo‘lida bu usuldan foydalanishga tez ko‘nikishadi. Ota-onalar esa keyin "qachon shunchalik uzoqlashishga ulgurdik?", deb ajablanishadi. "Nari ket" so‘zini qo‘llamaslikka harakat qiling, zero bu siz va farzandingiz o‘rtasidagi masofani uzoqlashtiradi.

"Boshqalar uddasidan chiqadi, sen esa yo‘q". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolani boshqalardan yomon ekanligiga ishontirib, siz farzandingizda o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik hissini shakllantirasiz. Ba’zi ota-onalar shu yo‘l bilan bolani to‘g‘ri yo‘lga solishga urinishadi, biroq bunday usul hattoki kattalarda ham ijobiy natija bermaydi. Zigmund Freydning shunday so‘zlari bor: "O‘zingizni taqqoslashingiz mumkin bo‘lgan yagona shaxs - bu o‘tmishdagi o‘zingiz". Ana shu so‘zlarga asoslanib, bolani tarbiya qilsangiz, u o‘ziga ishongan shaxs bo‘lib voyaga yetadi.

"Ko‘zimga ko‘rinma". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bunday so‘zlar bolaga na uning o‘zi va na muammolari ota-onasiga keraksiz ekanligini bildiradi. Ba’zan ota-onalar shu yo‘l bilan mojaroning oldini olishga harakat qilishadi, ammo muammodan qochish bilan uni hal qilib bo‘lmaydi. Farzandlaringizning so‘zlarini eshiting, ularga yordam bering. Ziddiyatli vaziyatlarda esa boshqacha usullarni qo‘llang.

"Sen eplay olmaysan, yaxshisi menga ber". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolaning urinib ko‘rish harakatiga chek qo‘yib, kelajakda uni yordamga muhtoj va omadsiz qilib qo‘yasiz. Psixologiyada buni "o‘rgatilgan ilojsizlik" deyiladi, ya’ni inson biror narsani qila olmasligiga oldindan o‘zini ishontiradi. Shunday ekan, farzandingiz qiyinroq ishga kirishganini ko‘rsangiz, yaxshisi unga "Kel, senga yordamlashib yuboraman", deb ayting yoki u sizga biror ishda ko‘mak bersin.

“Beodob so‘zlar” (so‘kinish). Nima uchun mumkin emas? Ota-onaning farzandi oldida so‘kinishi kerak emasligini barchamiz yaxshi bilamiz, bu borada ma’ruza o‘qishga hojat bo‘lmasa kerak. Bunday so‘zlarni nutqingizdan umuman olib tashlang.

"Sen yomonsan!" yoki "Quloqsizsan". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Bolalar ota-onalarining fikrlarini juda qadrlashadi. Bunday so‘zlarni aytar ekansiz, farzandingiz ularga amal qilishini yoddan chiqarmang. Bu bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi va kelajakdagi muammolardan darak beradi. "Sen yomonsan" yoki "Quloqsizsan" deyish o‘rniga "Sen to‘g‘ri ish qilmading", "Bu noto‘g‘ri qaror", deb ayting. Bolaga emas, uning

harakatlariga baho berib, siz uning yaxshi tomonga o‘zgarishiga turtki bergan bo‘lasiz.

"Seni yaxshi ko‘rmayman". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Ota-onaning sevgisida shart qo‘yish noo‘rin. Undan mahrum bo‘lish xavfi hayotdan mahrum bo‘lishga teng. Farzandingizni yaxshi ko‘rasiz-ku, axir! Unda nima uchun bolaga yolg‘on gapirasiz? Bunday gaplarni aytaversangiz, bolaning ko‘ngliga sovuqchilik solasiz.

"Seni tashlab ketaman". Nima uchun bunday deyish mumkin emas? Ota-ona - farzandi uchun eng muhim inson. Uning hayoti ota-onaga bog‘liq, bola onasiz yashashni tasavvuriga ham sig‘dira olmaydi. Shu bois ba’zan bu usul sizga ish berayotgandek tuyuladi... Har qanday asossiz tahdidlar takrorlanaversa, bola ularni qabul qilmay qo‘yadi, lekin asabini ishdan chiqarishga ulgurasiz. Aslo bunday qila ko‘rmang! Farzandingiz bilan qo‘rquv va jazoga asoslangan munosabat o‘rnatmang. Buning uddasidan chiqish oson emas, albatta, biroq natija buni oqlaydi.

Ko‘rib turganingizdek, ota-onaning farzandiga bo‘lgan munosabati, ularning gapirayotgan gaplari katta ahamiyatga ega. Shu bois har bir so‘zingizga e’tiborli bo‘ling. Ota-onaning xatti-harakati esa undan-da muhim. Yomon so‘zlardan saqlanish bilan birga noto‘g‘ri amallardan ham saqlaning, zero farzandingiz sizni kuzatib turibdi, u kelajakda sizning harakatlaringizni yoki gap-so‘zlaringizni takrorlamasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. "Qush uyasida ko‘rganini qiladi" maqolini doim yodda tuting.

Shu bilan birgalikda o‘quvchi, bolaga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning salbiy usullari mavjudligi va ularga barham berish uchun ulardan namunalar keltiramiz:

Aldamoq - yolg‘on-yashiq gaplar bilan, va’dalar bilan avramoq, laqillatmoq.

Bachkanalashmoq - o‘qituvchi, ota-onaning kattalarga, ulug‘larga nomunosib qiliqlar, xatti-harakatlar qilishi.

Vaysamoq- bolalarni, o‘quvchilarni tomonlarga bo‘lib, bir-biriga qarshi oyoqlantirib, tezlab, ular orasidagi ziddiyatni kuchaytirmoq; nizoni avj oldirmoq, olqishlamoq.

Gina qilmoq - o‘quvchiga, bolaga nisbatan dilda xafalik, kek saqlamoq.

Yomonlamoq - bolaning oldida yoki orqasidan uni yomonlab, yomonga chiqarib, qoralab gapirmoq.

Zarda qilmoq - bolaga, o‘quvchiga hadeb zarda, jahl qilaverish.

Zorlanmoq - bolalar qoshida biror narsadan, vaziyatdan nolimoq, shikoyat qilmoq, hasad qilmoq, nochorlikni namoyon qilmoq.

Majbur qilmoq - hech bir asossiz o‘quvchining, sinfning munosabati bilan hisoblashmay, amr, zo‘rlik bilan yoki biror narsa taqozosi bilan bir ishni qilishni buyurish, ko‘r-ko‘rona talab.

Nizo – o‘qituvchi va o‘quvchi, bola va ota-ona orasida o‘zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovatli munosabat, ixtilof, nifoq hosil qilish.

So‘kmoq - bolani yomon, uyat so‘zlar bilan urishmoq, haqorat qilmoq. (odatda bu usul so‘kiluvchining so‘kuvchiga behrligiga olib boradi).

Ho‘mraymoq - farzandga, o‘quvchiga, qovog‘ini solib tikilmoq, yomon ko‘z bilan qaramoq.

Qarg‘amoq - farzandga, bolaga yomonlik, baxtsizlik yoki o‘lim tilab koyimoq; yomon niyat tilamoq.

Biz tadqiqotimiz davomida milliy tarbiyani baholashning ijtimoiy-psixologik indikatorlari bo‘yicha ham nazariy o‘rganishlarimizni umumlashtirib ular bo‘yicha quyidagicha jihatlarni aytib o‘tishni lozim topdik. Ya’ni milliy tarbiyani baholashning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini ishlab chiqmasdan uni shakllanganlik darajalarini o‘lchash mumkin emas. Shuning uchun biz tomonimizda milliy tarbiyani baholashning ijtimoiy-psixologik indikatorlari sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- bolaning xarakteri
- bolaning temperamenti
- bolaning xulq-atvori
- bolaning ijtimoiylashuv jarayoni
- bolaning yo‘nalganligi (qadriyatlarga)
- bolaning fazilatlarga odatlanish jarayoni (ijtimoiy shartlanish)
- bolaning o‘zligini anglash jarayoni
- bolaning shartli reflekslari
- bolaning bilish jarayoni
- bolaning irodaviy-emotsional holatlari kabilardir.

Yuqoridagi indikatorlar asosida bolaning tarbiyalanganlik darajalarini aniqlash mumkin.

Masala bo‘yicha o‘rganishlarimizga asoslanib shuni aytish mumkinki, yoshlarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini tadqiq etish, yangicha samarali texnologiyalarni joriy etish va uni amaliyotga tatbiq etish bugungi asrning eng dolzar masalaridan biri hisoblanadi.

Bu masalada har bir ota-onalarning, tarbiyaga mas’ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik indikatorlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta’sirchanligi sust bo‘ladi. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta’siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Biz yuqorida o‘quvchilarni milliy tarbiyalanganlik darajasini bilishda ularni xulq-atvorida, ularning ruhiyatida namoyon bo‘ladigan milliy fazilatlar asosiga qurilgan ijtimoiy-psixologik indikator va mezonlarni nazariy tahlillarini keltirdik,tadqiqotimizning keyingi paragrif va boblarida mazkur fazilatlarni shakllanganlik darajalari va uning shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillarni amaliy jihatdan o‘rganamiz. Shuningdek biz keyingi paragrifda o‘quvchilarda milliy tarbiya fazilatlarini namoyon bo‘lishining ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini o‘rganishni ham maqsad qildik.

2.3. Milliy tarbiya shakllanishida fazilatlar irarxiyasining o‘rni va ahamiyati

O‘quvchilarda milliy tarbiya fazilatlarini namoyon bo‘lishining ijtimoiy- psixologik xususiyatlari masalasida eng avvalo o‘rta asr Sharq allomalarining deyarli barchasida axloq, xulq-atvor masalasi bilan bog‘lanadi va ular bo‘yicha quyidagicha fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Ibn Sino o‘z asarlarida ilm va odob-axloq uyg‘unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va

diyonat, insonlarning o‘zaro do‘stligi hamkorligi, obod turmush to‘g‘risida qiziqarli g‘oyalarni ilgari surgan. Mutafakkir yozadi: “Bola badanining bo‘g‘inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog‘i eshitish va gapni ma’qullash uchun tayyor bo‘lib, vujudi ilm va odob o‘rganishga hozir bo‘lganda unga ilm va odob o‘rgatish kerak” [182]. Bu esa Suqrotning qarashlari bilan mos keladi.

Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar odamlarining qarashlari” va boshqa qator asarlarida milliy tarbiya va axloqiy masalalarni ijtimoiy fanlarga oid masalalar bilan bog‘liq holda tahlil etadi. Forobiy nazarda tutgan “fozil shahar aholisi” aslida aksar aholisi yuksak tarbiyali va demak, yuksak axloq egasi bo‘lgan jamiyat bo‘lib, zamonaviy tilda biz buni “fuqarolar jamiyati” yoki “ma’rifatli” va “fazilatli” jamiyat deb atamoqdamiz.

Yuqorida birinchi bobda tahlili Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari inson tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ammo ular orasida bevosita milliy tarbiyamizga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan “Mahbub ul-qulub” asari bu borada benihoyat katta ahamiyat kasb etadi. “Mahbub ul-qulub” – “Qalblarga sevimli bo‘lgan kitob” ma’nosini beradi. Uni “Dillarga oshno asar” yoki “Qalblarga yaqin kitob” deb tarjima qilish ham mumkin. Hazrat Navoiy o‘z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan, uning tariyaviy, axloqiy yuksakligini ta’minlashga hissa qo‘shish umidi bilan yashadi. U “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyat hayotini go‘zallashtirish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish va shaxs axloqini, odobini tarbiyalash kabi o‘zining so‘nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi.

XIX asrda yashab, ijod qilgan ma’rifatparvar bobolarimiz Alisher Navoiyning bu vasiyatiga sodiq qoldilar. Ular tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozimligi haqida jar soldilar.

Jumladan, Abdulla Avloniy bobomiz “Axloq, bu – xulqlar majmui, – deb o‘rganib, o‘zining axloq haqidagi qarashlarini ilgari surdi. – Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning, muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillikning, badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadilar. Lekin bular kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun muayyan sharoit, ijtimoiy omil-tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib

tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq [27].

Yoshlarni milliy tarbiyasi, milliy axloq normalari, milliy mezonlari masalasi ijtimoiy va etnopsixologik tadqiqotlarning asosiy predmeti hisoblanadi. Jumladan L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich, B.C.Muxina kabi olimlarning fikricha, bolalarning axloqiy fazilatlari 3-7 yosh oralig‘ida shakllantirish boshqa yoshlargi nisbatan ijobiy ta’sirga egadir, ya’ni bu yoshda bolalarda axloq regulyatsiyasi shakllanadi. L.S.Vigotskiyning fikricha, bolalarning axloqiy fazilat va tasavvurlari ularning kattalar bilan munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda axloqiy g‘oyalar va his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi, «ichki axloqiy holatlar» orqali namoyon bo‘lar ekan.

Tadqiqotchi D.B.Elkonin bolalardagi dastlabki “axloqiy namunalarni” paydo bo‘lishini ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bilan bog‘liq deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida esa mazkur masala, ya’ni ijtimoiy vaziyatni ota-onalar tomonidan shakllantiriladigan rivojlanish manbai sifatida qaraladi. Demak, bolalarda axloqiy tasavvur dastlab oilada kattalarning xoxish istaklarini namoyon bo‘lishidir.

Kichik maktab o‘quvchilarida axloqiy mezonlarning quyidagi xususiyatlari xarakterlidir: bilim va anglanganlik axloqiy me’yorning yuqori darajasidir (T.P.Avdulova, S.G.Yakobson); axloqiy ong darajasi axloqiy xulq-atvor darajasidan yuqori (T.P.Avdulova, V.C.Muxina, L.I.Bojovich); ko‘pincha axloqiy me’yorlarni tengdoshlariga qaraganda ko‘proq kattalar bilan muloqotda amal qiladilar (T.P.Avdulova, J.Piaje, S.N.Karpova, L.G.Lыsyuk). Bu yoshda dastlab axloqiy me’yorlarga nisbatan emotsional munosabat namoyon bo‘ladi, ya’ni ichki motivatsiyaning axloqiy xulq-atvorini shakllanishi boshlanadi (V.S.Muxina, L.I.Bojovich). Demak xulq-atvoning asosiy sifatlari, ijobiy fazilatlarini shu yoshdan shakllantirish maqsadga muvofiq.

Demak yoshlarda milliy tarbiyani asosi hisoblangan axloqning ijobiy fazilatlarini shakllantirishda ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot – asosiy ijtimoiy psixologik omillardan biri ekan. Bolalar

uchun bu muhim bo‘lib, kattalar, ota-onalar, yaqinlarining o‘zaro hamkorligi va muloqoti asosiy jarayonlardan biridir. Tadqiqotchilar M.I.Bobneva, L.I.Bojovich, N.I.Sudakova, S.G.Yakobson kabi olimlarning tadqiqotlarida ham bolalarning identifikatsiya jarayoni milliy tarbiyasi va ijobiy xulq-atvori uchun juda muhim qonuniyatlardan biri ekanligi qayd etildi.

Yuqoridagi milliy tarbiyaning asosi hisoblangan axloq normalariga qaratilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, ota-onalar shaxsining yetukligi bola axloqiy jihatdan rivojlanishida muhimligini asoslaydi. Ota-onalar o‘zlarining onalik va otalik rollarini namunali bajarish bilan farzandlarining barkamoligi va yetukligini ta’minlaydilar.

Yoshlarning milliy tarbiyalanganligi ularning kamoloti va yetukligini asosidir. Mazkur masalani tadqiq qilinishini xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida ko‘pincha psixik va psixologik salomatlik doirasida o‘rganilgan (3.Freyd, E.Fromm, K.Yung, A.Adler, A.Maslou, K.Rodjers, Dj.Kelli, G.A.Miller, V.Frankl, F.Berron, Dj.Pauell, D.A.Leontev, B.G.Ananev, S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov, B.S.Bratus, P.Ya.Galperin, V.A.Petrovskiy, A.N.Leontev, L.I.Bojovich, D.I.Feldshteyn, I.S.Kon, V.N.Panfyorov va boshqalar). 1937 yilda ijtimoiy psixologiya vakillaridan hisoblangan G.Olport tomonidan shaxsning “yetuklik konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Unga ko‘ra G.Olportning yetuk shaxsda qadriyatlar tizimi mavjud bo‘lib, bu esa uning hayotini mazmunli qilish uchun asosiy vositadir deb ta’kidlaydi.

Psixologik tadqiqotlarda shaxsning yetuklik mezonlari olimlar tomonidan taklif qilingan konsepsiyalarda shaxs yetuklik darajasini turli kategoriyalar bilan bog‘lab talqin etganlarini kuzatishimiz mumkin. Ulardan asosiylari: ruhiy salomatlik (ruhiy kasallikning yo‘qligi), shaxslararo munosabatlardagi yetuklik, ya’ni shakllangan dunyoqarash va axloqiy yetuklikning mavjudligi. Tadqiqotchi I.S.Kon shaxsning axloqiy e’tiqodining barqarorligi uning mustahkam dunyoqarashiga bog‘liqdir deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi B.G.Ananev dunyoqarashni ob’ektivligini shaxs tuzilmasiga shaxsning yetukligi deb kiritadi. M.Ya.Dvoreskayaning

fikricha, dunyoqarashning umumiy xususiyatlari hayot faoliyatining yo‘nalishidir.

Tadqiqotchi A.Kardiner bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo‘lgan fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan milliy shaxs siymosi mavjudligini quyidagicha ta’kidlaydi. Ya’ni «Milliy shaxs» ning shakllanishida, eng avvalo, oilaning milliy-tarbiyaviy ta’sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining roli beqiyosdir [90].

Tadqiqotchilar Y.K.Babanskiy, O.S.Bogdanova, L.I.Bojovich, N.I.Boldirev, L.S.Vigotskiy, L.A.Visotina, N.E.Kovalev, R.S.Nemov, B.F.Rayskiy, G.V.Slepuxina, N.A.Sorokin, Ye.V.Subbotskiy, N.M.Trofimova, I.F.Xarlamovlarning ilmiy izlanishlarida axloqiy rivojlanish va xulq-atvor o‘rtasidagi aloqadorlik va ularni yoshlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotchilarining ilmiy xulosalariga ko‘ra jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy me’yorlar, normalar va xulq-atvor qoidalar hamda o‘zaro munosabatlarni shaxsning ichki va tashqi jarayonida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar tizimi deb tushunadilar. Demak, axloqiy taraqqiyot insonning axloqiy ideallari, qadriyatlari, munosabatlarini idrok etishi va rivojlanishidagi «miqdoriy» va «sifat o‘zgarishlari» jarayonini o‘z ichiga oladi. Inson axloqini qay darajada o‘zlashtirib olishi va qabul qilishi, o‘z e’tiqodi va xulq-atvorini jamiyatdagi mavjud axloqiy me’yor va tamoyillar bilan qay darajada bog‘liqligiga qarab, uning axloqiy darajasini baholash mumkin. Odatda, axloq shaxsning xulq-atvorini tartibga soluvchi regulyator vazifasini bajaruvchi sifatida qaraladi.

Demak shaxsning doimiy yoki o‘zgaruvchan sharoitlarda nisbatan uzoq vaqt davomida amalga oshiradigan axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarining yig‘indisi odatda xulq-atvor deb atalar ekan. Insonning xulq-atvori yagona ob’ektiv ko‘rsatkich sifatida uning axloqiy fazilatlari, xulq-atvor qoidalari haqidagi tasavvurlarini shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, insonning xulq-atvori muayyan xatti-harakatlarni ongli ravishda tanlash natijasi bo‘lib, unda shakllangan axloqiy me’yorlar, sifatlar va tamoyillar bilan belgilanadi. Xulq-atvorning axloqiy me’yorlarini o‘zlashtirish uchun eng qulay davr bu kichik maktab yoshi ekanligini N.M.Trofimova o‘z tadqiqotlarida ilmiy asoslab berdi. Axloqiy me’yor bolani muayyan

qadam tashlashi va xatti-harakatlarga undashi mumkin yoki aksincha, ularni taqiqlashi va ogohlantirishi mumkin.

Demak, insonning axloqiy kamolotini uning axloqiy ongini, axloqiy vijdoni va axloqiy olijanoblikka bo‘lgan chuqur ichki istagini shakllantirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ham ko‘rinib turganidek, milliy tarbiya, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar, urf-odat, an’analar, ajdodlar merosi masalalariga alohida e’tibor qaratila, alohida tadqiqot predmetiga aylana boshlandi va buning oqibatida axloq haqidagi qarashlarda ham biroz erkinlik va milliylik sezila boshladi.

Jumladan, mahalliy tadqiqotchilarmizdan, akademik Erkin Yusupov milliy tarbiya va milliy axloq haqida so‘z yuritib, shunday deydi: “Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo‘lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishidir” [202]. Yoki “Axloq – jamiyat, zamon, ba’zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa,” [28] – deb yozadi yuqoridagi fikrni to‘ldirib falsafashunos olim Abdulla Sher.

Axloqni oddiyroq tushuntiradigan bo‘lsak, bir shisha idishga o‘xshatish mumkin. Uning ichida ikki xil suv bo‘ladi – biri tip-tiniq, toza, oq suv, ikkinchisi loyqa, harom, qora suv. Ularning qay biri ko‘p bo‘lsa, shisha idish o‘sha rangda ko‘rinadi: tiniq, oq suv ko‘p bo‘lsa, oppoq, loyqa, qora suv ko‘p bo‘lsa, qora rangda bo‘ladi. Bu yerda tiniq suvni – fazilat, loyqa suvni – illat deb olamiz. Agar axloq nuqtai nazaridan oladigan bo‘lsak, fazilatlari ko‘p bo‘lgan inson – yuksak axloqli inson, illatlari ko‘p bo‘lgan odam esa – axloqi buzuq odam deb ataladi.

Buni “Ma’naviyatning axloqiy asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmadagi fikr ham tasdiqlamoqda: “Axloq (arab. xulqning ko‘pligi; lot. moralis — xulq-atvor) – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviy hayot hodisasi, ma’naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan

munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi. Axloq normalari kishilarning xatti-harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Bunda ba’zi xatti-xarakatlar, xulq-atvorlar axloqiy, ba’zilari axloqsizlik deb baholanadi” [134].

Demak yuqordi keltirilgan fikrlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, har bir xalq uchun alohida yozilmagan axloq qoidalari mavjud. U o‘sha xalqning tarixi, fe’l-atvori, milliy tarbiya prinsiplari, milliy qadriyatlari, milliy urf-odatlari va avval e’tiqod qilgan yoki bugun e’tiqod qilayotgan dinidan kelib chiqib belgilangan bo‘ladi.

O‘rganishlarimiz g‘arb mamlakatlari xalqlarining axloq qoidalari sharqdagi xalqlarning axloq qoidalariga mos kelmasligi, hatto zid bo‘lishi ham mumkinligini ko‘rsatdi. Masalan, bugungi kun nuqtai nazaridan oladigan bo‘lsak, sharqda ota-ona oldida balog‘atga yetgan bolalar kiyimsiz yurmaydilar, hatto cho‘milish havzalarida ham. G‘arbda esa bunga yo‘l qo‘yiladi, hatto uyda ham. Yoki sharq xalqlari ota-onani chuqur hurmat qilib, “Siz”lab murojaat qiladilar, sansirash odobsizlik – illat deb qaraladi. G‘arbda esa bu odatiy holat. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Demak milliy tarbiyalanganlikning eng asosiy shartlaridan biri jamiyat tomonian ishlab chiqilgan normalardagi axloqiy mezon va qoidalariga amal qish bilan belgilanar ekan. Axloq qoidalari bo‘ladi, dedik. Ana shu axloq qoidalariga amal qilgan kishini “axloq qoidalarimizga amal qiladigan odam” degan ibora bilan atashimiz lozim. Ammo biz bu iborani qisqartirib, “axloqli odam” degan iboradan foydalanamiz. Agar aksincha bo‘lsa, ya’ni kim axloq qoidalariga amal qilmasa, uni “axloqsiz odam” deb ataymiz. Axloq – xulqlar majmui. Yaxshi xulqni – fazilat, yomon xulqni – illat deyishimiz mumkin.

Demak, milliy tarbiya shakllantirish masalasida axloq tushunchasini betaraf tushuncha, deb olishimiz mumkin: ijobiy ham emas, salbiy ham. Qachonki uning tarkibidagi yaxshi va yomon xulqlarning (fazilat va illatlarning) miqdori aniqlanganidan keyingina u yaxshi yoki yomonga ajratilishi mumkin. Ya’ni tarbiyali shaxsda fazilatlar bisyor, tarbiyasiz shaxsda illatlar bisyor.

Yosh tadqiqotchi Otabek Bozorov o‘zining ilmiy izlanilarida “Axloq” tushunchasiga kim qanday ta’rif bermasin, uning ma’no va

mazmuni o‘zgarib qolmasligini har qanday holatda ham axloq bu – xulqlar majmui, insondagi yaxshi (fazilat) va yomon (illat) xulqlarning umumlashmasiga beriladigan baho bo‘lib qolaverishligini ta’kidlab axloqning milliy shaklini ilm ahliga taqdim etadi. Biz buni quyidagi shaklda ko‘rishimiz mumkin:



Barachamizga ma’lumki bugungi ochiq axbort asridagi ta’sirida yoshlarning axloqi, tarbiya masalasi qiyinlashib, milliylikdan uzoqlashib borish xavfining yildan-yilga oshib borayotgani xalqi va vatani kelajagini o‘ylaydigan har qanday odamni xavotirga solish tabiiy. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” kitobida ta’kidlanganidek: “Bugungi kunda farzandlarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda” [92].

Demak, bizning oldimizda turgan asosiy vazifa milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlashdan iborat ekan. Buning uchun milliy tarbiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy –psixologik omillar ro‘yxatini tuzib chiqib yosh ota-onalarimizni xabardor qilishimiz lozim. Milliy tarbiyani asosiy tayanch mezoni hisoblangan axloq ilmida esa fazilatlar va illatlar algaritmini ishlab chiqib yoshlarimizni xabardor qilishimiz, har bir o‘quvchiga fazilatlarni singdirish orqali ularning ongi va qalbida illatlarga qarshi immunitet hosil qilishimiz lozim bo‘ladi. Mazkur masala 1sinfdan 11 sinfgacha tashkil etilgan “Tarbiya” darsliklarida ham o‘z aksini topshi kerak. Shundagina yoshlarimizni milliy tarbiya fazilatlari bilan tarbiyalagan, turli buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirgan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda Sa’diy Sheroziyning “Boylik davlatda emas, fazilatda” degan hikmati vaqt sinovida sinalib, hayotiy haqiqatni

topgan naqllardan. Dunyoda ro‘y berayotgan turli voqea-hodisalar, noxush holatlarni kuzatayotganda, ularning aksarida g‘o‘r, bilimsiz, mafkuraviy immuniteti sust yoshlarning qalqon qilingini ko‘rib afsuslanaman. Globallashuvning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy yutuqlari qatori bilintirmay yashirin kirib kelayotgan xavflari kishini o‘ylantiradi, vahimaga soladi, chunki bularning ijtimoiy oqibatlari birdan ko‘zga tashlanmaydi, yillar davomida katta fojialarni olib keladi. “Avval moddiyat, keyin ma’naviyat” deb axloqiy masalalarni chetga surgan mamlakatlar bugun tarbiya, axloq-odobga ko‘proq e’tibor qaratayotgani, maxsus dasturlarni ishlab chiqayotgani biz tanlagan yo‘lning nechog‘lik to‘g‘riligini isbotlaydi.

Shuni ham aytishimiz joizki, bugungi yoshlarimizni ko‘plab yutuqlari har qaysi odamni quvontiradi. Biroq qator muvaffaqiyatlarimizdan havolanmay, eng muhim nuqta – yoshlarning milliy va yuksak tarbiyalanganlik darajalari va unga tasir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganib monitoringini olib borish kerakligini unutmasligimiz kerak.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “yuksak” so‘zining “*baland”, “yuqori”, “yuqori darajadagi”, “oliy”* kabi ma’nolari keltirilgan. Demak, kishi tariyasi ham bevosita quyi, o‘rta, yuqori darajalarga bo‘linib baholanar ekan. Odamlarning bir-biriga “bama’ni odam”, “bema’ni odam” deya nisbat berishi, munosabatlarini shu asosda o‘rnatishi ham tajribadan ma’lum. Shaxsning odob-axloqi, insoniyligi, eng asosiysi, ezgu fazilatlari bir-birimizga qanday muomala qilishni o‘rgatadi. Ko‘pchiligimiz yillar davomida barkamolikka erishish yo‘llarini qidiramiz. Kitob o‘qish, doimiy izlanish, atrof-tevarakni sinchkov kuzatish izlayotgan yo‘lning bir tarafi bo‘lsa, yaxshi fazilatlarni o‘zlashtirish, axloq-odobni to‘g‘rilash, o‘zini o‘zi tarbiyalab borish keyingi muhim yo‘lakdir.

Usta-me’mor imorati mustahkam bo‘lishi uchun sifatli xomashyodan foydalanadi. Binoning mustahkamligi quruvchining mahorati, mahsulotlar sifatiga bog‘liq. Tarbiya jarayoni ham shunga o‘xshaydi. Yaxshi ota-ona farzandini tarbiyasi uchun eng sifatli maxsulotlar (fazilatlar) va mazkur sifatli maxsulotdan foydalaning milliy va zamonaviy bilim, ko‘nikma, malaka va metodlarini doimiy ravishda o‘rganib boradi.

Demak milliy tarbiyalanganlikni asosini axloq, axloqni asosini esa fazilat tashkil etar ekan. Shu o‘rinda Muhammad Zehniy quydagi fikrlarini keltirish joiz, ya’ni “Fazilat naslu nasab bilan emas, balki odob bilan topiladi” [139]. Demak milliy fazilatlar ijtimoiy-psixologik jarayon, uni hayot davomida shakllantirish mumkin.

“Kishida odob bo‘lsa, ilm ham bo‘lishi lozim. Odob aqlga bog‘liq narsa. Aql ustiga odob ham qo‘shilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Ulug‘lik aqlu odob bilan vujudga keladi. Aqlning qadri odob bilan, boylk qadri sahovat bilan, quvvat qadri bahodirlik bilan oshadi. (“Favokih al-julaso”) [139].

“Haqiqiy inson hamisha ilm va hunar olishga intiladi. Ilm bir daraxt bo‘lsa, odob uning mevasidir. Odobsiz olim – mevasiz daraxt kabi” (Muhammad Zehniy) [139].

“Komil odam bo‘lur uchun avvaldan ilm lozimdur. Mundan keyin odob ham poklik aning birodarlaridur. Odob ila poklik bo‘lmaganda ilmdan foyda bo‘lmas” [128].

Biz tadqiqotimiz davomida tarbiya masalasiga daxldor olimlarimizni qarashlarini umumlashtirib inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ijobiy sifatlar buni axloq fazilatlari ham deyishmiz mumkin va inson xulq-atvorini salbiy sifatlari buni axloqning illatlari ham deyishimiz mumkin, ularni algaritmini tuzishga harakat qildik.

Inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ijobiy sifatlar (fazilatlar):

1. To‘g‘rilik.
2. Mehnatsevarlik.
3. Marhamat va yumshoq ko‘ngillilik.
4. Hamdardlik va saxiylik.
5. Odob va hayo.
6. Do‘stlik va qardoshlik.
7. Sabr.
8. Shukr.
9. Kattalarga hurmat, kichiklarga muhabbat.
10. Haqiqat.
11. Adolat.
12. Omonatlilik.
13. Va’daga vafo.

14. Tavba [29]

Inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan salbiy sifatlar (illatlar):

1. Yolg‘on va hiyla.
2. g‘iybat qilish – yomonlash.
3. O‘g‘rilik.
4. Odam o‘ldirish.
5. Ichkilik ichish.
6. qimor o‘ynash.
7. Zino qilish.
8. Tuhmat.
9. Takabburlik.
10. Isrof.
11. Hasad – kunchilik.
12. Gunoh [30]

Biz tadqiqotimiz davomida o‘quvchilar axloqida tarbiyalanishi lozim bo‘lgan “100 ijobiy fazilat” minyusini ham ishlab chiqdik va maktablarda tashkil etilgan “Tarbiya” darsliklariga kiritilishi uchun Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Ta’lim markaziga taklif sifatida jo‘natdik.

“100 ijobiy fazilat” minyusi

№	Tarbiyalanishi lozim bo‘lgan ijobiy fazilatlar	№	Tarbiyalanishi lozim bo‘lgan ijobiy fazilatlar
1	O‘ziga ishonch	51	O‘rtoqlik
2	Mas’uliyat	52	Mehmondo‘stlik
3	Burch	53	Odamgarchilik
4	Daxldorlik	54	Insonparvarlik
5	Mehrbonlik	55	Rahmdililik
6	O‘zini nazorat qilish	56	Muloqotchanlik
7	Xushmomilalik	57	Sobitqadamlilik
8	Mulozamatlilik	58	Hamjamiyatlilik
9	Mehnatkashlik	59	Beg‘arazlik
10	Kamtarlik	60	Harakatchanlik
11	Mardlik	61	Zukolik
12	Oliyjanoblilik	62	Mustaqillik
13	Vijdonlilik	63	Talabchanlik

14	E’tiqodlilik	64	Tinglovchanlik
15	Sadoqatlilik	65	Uquvchanlik
16	Hamdardlik	66	Murosalilik
17	Bag‘rikenglik	67	Muruvatlilik
18	Vatanparvarlik	68	Ma’rifatlilik
19	Fidoyilik	69	Intizomlilik
20	Rostgo‘ylik	70	Tejamkorlik
21	Jasurlilik	71	Bunyodkorlik
22	Qa’tiyatlilik	72	Tinchliksevarlilik
23	Matonatlilik	73	Beg‘ubolilik
24	G‘urulilik	74	Intiluvchanlik
25	Jur’atlilik	75	Qadrlovchanlik
26	Sabrlilik	76	Faollilik
27	Sahiylik	77	Tirishqoqlik
28	Samimiylik	78	Zukolik
29	Or-nomuslilik	79	Ogohlilik
30	Ibo-hayolilik	80	E’tiborlilik
31	Hurmatlilik	81	Ehtiyotkorlik
32	Izzatlilik	82	Udaburonlilik
33	Adolatlilik	83	Halolilik
34	Kechirimlilik	84	Jonkuyarlilik
35	Chidamlilik	85	Xaloskorlik
36	Oqibatlilik	86	Donolik
37	Subitlilik (bir so‘zli)	87	G‘amxo‘rlik
38	Diyonatlilik	88	Muloyimlilik
39	Vazminlik	89	Sofdililik
40	Ro‘zg‘orshunoslik	90	Shijoatlilik
41	Shinavandalik	91	Saramjonlilik
42	Tashabbuskorlik	92	Ezgulilik
43	Tashkilotchilik	93	Barkamolilik
44	Nazokatlilik	94	Vafodorlilik
45	Ziyraklik	95	Salobatlilik
46	Xushf’ellik	96	Ehtiromlilik
47	Ozodalik	97	Hojatbarorlik
48	Sinchkovlilik	98	Donishmandlilik
49	Hayolilik	99	Totuvlilik
50	Ulug‘vorlik	100	Ahlilik

IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Ikkinchi bob tahlillari yuzasidan quyidagicha xulosalar yuzaga keldi.

1. Milliy tarbiyani shakllanishiga ta’sir ko‘rsatayotgan eng asosiy ijtimoiy-psixologik omillardan biri bu - omaviy axborot vositalari ekanligi nazariy asoslandi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar” ko‘p hollarda yoshlarimizni o‘zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib, aniq bir o‘zlikka va madaniyatga xoslikni kamaytirmoqda. Bu jarayonni “marginallashuv”, ya’ni odamlarni o‘z milliy madaniyati, o‘z milliy tarbiyasi, o‘z milliy qadriyatlar va milliy o‘zligidan begonalashayotganligi va ijtimoiy yakkalanayotganligi bilan ham izohlashimiz mumkin.

2. “Ommaviy madaniyat” yoshlarimizda g‘arbona individualizm, egotsentrizm, nigilizm, andishasizlik, behayolik va zo‘ravonlik, milliy qadriyatlar va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarayotganligi asoslandi. Biznigcha bu illatlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari odamlarimizni o‘zi yashab turgan muhiti va o‘zligiga nisbatan daxldorlik fazilatini kamayib borishi, psixologik oqibatlari esa odamlarimiz xatti-harakatlari va xulq-atvorida “apatiya” va “abuliya” kabi qa’tiyatsizlik, umidsizlik, bo‘shanglik, dangasalik, boqimandalik va tushukunlik kabi buzilishlarni kuchaytiradi.

3. Yoshlar orasida taqlidchilik, g‘arbona ideallarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar mutatsiyalashib bormoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma’naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini chulg‘ab olayotganini sezish qiyin emas. Oqibatda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlari oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz bo‘lgan turli janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda”.

4. Yoshlar ongida milliy tarbiya prinsiplarini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq va kamchiliklarni o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish, boshqa milatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalarining

aks etishiga qaratilgan psixologik texnologiya va psixotreninglardan kengroq foydalanish, mazkur ishlar samaradorligini asoslaydi.

5. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqish va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olish maqsadga muvofiq ekan.

6. Yoshlarda umummilliy va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo‘ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun ijtimoiy va psixologik sharoit yaratish lozimligi aniqlandi.

9. Yoshlarning milliy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarini izchil davom ettirish maqsadida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyadagi yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalarini oshirish va shu orqali ularni mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

10. Yoshlar orasida davlatimiz tomonidan uzluksiz va tizimli tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yilish va doimiy monitoringini olib borilishi oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhitni yaratilishini ta’minlaydi.

11. Oilada ota-ona farzanlariga milliy va zamonaviy ta’sirchan metodlar asosida tarbiya jarayonini tashkil etilishi jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat” ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayshini ta’minlaydi.

Shuningdek band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

12. Yoshlar orasida uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amaliy ishlashi oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi.

13. Milliy tarbiya murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, ko‘plab tarbiyaviy jarayonlarning yaxlit natijasidir hamda turli jihatlarning birligida ko‘rib chiqilishi lozim ekan. Yoshlarni milliy tarbiya ruhida tarbiyalash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muhitning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi masala doim diqqat markazida bo‘lishni talab etadi. Shuningdek milliy tarbiyaning o‘ziga xosligi uning muhit bilan chambarchas bog‘liqligida ekan.

III BOB. MILLIY TARBIYA SHAKLLANGANLIGINI O‘RGANISHNING PSIXODIAGNOSTIK ASOSLARI

3.1.O‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik darajalarini tadqiq qilish usullari

Respondentlar haqida umumiy ma’lumot: Mazkur tadqiqot ishiga Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatlarining umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi beshinchi va to‘qqizinchi sinf o‘quvchilari - o‘smirlar guruhi hamda ularning ota onalari jalb qilindi. Jumladan, beshinchi sinf o‘quvchilari orasidan 320 nafar, to‘qqizinchi sinf o‘quvchilari orasidan ham jami 240 nafar o‘quvchi hamda ularning 104 nafar ota-onalar tanlab olindi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, har bir ob’ektdagi respondentlarni to‘liq o‘rganish, ular bilan individual suhbatlar olib borish, ular faoliyatini tadqiqot maqsadiga mos metodikalar yordamida tadqiq qilish uchun Respublikamizning turli hududlaridagi maktab direktorlari, amaliyotchi psixologlar, sinf rahbarlari, ota-onalar, maktab direktorining ma’naviy-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari yaqindan yordam berdilar. Respondentlar tomonidan olingan barcha og‘zaki va yozma ma’lumotlar tadqiqot maqsadiga mos ravishda qayta ishlandi. Tadqiqotga jalb qilingan barcha respondentlardan olingan empirik ma’lumotlar tahlili mazkur bobning 3.1. paragrafda bayon etiladi.

O‘smirlar guruhi deb nomlashdan asosiy maqsad quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Tadqiqot ob’ekti tegishli ijtimoiy-psixologik omillar doirasida olib borilganligi uchun tadqiqot predmeti hisoblangan har bir o‘smirga xos xulq-atvor motivasiyasining shakllanishi, unga bevosita ta’sir etuvchi identifikasiya, refleksiya, munosabat, muloqot va hamkorlik pozitsiyalariga bog‘liq ekanligi hisobga olindi. Shu boisdan har bir ob’ektdagi o‘rganilgan respondentlarga alohida o‘smirlar guruhi deb qaraldi.

2. Qo‘lga kiritilgan empirik ma’lumotlarning qiyosiy-tipik ko‘rinishdagi tahlillarini bayon etishda qulayliklar yaratish uchun tadqiqotda ishtirok etgan barcha 5 - sinf o‘quvchilari jami 2 ta guruhga, 9- sinf o‘quvchilari ham 2 ta guruhga hamda ularning ota-onalari 1 ta

guruhga biriktirildi.

3. Umumiy tarzdagi emotsional zo‘riqish ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda har bir O‘smir va uning faolligi qayd etib borildi. O‘smirlar bilan o‘tkazilgan tadqiqotlar ishning maqsadiga mos ijtimoiy-psixologik bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqot metodikalarini tanlashda albatta mavzu yo‘nalishi, maqsadi va tadqiqotni shakllantirishga xizmat qiluvchi vazifalari asos qilib olindi.

Tabiiyki, har bir tanlangan mezon yoki uslub o‘smirlar guruhi uchun xarakterli bo‘lgan milliy tarbiyaning shakllanganlik darajasining u yoki bu jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Endi har bir mezonning tanlanishi va tadqiq qilish uslubi haqidagi ma’lumotlarning tavsifiga o‘tamiz:

Quyida biz dissertatsion ishimiz davomida qo‘llagan barcha metodikalarning nomlarini keltiramiz:

1. «Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so‘rovnomasi
2. “Tarbiya nuqsonlari” omillarini aniqlash testi (O‘smirlar varianti. E.G.Eydemiller, V.Yustiskis).
3. T.I.Pashukova tomonidan ishlab chiqilgan “O‘smirlar shaxsidagi egotsentrik yo‘nalishlarning sifat ko‘rsatgichlari” metodikasi.
4. S.R.Panteleev va V.V.Stolinlar tomonidan “Sub’ektiv lokal nazorat” so‘rovnomasi.
5. Yu.Kulning “Rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi” metodikasi.
6. Ye.V.Zalyubovskaya “Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” so‘rovnomasi.
7. Meri Edvarsning «Shaxsan ma’qul topilgan jihatlarni aniqlovchi so‘rovnoma» so‘rovnomasi.
8. M. Kubishkinaning «MAS» so‘rovnomasi.
9. Guruhda xulq- atvor motivatsiyasini o‘rganish so‘rovnomasi.
10. Tarbiya omillarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlari.

1-Metodika

Tarbiya nuqsonlari testi omillarini aniqlash metodikasi

“Tarbiya nuqsonlari” testi chet el psixologlari E.G.Eydemiller va V.Yustiskislar tomonidan ishlab chiqilgan. Test anketa savolnomasi 130 ta savoldan tashkil topgan. Bu test orqali ota-onalarning o‘z farzandlarini tarbiyalashlari jarayonida ularga nisbatan qo‘llanadigan 20 ta nuqsonli omillarining tanqidiy darajalari aniqlanadi. Test savollarining umumiy ko‘rinishi va uni o‘tkazish usuli bo‘yicha berilgan izohlar 3-ilovada keltirilgan (103). Tadqiqot davomida ota-onalarni oilada o‘z farzandlariga nisbatan qay darajada munosabatda bo‘lishlarini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida barcha o‘rganilgan ota-onalar bilan chet el psixolog olimlaridan E.G.Eydemiller va V.Yustiskislar tomonidan tuzilgan va Z.T.Nishanova tomonidan milliy muhitga moslashtirilib qayta ishlab chiqilgan (o‘smirlar varianti) “tarbiya nuqsonlari” testi omillarini aniqlash metodikasidan foydalanishni lozim topdik. Quyida endi biz shu metodika bo‘yicha olingan natijalardan ko‘proq diqqatga sazovor bo‘lgan ko‘rsatgichlardan iborat joylarini tahlil qilishga to‘xtalamiz. Olingan natijalarning umumiy ko‘rinishi 3.1-jadvalda berilgan.

OMILLARGA TEGISHLI JAVOBLAR QUYIDAGICHA:

1.A. Haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishadi. Bolaga o‘zini ko‘rsatishiga imkon berishmaydi, unga zo‘r berib g‘amxo‘rlik qilishadi. Bola hamma narsani ehtiyotkorlik bilan bajaradi.

2.B. G‘amxo‘rlikning ozligi. Bola qarovsiz qolgan.

Bola o‘z ixtiyoriga qo‘yib qo‘yilgan.

3.V. Hamma narsaga ruxsat berilgan, barcha injiqliklari so‘zsiz bajariladi.

4.G. Ota-ona bola uchun hamma narsani hal qiladi.

5.D. Qattiq talabchanlik (boladan kattalardek talab qilish, bolalikdan mahrum qilish, uni buzish).

6.E. Kam talabchanlik.

7.J. Hissiy aloqaning yo‘qligi, uni yoqtirishmaydi, buni esa bola ko‘rib, bilib turadi.

8.Z. Kuchli hissiy aloqa. Hissiy aloqani kuchli bildirish.

9.I. Haddan tashqari qattiqqo‘llik. O‘zaro munosabat qo‘rquv asosida tuzilgan.

10.K. Ota-ona uni jazolamaslikka intiladi, hamma narsa uchun kechirishadi.

11.L. O‘zgaruvchan tarbiya (ota-ona kayfiyatiga bog‘liq).

12.M. Hayotining yagona mazmuni-bola. Unga bu haqda ko‘p aytishgan, bola esa, bundan asabiylashgan.

13.N. Yetiltirmay qoldirishadi. Kichiklar davrasiga yo‘llashadi.

14.O. Ota-onalar qat’iyatsizlar. O‘zini qanday tutishni bilmaydilar. Bolaning xohishi bilan ish tutadilar, ota-ona bolasi nima qilishni istasa, shuni qilishadi.

15.P. Bolaning sog‘ligi uchun kuchli qayg‘urish. Nozik-nihol tarbiya. (yuz martalab qo‘lni yuvishga majburlashadi).

16.R. Yoqimsiz (kutilmagan) bola, hayotda martabaning yuqorilashuvida, o‘yin-kulgusiga halal beradi, bola buni biladi.

17.S. Zolimlik-bolaning shaxsiy meniga haqqi yo‘q.

18.T. Ota-onalar orasida ichki kelishmovchilik.

19.U. Erkaklarni hurmat qilishga o‘rgatilmagan.

20.F. Ayollarga nisbatan hurmatsizlik rivojlangan.

3.1-jadval

“Tarbiya nuqsonlari” testi omillari bo‘yicha olingan natijalar (E.G.Eydemiller, V. Yustiskis).

Tadqiqotning ob’ekti				
№	**Omillar**	**n=104**	**N1=56**	**N2=48**
1	**“A”**	**7**	**7**	**6**
2	**“B”**	**5.3**	**7**	**6**
3	**“V”**	**6**	**6**	**5.2**
4	**“G”**	**3.2**	**3.3**	**4**
5	**“D”**	**3.2**	**3.2**	**3.2**
6	**“E”**	**3**	**3**	**3.2**
7	**“J”**	**3.4**	**3.3**	**3**
8	**“Z”**	**3**	**3**	**3**
9	**“I”**	**3.4**	**3.3**	**3**
10	**“K”**	**3.4**	**3.4**	**3.4**
11	**“L”**	**3.3**	**4**	**3.3**

12	**“M”**	**5**	**6**	**3.2**
13	**“N”**	**3.3**	**3.2**	**4**
14	**“O”**	**4**	**3.2**	**4**
15	**“P”**	**6**	**7**	**3.1**
16	**“R”**	**7**	**5.1**	**7**
17	**“S”**	**3.1**	**3**	**4**
18	**“T”**	**3**	**4**	**3**
19	**“U”**	**3.3**	**3.3**	**2.9**
20	**“F”**	**3.1**	**3**	**4**
Izoh: Umumiy o‘rganilgan o‘smirlarning ota-onalari: n=104; O‘g‘il bolalarning ota-ona lari: n1=56; qiz bolalarning ota-onalari: n2=48				

Tadqiqot orqali olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, barcha o‘rganilgan o‘smirlarning ota-onalari “tarbiya nuqsonlari” testining “A” haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishadi (“A”=7 ball) tadqiqotlardan ma’lumki tarbiyada haddan tashqari g‘amxo‘rlik tarbiya ishlarini susaytiruvchi omil hisoblanadi. “V”–hamma narsaga ruxsat berishadi, (“V”=6 ball) demak mazkur omil ham tarbiyaviy ta’sirni susaytiradi, ya’ni ota-onalarning o‘zlari bolalarini yetarlicha kuzatmasliklari, yetarlicha nazorat qilmasliklari va o‘z farzandlarini yetarlicha bilmasliklari oqibatida ularga hamma narsaga ruxsat berishadi, oqibatda ota-onalarning tarbiyaviy ta’siri susayadi. “Z”-kuchli hissiy aloqa bildirishadi (“Z”=3 ball) mazkur omil ham tarbiyaviy ta’sirni susaytiruvchi mil hisoblanadi. Sababi ota-ona imkon boricha o‘z farzandlarini ushlab turishga, uni barcha orzu-tilaklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini o‘zlari qilib berishga oshiqishadi, bu holat esa ota-onaning o‘z farzandlarini o‘zlariga qattiq bog‘lab qo‘yishlariga olib keladi. Oqibatda bola boqimanda bo‘lib qoladi, kelajakda bolada muvafaqiyatga intilish motivi pasayib ketadi.

“O”-ota-onalar qat’iyatsizlar (“O”=4 ball) mazkur omil ham tarbiyada salbiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki tarbiya shilari qa’tiyat, matonat va ma’lum darajadagi prinsiplarni talab etadi. “P”-bolaning sog‘ligi uchun ko‘p qayg‘urishadi (“P”=6 ball). Aksariyat ota-onalarda mazkur omil yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Doinshman xalqimiz bekorga o‘zek xalqini bolajon xalq deyishmagan ekan. Biroq ota-onalarning o‘z bolalarini sog‘ligi uchun ko‘p

qayg‘urishlari ularni tibbiy bilim, ko‘nikma va bilimlarini kamligidan darak beradi. Demak ota-onalarimiz orasida tibbiy madaniyatni oshirishga qaratilgan maqsadli va manzilli ishlarni ko‘proq tashkil etilishi maqsadga muvofiq. “R”-yoqimsiz, kutilmagan bola, deb hisoblashishadi (“R”=7 ball: N=680) kabi omillari bo‘yicha sifat ko‘rsatgichining o‘rtacha qiymati me’yoriy o‘lchamidan ortiqcha ballga teng ekanligi kuzatiladi. Demak, bu o‘rganilgan ota-onalar o‘z farzandlarini erkin bo‘lishiga, o‘z imkoniyatlaridan foydalanishga, o‘zini ko‘rsatishga qo‘yib berishmasdan, ular uchun ota-onalarning o‘zlari hammasini bajarishlari aniqlandi. O‘rganilgan o‘g‘il bolalarning ota-onalarini, qiz bolalarning ota-onalarini o‘rtacha ballining ko‘rsatgich qiymatiga ko‘ra bir oz bo‘lsada yuqori darajani tashkil etganligi bilan farqlangan. Demak, bu o‘rganilgan ota-onalar farzandlarini jinsiga ko‘ra tanlab turlicha munosabatda bo‘lishlari bilan farqlanadi. O‘g‘il bolalarning ota-onalari shu yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan omillardan tashqari “A”-haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishadi (“A”=7 ball), “B”-g‘amxo‘rlikning ozligi (“B”=7 ball), “V”-hamma narsaga ruxsat berishadi (“V”=6 ball), “L”-o‘zgaruvchan tarbiyali bo‘lish (“L”=4 ball), “M”-hayotining yagona mazmuni bola (“M”=6 ball), “P”-bolaning sog‘ligi uchun ko‘p qayg‘urishadi (“P”=6 ball), “T”–ota-onalar o‘rtasidagi ichki kelishmovchilik (“T”=4 ball: n=331) kabi omillari bo‘yicha o‘rtacha qiymatining sifat ko‘rsatgichi me’yoriy o‘lchamidan ortiqcha ballga to‘g‘ri kelganligi kuzatildi.

Qiz bolalarning ota-onalari esa tarbiya nuqsonlari testining “N”-kichiklar davrasiga yo‘llashadi, “O”-ota-onalar qat’iyatsizlar, “R”-yoqimsiz, kutilmagan bola, “S”-zolimlik, bolaning shaxsiy meniga xaqqi yo‘q, “F”-ayollarga nisbatan hurmatsizlik rivojlangan kabi omillari bo‘yicha o‘rtacha qiymatining sifat ko‘rsatgichi me’yoriy o‘lchamidan ortiqcha ballga teng ekanligi bilan namoyon bo‘lmoqda (“A”=6 ball; “B”=6 ball; “G”=4 ball; “Z”=3 ball; “N”=4 ball; “O”=4 ball; “R”=7 ball; “S”=4 ball; “F”=4 ball; n=349). Bu raqamlar, shundan darak beradiki, demak, o‘g‘il bolalarning ota-onalari, qiz bolalarning ota-onalariga qaraganda, ular farzandlarini hayotining yagona mazmunini bola, deb hisoblashar ekanlar. Shuningdek, o‘g‘il bolalarning ota-onalari farzandlarini ko‘proq ayashar, ular haqida qayg‘urishar ekanlar. O‘smirlarning ota-onalaridan olingan natijalar

o‘smirlarning jinsiga ko‘ra tanlab ularga nisbatan turlicha munosabatda bo‘lishlari aniqlandi.

Bu raqamlar shundan darak beradiki, ota-onalar tomonidan bildirilgan munosabatlar qanchalar salbiy bo‘lsa, bu kabi munosabatlar ta’siri ostida o‘sayotgan har qanday o‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlari, muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatlari hamda shaxsning o‘z atrofidagilarga nisbatan shaxslararo munosabatlarining hukmronlik, o‘z hukmini o‘tkazish, amr-farmonlik, zolimlik, ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, qaysarlik, injiqlik, yolg‘onchilik, johillik, tajovuzkorlik va sovuqqonlik kabi etnopsixologik jihatlarining salbiy shakllanishiga sabab bo‘ladi. Chunki haddan tashqari qarovsiz qoldirish yoki tarbiyaning har tomonlama me’yorini saqlamaslik natijasida ham bolalarda yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan xarakter xususiyatlarining salbiy shakllanishi yuzaga keladi. Shuningdek, barcha o‘rganilgan o‘smirlarning ota-onalarini “Z”- hissiy aloqani kuchli bildirishadi (Z=3 ball) omili bo‘yicha o‘rtacha balli me’yoriy o‘lchamidan ortiqcha ballga ega ekanligi kuzatildi. Demak, barcha o‘rganilgan o‘smirlarning ota-onalari o‘z farzandlariga nisbatan haddan tashqari salbiy hissiy holatga berilgan tarzda munosabatda bo‘lishlaridan darak bermoqda (3.1-jadvalga berilgan).

Demak yuqoridagi qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni umumlashtiradigan bo‘lsak ota-onalarning fanzand tarbiyasida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni sanab o‘tishimiz lozim. Jumladan ota-ona farzandiga o‘ta g‘amxo‘rlik qilish oqibatida uni erkinligi va mustaqil fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish kabi jihatlarini shakllanmay qolishiligini, buni oqibatida bolani qo‘rqoq, qo‘rs, tobe, boqimanda, qa’tiyatsiz, dangasa, ishtiyoqsiz, bo‘shang bo‘lib shakllanishiga olib kelmoqda.

Bu tarbiyadagi kamchiliklarni o‘zgartirmasdan turib, ota-onaning tarbiya metodlari va mazkur tarbiyaviy qarashlarini o‘zgartirmasdan turib barkamol avlodni tarbiyalash mushkuldir. Aynan shu maslalarni matematik qayta ishlanamalari yuzasidan o‘zaro korrelyatsiya bog‘lanishlarini aniqlash va tahlili bosqichida esa har bir ko‘rsatgichning mazmuni haqida aniq bir to‘xtamga kelish mumkin bo‘ladi.

2-Metodika
O‘smirlar shaxsidagi egotsentrik yo‘nalishlarning sifat ko‘rsatgichlari
Shaxsning egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlash test savolnomasi

Juda ko‘plab tadqiqotlar ilmiy xulosalaridan ma’lumki, o‘smirlik davrida o‘smirlarning “men”i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilarga ayniqsa o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari, yo‘nalishi keskin o‘zgaradi. Uning o‘z shaxsiga bo‘lgan e’tibori kuchayadi. O‘smirlik davrida shaxs egotsentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Aynan mazkur egotsentrizm holati tarbiyaviy ta’sirni susaytirishga, yoshlarda milliy fazilatlarni shakllanishiga sa’lbiy ta’sir qiladigan asosiy illatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham biz yoshlar orasidagi egotsentrizm illatini darajalarini aniqlamasdan turib, uni bartaraf etmasdan turib milliy tarbiyani shakllantirishimiz qiyin kechadi.

Bu davrda o‘smir o‘z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo‘yadigan, o‘ziga ko‘proq bino qo‘yadigan bo‘lib qoladi bu holatlar esu ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni qiyinlashtiradi, ta’sirini susaytiradi. Shu davrda o‘g‘il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma’noda o‘zining xatti-harakatlarini nazorat qilish, o‘zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko‘rinishiga astoydil e’tibor berishi, pardoz-andoz bilan shug‘ullanish kabi holatlar kuzatiladi.

Egotsentrizm (lot. ego - men va - markaz) — shaxsning o‘z qiziqish doirasiga bog‘lanib qolishi, boshqa odamlar va narsalarga nisbatan o‘zining dastlabki bilishiga oid qarashi yoki fikrini o‘zgartira olmasligi, hatto o‘z tajribasiga qarama-qarshi axborotlarga moslasha bilmasligidan iborat, xislati. Egotsentrizm negizida insonning o‘z nuqtai nazariga qarama-qarshi qarashlar mavjud bo‘lishi mumkinligini tan olmasligi, tushuna bilmasligi hodisasi yotadi.

O‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlash uchun rus psixologi T.I.Pashukova tomonidan ishlab chiqilgan “O‘smirlar shaxsidagi egotsentrik yo‘nalishlarning sifat ko‘rsatgichlari” metodikasi 40 ta tugallanmagan, ya’ni miyaga birinchi kelgan fikr bilan to‘ldirish orqali aniqlanadigan test savolnomasini milliy

muhitning psixologik iqlim sharoitiga moslashtirilgan variantidan foydalanildi va to‘liq variant 4-ilovada keltiriladi. Bu testni o‘tkazish orqali o‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlarini, ya’ni “Men”nining markaziga tegishli shaxs sifatining munosabati aniqlanadi.

Shaxsning egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlash metodikasini sinab ko‘rish maqsadida Buxoro viloyati, Toshkent shahri hamda Navoiy viloyatidan jami 560 nafar O‘smir o‘g‘il va qizlar tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etishdi.

Biz o‘quv yili boshida respondentlardan egotsentrik yo‘nalishlari darajasi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni o‘tkazgan edik. Bunda o‘smirlar tajriba va nazorat guruhlaridagi bo‘lindi. Turli guruhlardagi o‘quvchilardan olingan test natijalari Styudent t-mezoni yordamida bir-biri bilan taqqoslandi (3.2-jadvalga qarang).

3.2-jadval

O‘smir yoshidagi bolalarning egotsentrik yo‘nalishlari bo‘yicha olingan natijalar (n=560)

	Past	**O‘rta**	**Yuqori**
Tajriba guruhi	12,31	10,09	15,24
Nazorat guruhi	11,02	10,50	15,02
Styudent t-mezoni bo‘yicha farqlar	,801	,825	,350

Demak yuqoridagi jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlari aniqlash bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida olingan dastlabki statistik ma’lumotlar o‘rtasida hech qanday farq sezilmadi. Bu esa olingan test natijalarining ishonchli (valid) ekanligi isbotlaydi.

3.3-jadval

O‘smir yoshidagi bolalarning egotsentrik yo‘nalishlari bo‘yicha olingan natijalar (n=560)

№	**Tadqiqot ob’ekti**	**Soni**	**O‘rtacha ball**	**Standart og‘ish**
		n	**M**	σ_n
2	**5-sinf**	**n=320**	**14,9**	7,39
3	**9-sinf**	**n=240**	**14,3**	6,69

Sinaluvchi to‘plangan xomaki ballar qayta ishlanib chiqildi. Boshqacha aytganda, yoshi, jinsiga ko‘ra o‘sishlari bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatgichi va o‘rtacha qiymat (**M**) standart og‘ish (σ) qiyoslangan “EGO”, ya’ni “MEN” lik ko‘rsatgichlari aniqlandi. Jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘rta maktab o‘quvchilarida egotsentrizm ko‘rsatkichlari to‘qqizinchi sinf o‘quvchilariga qaraganda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, 5-sinf o‘quvchilarining standart og‘ish ko‘rsatkichi 9-sinflarninkidan ko‘ra yuqori ekanligi qayd etildi. Bu esa shaxsdagi egotsentrizm xususiyatlari yoshga bog‘liq tarzda shakllanishidan dalolat beradi (3.3-jadval ga qarang).

Endi mazkur metodika bo‘yicha olingan gender farqlarni ham ko‘rib chiqamiz.

3.4-jadval

O‘smir yoshidagi bolalarning egotsentrik yo‘nalishlarining gender natijalari (n=560)

№	Tadqiqot ob’ekti	Soni	O‘rtacha ball	Standart og‘ish
		n	M	σ_n
2	Yigitlar	n=340	13,4	4,34
3	Qizlar	n=220	16,2	5,01

Biz olib borgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, «Shaxsning egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlash» testi bo‘yicha olingan gender natijalari ko‘rsatgichiga ko‘ra qizlarda (16,2) mazkur yo‘nalish yigitlarga (13,4) nisbatan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shaxsda o‘ziga haddan ziyod ishonish ustuvorligi tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o‘ziniki bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi va shuning oqibatida ko‘pincha nizolar, konfiliktlar, tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Egotsentrizmni pasaytirish uchun tadrijiy ravishda «o‘zlik» markazidan «bizlik» «umumiylik» xattiharakatiga o‘tish qobiliyatini rivojlantirish (detsentratsiya)ni yo‘lga qo‘yish joiz. Buni Z.Freydni psixoanaliz nazariyasi bilan tushuntiradigan bo‘lsak “Men” likni “Biz” likka, “Egoizm” ni “Alturizm” ga almashtirish kerak. Yakka shaxs jamoa, millat, jamiyat bilan hamkorlik qilgandagina komil insonga aylanishi hamda qo‘pchilik fikri va izmiga tushishi yuksak naf keltirishini uqtirish lozim. Turmushning barcha sohalarida faol ishtirok etish

orqaligina Egotsentrizmdan xalos bo‘lish mumkin. Egotsentrizm ilk bolalikdan yaqqol ko‘zga tashlanadi, lekin 12-14 yoshlarda bu holat yanada kuchayadi, hatto keksalik davrida ham davom etadi. Tadqiqotlarda egotsentrizmning bir necha turlari o‘rganilgan: a) bilishga oid egotsentrizm shaxsning idrok va tafakkur jarayonlarida namoyon bo‘ladi; b) xulq-atvor egotsentrizmi odamlarning xattiharakati, xulqi va qilig‘ini idrok etishdagi noqobillikda ifodalanadi; v) muomala egotsentrizm inson tomonidan axborotni o‘zgalarga uzatishda yuzaga keladi, boshqalar qo‘llagan tushunchalar, ma’lumotlar va fikrlash mantig‘iga mensimay munosabatda bo‘lishida aks etadi. Shaxslararo munosabatga kirishish, ijtimoiy faollik, atrofidagi ishlar va odamlarga o‘zini aloqadorligini (daxldorligi) anglash va ishbilarmonlik o‘yinlari bilan shug‘ullanish orqali insonda egotsentrizmni kamaytirish mumkin ekan.

«Shaxsning egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlash» testi bo‘yicha olingan gender natijalari ko‘rsatgichiga ko‘ra qizlarda (16,2) mazkur yo‘nalish yigitlarga (13,4) nisbatan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shaxsda o‘ziga haddan ziyod ishonish ustuvorligi tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o‘ziniki bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi va shuning oqibatida ko‘pincha nizolar, konfiliktlar, tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Egotsentrizmni pasaytirish uchun tadrijiy ravishda «o‘zlik» markazidan «bizlik» «umumiylik» xatti-harakatiga o‘tish qobiliyatini rivojlantirish (detsentratsiya)ni yo‘lga qo‘yish joiz. Buni Z.Freydni psixoanaliz nazariyasi bilan tushuntiradigan bo‘lsak “Men” likni “Biz” likka, “Egoizm” ni “Alturizm” ga almashtirish kerak. Yakka shaxs jamoa, millat, jamiyat bilan hamkorlik qilgandagina komil insonga aylanishi hamda qo‘pchilik fikri va izmiga tushishi yuksak naf keltirishini uqtirish lozim. Turmushning barcha sohalarida faol ishtirok etish orqaligina Egotsentrizmdan xalos bo‘lish mumkin. Egotsentrizm ilk bolalikdan yaqqol ko‘zga tashlanadi, lekin 12-14 yoshlarda bu holat yanada kuchayadi, hatto keksalik davrida ham davom etadi. Tadqiqotlarda egotsentrizmning bir necha turlari o‘rganilgan: a) bilishga oid egotsentrizm shaxsning idrok va tafakkur jarayonlarida namoyon bo‘ladi; b) xulq-atvor egotsentrizmi odamlarning xattiharakati, xulqi va qilig‘ini idrok etishdagi noqobillikda

ifodalanadi; v) muomala egotsentrizm inson tomonidan axborotni o‘zgalarga uzatishda yuzaga keladi, boshqalar qo‘llagan tushunchalar, ma’lumotlar va fikrlash mantig‘iga mensimay munosabatda bo‘lishida aks etadi. Shaxslararo munosabatga kirishish, ijtimoiy faollik, atrofidagi ishlar va odamlarga o‘zini aloqadorligini (dahldorligi) anglash va ishbilarmonlik o‘yinlari bilan shug‘ullanish orqali insonda egotsentrizmni kamaytirish mumkin ekan (3.4-jadval ga qarang).

3-Metodika
“Sub’ektiv lokal nazorat” so‘rovnomasi.

Mazkur so‘rovnoma S.R.Panteleev va V.V.Stolinlar tomonidan modifikatsiya qilingan bo‘lib, sub’ektiv lokal nazoratning ustun turini aniqlash uchun xizmat qiladi. Mazkur metodikani to‘liq variant 2-ilovada keltiriladi. Bizningcha yoshlarni internallik va eksternallik darajalarini bilishimiz va tarbiyaviy ishlarni shu asosda tashkil etishimiz uning samaradorligini oshiradi. Sababi tarbiyaviy ta’sirda internal yoshlar uchun alohida tarbiyaviy dastur va eksternal yoshlar uchun alohida tarbiyaviy dastur ishlashi kerak. So‘rovnoma faoliyat jarayonida shaxsning muhim kasbiy sifatlarini ham tekshirishga qodir psixodiagnostik uslub ham sanaladi. Mazkur so‘rovnoma 300 nafar o‘smirni tekshirib ko‘rish orqali standartlashtirilgan:

Yo‘riqnoma: “Quyidagi juft – juft ta’kidlardan o‘zingizga ma’qul bo‘lgan bittasini tanlang”.

So‘rovnoma shkalalari va uni qayta ishlash

Har bir shkalada tegishli savollar nomeri keltirilgan, ana shu savollarga mos javob bergan bo‘lsangiz 1 balldan berasiz.

1. Internal lokus nazorat shkalasi: 2b, 3a, 4a, 5b, 6a, 7b, 8b, 10b, 11a, 12a, 13a, 14a, 16a, 17b, 18b, 19b, 20b, 22b, 23b, 24b, 25b, 27a, 28b, 29a, 31a, 32b.
2. Eksternal lokus nazorat shkalasi: 2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8a, 10a, 11b, 12b, 13b, 14b, 16b, 17a, 18a, 19a, 20a, 22a, 23a, 24a, 25a, 27b, 28a, 29b, 31b, 32a.

Chalg‘ituvchi bandlar: 1, 9, 15, 21, 26, 30.

Sub’ektiv lokal nazorat ko‘rsatkichi sinaluvchilarning lokus nazorat darajasini o‘lchashga xizmat qiluvchi bandlar bo‘yicha, ya’ni to‘plangan ballar asosida aniqlashtiriladi. Har bir shkalalar bo‘yicha

mos javoblar tanlab olinadi. Umumiy ballar hisobi bo‘yicha shaxsning faoliyatdagi nazorat darajasi tahlil etiladi. Mezonga ko‘ra:

– Standart og‘ish darajasi – 4,4;
– O‘rtacha ball – 14, 2;
– 26 ball yuqori darajadagi eksternal nazoratning mavjudligini belgilab, bunday shaxslar sabab va oqibatlarni atrof-muhitdan qidiruvchilar sanaladi.

3.5-jadval

Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan umumiy natijalar (n=560)

№	Lokus nazorat	N	Minimum	Maksimum	O‘rtacha	Standart og‘ish	Dispersiya
1.	Internal	560	2,00	17,00	9,49	2,99	8,74
2.	Eksternal	560	8,00	25,00	15,61	3,06	9,31

Ushbu metodika bo‘yicha olingan dastlabki ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda internallik tipiga nisbatan eksternallik tipi yuqori darajada shakllangan ekan. Bundan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, o‘smirlarning tarbiyaviy jarayonlarining omillari yetarli darajada shakllanishi uchun eksternallik sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi (3.5-jadval ga qarang).

Endi sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi bo‘yicha shkalalar tahliliga o‘tamiz. Mazkur metodika standartlashtirilgan o‘zini-o‘zi baholash tamoyillariga asoslangan bo‘lib, o‘zini-o‘zi hurmat qilish, o‘zini-o‘zi qadrlash hamda qiziqishlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

3.6-jadval

Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha o‘smirlardan olingan umumiy natijalar (n=560)

№	Ko‘rsatkichlar	Ui	Mi	Oi	Yai	Oi	Shi	Si
1.	Omillar soni	44	12	12	10	8	4	4
2.	O‘rtacha qiymat	26,3	7,2	5,9	5,1	4,8	2,5	2,5
3.	Foizda	60	62,5	49,1	51	60	62,5	60

Ui-Umumiy internallik
Mi - Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik
Oi - Omadsizliklar sohasidagi internallik

Yai-Yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallik

Oi-Oilaviy munosabatlardagi internallik

Shi-Shaxslararo munosabatlardagi internallik

Si-Sog‘liq va kasallik bo‘yicha internallik

Natijalar tahlil qiladigan bo‘lsak, eng yuqori natija (62,5%) shaxslararo munosabatlar hamda muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallikda kuzatildi. Bu o‘smirlarning nisbatan muloqotda va muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan kompetensiya ko‘rsatkichlarini namoyon etishi mumkin. Mazkur holatlar tarbiyaviy ta’sir uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Eng quyi natija (51% i 49%) omadsizliklar sohasidagi internallik va yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallikda ekanligi qayd etildi. Demak mazkur natijalardan ko‘rinib turibdiki yoshlarda internallikka nisbatan eksternallik yuqori ekan, ular omadsizlikdan ko‘ra omadga ko‘proq intilar ekan bu yaxshi holat hisoblanadi.

Biroq yoshlarni yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internalliklari tarbiyaviy ta’sir uchun salbiy holat hisoblanadi. Demak yoshlarimiz yangi narsa va hodisalarni bilishga bo‘lgan qiziqishlari pastligini ham ko‘rsatadi bu. Mazkur natija yoshlarda milliy o‘zligi, milliy qadriyatlari bilan bog‘liq yangi narsa va hodisalarni o‘rganishga qiziqishlari patligini ko‘rsatdi. Shuning uchun mazkur masalada yoshlar orasida maqsadli va manzilli psixoprofilakt ishlarni amaliy jihatdan ta’sirchan va zamonaviy metodlarda tashkil etish kerakligi ko‘rsatadi.

Eng quyi natija (51% i 49%) omadsizliklar sohasidagi internallik va yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallikda ekanligi qayd etildi. Demak mazkur natijalardan ko‘rinib turibdiki yoshlarda internallikka nisbatan eksternallik yuqori ekan, ular omadsizlikdan ko‘ra omadga ko‘proq intilar ekan bu yaxshi holat hisoblanadi (3.6-jadval ga qarang).

Biroq yoshlarni yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internalliklari tarbiyaviy ta’sir uchun salbiy holat hisoblanadi Demak yoshlarimiz yangi narsa va hodisalarni bilishga bo‘lgan qiziqishlari patligini ham ko‘rsatadi bu. Mazkur natija yoshlarda milliy o‘zligi, milliy qadriyatlari bilan bog‘liq yangi narsa va hodisalarni o‘rganishga qiziqishlari patligini ko‘rsatdi. Shuning uchun mazkur masalada

yoshlar orasida maqsadli va manzilli psixoprofilakt ishlarni amaliy jihatdan ta’sirchan va zamonaviy metodlarda tashkil etish kerakligi ko‘rsatadi.

3.7-jadval

Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi o‘z-o‘ziga munosabat omillari bo‘yicha o‘smirlardan olingan umumiy natijalar (n=560)

№	Ko‘rsatkichlar	S	I	II	III	IV
1.	Omillar soni	28	15	16	13	8
2.	O‘rtacha qiymat	19,5	10,3	9,8	10,5	6
3.	Foizda	69,6	68,6	61,2	80,7	75

S – o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati. Narsa va hodisalarga munosabati va qarshiligi

I - o‘z qobiliyatlarini, energiyasini, mustaqilligini, o‘ziga ishonch darajasini anglash.

II - autosempatiya, ijobiy yoki salbiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini ayblash tendensiyasi

III - boshqalardan ijobiy munosabatni kutish.

IV - shaxsiy manfaat

O‘z-o‘ziga munosabat so‘rovnomasi testining natijalari bo‘yicha barcha o‘rtacha ko‘rsatkichlar 50% dan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘smirlarning o‘z-o‘ziga munosabat omillari ijobiy ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Biroq omillar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak tarbiyaviy ta’sir uchun salbiy holatlar ham mavjud. Jumladan, “S” omili bo‘yicha o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati yaxshi biroq boshqa narsa va hodisalarga nisbatan munosabatining yomonligi va o‘zidan boshqa “Ego” larga qarshi turishi tarbiyaviy ta’sirni susaytiradigan asosiy omil hisoblanadi. Agar mazkur holat o‘smirlarda 69.9% ko‘rsatkichni ko‘rsatgan bo‘lsa bu o‘rtachadan yuqori hisoblanadi. Demak mazkur holatlarni pasaytirmasdan turib ular bilan milliy tarbiya ishlarini tashkil etish mushkul kechadi.

Yoshlar orasida autosempatiya, ijobiy yoki salbiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini ayblash tendensiyasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar 61,2% ni tashkil etdi, bu holat ham o‘rtachadan yuqori degani. Demak

yoshla orasidagi o‘zini ayblash tendensiyasini kuchayib borishi ular orasidagi o‘zig ishonchni pasaytirish, umidsizlik, tushkunlik, agressiya, frustratsiya va sutsid kabi holatlarni ko‘payishiga olib keladi. Mazkur holatni maqsadli va mazilli psixoprofilaktikalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Eng yuqori natija III shkalasi ya’ni boshqalardan ijobiy munosabatni kutish omili 80,7% ni tashkil etdi. Bu esa o‘smirlik davrida yuz beradigan krizislarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki, o‘smirlik davrida emotsional holatning yuqori bo‘lishi ularda boshqa insonlardan ijobiy munosabatlarni kutish tendensiyasini namoyon etadi. Biroq real hayotda hamma vaqt ham kattalar o‘smirlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishmaydi, demak kattalar va o‘smirlar orasidagi aksariyat ziddiyatlarni asosi shu omilga ham bog‘liq hisoblanadi.

Mazkur natijalar shu yoshda o‘smirlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘proq pozitiv yo‘llar bilan berilishi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati qadrlanishini hurmat qilish, o‘ziga ishonchni ortirish va uni qadrlash, bunda ko‘proq kattalar tomonidan o‘smirlaga ishonch bildirish, ular bilan ijobiy, do‘stona munosabatda bo‘lish kabilar ular orasidagi boshqalarni rad etish, o‘zini ayblash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasayishi, umidsizlik, tushkunlik, agressiya, frustratsiya va suitsid kabi holatlarni oldi olinar edi.

Endi mazkur metodika shkalalari bo‘yicha olingan natijalarning gender farqlarini ko‘rib chiqamiz.

3.8-jadval

Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha o‘smirlardan olingan natijalarning gender tahlili (n=560)

Ko‘rsatkichlar	Qizlar	Yigitlar
	% hisobida	
Internal	41,1	68,7
Eksternal	17,6	18,7
Aniqlanmagan tip	35,2	18,7
O‘z-o‘ziga yuqori baho	58,8	75
O‘z-o‘ziga quyi baho	41,1	25
Hayotdan qoniqish indeksi (yuqori)	70,5	81,2
Hayotdan qoniqish indeksi (quyi)	29,4	18,7

Mazkur omillar bo‘yicha olingan statistik natijalarning gender tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, internallik omilida eng yuqori farq kuzatildi. Yigitlarda qizlarga nisbatan ichki lokus nazorat kuchliroq ekanligi qayd etildi. Buni esa yigitlarda o‘z hayotlari uchun qizlarga qaraganda ko‘proq mas’uliyatni his qilishlari hamda o‘z hayotida bo‘layotgan yutuqlar hamda muvaffaqiyatsizliklarga ko‘proq o‘zlarini sababchi deb bilishlari bilan izohlash mumkin. Qizlarda esa mazkur holat aksincha, ko‘proq boshqalarni ayblash tendensiyasi ustunlik qiladi, ya’ni bu holatni psixoanalitik tahlil qiladigan bo‘lsak qizlarda yigitlarga nisbatan proeksiya mexanizmini ustunligini kuzatishimiz mumkin. Demak mazkur farqlarni yana bir izohi ularning jamiyatdagi ijtimoiy rol vazifalari va ma’suliyatlari bilan bog‘liq ekan.

Eksternal lokus nazoratni qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo‘lishi, yigitlarni qizlarga nisbat ko‘proq ko‘cha-kuyda, jamiyatda faolroq bo‘lishlari ularni jins rol vazifalari bilan ham bog‘liqligidadir. Ya’ni yigitlar qizlarga nisban ko‘proq odamlar bilan muloqotda bo‘lishlari kerak, jamiyatda o‘z o‘rnilariga o‘zlarini mehnatlari bilan erishishlari kerak, demak yigitlar biladiki, ma’lum bir ijtimoiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmasdan turib ular bu narsalarga erisha olmaydi, shuning uchun ular imkon qadar ko‘proq tashqi yo‘nalganliklarini, o‘zlarini bor imkoniyatlarini boshqalarga ko‘rsatishga, ki shug‘ullanayotgan faoliyatlariga bor ichki imkoniyatlarini safarbar etishar ekan.

Yoki hayotdan qoniqish indeksini ham qizlarga nisbatan yigitlarda ko‘proq ekanligi, ularni jamiyatda o‘zlarini mavqelari va pristijlari uchun ko‘proq intilishlari va mazkur narsalarga erishish bilan bog‘liq hayotdan qoniqish darajasi yuqorilab borar ekan (3.8-jadval ga qarang).

4-Metodika
“Rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi” metodikasi

Bizningcha yoshlarda miliy tarbiyani shakllanishi, ya’ni yoshlar o‘z xulq-atvorlarida ma’lum bir ijobiy sifat va fazilatlarni shakllantirishi yoki o‘z xulq-atvorlaridagi ma’lum bir salbiy sifat va

illatlarni korreksiya qilishlari, yo‘q qilishlari irodaviy zo‘rberishsiz amalga oshmaydi.

Shu sabadan biz shaxs irodaviy sifatlari va uni darajalarini o‘rganishni ham maqsad qildik. Shu maqsadda biz Yu. Kul (Kuhl) tomonidan 1991 yilda ishlab chiqilgan “Rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi” metodikasini qo‘lladik. Mazkur metodika 1997 yilda S.A.Shapkin tomonidan rus tiliga adaptatsiyasi amalga oshirilgan. Yu. Kul iroda faolligiga ko‘ra insonlarni ikki turga ajratadi (harakatning nazoratiga ko‘ra):

1. Holatga yo‘nalganlik (HolY): shaxs oxiriga yetkazilmagan va yakunlanmagan intilishlar, uchragan omadsizliklar to‘g‘risidagi takroriy xayol va fikrlar tufayli harakatni amalga oshirishda qiyinchiliklarga uchraydilar;

2. Harakatga yo‘nalganlik (HarY): shaxs intilishlarini amalga oshirishda xalaqit berishi mumkin bo‘lgan fikr va kechinmalarni boshidan o‘tkazmaydi. Shunga ko‘ra, Har Y-sub’ektlar anglanmagan tarzda harakat muddaosini boshqaradilar: aniq muddaoga asoslangan harakat o‘z-o‘zidan boshqariladi, u ong tomonidan doimiy nazorat qilishga muhtoj emas.

Savollar uchta shkalaga ajratiladi: “rejalashtirishda harakat nazorati”, “harakatni amalga oshirishda nazorat” va “omadsizlikda harakat nazorati”.

Metodika bo‘yicha olingan yuqori ko‘rsatkichlar harakatga yo‘nalganlikni, quyi ballar esa holatga yo‘nalganlikni anglatadi. Holatga yo‘nalganlikda alienatsiya fenomeni kuchli ifodalanadi (begonalashish, ichki erksizlik, faol bo‘lishdan qoniqmaslik, erkin ravishda harakat muddaosiga, harakatni yakunlashga, o‘zgartirish, yo‘naltirish, to‘g‘rilashga botinmaslik, cheklanganlik va h.k.). Harakatni muvaffaqiyatli boshqarish uchun sub’ekt o‘zida motivatsion-emotsional kutilmalarini namoyon etuvchi o‘tmishdagi, hozirgi va istiqboldagi (ehtiyojiy) holatni reprezentatsiyasi zarur bo‘ladi. Yuqoridagilar o‘z navbatida muddaoning barqarorligi, to‘laqonliligi va kuchli bog‘lanishni ta’minlaydi.

Begonalashish (alienatsiya) – o‘z kutilma va emotsional taxminlarini shakllantirish qobiliyatining buzilishidir. Buning natijasida shaxs ayni damda ko‘zlayotgan yoki amalga oshirayotgan

muddaosining motivatsion-emotsional asosini anglab yetmaydi. Muddaoni emotsional qo‘llab-quvvatlamaslik tufayli harakatni tanlash va amalga oshirishda ichki erksizlik his etiladi: shaxsning oldiga qo‘ygan maqsadi “o‘zinikimasdek”, “begonadek” tuyuladi. Maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harakatlar esa sub’ekt tomonidan emas, balki tashqi ta’sirlar tomonidan rejalashtirilgandek tuyuladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, inson nima sababdan bu narsalarni qilayotganini anglab yetmaydi, hayotdagi xatti-harakatlari mazmun-mohiyati bilan bog‘liq muammoga duch keladi (A.N.Leontev). O‘zining emotsional kutilmalarini anglab yetmaslik natijasida sub’ekt o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshira olmaydi. Oqibatda u boshqa odamlar tomonidan singdirilgan kutilma va qadriyatlar ta’siri ostida qolib, o‘zga kishilarning muddaolariga “xato internalizatsiyasi” sodir bo‘ladi. “Xato internalizatsiya” fenomeni odamlarning boshqa kishilardan alohida tarzda mavjud bo‘lmasligi va shuning uchun shaxsning o‘z maqsadlari o‘zga kishilarning maqsadlari bilan mos tushishi oqibatda shaxsda:

1.Ularni e’tiborsiz qoldirib o‘z bilganich a, xohlaganicha ish tutishi yoki;

2. Ularni qabul qilib, amalga oshirishi mumkin.

Oxirgi holatda o‘zgalarning maqsadlarini qabul qilishda (introeksiyalashda) bu maqsadlar shaxs tomonidan “begonadek” qabul qilinadi. Introeksiyaning uchinchi turi ham mavjud bo‘lib, u harakatlar tashabbusi defitsiti kuzatiladigan individlarda uchraydi. Bunday shaxslarda o‘zini nazorat qilish zaif bo‘lganligi sababli o‘zgalarning “virus-maqsadlari”ni anglab yetmay o‘zinikidek qabul qiladi. Bunda harakatlar boshqa kishilarning maqsadlari tomonidan boshqariladi. Bu esa shaxsning ichki nizolarini kuchaytiradi va irodaviy boshqaruv samaradorligiga salbiy ta’sir etadi.

O‘smirlarda harakatni amalga oshirishda holatga va harakatga yo‘nalganligi.

Tadqiqotimizda o‘smirlarning holatga yoki harakatga yo‘naltirilganligini aniqlash uchun mazkur metodikadan foydalandik. Olingan natijalar 3.9-jadvalda aks ettirilgan.

3.9-jadval

“Rejalashtirishda harakat nazorati shkalasi” metodikasi natijalari

Ob’ektlar	Holatga yo‘nalganlik	Harakatga yo‘nalganlik
O‘smirlarning barcha tanlamasidagi natijalar	33,7 %	66,3 %

Tadqiqotimizda ishtirok etgan o‘smirlarning umumiy tanlanmasida rejalashtirishda harakat nazorati shakli metodikasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, 34 % ga yaqin o‘smirlarda holatga yo‘nalganlik ustun bo‘lib, qolgan 66 % o‘smirlarda harakatga yo‘nalganlik yetakchilik qiladi. Demak, o‘smirlarning aksariyatida maqsadga erishish oldida uchrovchi to‘siq va qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan, omadsizlik va noxushliklarga e’tiborsizlik, muddaoga erishish ustunlik qiladi. O‘smirlarning uchdan biridagina oxiriga yetkazilmagan va yakunlanmagan intilishlar, uchragan omadsizliklar to‘g‘risidagi takroriy xayol va fikrlar tufayli salbiy emotsional kechinmalar yetakchilik qilib, bu o‘smirlardagi qat’iyatsizlik, pessimizm, tashabbussizlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunday o‘smirlar harakatni amalga oshirishga qaraganda o‘tmish tajribasi haqidagi qayg‘urishlari ko‘proq vaqt egallaydi.

Quyida 3.10-jadvalda o‘smirlarning yosh xususiyatiga ko‘ra rejalashtirishda holat va harakat nazorati yo‘nalganligiga oid empirik natijalar keltirilgan.

3.10-jadval

“Rejalashtirishda harakat nazorati shkalasi” metodikasi bo‘yicha yosh xususiyatlari tahlili (n=560)

O‘smirlar yoshidagi farqlar (p=0,01)	Holatga yo‘nalganlik	Harakatga yo‘nalganlik
11-12 yosh	35 %	65 %
13-14 yosh	20 %	80 %
15-16 yosh	11 %	89 %

Tadqiqotimizda olingan natijaga muvofiq shuni ta’kidlash mumkinki, o‘smirlar ulg‘ayib borgan sari holatga yo‘nalganlik koeffitsienti quyilashib boradi. Agar o‘smirlikning boshlang‘ich davrida bu ko‘rsatkich 35 % ni tashkil etsa, oxiriga borib bu koeffitsient uch barobar (11%) qisqaradi. Mazkur voqelikni hayotiy va ta’lim jarayonidagi tajribasizligi tufayli emotsional holatlarini yaxshi boshqara olmaydigan o‘smirlar vaqt o‘tib ham hayotiy tajribaga, ham stressga bardoshlilik kabi sifatlarni orttiradilar, natijada o‘smirlarda harakatga yo‘nalganlik (89%) ko‘rsatkichi yuqorilashib boradi. O‘smirlar yoshi kattalashib borgan sari ularda ma’lum ta’lim va kasbiy muammolarni hal etishga taalluqli ko‘nikma va malakalar ortib boradi, o‘tmishdagi emotsional kechinmalarini qayta eslab, qayg‘urganga qaraganda, ularni tahlil qilib, salbiy tusini neytrallashtirish, shuningdek, vaziyatni o‘zgartirish, harakat qilish muhimroqligini anglab yetadilar. Demak, yuqoridagi tahlillarga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, o‘smirlarning rejalashtirishda harakat nazorat shakli vaqt o‘tishi bilan o‘zgarish ehtimoli yuqoriroq. Avval holatga yo‘nalganlik kuzatilgan o‘smirlar vaqt o‘tib harakatga yo‘nalgan tipga aylanishi mumkin (3.10-jadvalga qarang).

5-Metodika
Guruhdagi xulq- atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasi

Tadqiqotimizning asosiy maqsadlaridan yana biri yoshlarda milliy tarbiya shakllanishida ijtimioy psixologik omilari sifatida o‘smirni guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasiga bog‘liqligini tekshirish bo‘lganligi sababli biz V.Stefansonning “Q - saralash, real guruhdagi xulq-atvorning ustivor jihatlarini diagnostika qilish metodikasi”dan foydalandik. Metodika amalda insonning real guruhda namoyon bo‘luvchi olti xil xulq-atvor tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi (6-ilovaga qarang). Metodika aniqlaydigan ustivor ijtimoiy xulq yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

a) **qaramlik** (kimlargadir tobelik, bog‘liqlik). Bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochish tendensiyalarini bildiradi;

b) **mustaqillik** - aksincha guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirlikni bildiradi;

v) **muloqotmandlik** - bu tendensiya shaxsning guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o‘rnatishga intilish, bu aloqalarning ko‘pincha samarali ekanligini tasdiqlaydi;

g) **odamovilik** – insonning guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi, guruhdan ajralishga moyilligini aniqlaydi;

d) **“kurash”ga tayyorlik** - “Kurash”ga nisbatan tendensiya insonning guruh hayotida faol ishtirok etishga bo‘lgan ishtiyoqi, shaxslararo o‘zaro munosabatlartizimida yanada yuqoriroq mavqega ega bo‘lishga intilishni ko‘rsatadi;

ye) **“kurash”dan qochish** esa buning teskarisi, o‘zaro aloqa, ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda neytralitet (betaraflik) ni saqlab qolishga intilishni ko‘rsatadi.

Ushbu metodika yordamida qo‘lga kiritilgan natijalar tahlili va xulosalar har bir berilgan javob uchun 1 balldan qo‘yib chiqilishi orqali amalga oshiriladi. Agarda bitta shkala bo‘yicha ballar miqdori, qarama-qarshi shkala bo‘yicha ballar miqdoriga teng, yoki unga yaqinroq miqdorda bo‘lsa, ushbu sinaluvchida ichki diskomfort borligidan, noaniqlilik kuchliligidan dalolat beradi.

3.11-jadval

Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki statistik natijalar tahlili (n=560)

№	Omillar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		M	S	M	S
1	qaramlik	9,9	1,3	9,3	1,7
2	mustaqillik	6,7	1,1	7,3	1,3
3	muloqotmandlik	4,4	1,2	5,2	1,3
4	odamovilik	4,5	1,4	3,9	1,8
5	“kurash”ga tayyorlik	5,9	1,2	6,5	1,3
6	“kurash”dan qochish	8,6	0,9	7,3	1,0

Demak yuqoridagi jadvalda keltirilgan empirik koʻrsatkichlarni tahlil qiladigan boʻlsak oʻsmirlar xulq-atvorida “qaramlik” tendensiyalari boʻyicha tajriba guruhida (1,3), nazorat guruhida (1,7) koʻrsatkichlar qayd qilindi. Demak mazkurni holatni oʻsmirlarni kimlargadir tobelik bogʻliqlanib qolishlar yaqqol namoyon boʻlishi bilan izohlash mumkin. Qolaversa bu sifat guruhdagi oʻzaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochishsha mayilliklarini ham bildiradi.

Oʻsmirlarning xulq-atvorida “mustaqillik” tendensiyalari esa tajriba guruhida (1,1) nazorat guruhida (1,3) koʻrsatkichni qayd qildi. Ush bu holatni oʻsmirlarda guruhning normalarini oʻz fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bogʻliq faoliyatni koʻrsatishga hozirligi bilan izohlash mumkin.

“Muloqotmandlik” xulq-atvor tendensiyalari boʻyicha tajriba guruxida (1,2), nazorat guruxida esa (1,3) koʻrsatkichlar qayd qilindi. Demak bu tendensiya oʻsmirlarning guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar oʻrnatishga intilishi, bu aloqalarning koʻpincha samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Oʻsmirlarning xulq-atvoridagi “odamovilik” tendensiyasi tajriba guruxida (1,4) va nazorta guruxida esa (1,8) koʻrsatkichlarni qasd qildi. Mazkur holatni ular orasidagi guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan oʻzini chetga olishi va guruhdan ajralishga moyilligi bilan izohlash mumkin.

“Kurash”ga tayyorlik” xulq-atvori omili tajriba guruxida (1,2) nazorat guruxida (1,3) koʻrsatkichni qad qildi. Buni oʻsmirlardagi guruh hayotida faol ishtirok etishga boʻlgan ishtiyoqi, shaxslararo oʻzaro munosabatlartlarda yanada yuqoriroq mavqega ega boʻlishga intilishlari bilan izohlash mumkin.

Oʻsmirlar xulq-atvoridagi “kurash”dan qochish omili tajriba guruxida (0,9) nazorat gurixida (1,0) koʻrsatkichlarni qayd qildi. Mazkur holatni oʻsmirlarni oʻzaro aloqa, ta’sirlarni chetlab oʻtish, ziddiyat va bahslarda neytralitet (betaraflik) ni saqlab qolishga intilishi bilan izohlashimiz mumkin (3.11-jadvalga qarang).

6-Metodika
“Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” metodikasi [72]

Albatta, biz uchun yana muhim fakt bu shaxs tomonidan guruhni perseptiv jihatdan idrok qilish xususiyatlaridir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun biz Ye.V.Zalyubovskaya tomonidan taklif etilgan “Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” metodikasidan foydalandik. Metodika shaxsdani ijtimoiy va tarbyaviyy yo‘nalganlikning (individ tomonidan guruhni idrok etishning) uchta asosiy turini: individualistik, jamoaviylik va pragmatik turlarinianiqlash imkonini beradi. Ushbu uslub, demak, bizga respondentda individualistik, ya’ni, faqat o‘z manfaatini o‘ylab yashash,jamoaviylik – ya’ni, o‘zi mansub bo‘lgan jamoa manfaatlarini himoya qilishga hozirlik yoki pragmatik – vaziyatga qarab ish ko‘rish kabi xulq modellaridan qay birini afzal ko‘rishini aniqlashga yordam berdi. Metodika, uning yo‘riqnomasi va qayta ishlash kaliti va yo‘llari 5-ilovada keltirilgan. Endi mazkur metodika bo‘yicha olingan dastlabki statistik ma’lumotlar tahliliga o‘tamiz.

3.12-jadval

“Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” metodikasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahlili (n=560)

Respondentlar	**Mezonlar**	Statistik ko‘rsatkichlar	
		M-o‘rtacha arifmetik qiymat	S^2 standart og‘ish darajasi
yigitlar (n=340)	individuallik	12,9	7,8
	jamoaviylik	11,8	7,5
	pragmatik	12,4	7,9
qizlar (n=220)	individuallik	10,6	6,2
	jamoaviylik	12,4	7,3
	pragmatik	11,6	7,4

“Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” metodikasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, biz dastlab respondentlarni gender jihatdan tadqiq etishni maqsad qildik. Bunda yigitlarda eng yuqori natija “individuallik” (12,9) omilida qayd etildi. Qizlarda esa eng yuqori “jamoaviylik” (12,4) omilida kuzatildi. Bu natijalar bir qaragandi hayot qonuniga teskaridek, chunki bizlar ko‘pincha yigitlar qizlarga nisbatan ko‘proq jamoaviylikni yaxshi ko‘radi, yigitlar qizlarga nisbat tez jamoa bo‘lib birikadi degan qarashlarimiz ma’lmum darajda asoslanmagan stereotip bo‘lib chiqayapti. Darhaqiqat yigitlarni ijtimoiy rol vazifalari ularni qizlarga nisbatan individualligini oshiradigan asosiy omil ekan. Yigitlarda eng quyi natija “jamoaviylik” (11,8) bo‘lsa, qizlarda “individuallik” (10,6) da namoyon bo‘ldi. Bu esa boshqalarga tayanmasdan mustaqil ishlash va muvaffaqiyatga erishish istagining yigitlarda yuqoriligini anglatadi. Qizlarda esa aksincha, o‘z faoliyatlarini yakka tartibda bajarishga intilish nisbatan pastroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, o‘smir qizlarda birgalikda ishlash va umumiy muvaffaqiyatga erishish istagi, jamoa bo‘lib ishlash, o‘zini o‘zi takomillashtirishda atrof-muhit bilan birgalikda ishlash motivatsiyasi kuchli ekanligi kuzatildi.

Pragmatlik darajasi esa qizlar (11,6) ga nisbatan yigitlar (12,4) da ustun ekan. Bu holatni ham yigitlar jamiyatda ko‘proq o‘z mehnatlari orqali ko‘p narsalarga erishilari uchun aniqroq, puxtaroq maqsadlar qo‘yish va unga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengish rejalarini oldindan aniq rejalashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga eagaligi bilan izohlash mumkin.

3.13-jadval

“Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” metodikasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahlili (5-sinf n=320)

Omillar	Statistik ko‘rsatkichlar	
	M-o‘rtacha arifmetik qiymat	S^2 standart og‘ish darajasi
individuallik	11,9	7,6
jamoaviylik	13,6	8,3
pragmatik	10,7	7,1

3.14-jadval

“Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish” metodikasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahlili (9-sinf n=240)

Omillar	Statistik ko‘rsatkichlar	
	M-o‘rtacha arifmetik qiymat	S^2 standart og‘ish darajasi
individuallik	13,1	8,6
jamoaviylik	11,3	7,0
pragmatik	12,7	7,9

Mazkur metodikani yosh davrlariga nisbatan ham tahlil qilib chiqdik. Bunda o‘smirlarni 5-sinf hamda 9-sinf kesimida o‘rgandik. Shaxsni jamoani idrok etishi, jamoaning talablaridan kelib chiqib ma’lum bir faoliyatni bajarishida yosh xususiyatlarining o‘rni borligi yana bir bor isbotlandi. Inson ontogenezida bo‘ladigan har bir jarayon ularning ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Shaxs ham fiziologik, ham psixologik jihatdan o‘sib borar ekan, unda individual xususiyatlar ham aksentuatsiyalashib boradi.

Yuqoridagi natijalarni tahlili qiladigan bo‘lsa individuallik darajasi yosh o‘tishi bilan o‘sib borgan. Ya’ni 5-sinf o‘quvchilarida individuallik (11,9), 9-sinf o‘quvchilarida esa (13,1). Pragmatlik darajasi 5-sinf o‘quvchilarida pragmatlik (10,7), 9-sinf o‘quvchilarida esa (12,7) ko‘rsatkichlarini ko‘rsatdi. Ikkala omilda ham yosh ulg‘uygan sari o‘sish kuzatildi. Mazkur holatni yoshlarni yoshi ulg‘aygan sari maqsadlari ham, kejakdagi yo‘llari ham aniqroq anglash sodir bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

Biroq mazkur empirik natijalarda qiziq holatlar ham qayd qilindi, ya’ni insonni yoshi ulg‘ayib borgan sari jamoaviylik daradjasi pasayib borar ekan (5-sinfda jamoaviylik (13,6), 9-sinfda esa (11,3). Bu tarbiya ishlarini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatidigan omil hisoblanadi (3.14-jadvalga qarang).

Sababi biz birinchi va ikkinchi boblarda yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy tahlil qilganda asosan tarbiyaviy ishlarda “Men”likni “Biz” likka aylantirgandagina ko‘rish mumkinligi ko‘rsatdi. Ya’ni Sharqona tarbiyada jamiyat, millat tomonida ishlab chiqilgan normalarga hamma bir xildek rioya

qilishligi va kimdir mazkur qoida va normalarni buzganda shu xalq vakillari tomonida u shaxsga nisbatan ijtimoiy sanksiya qo‘llanilishi kerakligi uqtirib kelingan. Shuningdek milliy tarbiya ishida daxldorlik (aloqadorlik) fazilati ham aloihada ahamiyat kasb etgan. Bu iborani bugungi kunda davlatimiz Prezidenti tomonidan ko‘p qo‘llanilayotgan “jamaotchilik nazoarti” tushunchasi bilan ham izohlash mumkin.

7-Metodika

Biz qator izlanishlarda o‘zini oqlagan yana bir metodika – Meri Edvards ning **«Shaxsan ma’qul topilgan jihatlarni aniqlovchi so‘rovnoma»** sidan ham foydalandik. Bu metodika ayrimad abiyotlarda boshqacha nomlanadi. Masalan, T.V. Kornilova ushbu metodikani “Edvards so‘rovnomasida motivatsiya shkalalari” deb atagan. O‘zi asli ijtimoiy psixiatriyaning asoschisi deb nom olgan Meri Edvards ushbu so‘rovnomasi uchun g‘oya sifatida tadbirkorlikka ishtiyoqi bo‘lgan insonlarga xos bo‘lgan tipik shaxs xususiyatlarni aniqlash, ular ko‘proq ma’qul ko‘rgan faoliyat va xatti-harakatlar yo‘nalishlari bilan shaxs xususiyatlari uyg‘unligini aniqlash imkoniyati borligi asos qiladi. Metodikaning afzal tomoni shundaki, undagi shaxsga ma’qul jihatlar **Myurrey**ning ehtiyojlar qatori bilan bog‘langandir. Ma’lumki, Myurrey o‘zining “Ehtiyojlar testi”da A. Masloudan farqli, 20 turdagi ehtiyojlarni sanab o‘tgan va shaxsdagi motivatsion yo‘nalishni o‘rganishga ularni asos sifatida qabul qilish mumkinligini ta’kidlagan. Ushbu metodikani tanlashimizdan sabab, Myurrey va Meri Edvardslarning motivatsion tizim doirasida affiliatsiya motivatsiyasini o‘rganishga aloqador savollarni kiritganligi bo‘ldi (7-ilovaga qarang).

Myurrey ehtiyojlarning quyidagi 20 xilini tavsiflagan:

1. ***Ustunlik*** – nazorat qilishga intilish; ta’sir ko‘rsatish; so‘z, buyruqlar vositasida harakatlarni boshqarish;ishontirish; to‘sqinlik qilish; o‘zgalar faoliyatini chegaralash.

2. ***Agressiya*** – so‘z yoki xulq orqali kimnidir sharmanda qilish; muhokama qilish, ayblash; ustidan kulish; kamsitish; raqibni tor-mor qilish.

3. ***Do‘stona aloqalarni izlash*** – do‘stlashish, sevishga intilish; ochiq ko‘ngillilik, o‘zgalarni yoqtira olish. Do‘stona aloqalarning

yo‘qligidan aziyat chekish, odamlarni bir-biriga yaqinlashtirib qo‘yish istagining borligi, anglashilmovchiliklarga chek qo‘yish.

4. ***O‘zgalarni inkor (rad) etish*** – kimlarnidir yaxshi aloqalar o‘rnatishiga xalaqit berish; tanqidiylik, qo‘pollik, kimlarnidir ajratishga moyillik, benomuslik. O‘zgalarni hech qachon yuzaga chiqarmaslikka moyillik.

5. ***Avtonomiya*** – har qanday cheklanishlardan o‘zini tortish, g‘amho‘rlik, muayyan tartib, qoida, reglamentatsiya, og‘ir mas’uliyatli ishlarni tan olmaslik. Injiqlik, besabrlik, egoizm, ish o‘rnini almashtirib turishga moyillik, sayyohatlarni yoqtirish.

6. ***Bo‘ysunishlik*** – har qanday kuch, tayziqqa itoatkoronalik bilan bo‘ysunish, taqdirga ishonch, o‘zining nochorligini tan olish.

7. ***O‘zgalarni hurmat qilish, qo‘llab-quvvatlashlarga ehtiyoj*** – o‘zgalarga nisbatan hurmat hissining mavjudligi (ota-onalarga, rahbarlarga, o‘qituvchiga, taniqli arboblarga nisbatan); o‘zidan kuchli, aqlli, talantli bo‘lgan inson rahbarligida ishlashni hoxlash, shunday insonlar ketidan borishga moyillik.

8. ***Muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji*** – kimlardandiro‘zib ketish, ularni yengish, g‘olib bo‘lish istagi; nimalarnidir tez va yaxshi natijalar bilan uddalash, har qanday ishda yuqori yutuqlarni qo‘lga kiritib, obro‘ topishga intilish, maqsad yo‘lida yo‘nalganlik.

9. ***Hamisha diqqat markazida bo‘lish ehtiyoji*** – o‘zgalar e’tirofiga, e’tiboriga sazovor bo‘lish, o‘ziga qaratish, yutuqlari va shaxsiy fazilatlari bilan o‘zgalarda taassurot qoldirish istagi.

10. ***O‘yin ehtiyoji*** – har qanday jiddiy ishga nisbatan turli o‘yinlarni afzal ko‘rish, hamisha maroqli dam olish, vaqtni xushchaqchaqlik bilan o‘tkazishga intilish, voqealar rivojiga qiziqish. Ba’zan beg‘amlik va mas’uliyatsizlik kabi sifatlar bilan uyg‘unlashadi.

11. ***Egoizm (narsissizm)*** – o‘z manfaatlarini har qanday narsadan ustun qo‘yish; hamisha o‘zi haqida o‘ylash, avtoerotizm, o‘zini kamsitishlariga chidamaslik, uyatchanlik; tashqi olamni idrok qilishda sub’ektivizmning ustunligi. Ko‘pincha agressiyaga ehtiyoj yoki rad etishga ehtiyoj bilan uyg‘unlashadi.

12. ***Ijtimoiylik (sotsiofiliya)*** – guruh manfaati yo‘lida o‘z manfaatlarini qurbon qila olishlik; altruizm, oliyjanoblik, yon bosuvchanlik, o‘zgalarga g‘amho‘rlik.

13. ***O‘zgalarning g‘amho‘rligiga ehtiyoj*** – hamisha o‘zgalarning maslahatlariga, yordami va ko‘magiga muxtojlik; yupatishlar, o‘gitlar va muloyim munosabatlarni kutishlar.

14. ***Ko‘mak berishga ehtiyoj*** – barchani yupatuvchi, madad ko‘rsatuvchi, boshqalarga g‘amho‘rlik ko‘rsatish istagining kuchliligi; moddiy yordam ko‘rsatish va panohiga olishga qodirlik.

15. ***Jazolanib qolishdan qochish ehtiyoji*** – jazolanib qolish, urushishlardan qo‘rqib, ichki istaklarni bosa olish;ijtimoiy fikr bilan hamisha hisoblashish; tarbiyalanganlik, bosiqlik, muloyimlik.

16. ***O‘zini o‘zi himoya qilish ehtiyoji*** – nazarida hamma atrofidagilar unga dushmanday tuyuladi, shuning uchun o‘z xatolarini tan olmaydi, vaziyatni bahona qilib o‘zini oqlash yo‘llarini qidiradi; o‘z xatolarini tahlil qilmaydi.

17. ***Mag‘lubiyat va omadsizliklarni yengish ehtiyoji*** – muvaffaqiyatlarga erishishdan shu bilan farq qiladiki, u hamisha xatti-harakatlarda mustaqillikka intiladi. Asosiy sifatlari – irodasi kuchli, qat’iyatli, qo‘rqmas.

18. ***Xavf-xatardan qochish ehtiyoji*** – qurquv, xavotir, dahshat, vahima, haddan ziyod ehtiyotkorlik, tashabbusning yo‘qligi, kurashishdan o‘zini tortish- asosiy sifatlari.

19. ***Tartib-intizomli bo‘lish ehtiyoji*** – har narsada tartib, tizimlilik, izchillik, orastalik, aniqlik, go‘zallikka intilish.

20. ***Mulohaza yuritish ehtiyoji*** – umumiy masalalarni o‘rtaga tashlab, ularga javob qidirish, mavhum atamalar ustida bosh qotirish, umumlashtirishga moyillik. Hayotning ma’no va mohiyati, yaxshilik va yovuzlik haqida ko‘p o‘ylash.

Yuqorida keltirilgan 20 turli ehtiyojlarni asos qilib olgan tarzda Meri Edvards o‘zining 15 yo‘nalishli (jihatli) motivatsion yo‘nalishlarini belgilagan va shu orqali sub’ektiv fikrlar orqali shaxsning ijtimoiy xulqiga oid sifatlarini aniqlashga muyassar bo‘lgan. Metodikaning inglizcha nomi *Edwards Personal Preference Schedule* bo‘lgani sababli metodikani qisqacha ***EPPS*** tarzida ishlatiladi. Bu metodikani tanlaganimiz sababi shundaki, unda ajratilgan ijtimoiy hulqning motivatsion jihatlari shaxsning emotsional moyilligini emas, balki aynan ijtimoiy xulqida namoyon bo‘luvchi sifatlarni ajratishga imkon beradi.

Edvardsning modifikatsiyalashtirilgan 15 jihat motivlari quyidagilardir:

1. Erishilgan yutuqlar (*Achivement*) yoki muvaffaqiyat, yutuqlarga erishish motivatsiyasi – bu insondagi hamisha biror narsaga erishish, o‘zgalardan yaxshiroq bo‘lish, tirishqoqlik, kuch va irodani talab qiluvchi ishlarga moyillik, qiyin vazifalarni yetarli darajada yaxshi bajarish orqali ijtimoiy tan olinishga erishish.

2. Tan olish (*Deference*), yoki obro‘li insonlarni tan olish – o‘zgalarning yo‘riqlarini qabul qilish, ularning takliflariga quloq tutish, boshqalarga ma’qul bo‘lgan qarorlarni hurmat qilish, ularni kerak joyda maqtash, tan olishda moyillik, shunday ichki ehtiyojning borligi, turli xil shartlar va an’analarni buzishdan qochish.

3. Tartib (*Order*) yoki tartib-intizomni afzal ko‘rish – o‘z hayotini mayda-chuyda jihatlarini ham hamisha tashkil etishga intiqlik, faoliyatni oldindan rejalashtirishga moyillik, doimiy orastalik, saronjom-sarishtalikka intilish, ish o‘rnini tartibda tutish, ovqatlanish vavaqt me’yorlarini ham doimiy tartibda ushlash ehtiyoji.

4. Namoyishkoronalik (*Exhibition*) – bunday shaxs doimo o‘zgalarning e’tiborida, diqqat markazida bo‘lishga, ularda yaxshi taassurot qoldirishga intiladi, hatto o‘z tashqi ko‘rinishi bilan ham o‘zgalarga yoqishga harakat qilib, ularning munosabatini aniqlashga ehtiyoj sezadi.

5. Avtonomiya (*Autonomy*) – barcha xatti-harakatlarda, xulq-atvorda, qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘lishga intilish, o‘zi xohlagan narsani gapirish yoki amalga oshirishga moyillik, konformizmni namoyon etadigan vaziyatlardan qochish, yuqori mansabdorlarni tanqid qilishga moyillik, mas’uliyat va javobgarlikdan qochish.

6. Affiliatsiya (*Affiliation*) – turli ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, do‘stlar orttirish, ularning e’tiroflariga sazovor bo‘lish, oshnalar bilan birgalikda qarorlar chiqarish, yolg‘izlikdan qochish ehtiyoji.

7. O‘zini bilib ish qilish (*Interaception*) – o‘z ehtiroslari, istaklari va motivlarini bilishga intiqlik, o‘zgalarga nisbatan e’tiborli va kuzatuvchanlikni yoqtirish, o‘zini o‘zgalar o‘rniga qo‘yishga moyillik.

8. Ko‘makni qabul qilish (*Succorance*) – o‘zgalarga yordam so‘rab murojaat qilishga va ularning ko‘magini qabul qilish, ularning

yoqtirishlariga erishish, mushkul vaziyatlarda o‘zgalar madadini his qilishga moyillik.

9. Ustunlik qilish (*Dominance*) – yetakchi bo‘lish ehtiyoji va o‘zgalar ham uni shunday qabul qilishlarini istash, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, uni o‘zgalarga ham o‘tkazishga moyillik, boshqalar uchun ham qarorlar qabul qilishdan tortinmaslik, o‘zining haqligini hamisha isbot qilish, boshqalarni o‘z ortidan ergashishiga erishish.

10. Bo‘ysunish (*Abasement*) yoki aybdorlik hissi bilan yashash – aybga iqror bo‘lish va xatolar uchun jazolanishga tayyorlik, noto‘g‘ri harakatlar sodir etilgan vaziyatlarda xatoni o‘z bo‘yniga olish, o‘zini aybdor his qilish, o‘zini ko‘pchilikdan ortda, yomonroq deb qabul qilishga moyillik.

11. G‘amxo‘rlik ko‘rsatish (*Nurturance*) – do‘stlarga ko‘mak berish, ularga xayrixohlik va mehribonchilik qilishga tayyorlik, ularga xizmatlar qilish, ayblarini kechirish, muammolar paydo bo‘lganda ularni tushunishga moyillik.

12. O‘zgaruvchanlik (*Change*) yoki radikalizm – hamisha nimadir yangi narsalarga erishish, odatiy hayot tarzini, yashash joyini o‘zgartirish, yangi odamlar bilan tanishish, o‘zini turli jihatdan yangidan kashf etishga moyillik.

13. Chidamlilik (*Endurance)* yoki maqsad yo‘lidagi sobitlik – har qanday ishni oxiriga yetkazishga, muammoni yechimini topishga intilish, ishni bajarayotganda chalg‘imaslikka va faoliyatni to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik.

14. Geteroseksuallik (*Heterosexuality*) – yoki qarama-qarshi jins vakillariga yo‘nalganlik, qarama-qarshi jins vakillari bilan uchrashib turishga, ularga yoqishga, jinsiy munosabat mavzularida ular bilan muloqot qilishga moyillik.

15. Agressiya (*Aggression*) – birovlarni ko‘pchilik ichida tanqid qilish, behurmat qilish, o‘z fikrlarini ochiq bayon etish, ustidan kulish, gunohkor etish, agar xatolik yuz bergan holatlarda o‘ch olishga moyillik.

Ko‘rib turganimizdek, Myurreyning ehtiyojlar qatoridan Edvards ko‘proq bevosita ijtimoiy xulqqa aloqador moyilliklarni olgan va ularni ijtimoiy faoliyatda motivlarning qanday namoyon bo‘lishini o‘rganishda qo‘llagan. Shu bois ham uning so‘rovnomasida bevosita

to‘g‘ridan-to‘g‘ri respondentning fikrini aniqlashga qaratilgan savollar ko‘p: masalan, “Yaqinlarim meni uyaltirib qo‘yishmaydi, shu bois men ular bilan bahamjihat ishlashim kerak”, «Meni agar shunga loyiq topishsa, hammaning oldida kimnidir ochiq tanqid qilishni afzal ko‘raman»,kabilar mavjud va alohida 6-chi jihat aynan affiliativ xulqni aniqlaydi. Lekin har bir jumla unga qarama-qarshi bo‘lgan ikkinchi jumla bilan birga beriladi-ki, respondent ulardan qaysi biri unga yaqinroq bo‘lsa, o‘shani belgilashi lozim bo‘ladi.

Modifikatsiyalashtirilgan testni bajarishda biz qo‘ygan talab shu bo‘ldiki, har bir keltirilgan fikrga respondent “to‘liq qo‘shilaman” (TQ) dan “mutloq qo‘shilmayman” (MQ) diapozonida 5 dan 1 gacha bo‘lgan shkalada tegishli javobni belgilashi kerak , shuning uchun biz o‘smirlarga quyidagi yo‘riqnomani tavsiya etdik:“Quyidagi jadvalda Sizga 15 ta fikr bayon etiladi. O‘zingizning ushbu fikrlarni “to‘liq qo‘shilishingiz”(TQ) yoki “mutloq qo‘shilmasligingizni” (MQ) 3 balli tizimda baholab, tegishli raqamni doira ichiga olib qo‘ying” (metodika 2-ilovada keltirilgan).

Natijalarni umumlashtirish va qayta ishlash respondentlarning har biri to‘ldirgan javob varaqasidagi ballar umumlashtirilishi, har bir guruh bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymat hisoblab chiqilishidan iborat. Bunda maksimal ball – 30, minimal – 0. Har bir guruhning har bir motivatsion yo‘nalish bo‘yicha olgan ballarining o‘rtacha qiymati uning motivatsion ustanovkalarini ifodalaydi.

3-15-jadval

«Shaxsan ma’qul topilgan jihatlarni aniqlovchi so‘rovnoma» orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=560)

Omillar	**5-sinf N=320**		**9-sinf N=240**		**Yigitlar N=340**		**Qizlar N=220**	
	$X_{o‘rt}$	S	$X_{o‘rt}$	S	$X_{o‘rt}$	S	$X_{o‘rt}$	S
Erishilgan yutuqlar	5,31	2,31	5,79	2,84	4,92	2,11	5,38	3,03
Tan olish	7,02	2,67	5,62	2,93	7,16	2,77	5,78	2,54
Tartib	5,55	2,96	5,31	2,85	5,59	2,53	5,38	2,40
Namoyishkoronalik	8,05	2,45	7,04	2,64	8,23	2,52	7,58	2,61
Avtonomiya	3,88	3,58	3,66	3,18	2,68	2,90	4,28	3,32
Affiliatsiya	9,02	2,83	9,57	2,45	9,44	2,43	9,31	2,47
O‘zini bilib ish qilish	8,17	2,87	6,56	2,64	8,56	2,92	7,41	2,61

Ko‘makni qabul qilish	6,83	3,21	6,85	2,96	7,32	3,20	7,19	2,86
Ustunlik qilish	6,89	3,40	8,56	3,44	6,65	3,58	7,88	3,64
Bo‘ysunish	8,11	3,97	8,40	3,27	8,22	3,91	7,14	3,99
G‘amxo‘rlik ko‘rsatish	7,35	3,35	8,25	3,38	8,10	2,96	8,14	3,16
O‘zgaruvchanlik	6,83	3,80	6,13	5,06	5,29	3,61	5,86	3,68
Chidamlilik	7,27	4,89	5,96	3,38	7,45	4,82	6,51	4,85
Geteroseksuallik	7,34	3,41	8,88	4,26	7,72	3,31	9,22	3,47
Agressiya	7,40	4,25	8,41	4,21	7,65	4,24	7,93	4,30

Olingan natijalarni tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, bunda Edvards metodikasida ballar yig‘indisi 1-5 oralig‘ida bo‘lsa, unda yehtiyoj qoniqish zonasida; 6-8 — qisman norozilik zonasi; 9-14 - norozilik zonasi hisoblanadi.

Qo‘lga kiritilgan dastlabki empirik natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak “Erishilgan yutuqlar” omili 9-sinflarda (2,84) 5 sinflarga (2,31) nisbatan ustunligi aniqlandi. Shuningdek mazkur omil jins jihatdan ham sezilarli farqlarga ega bo‘ldi, jumladan yigitlarga (2,11) nisbatan qizlarda (3,03) usutun ekan. Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin. Jumladan, erishilgan yutuqlar yoki muvaffaqiyat, yutuqlarga erishish motivatsiyasi – bu yoshlardagi hamisha biror narsaga erishish, o‘zgalardan yaxshiroq bo‘lish, tirishqoqlik, kuch va irodani talab qiluvchi ishlarga moyillik, qiyin vazifalarni yetarli darajada yaxshi bajarish orqali ijtimoiy tan olinishga erishish bilan izohlanadi. Dkmak yosh ulg‘ayib borgan sari bu motiv ham shakllanib boradi. Qizlardagi mazkur omilni yigitlarga nisban ustunligi, qizlarning jins ijtimoiy rol vazifalari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, ya’ni ular yigitlarga nisbatan ko‘proq yutuqlarga erishish uchu xarakat qilishlari kerak.

Tan olish omili bo‘yicha 9-sinf (2,93) o‘quvchilari 5-sinf (2,67) o‘quvchilariga nisbatan, yigitlarda (2,77) qizlarga (2,54) nisbatan usutn ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin. Ya’ni yoshlar orasidagi tan olish omili yoki obro‘li insonlarni tan olish – o‘zgalarning yo‘riqlarini qabul qilish, ularning takliflariga quloq tutish, boshqalarga ma’qul bo‘lgan qarorlarni hurmat qilish, ularni kerak joyda maqtash, tan olishda moyillik,

shunday ichki ehtiyojning borligi, turli xil shartlar va an’analarni buzishdan qochishlar bilan izohlanadi. Demak bu omil ham yosh ulg‘uyishi bilan o‘sib borar ekan. Yigitlar qizlarga nisbatan ko‘proq jamiyatga yo‘nalanligi va jamiyatda tezroq o‘z mavqelariga ega bo‘lishlari uchun ham obro‘li insonlarni tan olishlari va ularni yo‘l-yo‘riqlarini takrorlashlari ustun ekan.

Tartib omili bo‘yicha 5-sinf (2,96) o‘quvchilari 9-sinf (2,85) o‘quvchilariga nisbatan, yigitlarda (2,53) qizlarga (2,40) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlar orasidagi tartib yoki tartib-intizomni afzal ko‘rish – o‘z hayotini mayda-chuyda jihatlarini ham hamisha tashkil etishga intiqlik, faoliyatni oldindan rejalashtirishga moyillik, doimiy orastalik, saronjom-sarishtalikka intilish, ish o‘rnini tartibda tutish, ovqatlanish va vaqt me’yorlarini ham doimiy tartibda ushlash ehtiyojini shakllanib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Namoyishkoronalik omili bo‘yicha 9-sinf (2,64) o‘quvchilari 5-sinf (2,45) o‘quvchilariga nisbatan, yigitlarga (2,52) nisbatan qizlarda (2,61) ustun ekanligi aniqlandi. Demak katta o‘smirlar va qizlar namoyishkor ekanlar. Mazkur holatni yoshlar doimo o‘zgalarning e’tiborida, diqqat markazida bo‘lishga, ularda yaxshi taassurot qoldirishga intiladi, hatto o‘z tashqi ko‘rinishi bilan ham o‘zgalarga yoqishga harakat qilib, ularning munosabatini aniqlashga ehtiyoj sezishlari bilan izohlash mumkin.

Avtonomiya omili bo‘yicha 5-sinf (3,58) o‘quvchilari 9-sinf (3,18) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (3,32) yigitlarga (2,90) nisbata ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlarni barcha xatti-harakatlarda, xulq-atvorda, qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘lishga intilish, o‘zi xohlagan narsani gapirish yoki amalga oshirishga moyillik, konformizmni namoyon etadigan vaziyatlardan qochish, yuqori mansabdorlarni tanqid qilishga moyillik, mas’uliyat va javobgarlikdan qochish kabi jihatlari bilan izohlash mumkin.

Affiliatsiya omili bo‘yicha 5-sinf (2,83) o‘quvchilari 9-sinf (2,45) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (2,47) yigitlarga (2,43) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlarni turli ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, do‘stlar orttirish, ularning e’tiroflariga sazovor

bo‘lish, oshnalar bilan birgalikda qarorlar chiqarish, yolg‘izlikdan qochish ehtiyojilarini usutuvorligi bilan izohlash mumkin.

O‘zini bilib ish qilish omili bo‘yicha 5-sinf (2,87) o‘quvchilari 9-sinf (2,64) o‘quvchilariga nisbatan, yigitlarda (2,92) qizlarga (2,61) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlarni o‘z ehtiroslari, istaklari va motivlarini bilishga intiqlik, o‘zgalarga nisbatan e’tiborli va kuzatuvchanlikni yoqtirish, o‘zini o‘zgalar o‘rniga qo‘yishga moyillik kabi jihatlari kuchayib, ko‘proq namoyon bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

Ko‘makni qabul qilish omili bo‘yicha 5-sinf (3,21) o‘quvchilari 9-sinf (2,96) o‘quvchilariga nisbatan, yigitlarda (3,20) qizlarga (2,86) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlarda o‘zgalarga yordam so‘rab murojaat qilishga va ularning ko‘magini qabul qilish, ularning yoqtirishlariga erishish, mushkul vaziyatlarda o‘zgalar madadini his qilishga moyilliklari kuchayganligi bilan izohlash mumkin.

Ustunlik qilish omili bo‘yicha 9-sinf (3,44) o‘quvchilari 5-sinf (3,40) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (3,64) yigitlarga (3,58) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlarda yetakchi bo‘lish ehtiyoji va o‘zgalar ham uni shunday qabul qilishlarini istash, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, uni o‘zgalarga ham o‘tkazishga moyillik, boshqalar uchun ham qarorlar qabul qilishdan tortinmaslik, o‘zining haqligini hamisha isbot qilish, boshqalarni o‘z ortidan ergashishiga erishish istaglarini kuchayganligi va yaqqol namoyon bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

Bo‘ysunish omili bo‘yicha 5-sinf (3,97) o‘quvchilari 9-sinf (3,27) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (3,99) yigitlarga (3,91) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni yoshlardagi bo‘ysunish yoki aybdorlik hissi bilan yashash – aybga iqror bo‘lish va xatolar uchun jazolanishga tayyorlik, noto‘g‘ri harakatlar sodir etilgan vaziyatlarda xatoni o‘z bo‘yniga olish, o‘zini aybdor his qilish, o‘zini ko‘pchilikdan ortda, yomonroq deb qabul qilishga moyilliklarini paydo bo‘lganligi bilan izohlash mumkin.

G‘amxo‘rlik ko‘rsatish omili bo‘yicha 9-sinf (3,38) o‘quvchilari 5-sinf (3,35) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (3,16) yigitlarga (2,96) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni o‘smirlik davriga

kelib ular orasida do‘stlarga ko‘mak berish, ularga xayrixohlik va mehribonchilik qilishga tayyorlik, ularga xizmatlar qilish, ayblarini kechirish, muammolar paydo bo‘lganda ularni tushunishga moyillikni ortgani bilan izohlash mumkin.

O‘zgaruvchanlik omili bo‘yicha 9-sinf (5,06) o‘quvchilari 5-sinf (3,80) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (3,68) yigitlarga (3,61) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni o‘smirlik davriga kelib ularda radikalizm – hamisha nimadir yangi narsalarga erishish, odatiy hayot tarzini, yashash joyini o‘zgartirish, yangi odamlar bilan tanishish, o‘zini turli jihatdan yangidan kashf etishga moyillikni ortgani bilan izohlash mumkin.

Chidamlilik omili bo‘yicha 5-sinf (4,89) o‘quvchilari 9-sinf (3,38) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (4,85) yigitlarga (4,82) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni o‘smirlardagi maqsad yo‘lidagi sobitlik – har qanday ishni oxiriga yetkazishga, muammoni yechimini topishga intilish, ishni bajarayotganda chalg‘imaslikka va faoliyatni to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi sifatlarni ortgani bilan izohlash mumkin.

Geteroseksuallik omili bo‘yicha 9-sinf (4,26) o‘quvchilari 5-sinf (3,41) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (3,47) yigitlarga (3,31) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni o‘smirlardagi qarama-qarshi jins vakillariga yo‘nalganlik, qarama-qarshi jins vakillari bilan uchrashib turishga, ularga yoqishga, jinsiy munosabat mavzularida ular bilan muloqot qilishga moyilliklarini ortgani bilan izohlash mumkin.

Agressiya omili bo‘yicha 5-sinf (4,25) o‘quvchilari 9-sinf (4,21) o‘quvchilariga nisbatan, qizlarda (4,30) yigitlarga (4,24) nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur holatni o‘smirlardagi birovlarni ko‘pchilik ichida tanqid qilish, behurmat qilish, o‘z fikrlarini ochiq bayon etish, ustidan kulish, gunohkor etish, agar xatolik yuz bergan holatlarda o‘ch olishga moyilliklarini ortgani bilan izohlash mumkin (3.15-jadvalga qarang).

8-Metodika
«MAS» so‘rovnomasi (M. Kubishkina) [73]

Biz tadqiqotimizning asosiy qismida o‘smirlar xukmiga yana bir metodikani havola qildik. Bu - M.Kubышkinaning «MAS» so‘rovnomasi bo‘lib, uning yordamida odatda o‘smirning muayyan maqsadga erishishi, intilishlari, raqobat va tavakkalchiligi darajasi ijtimoiy nufuzga ega bo‘lishiga turtki bo‘lgan motivatsiyalarini aniqlash mumkin bo‘ladi (8-ilovaga qarang).

Metodikaga biz quyidagi yo‘riqnomani taqdim etdik: “Hurmatli o‘quvchi! Pastda keltirilgan jumlalarni diqqat bilan o‘qib chiqing va o‘ng tomonda keltirilgansizga ma’qul raqamlardan birini tanlang. Savollarga samimiy va aniq javob berishga harakat qiling”. Metodikaga maxsus kalit ilova qilingan bo‘lib, natijalarni qayta ishlab biz quyidagi parametrlar bo‘yicha o‘zimizni qiziqtirgan empirik ma’lumotlarni oldik:

1) «Ijtimoiy nufuz, tengqurlar davrasida obro‘ga intilish» shkalasi;

2) «Raqobatga intilish» shkalasi;

3) «Maqsadga erishishga intilish» shkalasi;

Har bir shkala bo‘yicha belgilar soniga qarab ballar miqdori hisoblab chiqiladi va xulosalar chiqarish uchun u yoki bu shkala bo‘yicha ballar miqdori umumlashtirilib, qo‘shib chiqilib, tekshiriluvchida ushbu intilish, yoki motivatsiyaning xulqda yaqqolroq namoyon bo‘lishi ko‘rsatgichi aniqlanadi.

3.16-jadval

MAS metodikasi ko‘rsatgichlari hamda farzandlarning oilada tug‘ilish tartibi orasidagi o‘zaro bog‘liqlikning statistik tahlili (Bir omilli dispersion tahlil mezoni)

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha qiymatlar					F	r
	1-farzand (N=39)	2-farzand (N=28)	3-farzand (N=23)	4-farzand (N=12)	5-farzand (N=9)		
Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	20,2	17,4	18,3	19,4	16,1	3,73	0,007
Raqobatga intilish	9,0	7,3	7,3	8,1	8,1	1,54	0,194
Maqsadga erishishga intilish	20,7	19,1	18,1	20,6	19,0	1,83	0,129



3.1-rasm. MAC metodikasi ko‘rsatgichlari hamda farzandlarning oilada tug‘ilish tartibi orasidagi o‘zaro bog‘liqlikning statistik tahlilining diagramma ko‘rinishi

MAS metodikasi ko‘rsatgichlari hamda farzandlarning oilada tug‘ilish tartibi orasidagi o‘zaro bog‘liqlikning statistik tahliliga ko‘ra, ijtimoiy nufuzga, prestijga intilish to‘ng‘ich farzandda kuchli, keyingi 4-3-2-5 farzandlarda kamayib borish tendensiyasiga ega ekan. Demak, raqamlarning statistik ahamiyatli bog‘liqligi barcha xolatlar bo‘yicha to‘ng‘ich farzandda namoyon bo‘layotganligi aynan ulraning ijtimoiy xulqida jamiyatda o‘z nufuzini topishga, raqobatga ham chidamliroq ekanligida namoyon bo‘ldi (3.16-jadvalga qarang).

Biz tadqiqotimizning mantiqi va tashkil etilganligidan kelib chiqib, ushbu ma’lumotlarning qanchalik oiladagi bola soniga bog‘liqligiga ham e’tiborimizni qaratdik. Chunki bizda ko‘pgina oilalar o‘rtacha va katta oilalar hisoblanadi. Yakka farzand bo‘lgan oilalar soni statistik ahamiyatsiz, kam bo‘lganligi sababli biz o‘smirlar javoblarida 2 va undan ortiq farzandli oilalarda tarbiyalangan o‘smirlarning javoblarini yana bir omilli dispersion tahlil mezoni asosida tahlil qildik.

3.17-jadval

MAS metodikasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha xududiy natijalar tahlili (n=560)

	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Standart o‘gish
Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Toshkent	192	9,3	4,7
	Buxoro	205	7,6	3,6
	Navoiy	163	6,4	2,9
Raqobatga intilish	Toshkent	192	8,4	4,1
	Buxoro	205	7,1	3,2
	Navoiy	163	6,5	2,9
Maqsadga erishishga intilish	Toshkent	192	10,3	5,2
	Buxoro	205	9,4	4,8
	Navoiy	163	8,3	4,0

MAS metodikasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha xududiy natijalar tahlili shuni ko‘rastdiki o‘smirlar orasida ijtimoiy nufuz, prestijga intilish hududiy jihatdan sezilarli farqlarga ega bo‘ldi. Demak ijtimoiy nufuz, prestijga intilish motivi kichik shaharlarga nisbatan kata shaharlarda yuqori bo‘lar ekan. Buni kata shaharlarda odamlarning zich joylashganligi, hayot uchun, kasbi-kor uchun ko‘proq kurashish jihatlari, shuningdek yosjlarni aynan ijtimoiy nufuz va prestijga intilishi ularni jamiyatdagi mavqeni mustahkamlashi mumkinligi bilan izohlash mumkin.

Raqobatga intilish motivi ham katta shaharlarda kichik shaharlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lishligini ko‘rsatdi. Mazkur holatni yoshlardagi o‘ziga va ertangi kuniga bo‘lgan ishonch, o‘z maqsadlariga erishishi uchun raqobatga tayyorlik darajalarini namoton bo‘layotganlik bilan izohlash mumkin. Demak yoshlar jamiyatda o‘z ijtimoiy nufuz, prestijga ega bo‘lishi uchun raqobatga intilar ekan.

MAS metodikasidan qo‘lga kiritilgan empirik natijalarga ko‘ra o‘smirlar orasida maqsadga erishishga intilish motivi ham hudidiy jihatdan farqlanar ekan. Ya’ni mazkur omil bo‘yicha ham katta shaharlarda kichik shaharlarga nisbatan yuqoriroq bo‘larkan. Mazkur holatni kata shaharlarda maqsadga erishish uchun ko‘roq mehnat talab etilishi va raqobattsiz mazkur maqsadga to‘laqonli eishish mushkuligi

bilan izohlash mumkin, Demak MAS metodikasi natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy nufuz, prestijga intilish, maqsadga erishishga intilish va maqsadga erishishga intilish motivlariga kichik sharlarga nisbatan katta shaharlarda ko‘proq ehtiyoj sezilarkan. Buni izohini ota-onalarni farzandini kelajakka tayoorlash omili bilan ham izohlash mumkin. Ya’ni kichik shaharlarga nisbatan katta shaharladagi ota-obalar bolalarini ta’lim-tarbiyasifa ko‘proq sarmoya tikarkan, kata hayotga nisbatan raqobatbardosh kadr bo‘lib shakkalanishi uchun ko‘proq e’tibor qaratar ekan. Bu fikrlarimizni ilmiy va amaliy asoslarini 3.2-paragrifda ota-onalar va o‘smirlar orasida olib borilgan so‘rovnomalar natijalarida ham ko‘rish mumkin.

3.2. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari

O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini щrganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emaslini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish/ko‘rsatish/o‘rgatish/namuna bo‘lish kabi ta’sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xo‘sh nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e’tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishiga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo‘ymoqda. Bugun butun dunyoda

inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo‘lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati bir qator qarorlarda jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli [2], 2019 yil 3-maydagi PQ- 4307-sonli[3], 2021 yil 26 martdagi PQ- 5040-sonli Qarorlari[4] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi 1059-sonli[5] qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi pedagogik, psixologik omillar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, mazkur tahdilarga nisbatan psixologik-g‘oyaviy kurash olib borish vazifasi qo‘yildi.

Yuqoridagi masalani nechog‘lik xavotirli va dolzarbligi to‘g‘risidagi mulohazalarni asoslashda biz tomonimizdan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish va zarur maqsadli va manzilli psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusi bo‘yicha joylarda tekshiriluvchilar bilan suhbat, ekspert-intervyu, so‘rovlar (ijtimoiy-psixologik), kuzatish, kontent tahlil, modellashtirish, matematik statistika (spss dasturi), gipotetik-deduksiya, vizualizatsiya, longityud monitoring va ma’naviy marketing kabi metodlar orqali o‘rganishlar olib borildi va quyidagicha empirik natijalar qayd qilindi(1-jadval).

3.18-jadval

O‘smirlar orasida ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz? deb berilgan so‘rovnoma natijalari

Mezonlar	Hududlar kesimida		
	Navoiy vil.	Buxoro vil.	Toshkent shahri
Ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi mas’uliyatini anglamaydi	60%	44%	50%

Bizning taqiqotimiz davomida milliy tarbiyada tayanch fazilatlarni shakllanganlik darajalari va o‘smirlarning ichki va tashqi tahdidlardan habardorlik darajalarini aniqlashtirishga qaratilgan o‘rganishlarimiz quyidagicha empirik ko‘rsatkichlarni qayd qildi (3.19-jadval).

3.19-jadval

“O‘smirlarni ichki va tashqi tahdidlardan xabardorlik darajasi”

№	Tahdidlar nomi	past	o‘rtacha	yaxshi
12	Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik	55 %	22, 2%	22,8 %
11	O‘z kelajagi va davlati taraqqiyotiga loqaydlik	49 %	31 %	20 %
10	Milliy qadriyat va odatlariga e’tiborsizlik	47 %	22 %	31 %
9	OITS	43,3%	27,1%	28,8%
8	Erta turmush qurish	42,2 %	35,5%	22,3%
7	Terrorizm, diniy ekstremizm	41,5%	26,6%	31,8%
6	Oilaviy ajrimlar	41,2%	35,5%	23,3%
5	Narkobiznes	40,6%	33,4%	26%
4	O‘z joniga qasd qilish	40,4%	23,4%	36,2%
3	“Ommaviy madaniyat”	39 %	29,3%	31,7%
2	Odam savdosi	38,8%	28,8%	32,4%
1	Mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik	36,6 %	31,2 %	32, %

O‘rganishlarda ma’lum bo‘ldiki, tekshiriluvchilarning aksariyati barcha tahdidlardan yetarchicha ogoh va xabardor emas. Tahdidlarni tanimaslik, uning oqibatlaridan ogoh emaslik unga chalinishni tezlashtiradi. Bu kabi holatlar esa muayyan tarbiyaviy bo‘shliqni paydo qilmoqda. Demak milliy tarbiyamizda o‘ziga xos illat va qusurlar namayon bo‘lmoqda, ya’ni o‘smirlarimizda kerakli tayanch milliy tarbiya fazilatlari shakllanmagan. O‘z-o‘zidan mazkur ko‘rsatkichlar mazkur masalaga daxldor psixoprofilaktika ishlarimizni ta’sirchan metodlarga ega emasligini ko‘rsatadi (3.2-rasm).



3.2-rasm. O‘smirlar orasida oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik tahdididan habardorlik darajasi bo‘yicha epmirik natijalari

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik tahdidi aholi orasida boshqa tahdidlarga nisbatan xabardorligi pastligi bo‘yicha 55% ya’ni salbiy ko‘rsatkichga ega. Bu aholining oilada yoshlar tarbiyasi, milliy tarbiya bilan bog‘liq ishlarda sustkashliklar ko‘p ekanligini, yoki tarbiya masalasiga past munosabatda ekanligini ko‘rsatadi. Bu illatning salbiy oqibatlaridan ko‘pchilik behabar.

Milliy tarbiyaning shakllanishida milliy qadriyatlarning o‘rni ham alohida o‘ziga xos asosli psixologik omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham biz mazkur masala bo‘yicha ham o‘rganishlarni amalga oshirdik (3.3-rasm).



3.3-rasm. O‘smirlar orasida milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik tahdididan habardorlik darajasi bo‘yicha epmirik natijalari

Demak yuqoridagi natijalarga ko‘ra o‘smirlarni 47% milliy qadriyatlarga e’tiborsiz. Bu holat yoshlarimizni milliy tarbiyaga oid

milliy fazilatlarimiz va milliy qadriyatlarimizdan yetarlicha xabardor emas ekanligini ham ko‘rsatadi. Shu bois yoshlarimiz orasida milliy qadriyatlarni aniq ro‘yxatini qilib, targ‘ibot va tashqiqot ishlarida uni yoshlarimiz e’tiboriga havola qilib borishimiz maqsadga muvofiq. Mazkur so‘rovnomada yoshlarimiz orasida milliy qadriyatlarni har xil tushunilishi kabi holat ham kuzatildi, shu bois mazkur masalaga qaratilgan tarbiyaviy ishlarimizni amalda kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq.

Shuningdek mazkur masalani o‘rganishlarimiz, ya’ni aksariyat o‘smirlarning fikricha yosh ota-onalar o‘z farzandlariga milliy qadriyatlarni o‘rgatmayapti, ko‘rsatmayapti, aytmayapti degan xulosani yuzaga keltiradi. Shu sababli yoshlarimiz milliy qadriyatlarni hurmat qilmayapti, aksincha, “ommaviy madaniyat”ga zamonaviy va milliy madaniyat deb taqlid qilish kabi salbiy jihatlar ko‘payib bormoqda deb xulosa chiqarishimizga asos bo‘layapti.

Oilada milliy tarbiya funksiyasining ishlamasligi oilaviy nizolar va oilaviy ajrimlarni ko‘paytirayotganligi ko‘pchiligimizga sir emas va biz shu sabali ham mazkur farazga aniqlik kiritish uchun ushbu maslani ham o‘rgandik (3.4-rasm)



3.4-rasm. O‘smirlar orasida oilaviy ajrimlar tahdididan habardorlik darajasi bo‘yicha epmirik natijalari

Demak yuqoridagi empirik ko‘rsatkichlar o‘smirlarimizni 41% da oilaviy funksiyalarni yetarlicha bilmasligi, oiladigi nizolarga befarq ekanligi, kelajakda oilaviy ajrimlarni kuchaytirishi mumkinligi bilan izohlash mumkin. Shu sababli maktablarga “Oila psixologiya”si

fanini joriy etish maqsadga muvofiq. Yoshlarimiz oila qurgunga qadar oilaviy ustanovkalari, oilaviy tasavvurlari va oilaviy stereotiplari sog‘lom shakllanishi maqsadga muvofiq.

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlar orasidagi jinoyatchilik omillarini ham yetarlicha tarbiya topmaganlik omili bilan bog‘liq deb o‘yladik va mazkur farazimizni ham tekshirib ko‘rish uchun respondentlar orasida o‘rganishlar olib bordik va quyidagicha qiziq va xavotirli empirik natijalarni qo‘lga kiritildi (3.5-rasm).



3.5-rasm. O‘smirlar orasida “Sizningcha yoshlar orasidagi jinoyatchilikni yuzaga keltirayotgan asosiy omillar nimalardan iborat” deb so‘ralgan so‘rovning empirik natijalari

Yuqoridagi empirik natijalardan ko‘rinib turibdiki, yoshlar orasidagi jinoyatchilikni yuzaga keltirayotgan asosiy omillar eng ko‘p qayd etilgani 62% oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik ekan. Darhaqiqat yoshlar orasida jinoyat sodir etgan aksariyat o‘quvchilar bilan olib borgan suxbatlarimizdan ayon bo‘ldiki, bola oilada yetarlicha tarbiya ko‘rmagan. Jinoyat sodir etgan aksariyat yoshlar nosog‘lom va ajrimli oilalar farzandi bo‘lib chiqmoqda.

Tadqiqotimiz davomida oilada farzand taribyasi uchun ajratilayotgan vaqt, ya’ni ota - ona bir kunda o‘z farzandi bilan tarbiya bo‘yicha qancha vaqt muloqotda bo‘ladi, shuni ham o‘rgandik va quyidagicha empirik natijalar qayd qilindi (5-rasm)

3.6-rasm. O‘smirlar orasida “Siz o‘z farzanddingiz bilan tarbiya borasida muloqot uyushtirasizmi” deb so‘ralgan so‘rovning empirik natijalari

Aslida mazkur qayd qilingan holat yoshlar orasidagi jinoyatchilikka sabab bo‘layotgan omillardan ham biri hisoblanadi, ya’ni ikki avlod orasidagi o‘zaro **muloqotning uyushtirilmasligi**, oqibatda ota-ona va farzand bir-birida kechayotgan kechinmalar, o‘zgarishlardan bexabar qoladi. Qolaversa oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi yetarlicha muloqotni uyushtirmasligi bolalar orasidagi marginallashuv, ya’ni boalarni ijtimoiy begonalashuvi va ijtimoiy yakkalanishini sodir etadi. O‘z milliy odatlari, milliy qadriyatlari va o‘zligidan begonalashgan bolalar orasida jinoyatchilikka maylik kuchayar ekan. Bunga sabab ijtimoiy begonalashuv ijtimoiy yakkalanishni sodir etar ekan, ijtimoiy yakkalanish esa bolada agressiya, sutsid, alamzadalik, norozilik, nafrat kabi emotsional holatlarni yuzaga keltirib, mazkur emotsiyalar shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lar ekan.

Biz tadqiqotimiz davomida ota-onalar o‘z farzandini pedagogik nazorati qilayaptimi yoki yo‘qmi, shu kabi holatlarni ham o‘rgandik va quyidagicha holatlarni aniqladik (3.7-rasm).

Demak biz oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik ichki tahdidini mazmun mohiyati, uning inson, xalq, millat uchun ayanchli oqibatlari to‘g‘risida o‘smirlar orasida keng ko‘lamdagi maqsadli va manzilli psixoprofilaktika tadbirlarni olib borishimiz maqsadga muvofiq. Zero, buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliy aytganidek “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi.



3.7-rasm. Ota-onalar tomonidan farzandlarning pedagogik nazorat qilinishi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari

Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

O‘rganishlarimiz aosida shuni aytish joizki, tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizni ogohlikka da’vat qilmog‘i lozim.

Kuzatishlarimiz va masala yuzasida 178 nafar ota-ona bilan olib borgan suxbatlarimiz natijasida kuzatilgan ilmiy xulosalar quyidagicha xulosalarni yuzaga keltirdi. Jumladan oilada farzand tarbiyasi bilan tarbiyalash metodlari va tarbiyaning ijtimoiy psixologik omillari bilan bog‘liq savollarimizga aksariyat ota-onalarda masalaga daxldorlik bilan emas, aksincha o‘z loqaydliklarini xastpo‘shlash uchun sizga: “Hozir zamon judda qiyin bo‘lyapti, tirikchilik uchun yugurmasang

bo‘lmasa!”, “Nima qilay bolalarim yeyman, ichaman deydi, kiyim kechagini aytmaysizmi, bizga oson emas...”, “Ha endi o‘zi omon bo‘lsa, tarbiyasi bir gap bo‘lar...” degan javoblar bilan cheklanishdi.

Biznigcha “Ha endi o‘zi omon bo‘lsa, tarbiyasi bir gap bo‘lar...” aynan mana shunday beparvolik, e’tiborsizlikning ortida butun bir millatning milliy tarbiya tanazzuli naqd. Shunday ekan bugun mazkur masalani har bir ota-ona bu borada olib borayotgan ishlariga bir nazar tashlab ko‘rishlari lozimligi ta’kidlaymiz. Zero, bugun ilm-fan va ta’lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta’limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta’lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Qolaversa ota-onalarni farzand tarbiyasi mas’uliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasining [1] XV-bobi, 77-moddasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar **boqishi**, ularning **tarbiyasi,** ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va **har tomonlama kamol topishi** xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi bilan ayblanadilar.

E’tibor qilib qaraladigan bo‘lsa, *“*ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar **boqishi**, ularning **tarbiyasi,** ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va **har tomonlama kamol topishi** xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar*”*, deyilgan moddaga bu yerda ota-oanalarning majburiyatlari aniq qilib belgilab qo‘yilganligi ko‘rish mumkin. Bizni masalaga aloqador eng asosiy ikkitasiga to‘xtalamiz, ya’ni biri - **boqish**, ikkinchisi - **tarbiyalash**. Bizda bola boqish muammosi, ya’ni bolamga nima yedirib-ichirsam ekan, degan muammo yo‘q. Buning tasdig‘iga mamlakatimizda har ikkinchi oilada mashina turgani; 2021 yil AQShning Kaliforniya universiteti olimlari o‘tkazgan tadqiqotlarda jahonning eng baxtli 158 ta mamlakati orasida O‘zbekistonimizning 44-o‘ringa chiqqanining o‘zi javob.

Biroq ikkinchi majburiyat - tarbiyaviy majburiyatni ta’minlashda ota-onalar muammoga duch kelmoqda. Ya’ni, puli ko‘p, biroq **bolani qanday tarbiyalash kerak**, degan savollarga javoblari - kam. Ularda pedagogik kompetentlilik - bilim, ko‘nikma, malaka, xohish yetishmayotgani sezilmoqda. Mazkur fikrlarimizni pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o‘zining “Bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi kerak” deb nomlangan maqolasida ham ilmiy asoslangan.

Demak bugungi kunda ota-onalar ko‘proq tarbiyalash mezonlari va metodlari haqida o‘ylashlari lozim.

XXI asrda barkamol farzand tarbiyasining negizi sifatida oila (ota-ona), maktab (pedagog), mahalla (qo‘ni-qo‘shni, nuroniylar, mahala faollari), ijtimoiy muhit (tengqurlari, atrofidagi insonlar) o‘z mavqeini saqlab qolaveradi.

Bizningcha yoshlarni milliy fazilatlar asosida tarbiyalashda quyidagi manbalar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

❖ muayyan tizimli, uzluksiz milliy tarbiyaviy, dasturiy ta’sir orqali;

❖ ideal, namuna timsolida o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish;

❖ ijtimoiy muhitdagi shaxslararo munosabatda tahlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulq-odob, fikrlash malakalarini egallash;

❖ ajdodlarimiz yaratgan badiiy, falsafiy, san’at asarlarini o‘zlashtirish orqali yangi xislatlarni o‘zlashtirish kabilar.

Bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi lozim tarbiya metodlarini puxta o‘zlashtirmog‘i lozim, chunki farzand ta’lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng sarmoyadir. Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o‘zining “Bugungi har bir ota-ona pedagog bo‘lishi kerak” deb nomlangan maqolasida bugungi ota-onalarning farzand tarbiyalashdagi ta’sirchan metodlar to‘g‘risida quyidagi qarashlarini ilgari suradi. Jumladan olimni ta’kidlashicha farzand tarbiyasidagi eng ta’sircha metod bu- **o‘rgatish** metodi. Chunki uning ichida **tushuntirish** ham bor, **suhbat** ham bor, **ko‘rsatish** ham bor, **aytish** ham bor, **namuna** ham bor. Demak ota-onalar tarbiya ishlarida aytib

o‘rgatishda ko‘ra ko‘rsatib o‘rgatish metodiga o‘tilari o‘z farzadlari xulq-atvorida milliy fazilatlar shakllanishi aniqroq bo‘lar ekan.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqdir. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Tadqiqotimiz davomida tanlab olingan respondentlarimizning milliy tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish maqsadida ota-onalar uchun maxsus “Siz va farzandingiz” nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqdik. Bundan asosiy maqsad, o‘smir yoshidagi shaxslarning milliy tarbiyasiga ota-onalarning bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilishdir. Mazkur metodika 4 ta omildan iborat bo‘lib, har bir ma’lum ma’noda ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur so‘rovnomada 104 nafar ota-onalar ishtirok etishdi.

3.20-jadval

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar (n=104)

Omil	**Soni (erkak)**	**%**	**Soni (ayol)**	**%**
Loqayd	33	32	21	22
Zolim	30	29	42	43
O‘rtoq	15	14	14	13
Xizmatkor	26	25	27	26
Jami:	**104**	**100**	**104**	**100**

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra «loqaydlik omili» erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko‘rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko‘chada mehnat faoliyati bilan band bo‘lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo‘lishadi. Ona esa aksincha kun davomida bolasi bilan ovora bo‘ladi, uning xursandchiligi, injiqliklarini ko‘radi, ehtiyojlarini bajarishga ko‘maklashadi, bu esa

ularning avtomatik tarzda etiborli bo‘lishlarini talab qiladi. Bolalar ulg‘ayib o‘smir yoshga yetganda ham o‘z dunyoqarashi bilan ovoradek tuyilsa-da, malum bir masalalarda, masalan, kasb tanlash, o‘qish, muhim bir qaror qabul qilish borasida ko‘proq onasi bilan maslahatlashadi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan) omili bo‘yicha erkaklar 29% ni, ayollar esa 43%ni egalladi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qilishdi. Bunga sabab o‘z-o‘zidan 1-omilga borib taqaladi. Chunki ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo‘lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko‘rishadi, his qilishadi va ma’lum o‘rinda xursand bo‘lishadi va kamchiliklarini tuzatishga harakat qilishadi. Zolim omilini farzandga qilingan qattiqqo‘llik, tanbeh berish manosida izohlash maqsadga muvofiq. Shunday vaziyatlar paydo bo‘ladiki, farzand ulg‘aygan sari unga turli omillar ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bu omillar bola ruhiyatiga salbiy va ijobiy tasirini ko‘rsatishi mumkin. Salbiy taassurotlarga berilish farzandni keskin harakatlar qilishga, noto‘g‘ri fikrlashga undaydi. Farzand xatti-harakatlarida kuzatilgan tartibsizlik yoki noo‘rin taassurotlar ota-onani, ko‘proq onani jazo qo‘llash yo‘li bilan farzandni tartibga solish usulidan foydalanishga majbur qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko‘proq foydalanishadi.

3-omil «O‘rtoq» omili bo‘lib, bunda erkaklar 15% ni, ayollar 14% natija egallashdi. Ushbu ko‘rsatgichdan ma’lumki, farzand bilan do‘stona munosabatda bo‘lishda ota-onalar qisman teng o‘rinda turishar ekan. Ammo qaysidir ma’noda otalar onaga nisbatan farzandiga biroz ustunlik qilishadi, ayniqsa, o‘g‘il bolalar bilan munosabat o‘rnatish va uni saqlab qolishda otaning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota-ona, balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir-birini tushunib his qila oladigan darajadagi do‘stona munosabatlarni o‘rnata olish kelajakda farzand tarbiyasining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu o‘rinda ota-onaning roli beqiyos sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg‘aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota-onaning vazifasidir. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to‘g‘ri maslahat bera olish va

yordam qo‘lini cho‘zish farzand va ota-ona o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

So‘rovnoma natijalari bo‘yicha 4-omil «Xizmatkor» (farzand tomondan barcha kamchiliklariga ham ko‘z yumadigan ota-ona timsoli) omili bo‘lib natijalarga ko‘ra erkaklar, yani ota obrazi 25% ni, ayol(ona)larimiz 26% ni egallashdi va erkaklardan ma’lum bir ustunlikni ko‘rsatishdi. Buni izohlash uchun so‘rovnomadan olingan natijalarga jumladan, yuqoridagi 3 ta omilga nazar tashlash kifoya.

Ya’ni bola dunyoga keldiki, malum sabablarga ko‘ra otaga nisbatan ona uning yonida ko‘proq bo‘ladi, yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo‘ladi, mas’uliyat egasiga aylanadi. Otalar o‘z-o‘zidan mehnat faoliyati sababli biroz e’tiborsizdek namoyon bo‘lishadi. Bola ulg‘aygan sari injiqlik va kamchiliklari paydo bo‘lsa ham otaga nisbatan ona qattiqqo‘llik namoyon qilishadi.

Chunki ayollar bolasining tug‘ilgandan yo‘l-yo‘riqqa o‘rgatib kelganliklari sabab bolaning yillar davomidagi yosh xususiyatlari tashqi omil ta’sirlari ham onaga tashvishli vaziyat tug‘diradi. Shu bois tanbeh berish va jazolash usullarini ham qo‘llashlari mumkin. O‘rtoqdek munosabatlarda ham ota-ona birdek o‘rinli, ammo farzand ulg‘aydiki, otaning roli ham kuchaya boshlaydi. Ushbu ko‘rsatgichlardan kelib chiqib 4-omilda ham ayolning ustunligiga guvoh bo‘lishimiz tabiiy jarayon hisoblanadi.

Bolalikdan bolaning xursandchiligiga guvoh bo‘lgan, kamchiliklariga ko‘z yumgan ona farzandi ulg‘aygandan so‘ng ham u uchun barcha aytganlariga rozi bo‘ladigan, kamchiliklarini unutadigan, nima desa ham ma’qullaydigan, ya’ni farzandga bo‘ysunadigan ayol(ona) timcoliga aylanib qoladi. Ammo onalar o‘zini bu timsolda shakllantirganini bilishmaydi, chunki doimo ularda ijobiy psixologik hislar ustunlik qiladi. Ko‘pgina ota-onalar bolada kuzatiladigan yosh xususiyatlaridan xabardor bo‘lmaganliklari bois hissiyotga tayanib bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota–onaning sa’y harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati,

dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi

3.21-jadval.

Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda MAS metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklik natijalari (n=560)

Pirson	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Raqobatga intilish	Maqsadga erishishga intilish
qaramlik	,105	-0,752**	,250
mustaqillik	,203	,304	0,647*
muloqotmandlik	0,921**	,118	,367
odamovilik	,313	-0,524*	,128
“kurash”ga tayyorlik	,215	0,832**	0,532*
“kurash”dan qochish	,392	-0,764**	,142

Izoh:*-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001

Biz tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqib o‘smirlar milliy tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda MAS metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqladik.

Dastlabki “qaramlik” omili “Raqobatga intilish” (-0,752**) bilan manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochish tendensiyalarini bildiradi.

“Mustaqillik” omili “Maqsadga erishishga intilish” (0,647*) bilan musbat darajadagi bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa o‘smirlarda guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirlik bilan xarakterlanadi. Mazkur toifadagi o‘smirlar o‘z oldiga qoygan maqsadlariga doimiy ravishda sobitqadamlik bilan harakat qilishadi.

“Muloqotmandlik” omili “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” **(**0,921**) bilan bog‘liqligi aniqlandi. Mazkur tendensiya shaxsning guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o‘rnatishga intilish, ijtimoiy munosabatlarda o‘z o‘rnini konkret belgidab olish hamda

jamiyatda doimiy ravishda ijtimoiy nufuzga intilish bilan belgilanadi.

“Odamovilik” omili “Raqobatga intilish” (-0,524**) bilan manfiy darajadagi korrelyatsiyasi mavjudligi aniqlandi. Demak, o‘smirlarda odamovilik sifatining yuqori bo‘lishi, ulardagi guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi, guruhdan ajralishga moyilligi hamda o‘z olidga qo‘ygan maqsadga intilishidagi ijtimoiy to‘siqlarga duch kelishi bilan xarakterlanadi.

“Kurash”ga tayyorlik omili “Raqobatga intilish” (0,832**) va “Maqsadga erishishga intilish” (0,532**) omillari bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Agar o‘smirlar qanchalik ijtimoiy munosabatlarda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri foydalangan holda harakat qilishsa, ularning maqsadga erishish tendensiyasi ham shunchalik yuqori bo‘lar ekan.

So‘ngi omil “kurash”dan qochish tendensiyasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda o‘z-o‘zidan raqobatdan qochish, ijtimoiy ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda neytralitet (betaraflik) ni saqlab qolish kabi sifatlar yuqori bo‘lar ekan. Demak xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘smirlarni milliy tarbiyasiga ularni guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda maqsadga erishish darajasi bevosita ta’sir etar ekan (3.21-jadvalga qarang).

3.22-jadval.

«Shaxsan ma’qul topilgan jihatlarni aniqlovchi so‘rovnoma» hamda MAS metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklik natijalari (n=560)

Pirson	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Raqobatga intilish	Maqsadga erishishga intilish
Erishilgan yutuqlar	0,834**	0,693**	0,263
Tan olish	0,254	-0,542*	0,354
Tartib	0,410	0,103	0,207
Namoyishkoronalik	0,627*	0,233	0,567*
Avtonomiya	0,371	-0,712**	0,110
Affiliatsiya	0,737**	0,311	0,157
O‘zini bilib ish qilish	0,237	0,330	0,402
Ko‘makni qabul qilish	0,214	0,183	0,237

Ustunlik qilish	0,255	-0,546*	0,303
Bo‘ysunish	0,147	0,258	-0,603*
G‘amxo‘rlik ko‘rsatish	0,369	0,159	0,357
O‘zgaruvchanlik	0,157	0,325	0,386
Chidamlilik	0,371	0,143	0,805**
Geteroseksuallik	0,199	0,177	0,244
Agressiya	0,142	0,612*	0,399

Izoh:*-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001

Demak “Erishilgan yutuqlar” omili “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” (0,834**) va “Raqobatga intilish” (0,693**) omillari orasida musbat korrelyatsiya aniqlandi. Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin, ya’ni o‘smirlarda yutuqqa erishish istagi ularni raqobatga undaydi, shu bilan birga mazkur istak tagida doim o‘z guruhi orasida ma’lum darajadagi ijtimoiy nufuzga erishish istagi yotadi, shuning uchun ham mazkur omillar musbat bog‘landi va bir-birisiz rivojlanmaydi.

“Tan olish” omili bilan “Raqobatga intilish” (-0,542*) manfiy korrelyatsiya aniqlandi. O‘smirlardagi tan olish, bo‘ysinish, bog‘lanish, tan berish, qo‘llab-quvatlash kabi jihatlar bilan farqlanadi, bu sifatlar bilan o‘smirlar raqobatga kira olmas ekanlar, shuning uchun ham mazkur omillar orasida manfiy bog‘lanishlar kuzatilgan.

O‘smirlarda “Namoyishkoronalik” omilini rivojlanishi Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish (0,627*) va “Maqsadga erishishga intilish” (0,567*) kabi omillar orasida musbat bog‘lanish kuzatildi. O‘smirlarni namoyishkorligi doimo o‘zgalarning e’tiborida, diqqat markazida bo‘lishga, ularda yaxshi taassurot qoldirishga intiladi, hatto o‘z tashqi ko‘rinishi bilan ham o‘zgalarga yoqishga harakat qilib, ularning munosabatini aniqlashga ehtiyoj sezadi, mazkur ehtiyojlar ma’lum darajada mavqega, nufuzga bo‘lishini va shu asosda maqsadga erishishini kuchaytirishi mumkin ekan.

“Avtonomiya” va “Raqobatga intilish” (-0,712**) manfiy bog‘lanishni qayd qildi. Bunga sabab yoshlar barcha xatti-harakatlarda, xulq-atvorda, qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘lishga intilish, o‘zi xohlagan narsani gapirish yoki amalga oshirishga moyillik, konformizmni namoyon etadigan vaziyatlardan qochish, mas’uliyat

va javobgarlikdan qochish kabi jihatlari ularni raqobatga kirishishini cheklaydi.

“Affiliatsiya” va “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” (0,737**) orasida musbat bog‘liqlik kuzatildi. Mazkur holatni yoshlarni turli ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, do‘stlar orttirish, ularning e’tiroflariga sazovor bo‘lish, oshnalar bilan birgalikda qarorlar chiqarish, yolg‘izlikdan qochish ehtiyojilarini usutuvorligi bilan izohlash mumkin.

“Ustunlik qilish” va “Raqobatga intilish” (-0,546*) orasida manfiy a’loqa aniqlandi. Ushbu holatni yoshlarda yetakchi bo‘lish, raqobatga intilishi ehtiyoji va o‘zgalar ham uni shunday qabul qilishlarini istash, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, uni o‘zgalarga ham o‘tkazishga moyillik, boshqalar uchun ham qarorlar qabul qilishdan tortinmaslik, o‘zining haqligini hamisha isbot qilish, boshqalarni o‘z ortidan ergashishiga erishish istaglarini kuchayganligi va yaqqol namoyon bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

“Bo‘ysunish” va “Maqsadga erishishga intilish” (-0,603*) orasida ham manfiy loqadorlik aniqlandi. Mazkur holatni yoshlardagi bo‘ysunish yoki aybdorlik hissi bilan yashash – aybga iqror bo‘lish va xatolar uchun jazolanishga tayyorlik, noto‘g‘ri harakatlar sodir etilgan vaziyatlarda xatoni o‘z bo‘yniga olish, o‘zini aybdor his qilish, o‘zini ko‘pchilikdan ortda, yomonroq deb qabul qilishg evaziga maqsadga erishishga intilishini pasayib borishi bilan izohlash mumkin.

“Chidamlilik” omili “Maqsadga erishishga intilish” (0,805**) omili bilan musbat aloqaga kirishdi. Mazkur holatni o‘smirlardagi maqsad yo‘lidagi sobitlik – har qanday ishni oxiriga yetkazishga, muammoni yechimini topishga intilish, ishni bajarayotganda chalg‘imaslikka va faoliyatni to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi sifatlar ularni doimo maqsadga erishishini ta’minlovchi omil bo‘lganligi bilan izohlash mumkin.

“Agressiya” omili bilan “Raqobatga intilish” (0,612*) orasida musbat bog‘lanish kuzatildi. Mazkur holatni o‘smirlardagi birovlarni ko‘pchilik ichida tanqid qilish, behurmat qilish, o‘z fikrlarini ochiq bayon etish, ustidan kulish, gunohkor etish, agar xatolik yuz bergan holatlarda o‘ch olishga moyilliklari evaziga raqobatdan cho‘chimasliklari va unga inlishilarini ta’minlashi bilan izohlash mumkin.

3.3. Milliy tarbiya asosida ta’lim muassalarida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlomlashtirish texnologiyasi

Bizningcha jamiyatda milliy tarbiyaga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, yanada barqarorlashtirish mumkin. Bu kafolat esa millatning farovonligi va taraqqiyoning eng asosiy vositalaridan biridir. Zero millat yosh avlodining ma’rifatli bo‘lishi, milliy tarbiya fazilatlariga odatlanishi va shu asosiy ijtimoiy-psixologik omillar orqali ijtimoiy-ma’naviy muhit sog‘lomligiga erishish mamlakat taraqqiyoti, Harakatlar strategiyasi va “Miliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”, deb belgilangan Bosh g‘oyamizni amalga oshirishning asosiy shartihamdir.

Milliy tarbiyaga asoslangan ijtimoiy-ma’naviy muhitning sog‘lomligi darajasi ushbu muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan sa’yi-harakatlarning ilmiy asoslanganligiga bog‘liq. Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Har bir sohaning o‘z ilmi bor” deb bejizga aytmadilar.

Biz Prezidentimizning ushbu ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, hududlar kesimida (Toshkent, Buxoro, Navoiy) milliy tarbiya mezonlari va ijtimoiy-psixologik muhitini ilmiy asosda o‘rganish hamda muhitning sog‘lomligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tasniflash, ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligini talab darajasiga yetkazish va muntazam ta’minlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib bordik va quyidagicha milliy tabiya shakllanishida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirishning psixologik texnologiyasi bo‘yicha ilmiy mushohadalarimizni ilgari surdik.

Bizningcha ta’limda muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi texnologiyasi (TMIPMST) asosida ta’lim muassasalari kesimida ijtimoiy-psixologiik muhit sog‘lomligi diagnostik asosda darajalashtirish o‘quvchilarning turli segmentlari ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, tahdidlarning turi, maqsadi, mazmuni va ta’sir kuchini aniqlash hamda ularni samarali bartaraf etish va ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan maqsadli va manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunigdek ta’lim muassalarida TMIPMST ning joriy qilinishi ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi holatini baholovchi o‘ziga xos

barometr vazifasini bajaradi. Ta’limda ijtimoiy-psixologik muhitni aniqlash, milliy tarbiya, ma’naviy, mafkuraviy jarayonlarning ilmiy amaliy monitoringi yo‘lga qo‘yiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda investitsion muhit, tabiiy muhit, ijtimoiy iqtisodiy muhitni o‘rganish borasida samarali, ilmiy asoslangan ishlar olib borilmoqda. Ilmiy o‘rganishlar asosida sohalarni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasini kompleks ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish Konsepsiyasi”ni keltirish mumkin. XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida globallashuv va turli-tuman mafkuraviy kurashlar tajribasidan kelib chiqadigan xulosalar ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda jiddiy, har jihatdan mustahkam va ilmiy-amaliy asosga ega bo‘lgan ishlarni olib borish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bu esa mamlakatda ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganish va istiqbolda uning asosida “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-psixologik muhitni kompleks o‘rganish va barqaror sog‘lomligini ta’minlash Konsepsiyasi”ni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Yuqoridagi dolzarb zaruratdan kelib chiqib, jamiyatimizda ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lom va barqaror qilish, xalqimizning islohotlardan muntazam xabardorligini ta’minlash, aholi, yoshlarni “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” g‘oyasi atrofida birlashtirish va bunyodkorlik ishlariga safarbar etish maqsadida “**Ta’lim muassalarida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi texnologiyasini”** (TMIPMST) ishlab chiqdik va mazkur texnologiyani O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik - pedagogik Respublika tashxis markazi 3630 nafar o‘quvchilar ishtirokida aprobatsiyadan o‘tkazdi va maktablar uchun qo‘llanma sifatida nashr qilib tekinga tarqatdi.

Metodologik baza.

Tadqiqotning metodologik asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan xalqimizni rozi qilish, farovonligini yanada oshirishga qaratilgan tashabbuslari, O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida olib borilayotgan huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy, ma’naviy ma’rifiy islohotlar, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, deb belgilangan milliy

g‘oyamiz hamda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishning dunyo tajribasida samarasi sinovdan o‘tgan metod va texnologiyalari hisoblanadi.

Jahon tajribasida ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini o‘rganish va sog‘lomlashtirish bo‘yicha turli manzilli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, “Etnik va diniy tahdidlarga qarshi kurash texnologiyasi” [2013], “So‘z erkinligi ko‘rinishidagi informatsion-psixologik urushlardan aholini himoya qilish” texnologiyasi [2014], “Ijtimoiy ma’naviy muhit xaritasi”(2018) ishlab chiqilgan. “Hududlarning ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasi” (2018 O‘zbekiston. RMMM).

TMIPMSTning maqsadi - maltablarda ijtimoiy-psixologik muhitini ilmiy asosda o‘rganish hamda muhitning sog‘lomligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijobiy va salbiy omillarni tasniflash, ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligini talab darajasiga yetkazish.

TMIPMSTning vazifalari:

✓ Maktablarda sinflar kesimida (biz o‘smirlarni 5 va 9 sinf kesimida o‘rgandik) ijtimoiy-psixologik muhitning sog‘lomligiga ta’sir qilayotgan omillarni o‘rganiladi.

✓ O‘quvchilarni milliy tarbiyasi va xulq-atvoriga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar alohida-alohida o‘rganib guruhlashtiriladi.

✓ Ijobiy omillar ta’sirini kuchaytirish, salbiy ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

✓ Har bir maktab va hududning ijtimoiy-psixologik qiyofasini aniq raqam, diagramma va jadvallarda vizual tarzda aks ettirish orqali hududlardagi o‘ziga xos muammolar va uning sabablarini ob’ektiv qayd qilinadi.

✓ Mavjud ijobiy darajani yanada takomillashtirish va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan aniq, diagnostik, manzilli chora-tadbirlar, ijtimoiy-psixologik treninglar dasturi ishlab chiqiladi.

TMIPMST indekslari (baholash indikatorlari):

TMIPMST indekslari o‘smirlarning milliy tarbiyalanganlik darajalarining tayanch mezonlari hisoblangan milliy fazilatlari va axloqiy sifatlari **darajalari va ko‘rsatkichlaridan kelib chiqadi.**

Har bir indikator **uch darajada baholanadi va alohida ranglar bilan belgilanadi.**

Yoshlarda milliy tarbiyaning sifat va fazilatlari yuqori daraja – **yashil**, qoniqarli daraja – **sariq**, qoniqarsiz daraja – **qizil rang** bilan ko‘rsatiladi. Har bir indikatorning darajalari maktab va hudularning o‘rganilgan paytdagi ijtimoiy-psixologik qiyofasi va uning sog‘lomlik darajasini ham ko‘rsatadi. Ya’ni qaysi maktab va hududda yoshlarda milliy tarbiyaning sifat va fazilatlari yuqori daraja shakllangan qaysida o‘rtacha va qaysida past, demak mazkur ishlaman bizga maqsadli va manzilli ishlash imkonini beradi.

DARAJALAR	SHARTLI RANG
III qoniqarsiz daraja	
II qoniqarli daraja	
I yuqori daraja	

TMIPMST ni joriy qilish

Tegishli vazirlik va idoralar mustaxassilaridan iborat ishchi guruhlari tashkil qilinadi.

Respublika ishchi guruhi a’zolari o‘rtasida vazifalar taqsimlanadi.

Maktab va hududlardagi ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligini baholaydigan indikatorlar sifat va miqdor jihatdan aniqlanadi.

Ishchi guruhlar a’zolari quyidagi jadval asosida ma’lumotnomalarni to‘playdi:

3.23-jadval

Aniq raqamlarda aniqlanadigan indikatorlar maktablar kesimida ijtimoiy-psixologik salomatlik dinamikasi.

№	Olinadigan ma’lumot	Soni	Sabablari	Taklif va tavsiya
Notinch oilalar farzanlar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Ajrimli oilalar farzanlar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			

Erta turmushga qurgan o‘quvchilar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Jinoyat sodir qilgan o‘quvchilar soni (sinf kesmida)				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Etim va chin yetim o‘quvchilar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Maktabdagi jinoyat turi (Masalan o‘g‘rilik, firibgarlik vaho kazo...)				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Migratsiyaga ketgan oilalar farzandlari soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Buzg‘unchi oqimlar ta’siriga berilgan oila farzandlar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
O‘z joniga qasd qilgan va qasd qilishga uringan o‘quvchilar soni. Sinf va jins kesimida				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Kashanda o‘quvchilar soni. Sinf va jins kesimida				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
OITSga chalingan oilalar farzanlar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			

Ishsiz oila farzanlar soni				
1	2020 yil			
2	2021 yil			
3	2023 yil (may)			
Past o‘zlashtirishga ega bo‘lgan o‘quvchilar soni. Sinf va jins kesimida				

2-Jadval: O‘smirlar orasidan ixtiyoriylik asosida tanlangan (fokus)guruhlardan so‘rab aniqlanadigan indikatorlar (O‘zbekistonni rivojlantirish uchun fuqarolardan bugun namoyon etish taqozo etilayotgan tayanch tarbiyaviy, axloqiy fazilatlar (Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi asosida) darajasi) [5].

№	Savol	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Xulosa va tavsiyalar
1	Siz atrofingizdagi odamlarning **vatanga sadoqatini** qanday baholaysiz?				
2	Siz atrofingizdagi odamlardagi **tadbirkorlik** darajasini qanday baholaysiz?				
3	Siz atrofingizdagi odamlarning **irodalilik darajasini** qanday baholaysiz?				
4	Sizningcha atrofingizdagi odamlarning yomon fir g‘oyalardan (ekstremizm, terrorizm, separatizm, radikalizm, proziolitizm, “ommaviy madaniyat”, kiberjinoyachilik, narkobiznes), yoshlarimiz tarbiyasiga zararli ta’sirlardan o‘zini himoya qilish qobiliyati, ya’ni **mafkuraviy immunitet** darajasini qanday baholaysiz?				
5	Siz yashayotgan mahalla aholisining **mehr-oqibatlilik** darajasini qanday baholaysiz?				

6	Siz atrofingizdagi odamlarning **mas'uliyatlilik** darajasini qanday baholaysiz?				
7	Sizningcha atrofingizdagi odamlarning **bag'rikengligi** darajasi qanday holatda?				
8	Siz atrofingizdagi odamlarning **huquqiy madaniyatini** qanday baholaysiz?				
9	Sizningcha mahallangiz aholisining yangiliklarga intilishi, **innovatsion fikrlash** darajasi qanday holatda?				
10	Siz atrofingizdagi odamlarning **mehnatsevarlik** darajasini qanday baholaysiz?				
Jami:					

***Izoh:** Mazkur so'rovda psixologik himoya mexanizmi qonunidan foydalanildi, ya'ni so'raluvchining o'zidan–o'zi haqida emas, balki undan boshqalar haqida so'raladi. Bu orqali munosabatlarning ob'ektivligi ta'minlanadi. Mazkur so'rovlarda sotsiologiya va psixologiya fanlaridagi "reprezentativlik", "validlik" qonunlari asosida har 100 ta respondentdan 10 respondentning o'rganilishi, so'rov natijasining validlik (ishonchlilik) darajasi uchun norma ekanligi hisobga olinadi.

***Natijalarni qayta ishlash:** Ballar yig'indisi ijtimoiy-psixologik sog'lomlik samaradorligining indeksini ko'rsatadi.

Korespondent (so'rovchi) respondent (so'raluvchi) ning ijtimoiy-psixologik sog'lomlik darajasiga ijobiy va salbiy ta'sir qilayotgan indikatorlarni uch ("yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz") darajada baholab boradi.

Har bir indikatorning shakllanganligi respondentning bergan javoblari asosida "yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz" darajalar oldiga + belgisi bilan belgilab boriladi. Natijalarni qayta ishlashda respondent bergan javoblari darajalar kesimida aniqlanadi, ya'ni "yaxshi" darajada nechta +, "qoniqarli" va "qoniqarsiz" darajalarda nechta + sanab yig'indilari aniqlanib olinadi.

Respondentning javoblari uch darajadan qaysisi ko'p miqdorni tashkil etsa, demak u yerdagi ijtimoiy-psixologik muhit sog'lomligini belgilovchi indeks hisoblanadi.

Korespondent respondentlar bilan olib borgan so'rov o'tkazayotganida ularning ijtimoiy-ma'naviy muhit to'g'risidagi

xulosalari va muhitni takomillashtirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalarini qayd qilib boradi.

3.24-jadval

Maktablardagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni baholash indikatorlari

№	Savollar	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Xulosa va tavsiyalar
1	Yillik ish rejalarida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish indikatorlari ko‘zda tutilganligi				
2	Ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligi va buning baholanishi				
3	Ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganishda qo‘llangan metodlar				
4	Ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi tadbirlari bo‘yicha bayonomalar tuzilganmi				
5	Ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligini rivojlantirish uchun qanday amaliy ishlar qilingan				
6	Ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi uchun qanday g‘oyalari bor				
7	Maktabda notinch oilalar farzanlari bilan olib borgan ishlar holati				
8	Ajrimli oilalarni farzanlari bilan olib borgan ishlar holati				
9	Erta turmushga chiqish holatlarini oldini olishga qaratilgan ishlar holati				
10	Jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan ishlar holati				
11	Etim va chin yetimlar bilan olib borilgan ishlar holati				

12	Maktabda o‘quvchilar orasida sodir etilgan jinoyat turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni olib borganlik holati				
13	Migratsiyaga ketgan oilalarni farzanlari bilan olib borgan ishlar holati				
14	Buzg‘unchi oqimlar ta’siriga berilgan oilalar farzanlari bilan olib borgan ishlar holati				
15	O‘z joniga qasd qilishning oldini olishga qaratilgan ishlar holati				
16	Voyaga yetmaganlar nazorati ro‘yxatida turganlar va yoshlar orasidagi jinoyatchilikni bartaraf etishga qaratilgan ishlar holati				
17	O‘quvchilar orasida kashanda va sipirtli ichimliklar istemollarini olidini olishga qaratilgan ishlar holati				
18	OITSga chalinish holatini oldini olishga qaratilgan ishlar darajasi				
Jami:					

Natijalar tahlili

Ballar yig‘indisi ijtimoiy-psixologik sog‘lomlik samaradorligining indeksini ko‘rsatadi. Korespondent (so‘rovchi) respondent (so‘raluvchi) ning ijtimoiy-psixologik sog‘lomlik qiyofasiga ijobiy va salbiy ta’sir qilayotgan indikatorlarni uch (“yaxshi”, “qoniqarli”, “qoniqarsiz”) darajada baholab boradi.

Har bir indikatorni shakllanganligi respondentning bergan javoblari asosida “yaxshi”, “qoniqarli”, “qoniqarsiz” darajalar oldiga + belgisi bilan belgilab boriladi. Natijalarni qayta ishlashda respondent bergan javoblari darajalar kesimida aniqlanadi, ya’ni “yaxshi” darajada nechta +, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” darajalarda nechta + sanab yig‘indilari aniqlanib olinadi.

Respondentning javoblari uch darajadan qaysida ko‘proq yig‘indini tashkil etsa, demak u yerdagi ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomlik darajasining indeksi shuni tashkil etishini ko‘rsatadi.

Korespondent respondentlar bilan olib borgan so‘rovlari vaqtida, har bir ijtimoiy-psixologik muhit holatiga salbiy ta’sir qilayotgan indikatorlarni bartaraf etish va ijtimoiy-psixologik muhit holatiga

ijobiy ta’sir qilayotgan indikatorlarni yanada shakllantirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalari diktafonga yozib boriladi.

Kutilayotgan natija

TMIPMST ning joriy qilinishi natijasida:

- ta’lim muassalari kesimida, hududlar kesimida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi holatini baholovchi o‘ziga xos psixologik barometr yaratiladi. Mamlakatda tarbiyaviy, ma’naviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq jarayonlarning ilmiy amaliy monitoringi yo‘lga qo‘yiladi;

- ta’lim muassasalarining ijtimoiy-psixologik muhiti sog‘lomligini har 6 oy(bosqich)da takomillashtirib borishning amaliy, ilmiy asoslangan mexanizmi qo‘lga kiritiladi;

- maktablardagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish ishlari manzilli va maqsadli amalga osha boshlaydi;

- jamiyat, ayniqsa yoshlarimiz “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” eltuvchi milliy g‘oya atrofida birlashadi, safarbar qilinadi. Bu umummilliy birlik va safarbarlik O‘zbekistonni rivojlangan davlat qatoriga ko‘taradi.

BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar qayd qilindi.

1.Tadqiqotimiz o‘smirlarning ota-onalari o‘z farzandlariga “haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishlari”, “hamma narsaga ruxsat berishlari” kabi tarbiyaviy usullari tarbiyaviy ta’sirni susaytiruvchi omil ekan. Mazkur holatni ota-onalarning o‘zlar bolalarini yetarlicha kuzatmasliklari, nazorat qilmasliklari va o‘z farzandlarini yahshi bilmasliklari oqibatida ularga hamma narsaga ruxsat berishar ekan va bunig oqibatida ota-onalarning tarbiyaviy ta’siri yanada susayar ekan.

2. Ota-onalarni tarbiya masalasida o‘z farzanlariga kuchli “hissiy aloqa bildirishlari ham tarbiyaviy ta’sirni susaytiruvchi omili ekan. Sababi ota-ona imkon boricha o‘z farzandlarini ushlab turishga, uni barcha orzu-tilaklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini o‘zlari qilib berishga oshiqishadi, bu holat esa ota-onaning o‘z farzandlarini o‘zlariga qattiq bog‘lab qo‘yishlariga olib keladi. Oqibatda bola boqimanda bo‘lib

qoladi, kelajakda bolada muvafaqiyatga intilish motivi pasayib ketar ekan.

3. Empirik tahlillarimiz respondent bo‘kib ishtirok etgan aksariyat ota-onalarni farzand tarbiyasida “qat’iyatsiz” ekanliklarini ko‘rsatdi. Mazkur omil ham tarbiyada salbiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki tarbiya ishlari qa’tiyat, matonat va ma’lum darajadagi prinsiplarni talab etadi.

4. Ota-onalar tomonidan tarbiyaviy ishlarda o‘z farzanlariga bildirilgan munosabatlar qanchalar salbiy bo‘lsa, bu kabi munosabatlar ta’siri ostida o‘sayotgan har qanday o‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlari, muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatlari hamda shaxsning o‘z atrofidagilarga nisbatan shaxslararo munosabatlarining hukmronlik, o‘z hukmini o‘tkazish, amr-farmonlik, zolimlik, ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, qaysarlik, injiqlik, yolg‘onchilik, johillik, tajovuzkorlik va sovuqqonlik kabi etnopsixologik jihatlarining salbiy shakllanishiga sabab bo‘lar ekan.

5. Ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini haddan tashqari qarovsiz qoldirish yoki tarbiyaning har tomonlama me’yorini saqlamaslik natijasida bolalarning xulq-atvorida saliy illatlar alamzadilk, norozolik, o‘zi va ishlaridan qoniqmaslik, o‘ziga ishonmaslik, ijtimoiy yakkalanish, ijtimoiy begonalishish kabi jihatlar tez rivojlanar ekan.

6. Tadqiqotimiz empirik natijalari o‘smirlarni “o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati yaxshi ekanligini, biroq boshqa narsa va hodisalarga nisbatan munosabatining yomonligi omilini yuqoriligi ko‘rdatdi. Bu omi o‘smirning o‘zidan boshqa “Ego”larga qarshi turishi tarbiyaviy ta’sirni susaytiradigan asosiy omil ekanligi isbotlaydi. Demak mazkur holatlarni pasaytirmasdan turib ular bilan milliy tarbiya ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq emas.

7.Yoshlar orasida autosempatiya, o‘zini ayblash tendensiyasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar yuqoriligini ko‘rsatdi. Demak yoshlar orasidagi o‘zini ayblash tendensiyasini kuchayib borishi ular orasidagi o‘ziga ishonchni pasaytirish, umidsizlik, tushkunlik, agressiya, frustratsiya va suitsid kabi holatlarni ko‘payishiga olib kelishini izohlaydi. Mazkur holatni maqsadli va mazilli psixoprofilaktikalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

8. O‘smirlar orasida “boshqalardan ijobiy munosabatni kutish omili” yuqoriligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘smirlik davrida yuz beradigan krizislarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki, o‘smirlik davrida emotsional holatning yuqori bo‘lishi ularda boshqa insonlardan ijobiy munosabatlarni kutish tendensiyasini namoyon etadi. Biroq real hayotda hamma vaqt ham kattalar o‘smirlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishmaydi, demak kattalar va o‘smirlar orasidagi aksariyat ziddiyatlarni asosi shu omilga ham bog‘liq ekanligi isbotlandi.

9. Empirik natijalar yigitlarda qizlarga nisbatan ichki lokus nazorat kuchliroq ekanligi qayd etildi. Buni esa yigitlarda o‘z hayotlari uchun qizlarga qaraganda ko‘proq mas’uliyatni his qilishlari hamda o‘z hayotida bo‘layotgan yutuqlar hamda muvaffaqiyatsizliklarga ko‘proq o‘zlarini sabachi deb bilishlari bilan izohlash mumkin. Qizlarda esa mazkur holat aksincha, ko‘proq boshqalarni ayblash tendensiyasi ustunlik qilishi, ya’ni bu holatni psixoanalitik tahlil qiladigan bo‘lsak qizlarda yigitlar nisbatan proeksiya mexanizmini ustunligini ko‘rishimiz mumkin.

10. Eksternal lokus nazoratni qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo‘lishi, yigitlarni qizlarga nisbat ko‘proq ko‘cha-kuyda, jamiyatda faolroq bo‘lishlari ularni jins rol vazifalari bilan ham bog‘liqligida ekan. Ya’ni yigitlar qizlarga nisban ko‘proq odamlar bilan muloqotda bo‘lishlari kerak, jamiyatda o‘z o‘rnilariga o‘zlarini mehnatlari bilan erishishlari kerak, demak yigitlar biladiki, ma’lum bir ijtimoiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmasdan turib ular bu narsalarga erisha olmaydi, shuning uchun ular imkon qadar ko‘proq tashqi yo‘nalganliklarini, o‘zlarini bor imkoniyatlarini boshqalarga ko‘rsatishga va shug‘ullanayotgan faoliyatlariga bor ichki imkoniyatlarini safarbar etishlar bilan farqlanar ekanlar.

12. O‘smirlar orasida ma’lum darajadagi begonalashish (alienatsiya) – o‘z kutilma va emotsional taxminlarini shakllantirish qobiliyatining buzilishlari ham kuzatildi. Buning natijasida o‘smir ayni damda ko‘zlayotgan yoki amalga oshirayotgan muddaosining motivatsion-emotsional asosini anglab yetmaydi. Muddaoni emotsional qo‘llab-quvvatlamaslik tufayli harakatni tanlash va amalga oshirishda ichki erksizlik his etiladi: o‘smirni oldiga qo‘ygan maqsadi “o‘zinikimasdek”, “begonadek” tuyuladi. Maqsadni amalga

oshirishga yo‘naltirilgan harakatlar esa sub’ekt tomonidan emas, balki tashqi ta’sirlar tomonidan rejalashtirilgandek tuyuladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, o‘smir nima sababdan bu narsalarni qilayotganini anglab yetmaydi, hayotdagi xatti-harakatlari mazmun-mohiyati bilan bog‘liq muammoga duch keladi.

13. O‘smirlar orasida “alienatsiya” holatini kuchayishi o‘zining emotsional kutilmalarini anglab yetmaslik natijasida sub’ekt o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshira olmaydi. Oqibatda u boshqa odamlar tomonidan singdirilgan kutilma va qadriyatlar ta’siri ostida qolib, o‘zga kishilarning muddaolariga “xato internalizatsiyasi” sodir bo‘lar ekan. “Xato internalizatsiya” fenomeni shsmirlarning boshqa kishilardan alohida tarzda mavjud bo‘lmasligi va shuning uchun shaxsning o‘z maqsadlari o‘zga kishilarning maqsadlari bilan mos tushishi oqibatda ularda e’tiborsiz qoldirib o‘z bilganicha, xohlaganicha ish kabi jihatlar namoyon bo‘lar ekan.

14. O‘smirlar orasidagi “alienatsiya” holati o‘zgalarning maqsadlarini qabul qilishda (introeksiyalashda) bu maqsadlar shaxs tomonidan “begonadek” qabul qilinadi. Bunday o‘smirlar o‘zini nazorat qilishi zaif bo‘lganligi sababli o‘zgalarning “virus-maqsadlari”ni anglab yetmay o‘zinikidek qabul qiladi. Bunda harakatlar boshqa kishilarning maqsadlari tomonidan boshqariladi. Bu esa o‘smirning ichki nizolarini kuchaytiradi va irodaviy boshqaruv samaradorligiga salbiy ta’sir etadi.

15 Ta’limda muassalarida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi texnologiyasini (TMIPMST) qo‘llanilishi o‘quvchilarning turli segmentlari ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, tahdidlarning turi, maqsadi, mazmuni va ta’sir kuchini aniqlash hamda ularni samarali bartaraf etish va ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan maqsadli va manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

IV BOB. YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANTIRISHNING PSIXOKORREKSION ASOSLARI

4.1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish modeli

Tadqiqotimiz davomida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida model ishlab chiqildi va uning samaradorligi o‘rganildi.

Bugungi ochiq axborot asridagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘rsatganidek, oilada olib boriladigan sog‘lom tarbiya jarayoni, ota-onaning tarbiyada qo‘llaydigan asosli metodlari, tarbiyaning milliy va zamonaviy tamoyillarini uyg‘unlikda olib borishi bolaning xulq-atvorida milliy fazilatlarni rivojlanishiga yoki yuqoridagi ishlarning sustligi bolaning xulq-atvorida psixologik og‘ishishlarni ko‘payishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun bugungi yoshlarni milliy fazilat va xususiyatlar asosida tarbiyalash zamon talabi, ushbu muammoning ijtimoiy-psixologik asoslarini va omillarini, oilada sog‘lom tarbiya jarayonini tashkil etish mexanizmini bilish hamda unga ijodiy yondoshish ota-onalar va ijtimoiy soha vakillaridan ijtimoiy-psixologik bilimlarni talab etadi.

Oilada bolani milliy fazilat va xususiyatlar asosida tarbiyalash, mahalla, ta’lim tizimi va ijtimoiy institutlarning roli muhim hisoblanib, bu tizim asosida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning uzluksizligini ta’minlash muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli biz tadqiqotimizning nazariy ma’lumotlari va qo‘lga kiritilgan empirik natijalar asosida **“Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik modeli”** islab chiqildi (4.1-rasm).

MILLIY TARBIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MODELI

2.Omilla

- **Individual psixologik**
- **Ijtimoiy-psixologik**
- **Kognitiv**
- **Hissiy-irodaviy**
- **Xulq-atvor**

3.Funksiyalar

Shakllantirish bosqichlari

- **kommunikativ**
- **perseptiv**
- **interaktiv**
- **didaktik**

4.Tashkiliy

Ko‘rinishlari	**Usullari**	**Vositalar**	**Yondashuvlar**	**Prinsiplar**
Individual; Guruhiy; Jamoaviy; **Bosqichlar** Motivatsion-ma'-lumot beruvchi; operativ-ma'lumot beruvchi; Kommunikativ xulq-atvor	Aytib o’rgatish So’rab o’rgatish Ko’rsatib o’rgatish Operant o’rgatish Amaliy ta'lim	Oila, ta’lim, mahalla va ommaviy axborot vositalari	Aksiologik; Sinergetik; Reflektiv; Ijtimoiy-psixologik Ijodiy (individual) Barkamol	Yaxlitlik va Mustahkamlik; Ochiqlik va dinamik O'z-o'zini namoyon qilish Ko'p funksiyalilik

5.Baholovchi mezonlar

Shakllanish darajasini aniqlash mezonlari

Motivatsion baholash	Xulq-atvorni nazorat qilish	Hissiy jihatdan	Kognitiv rivojlanish	Sog’lom sotsializatsiya

Shakllanish darajalari

- **Kognitiv**
- **Reproduktiv**
- **Xulq-atvor**

Milliy tarbiyani shakllantirish natijasida barkamollikni ta’minlash

6.Natijalar bo`limi

Milliy fazilatlarni o’zlashtirish asosida milliy xarakterni shakllantirish	Milliy o’zlikni anglash orqali milliy ijtimoiy normalarga onson moslashish	Milliy tarbilanganlik orqali sog’lom xulq-atvorga ega bo’lish

- Milliy tarbiya sifatlari bo’yicha bilimga ega bo'lgan o’quvchilar
- Milliy tarbiyani o’zida namayon etuvchi, milliy fazilar kompetensiyasiga ega o’quvchilar

Milliy tarbiya haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning zaruriy shartlari:

1.Maqsadni belgilash

Tashqi	**Ichki**
Umuminsoniy g’oyalar va **geterostereotip**-o’quvchilarning boshqa xalqlarning o’ziga xosligi haqidagi bilimlarga ega bo’lishi	Insonparvar g’oyalar va **avtostereotip** - o‘z xalqining milliy fazilatlari, milliy qadriyatlari hamda milliy an’analari haqidagi bilimlarga ega bo’lishi

Vazifalar:

1. Milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash.
2. Yoshlarda milliy va **sog’lom** xulq-atvor shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi vositalar va usullarni aniqlash.
3. Milliy tarbiya shakllanishida kognitiv, motivasion, xulq-atvor, hissiy-irodaviy, axborot-kommunikativ kompetensiyalar ta’sirini o`rganish.

Maqsad: Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va zarur tavsiyalar ishlab chiqish

Modelning asosiy maqsadi yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va zarur tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Mazkur maqsad yuzasidan dastlab o‘quvchilarda milliy tarbiya shakllanishinig ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash, milliy va sog‘lom xulq-atvor shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar va usullarni aniqlash hamda milliy tarbiya shakllanishida kognitiv, motivatsion, xulq-atvor, hissiy-irodaviy, axborot-kommunikativ kompetensiyalar ta’sirini o`rganish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Shunindek biz dastlab modelimiz uchun **ranjir usulidagi 6-bosqichli** tuzilmani ishlab chiqdik, ular 1-maqsadni belgilash bosqichi, 2-omillar bosqichi, 3-funksiyalar bosqichi, 4-tashkiliy bosqich, 5-baholovchi bosqich, 6-natijalar bosqich.

Dastlabki bosqish “**Maqsadni belgilash” bosqichida** o‘quvchilarni milliy tarbiya haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida tashqi omil o‘quvchilarda umuminsoniy g‘oyalar va **geterostereotip**- ya’ni boshqa xalqlarning o‘ziga xosligi haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi hamda ichki omil o‘quvchilarda insonparvar g‘oyalar va **avtostereotip** - o‘z xalqining milliy fazilat, milliy qadriyat hamda milliy an’analari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi hisobga olindi.

Navbatdagi bosqich **“Omillar” bosqichi.** Bunda milliy tarbiya shakllanishida **individual psixologik va ijtimoiy-psixologik** omillar ta’siri o‘rganildi. Mazkur organishlar milliy tarbiyani shakllantirishning **kognitiv, xulq-atvor va hissiy-irodaviy** komponentlar kesimida tahlil qulindi.

Keyingi bosqich milliy tarbiyani shakllantirishdagi asosiy “**Funksiyalar” bosqichidir.** Bunda **kommunikativ, perseptiv, interaktiv va didaktik** funksiyalar orqali yoshlar xulq-atvorida milliy tarbiyani ta’sirli shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

Navbatdagi bosqich “**Tashkiliy” bosqich bo‘lib,** unda milliy tarbiyani shakllantirishda milliy tarbiyani individual, guruhiy, jamoaviy kabi ko‘rinishlari, tarbiyaning milliy va zamonaviy usullari, vositalari, prinsiplari va yangicha yondashuvlari bo‘yicha ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

“Baholovchi mezonlar” bosqichi bo‘yicha esa milliy tarbiya shakllanganligini **“yuqori”, “o‘rta” va “past” darajalari** motivatsion baholash, xulq-atvorni nazorat qilish darajasi, hissiy jihatdan bashorat qilish darajasi hamda kognitiv rivojlanish va sog‘lom sotsializatsiya darajalari kesimida tahlil qilindi.

“Natijalar” bo`limi bosqichida milliy tarbiyani shakllantirish natijasida barkamollikni ta’minlash uchun milliy fazilatlarni o‘zlashtirish asosida milliy xarakterni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash orqali milliy ijtimoiy normalarga onson moslashish hamda milliy tarbiyalanganlik orqali sog‘lom xulq-atvorga ega bo‘lish nazarda tutilgan. Aynan shular natijasida milliy tarbiya sifatlari bo‘yicha bilimga ega bo'lgan o‘quvchilar hamda milliy tarbiyani o‘zida namoyon etuvchi, milliy fazilat kompetensiyasiga ega barkamol o‘quvchilarni ko‘rish mumkin bo‘lar ekan.

Mazkur modelda yoshlarda milliy tarbiya shakllanishing ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish bo‘yicha milliy, zamonaviy yondashuv va metodologik asoslar aks etgan. Shuningdek modelda nazariy va amaliy tahlillarimiz asosida shakllangan ilmiy xulosalar o‘z aksini topgan. Empirik tadqiqotimiz asosida mazkur model yoshlarda milliy tarbiya shakllantirish ishlarida samarali ekanligi ilmiy asoslandi.

Shuningdek yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida model ishlab chiqdik va uning o‘ziga xos ta’sirchanligini quyidagi jihatlar bilan ilmiy asoslaymiz (4.2-rasm).



4.2-rasm. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish tizimi

Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish modeli tuzilishiga ko‘ra ijtimoiy munosabatlar va kishilar faoliyatining turlari bilan belgilanadi. Insoniyat faoliyati qanchalik xilma-xil, ularning ijtimoiy munosabatlari qanchalik boy bo‘lsa, xulq-atvor ham shunchalik boy va murakkab bo‘ladi. Oilada bolalarni milliy fazilat va xususiyatlar asosida tarbiyalash tizimini rivojlantirish bo‘yicha “Ota - onalar universiteti” va “Mahalla faollari” kabi jamoatchilik tuzilmasi o‘quv rejasida ma’lum soatlar ajratilgan bo‘lsa - da, aksariyat oilalarda mazkur masalaga yetarli darajada e’tibor berilmaydi, buning uchun muammolarni o‘rganish, maqsadlarini aniq belgilab olish, aynan oilada farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik omillari bo‘yicha quyidagi vazifalarini tadqiqot doirasida belgilash imkoniyatini yaratdi.

Yoshlarni milliy fazilat va xususiyatlar asosida tarbiyalashda bizning modelimizda ishlab chiqilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- milliy tarbiya bo‘yicha qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv hamda mahalla, nodavlat va jamoat tashkilotlari (jamg‘armalar, uyushmalar), ta’lim muassasalari, oilalar, xalqaro tashkilotlardagi barcha ishlarni o‘rganib tizimilashtirish (2.1-paragrifida ilmiy asoslandi);

-milliy tarbiya masalasini qonuniy asoslarini takomillashtirish hamda milliy va zamonaviy tarbiya metodologiyasi bo‘yicha normalarni takomilashtirish (2.2-paragrifda ilmiy asoslandi);

- yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish (tadqiqotimizning kirish qismida ilmiy asoslantirildi);

- yoshlar orasida milliy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan profiklaktika ishlarini ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar asosida tashkilashtirish (Verter qonuni);

-yoshlarda milliy tarbiyani shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari bo‘yicha oila, mahalla, ta’lim muassasalari, OAV lari, o‘quvchi xulq-atvori, psixologik xususiyatlari va tarbiya metodlarini, o‘quvchini yoshi, jinsi va hududi kabi omillarni o‘rganib borish orqali tarbiya masalasiga yondashish maqsadga muvofiq (2.3 hamda 3.2-paragriflarda ilmiy, empirik asoslandi);

-milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish va shu asosida ota-onalar, pedagoglar va profilaktika nozirlari uchun tarbiyasi qiyin, xulq-atvorida og‘ishishga mayldor o‘smirlar bilan olib boriladigan psixologik ishlar bo‘yicha ta’sirchan maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

Masala bo‘yicha nazariy o‘rganishlarimiz va empirik tahlillarimiz yoshlarda milliy tarbiya shakllanishini tizimini rivojlantirish o‘zida ikki muhim bo‘lgan tizimlar hamkorligini talab etishini ko‘rsatdi. Birinchisi, ***bevosita*** mana shu jarayon bilan shug‘ullanuvchi mutasaddilar faoliyatidan iborat bo‘lib, oila, xotin-qizlar, mahalla bo‘linmalari, mahalla faollari, mediatrlar, mahalla maslahatchilari, profiklaktika nozirlari, shuningdek voyaga yetmagan bolalar bilan ishlash komissiyalari va uning tashqarisidagi turli nodavlat tashkilotlarining mahalla aholisiga qaratilgan dasturlari va loyihalari faoliyatini o‘zida qamrab oladi (2-rasm).

Mazkur tizim ham yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini bevosta tizimi hisoblanib, asosiy tizimlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bizning tadqiqotlarimizning empirik tahlililarida mazkur bo‘g‘inlar uchun alohida maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga tabiq qilindi.

Mazkur bo‘g‘in vakillari uchun tarbiya metodlari va tarbiyada yosh va jins xususiyatlarini qamrab olgan kitoblar nashr qilindi va amaliyotgan tatbiq qilindi (M.Quronov, X.Jabborov “Yosh ota-ona kitobi” [145] nomli qo‘llanma // “Muharrir” nashriyoti T:.2018 y., “Baxtli bola ma’naviyati” [146] nomli qo‘llanma // “Sano-standart” nashriyoti T:.2018 y, “Fazilatli avlod” [147] nomli qo‘llanma // “Sano-standart” nashriyoti T:.2019 y.).

Qolaversa mazkur bo‘g‘in vakillari uchun malaka oshirish kurslariga mashg‘ulotlar ishlab berildi, bevosita muallif tomonida joylarda ma’ruzalar o‘qildi, rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkazildi, OAV maqola va tezistlar, “Mahalla” teleradiokanalida ekspertlik intervyulari berildi (2020 yil 1 fevral kuni “Madaniyat va Ma’rifat” kanali “Tarbiya maktabi” teleko‘rsatuviga “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasi mavzusida ekspertlik intervyu berildi. 2020 yil 3 fevral kuni “Mahalla” dan “Mahallarda ijtimoiy-ma’aviy muhit holati” mavzusida ekspertlik intervyu berildi. 2020 yil 21 fevral kuni

“Madaniyat va Ma’rifat” kanali “Mavzu va mohiyat” teleko‘rsatuviga “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasining birinchi bosqichi mavzusida ekspertlik intervyu berildi. 2020 yil 21 fevral kuni “Madaniyat va Ma’rifat” kanalining markaziy apparat xodimilari ishtirokida “Korrupsiya illatining ma’naviy oqibatlari” mavzusida ekspertlik intervyu berildi. 2020 yil 4 mart “Madaniyat va Ma’rifat” kanali “Mezon” teleko‘rsatuviga “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qo‘shma qarori ijrosi mavzusida ekspertlik intervyu berildi .2020 yil 7 iyulda “Yoshlar” radikanalidan milliy va uzluksiz ma’naviy tarbiya bo‘yicha ishlab chiqilgan «Yosh ota-ona kitobining mazmun mohiyati» haqida ekspertlik intervyu berildi).

Bevosita tizim



Ikkinchi, ***bilvosita*** tizim, bu tizim doirasiga milliy tarbiyani shakllantirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari, madaniy-ma’rifiy muassasalar, ta’lim muassacalalari kiradi. Chunki bilvosita tizim o‘zining maqsadli va manzilli targ‘ibot faoliyati, ta’lim jarayoni, turli ko‘rsatuvlar, roliklar va filmlar ta’siri orqali yoshlarda milliy tarbiyani shakllanishi va rivojlanishiga bilvosita, ya’ni mahalladan tashqarida bo‘lgan institutlar orqali ta’sir etadi, ammo ular ham yoshlar milliy tarbiyasi shakllanishi va rivojlanish faoliyatining zaruriy ishtirokchilari hisoblanadi (4.3-rasm).

Bilvosita tizim



Biz tomonimizdan klassifikatsiyalangan bevosita va bilvosita tizimlar faoliyatida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishinishi o‘zaro hamkorlik va uzluksizlik tamoyiliga asoslanadi. Mazkur tizim 2019 yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” qarori va maktablarda tashkil etilgan “Tarbiya” darsliklarida ham o‘z ifodasini topdi va mazkur ilmiy xulosalardan foydalanilganligi bo‘yicha ma’lumotnomalar olindi.

O‘rganishlarimiz natijasida ota-onalar farzandlarida milliy tarbiyani shakllantirish jarayonini quyidagi to‘rt omil orqali amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘lishi aniqlandi: Jumladan tarbiyaning huquqiy–me’yoriy omillari (tarbiya bo‘yicha qonunchilikdagi normalar), tarbiyaning etnopedagogik omili (tarbiyaning hududiy xususiyatlari), tarbiyada “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi (hamkorlik texnologiyasi), ijtimoiy-psixologik yondashuv omillari (kognitiv, motivatsion, intellektual, kommunikativ, xulq-atvor hamda emotsional).

Mazkur omillar yordamida yoshlarda milliy tarbiya shakllanish tizimini rivojlantirishda maxsus algaritm asosida ish olib borish yoshlarni milliy tarbiya fazilatlariga odatlantirishning ta’sirchanligini oshiradi. Shu bois, tadqiqotda yoshlarda milliy tarbiya shakllanish tizimini rivojlantirishda quyidagi maxsus algaritm ishlab chiqildi (4.5-rasm).

4.6 - rasm



4.6-rasm. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanish tizimini rivojlantirishning maxsus algaritmi.

Yuqoridagi jadval asosidagi har bir yo‘nalish doirasida ham o‘ziga xos lokallashish mavjud bo‘lib, ular har bir yo‘nalish tarkibidagi ish usullarining mazmuni belgilab berilgan. Ular quyidagicha klasifikatsiyalandi:

Etnopsixologik: Inson ham tabiiy ham ijtimoiy shartlangan biosotsial mavjudot bo‘lib, atrof-olam haqidagi butun bilimlarni bilish

psixik jarayonlari orqali anglab boradi va har bir bilimlar sifat, xususiyat va fazilat kesimida uning xulq atvorida namoyon bo‘ladi (situmul-reaksiya S-R formulasi bunga yaqqol ilmiy asos). Shuningdek tarbiya masalasi shaxsning xulq-atvori bilan bevosita va bilvosita bog‘liq jarayon hisoblanib u ham hududiy jihatdan farqlanadi. Shuning uchun biz tadqiqotlarimizda 3-bob 3.2-paragrifida aynan milliy tarbiyani shallanishini hududlar (Buxoro, Navoiy va Toshkent) kesimida ham o‘rgandik va qiziqarli ijtimoiy va etnopsixologik qonuniyatlarni qo‘lga kiritdik.

Shuningdek mazkur yo‘nalish bo‘yicha quyidagicha epirik tahlillar shakllandi, ya’ni ota-onalarni tarbiya masalasida o‘z farzandlariga kuchli “hissiy aloqa bildirishlari ham tarbiyaviy ta’sirni susaytiruvchi omil ekanligi ilmiy asoslandi. Sababi ota-ona imkon boricha o‘z farzandlarini ushlab turishga, uni barcha orzu-tilaklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini o‘zlari qilib berishga oshiqishadi, bu holat esa ota-onaning o‘z farzandlarini o‘zlariga qattiq bog‘lab qo‘yishlariga olib keladi. Oqibatda bola boqimanda bo‘lib qoladi, kelajakda bolada muvaffaqiyatga intilish motivi pasayib ketar ekan.

Aksariyat ota-onalar farzand tarbiyasida “qat’iyatsiz” ekanlar. Mazkur omil ham tarbiyada salbiy omillardan biri hisoblanishi aniqlandi. Ota-onalar tomonidan tarbiyaviy ishlarda o‘z farzanlariga bildirilgan munosabatlar qanchalar salbiy bo‘lsa, bu kabi munosabatlar ta’siri ostida o‘sayotgan har qanday o‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlari, muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatlari hamda shaxsning o‘z atrofidagilarga nisbatan shaxslararo munosabatlarining hukmronlik, o‘z hukmini o‘tkazish, amr-farmonlik, zolimlik, ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, qaysarlik, injiqlik, yolg‘onchilik, johillik, tajovuzkorlik va sovuqqonlik kabi etnopsixologik jihatlarining salbiy shakllanishiga sabab bo‘lar ekan.

Ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini haddan tashqari qarovsiz qoldirish yoki tarbiyaning har tomonlama me’yorini saqlamaslik natijasida bolalarning xulq-atvorida saliy illatlar alamzadilk, norozolik, o‘zi va ishlaridan qoniqmaslik, o‘ziga ishonmaslik, ijtimoiy yakkalanish, ijtimoiy begonalashish kabi jihatlar tez rivojlanar ekan.

Empirik o‘rganishlarimiz o‘smirlarning “o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati yaxshi biroq boshqa narsa va hodisalarga nisbatan munosabatining yomonligi” omilini yuqoriligi o‘smirning o‘zidan

boshqa “Ego”larga qarshi turishi tarbiyaviy ta’sirni susaytiradigan asosiy omil ekanligi isbotlandi. Mazkur holat o‘smirlarda 69.9% ko‘rsatkichni ko‘rsatgan bo‘lsa bu o‘rtachadan yuqori hisoblanadi. Demak mazkur holatlarni pasaytirmasdan turib ular bilan milliy tarbiya ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq emas ekan.

Yoshlar orasida autosempatiya, ijobiy yoki salbiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini ayblash tendensiyasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar yuqori darajani tashkil etdi. Demak yoshlar orasidagi o‘zini ayblash tendensiyasini kuchayib borishi ular orasidagi o‘ziga ishonchni pasaytirish, umidsizlik, tushkunlik, agressiya, frustratsiya va sutsid kabi holatlarni ko‘payishiga olib kelishini izohlaydi. Mazkur holatni maqsadli va manzilli psixoprofilaktikalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq ekan.

O‘smirlar orasida ma’lum darajadagi begonalashish (alienatsiya) – o‘z kutilma va emotsional taxminlarini shakllantirish qobiliyatining buzilishlari ham kuzatildi. Buning natijasida o‘smir ayni damda ko‘zlayotgan yoki amalga oshirayotgan muddaosining motivatsion-emotsional asosini anglab yetmaydi. Muddaoni emotsional qo‘llab-quvvatlamaslik tufayli harakatni tanlash va amalga oshirishda ichki erksizlik his etiladi: o‘smirni oldiga qo‘ygan maqsadi “o‘zinikimasdek”, “begonadek” tuyuladi. Maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harakatlar esa sub’ekt tomonidan emas, balki tashqi ta’sirlar tomonidan rejalashtirilgandek tuyuladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, o‘smir nima sababdan bu narsalarni qilayotganini anglab yetmaydi, hayotdagi xatti-harakatlari mazmun-mohiyati bilan bog‘liq muammoga duch keladi.

Alienatsiya holatini kuchayishi esa o‘zining emotsional kutilmalarini anglab yetmaslik natijasida sub’ekt o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshira olmaydi. Oqibatda u boshqa odamlar tomonidan singdirilgan kutilma va qadriyatlar ta’siri ostida qolib, o‘zga kishilarning muddaolariga “xato internalizatsiyasi” sodir bo‘lar ekan. “Xato internalizatsiya” fenomeni o‘smirlarning boshqa kishilardan alohida tarzda mavjud bo‘lmasligi va shuning uchun shaxsning o‘z maqsadlari o‘zga kishilarning maqsadlari bilan mos tushishi oqibatda ularda e’tiborsiz qoldirib o‘z bilganicha, xohlaganicha ish kabi jihatlar namoyon bo‘lar ekan.

Enopedagogik: Birinchi navbatda har bir ota-onaning tarbiya haqidagi ustanovkalari, stereotiplari, yondashuvlari, tarbiyalash metodlari milliylik, zamonaviylik hamda umumiylik va xususiylik kasb etar ekanligi aniqlandi. Bu esa milliy tarbiyani bir butunligi, yaxlitliga ta’sir ko‘rsatib, bir millatning milliy xarakteri va mentalitetida har-xillikni yuzaga keltirar ekan. Shu bois mazkur algaritmda milliy tarbiyani shakllanishida milliy xususiyatlar, milliy xarakter, milliy qadriyatlar, milliy an’analar kabi jihatlar inobatga olinishi nazarda tutildi. Shuningdek tadqiqotlarimizda har bir hududning o‘ziga xos oilaviy odatlari milliy tarbiyani shakllanishiga ham xizmat qilish mumkinligi ilmiy asoslandi. Misol uchun oilada ovqatlanish vaqtidagi oila a’zolarining barchasi yig‘ilishi, ovqatdan so‘ngi duoda ko‘proq qanday tilaklar aytilishi kabi jihatlar ham yoshlarni milliy tarbiyasiga ta’sir qiluvchi omil ekanligi ham 3 bobodagi empirik tahlillarimizda ilmiy asoslandi.

G‘oyaviy: Milliy tarbiyani shakllanishda g‘oyaviy birlik asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo‘yicha ham davlatimizda yangicha va ta’sirchan psixotexnologiyalar ishlashi lozim. Bu vazifada milliy g‘oyamizning o‘rni beqisdir. Jumladan, jahon tarixida xalqlarning yuksalishi ularning g‘oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g‘oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan. Milliy g‘oya ularning Vatanga bo‘lgan sadoqati, ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlar asosida innovatsion rivojlantirish, odamlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatda adolat ustuvorligini ta’minlash, huquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish bo‘yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Milliy g‘oya har bir o‘zbekistonlikni ijtimoiy faollikka, islohotlarga daxldorlikka, hayotdan rozi bo‘lib, baxtli yashash uchun ilm-fan yutuqlarini, kasb-hunar sirlarini egallashga, tadbirkorlikka chorlaydi. Milliy g‘oyani rivojlantirish orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar, shonli o‘tmish tariximiz bilan faxrlanish va uni bus-butun

kelajak avlod vakillariga yetakazish vazifasi Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan vazifalar bilan bir-biriga muvofiqligi odamga ma’naviy kuch-qudrat beradi.

Aytish joizki, Yurtboshimizning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” [6], “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” [9], “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” [7], “Qonun ustuvorligi va inson manfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” [8], “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” [11], “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi faravon bo‘ladi” [12] , “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” [13] va “Yangi O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat” deb nomlangan kitoblarida har bir inson, ayniqsa, yoshlarimiz bilishlari zarur bo‘lgan milliy tarbiya tamoyillari, milliy g‘oyalar, milliy tiklanish va yuksalish bilan bog‘liq ilg‘or fikrlar ilgari surilgan. Ularni teran nigoh bilan mutolaa qilgan inson ongi va qalbida hech qachon g‘oyaviy bo‘shliq bo‘lmaydi.

Milliy g‘oyamizning asosida milliy tarbiya tamoyillariga yo‘g‘rilgan qadriyatlarimiz bo‘lib, ular xalqimizning milliy tiklanish va milliy yuksalishga bo‘lgan ishonchi va qatiyatini yuksaltiradi. Aytish joizki, milliy qadriyat deganda, eng avvalo, tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqimizning milliy manfaatlarini o‘zida to‘liq mujassamlashtirgan, zamonaviy taraqqiyot talablariga butunlay javob bera oladigan, asrlar o‘tgani sayin qadr-qimmati ortib boradigan g‘oyalar tushuniladi. Hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallashaveradi.

Milliy qadriyatlarimiz ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning yoshlarimizda vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni kamol toptirishdagi o‘rni, ayniqsa, yuqori.

Demak milliy g‘oyamizning asosida mehnatkash, zahmatkash, mehmondo‘st va bag‘rikeng xaqimizning eng asosiy orzu-istaklari o‘z tug‘ilib, unib-o‘sgan ona yurtlarining mangu tinchu omon bo‘lishini ta’minlashdan iborat ekanligini anglaymiz. Shunday ekan, milliy g‘oyamizning ustuvor vazifalari mustaqillikni oliy qadriyat darajasiga

ko‘tarish, umuminsoniy, umumbashariy g‘oyalarni kundalik faoliyatimizga, turmush tarzimizga, eng muhimi ijtimoiy odatlarimizga aylanishida har birimizdan katta mas’uliyat talab etadi. Zero, biz erishayotgan jamiki yutuqlar ana shu muqaddas ne’mat sharofatidandir.

O‘rganishlarimiz huquqiy va siyosiy tarbiyada asosiy jihat inson xulq-atvorini, odob-axloqini davlat va jamiyat normalari bilan adekvatligi masalasiga qaratiladi. Demak bunda har bir fuqaro o‘zi yashab turgan jamiyatidagi islohotlardan, ijtimoiy va huquqiy normalardan xabardor bo‘lishliligi, juda muhim sanaladi. Shundagina aholining huquiy, siyosiy savodxoligi oshib borar ekan.

Milliy madaniy va ijtimoiy: oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirishda milliy-madaniy va ijtimoiy qonuniyatlarni inobatga olish, uning ijtimoiy darajasini yaxshilash, jamiyatda oila mavqeini mustahkamlash, oiladagi tarbiya masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish, oilada ota-onalar farzand tarbiyasi bo‘yicha milliy va zamonaviy bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq ekan.

Diniy-ma’rifiy: yoshlarda milliy tarbiya shakllanishini ijtimoiy-psixologik omillari tizimini rivojlantirishda din ma’rifatidan to‘g‘ri foydalanish, din ma’rifatidagi xulq-atvor qoidalarini ijtimoiy normalashtirish, diniy an’analarni hurmatlash, diniy e’tiqod erkinligi normalariga rioya qilish, farzandlarni tarbiyalashda islom dini qadriyatlaridan unumli foydalanish, buzg‘unchi g‘oyalar mohiyatini to‘g‘ri anglash va yoshlarga tushuntirish ishlarni ta’sirchan psixotexnologiyalar asosida tashkilashtirish hamon talabi ekanligi ilmiy asoslandi.

Mafkuraviy: Bugungi ochiq axborot asrida insonlarimiz ongu-shuuriga ta’sir qilayotgan yot g‘oyalar, jumladan diniy ekstremizm, aqidaparastlik va riyokorlik, radikalizm, terrorizm, separatizm, kosmapoltizm, ludonmaniya kabi tahdidlardan himoyalanish va mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish juda muhim omil hisoblanadi.

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishning psixologik va pedagogik vositalarini takomilashtirishni va uni amaliyotga tatbiq etishni maqsad qildik (4.7-rasm)



4.7-rasm. Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishning psixologik-pedagogik vositalari



4.8-rasm. Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish omillari.

Bunda asosan yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik va pedagogik vositalari yanada takomilashtirildi. Jumladan milliy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan ishlarni amaliy va ko‘rgazmali dars, psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, pedtexnologiyalar, konferensiya, uchrashuv, suhbat, sayohat, mustaqil ijodiy ishlar, poletexnologiyalar, kuzatish, kontent tahlil, suhbat, qiyosiy tahlil, ma’ruza, so‘rovnoma, loyihalash, tajriba-sinov ishlari, og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirish (insho, bayon, esse va boshqalar), interfaol metodlarga moslashtirishimiz yoshlar ongida mazkur milliylikni singdirishni ta’sirchanligi oshirar ekan.

Qolaversa ota-onalar, pedagoglar va profilaktika nozirlari uchun yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish vositalari bo‘yicha milliy ensiklopediyalar yaratilishiga katta ehtiyoj borligi aniqlandi.

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirish omillarini ham o‘rganishni maqsad qildik va quyidagicha tizimli mexanizmni ishlab chiqdik.

Mazkur tizimli mexanizmda yoshlarda milliy fazilatlarni shakllantirishnig o‘ziga xos omillarini ko‘rishingiz mumkin. Bunda ijtimoiy-psixologik, milliy-ma’naviy, etnopedagogik jihatlarga tayanilishi kerakligi ilmiy asoslanadi. Shuningdek mazkur masalada ijtimoiy-psixologik jarayon, milliy tarbiya bo‘yicha ota-onalar va jamoatchilik hamkorligini ta’sirchan ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar asosida tashkillashtirish kerakligi unda quyidagi tamoyillar, ya’ni yaxlit yondashuv, individual yondashuv, tabaqalashtirilgan yondashuv, jamoaviy yondashuv, tabiat bilan uyg‘unlik, insonparvarlik, ta’limiy-tarbiyaviy kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilishi mazkur yo‘nalishdagi ishlarni ta’sirchanligini oshirar ekan.

Qolaversa mazkur mexanizmni maqsadli va mazmunli bloklarga bo‘linishi va uni o‘zi yana ta’limiy, tashxisli, motivatsion va taxlli bosqichlarga bo‘linishi yoshlarda milliy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlar ekan.

Tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarda milliy tarbiya namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik modulini ham ishlab chiqdik va u quyidagicha klassifikatsiyalandi (4.9-rasm)



4.9-rasm. Milliy tarbiya namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik asoslari

Mazkur modelda o‘quvchilarda milliy tarbiya namoyon bo‘lishining o‘ziga xos jihatlari darajalashtirilgan. Ya’ni milliy tarbiyalanganlik darajasi yuqori, o‘rta va past darajada.

Har bir daraja o‘ziga xos mezonli-indikator bilan tasdiqlangan. Masalan o‘quvchini xulq-atvor yuqori shakllangan darajasida o‘quvchi xulq-atvorida milliy fazilat va odob-axloq qoidalari yaqqol namoyon bo‘ladi indikatorlari bilan belgilansa o‘rta darajasi o‘quvchi - yurish turishini atrofdagilarga moslashtirishga harakat qilishi indikatori bilan hamda o‘quvchining xulq–atvorini shakllanganlik darajasini past ko‘rsatkichlari o‘quvchidagi - odob-axloq normalarini bilmaydi yoki uni buzishi bilan izohlanadi.

Mazkur modelda o‘quvchilarda milliy tarbiya namoyon bo‘lishining o‘ziga xos jihatlari quyidagicha mezonlar bilan o‘rganildi: xulq-atvor; ijtimoiy norma; milliy qadriyat; millatni rivojlanishi; tevarak-atrof; oila, mahalla, tuman, viloyat va davlati rivojiga munosabati kabi mezonlar.

Tadqiqotimiz davomida yoshlarda milliy fazilatlar shakllantirish asosida buzg‘unchi odatlarga nisbatan psixologik-g‘oyaviy immun tizmini rivojlantirish mexanizmini ham ishlab chiqdik (4.10-rasm).



4.10.Yoshlarda milliy fazilatlar shakllantirish asosida buzg‘unchi odatlarga nisbatan psixologik-g‘oyaviy immun tizmini rivojlantirish mexanizmi

Yoshlarda milliy fazilatlar shakllantirish asosida buzg‘unchi odatlarga nisbatan psixologik-g‘oyaviy immun tizmini rivojlantirish mexanizmini to‘rt funksiyali bo‘lib uning birinchi funksiyasi axborotni saralash-buning asosiy omili bilim bo‘lishi kerak, ikkinchi bosqichda himoyalanish funksiyasi, ya’ni buzg‘unchi va vayronkor odatlardan himoyalanish, buning asosini esa yoshlarni ko‘proq g‘oyaviy bandligi tashkil etadi va uchinchi bosqichda esa qarshi kurash funksiyasi bo‘lib uning asosini yoshlarni buzg‘unchi va vayronkor odatlarga nisbatan kurash uchun safarbar etish hamda yo‘naltirish ishlari tashkil etadi va to‘rtichi bosqich esa boshqarish funsiyasi bo‘lib uning asosini g‘oyaviy-tarbiyaviy barqarorlikka erishish jihati tashkil etadi.

Tadqiqotimiz davomida yoshlarda milliy tarbiya shakllanganligini bilish mexanizmini ham ishlab chiqdik (4.7-rasm).

Bunda asosan ota-ona yoki pedagoglar tomonidan tarbiyaviy vaziyat uyushtiriladi, ya’ni biror bir ichki yoki tashqi tahdid, deylik egotsentirzm tahdidi o‘quvchilar muhokamasiga tashlanadi va proyektiv, introyektiv kontak asosida ta’sir ko‘rsatiladi va mazkur ta’sir o‘quvchiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘satdimi tahlil qilanadi va mazkur tahlil asosida milliy tarbiyalanganlik darajasiga tashxis qo‘yiladi, tashxis natijalari o‘quvchining milliy tarbiyalanganligi yaxshi yoki milliy tarbiyalanganlik darajasi sust.



4.11-rasm. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanganligini bilish mexanizmi

Tadqiqotimizda yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishning psixologik strukturasi ham ishlab chiqildi (4.11 - rasm)



Yoshlarda milliy tarbiya shakllantirishning psixologik strukturasida psixologik ta’sir omilada ota-onalarning ish vaqti va bo‘sh vaqti omillari o‘rganilishi muhim sanaladi. Shuningdek mazkur yo‘nalishdagi ishlarda manipulatsiya va kommunikatsiya masalasiga juda katta ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq. Psixologik ta’sir shakllari sifatida individuallik, jamoaviylik va ommaviylik nazarda tutilishi kerak. Psixologik ta’sir vositalarida esa motivatsiya, tushuntirish va ishontirish vositalari samarador ekanligi aniqlandi.

Biz yuqorida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish modeli bo‘yicha yuqoridagi rasmli jadvallarni keltirdik, ularning barchasi yoshlarda milliy tarbiyani shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini ob’ektiv va sub’ektiv, bilvosita va bevosita jihatlarini ilmiy asosladi.

Ya’ni milliy tarbiya jarayoni uzluksiz va tizimli ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq ekan. Biz yuqoridaga jadvallardagi tizimli strukturalarni tadqiqotimizning empirik natijalari asosida ilmiy isbotladik, OAV larida ota-onalar va pedagoglarga buni tushuntirib berdik, yosh-ota-onalar va ularni farzandlari bilan suhbatlar, trening mashg‘ulotlari uyushtirdik, ular orasida ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalar, psixometrik metodlar o‘tkazdik (3.2-paragrif) va ularni natijalari asosida yuqoridagi model yuzaga keldi.

4.2. Tajriba va nazorat ob’ektlaridan olingan empirik ma’lumotlar tahlili

Ma’lumki, o‘smirlik davrida ularni milliy tarbiya tamoyillari asosida tarbiyalash ancha qiyin kechadi. Bu holat ularni o‘sha davrdagi psixologik va fiziologik akseleratsion jihatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois bu davrda o‘smirlarda milliy tarbiya shakllantirish ishlarini guruhiy interaktiv va relaktsion trening mashg‘ulotlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur treninglar korreksion va rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etishi lozim.

Biz aynan shu maqsadda “O‘quvchilarda milliy tarbiya shakllantirish va uni baholash indikatorlari” nomli ijtimoiy – psixologik trening dasturini ishlab chiqdik. Mazkur ijtimoiy – psixologik trening dasturi yoshlarni xulq-atvorida ijobiy milliy fazilarni shakllanishiga hamda salbiy yot, buzg‘unchi va vayronkor illatlarni korrektsiyalashni nazarda tutadi.

Biz tadqiqotimiz davomida mazkur treninglar to‘plamini O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik - pedagogik Respublika Tashxis Markazi yordami bilan aprobatsiyadan o‘tkazdik va uning samaradorligini aniqladik.

Mazkur ijtimoiy – psixologik trening dasturi aprobatsiyasi Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatlarining umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi beshinchi va to‘qqizinchi sinf o‘quvchilari, jami **560** nafar o‘quvchilar va **104** nafar ota-onalar, **jami 664** nafar o‘quvichi va ota-onalar ishtirokida o‘tkazildi. Mazkur dasturda keltirilgan psixologik treninglarni aprobatsiyalarini ayrim jihatlarini mahalliy pedagog va psixolog olimlar M.Quronov, L.Gaynutdinova X.Jabborov va Sh.Rustamovlarning [148] tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

Aprobatsiya olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi va ularning ilmiy izohlari mazkur treninglar dasturini samarador ekanligin ko‘rsatdi.

Ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturining samaradorligini o‘rganish maqsadida o‘smirlarda milliy tarbiya shakllanganligini o‘rganishga qaratilgan so‘rovnomalar o‘tkazilib, natijalar tahlili amalga oshirildi.

Biz tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglar Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatlarining umumta’lim

maktablarida tahsil oluvchi beshinchi va to‘qqizinchi sinf o‘quvchilari - o‘smirlar guruhi hamda ularning ota onalari o‘rtasida tashkil etildi. Ijtimoiy-psixologik trening dasturi asosida quyidagi o‘smirlar hamda ularning ota-onalari orasida hammasi bo‘lib **18 ta** seminar-trening o‘tkazildi, har haftada 1 tadan trening mashg‘ulotlari, jami **18 hafta** davomida **36 soatni** tashkil etdi.

Ushbu ijtimoiy-psixologik trening dasturimizni o‘tkazishda O.V.Nemirinskiy, L.M.Mitina, L.A.Petrovskaya, K.Rudestam va M.Vachkovlarning yondashuvlaridan foydalandik.

Trening dasturida O.V.Nemirinskiy [135] tadqiqotlarida o‘smirlarda aniqlangan o‘zini o‘zi anglashning dinamikliligi yetarli darajada ifodalangan. Uning fikricha, o‘zini o‘zi anglashning yetakchilik rolini “Men-Sen”, “Biz-Siz”, “Biz-Ular”, “Men-Ular”, “Men-U”, Men-Men” tizimida ko‘rish o‘z xulq-atvorini anglashning asosi hisoblanadi. Guruhiy dinamiklik o‘sishining turli bosqichlarida individual o‘zgarishlarning yetakchi ko‘rsatkichlarini ajratish mumkin.

Birinchi bosqich: individual o‘zgarishlarni anglashning “Biz-Ular” qarshi harakat tizimida tashkil etildi. Bu bosqich guruhiy identifikasiyalashning ijtimoiy yaxlit “BIZ” bilan ishlashga qaratiladi. “Ular” esa guruhiy makondan tashqarida tamoyiliga bo‘ysunadi.

Ikkinchi bosqich: mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish bosqichi bo‘lib, unda “Men-Ular” bilan aralashib, o‘zini guruhning boshqa a'zolariga qarshi qo‘yish bilan boshlanadi.

Uchinchi bosqich: “Men-U” munosabatlari bosqichi hisoblanib, bunda yaqinlik va o‘zaro hurmatni his qilish kuzatiladi.

To‘rtinchi bosqich: o‘zining yagona, noyobligiga e'tibor qaratilishidir. Uning asosiy mohiyati “Men-Men” tizimida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, guruhiy trening jarayoni “Men”ga yo‘l bo‘lib, ishtirokchilar boshqalarning “Men”i orqali o‘z “Men”lariga kirishlaridir.

L.M.Mitina [127] tomonidan ishlab chiqilgan xulqni o‘zgartirishning konstruktiv modeliga asoslangan holda, biz trening ishtirokchilaridagi intellektual faoliyatda anglanganlikni rivojlantirish to‘rt bosqichdan: tayyorgarlik, anglash, qayta baholash, xatti-harakatdan iboratligini isbotlashga urindik.

Ushbu model' anglashning asosiy jarayonlarini umumlashtiradi. Masalan: 1-bosqich-motivasion, 2-bosqich - kognitiv, 3-bosqich affektiv, 4-bosqich xulq-atvordan iboratdir.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturimizning navbatdagi metodologik asosin L.A.Petrovskayaning quyidagi tamoyillar asosida izohlashimiz mumkin [142];

a) “shu yerda va hozir” – guruhda har bir aniq vaqtda, ayni damda bo‘lgan holatlarni muhokama qilish, umumiy va mavhum holatlardan qochish;

b) voqealarning “Men” tomonidan aytilishi – umumiy mushohadalar, ya'ni, “bizning fikrimizcha”, “men shunday deb o‘ylayman” kabi jumlalarni qo‘llash;

v) hissiyotlarga urg‘u berish – o‘zgalarning harakatlarini baholamasdan, shaxsan nima his qilinganini aytib o‘tish;

g) guruhdagi har bir a'zoning o‘zaro hamkorlikda faol ishtirok etishi va tashabbus ko‘rsata bilishi;

d) samimiy muloqot jarayonidagi emosiya va holatlarni sir saqlash va tashqariga olib chiqmaslik.

Tadqiqotchi K.Rudestam va M.Vachkovlar tomonidan o‘smirlarda sog‘lom xulq-atvorni shakllantirishda guruhiy treninglar samarali ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan [167]:

1. Guruh jamiyatni miniatyura tarzida aks ettiradi va shuning uchun undagi munosabatlar tizimi milliy tarbiyaga oid ijtimoiy malakalarning shakllanishiga turtki bo‘ladi.
2. Guruh ishtirokchilari yangi malakalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda o‘z tengdoshlarining turli muloqot uslublarini o‘rganib oladi.
3. Ishtirokchilar o‘zlarini boshqalar bilan identifikasiyalashlari mumkin, ular guruhda o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni his qiladilar.
4. Guruhiy tajriba shaxslararo muammolarni hal qilishga va o‘zgalar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.
5. Guruhiy faoliyat uning ishtirokchilariga o‘zini o‘zi anglash, o‘zining qadriyatlar tizimini, o‘zini o‘zi tatbiq qilish, boshqarish va o‘zining yangi qirralarini ochishga yordam beradi.
6. Guruhiy o‘zaro hamkorlik uning ishtirokchilariga psixologik muammolarni aniqlashtirish va konstruktiv hal qilishga yordam beradi.

7. Guruhiy faoliyat shaklida bir vaqtda bir necha ishtirokchilar bilan ishlash imkoniyatining mavjudligi uning individual ish uslubidan afzalligini belgilab beradi.

Biz korreksion dastur o‘tkazganimizdan so‘ng o‘smirlarning xulq-atvorida, dunyoqarashida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini tahlil qilamiz. Birinchi navbatda, guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasidan tajriba guruhidan olingan natijalarning qiyosiy-statistik ko‘rinishi bo‘yicha natijalar tahlilini kuzatamiz, olingan ma’lumotlarning tahlilida kuzatishimiz mumkinki, korreksion dasturdan so‘ng bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘lgan (4.1-jadval).

4.2-jadval

Guruhdagi xulq- atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasidan tajriba guruhidan olingan natijalarning qiyosiy-statistik ko‘rinishi (n=240)

	Omillar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		Farqlanishlar	
						t	p
		M	S	M	S		
1	**qaramlik**	9,9	4,7	6,1	4,0	-3,574	0,005
2	**mustaqillik**	6,7	4,0	9,6	4,7	-2,870	0,005
3	**muloqotmandlik**	4,4	3,8	8,2	4,6	-2,495	0,003
4	**odamovilik**	8,2	0,9	3,7	3,4	1,209	0,000
5	**“kurash”ga tayyorlik**	5,9	4,4	9,5	4,9	1,301	0,002
6	**“kurash”dan qochish**	8,6	4,6	5,2	3,2	-,936	0,005



4.8-rasm. Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasidan tajriba guruhidan olingan natijalarning diagramma ko‘rinishi (n=240)

Yuqoridagi jadvaldan qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak tajribadan keyin guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini tayanch sifatlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, o‘smirlarni qaramlik mezoni tajribadan so‘ng kamayganligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni tarbiyani shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kimlargadir tobelik, bog‘liqlik sifatlari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturidan so‘ng kamaygan.

O‘smirlardagi bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochish tendensiyalarini bildiradi. O‘rganishlarimiz o‘ta qaramlik o‘smirlarda ratsionalikni, sog‘lom va kreativ tafakkurni pasaytiradi, buning oqibatida esa o‘smir xususiyat, sifat va fazilatlarni yaxshi yomonga ajratishi qiyin kechadi, shuning uchun ham biz mashg‘ulotlarimiz davomida o‘smirlardagi qaramlik sifatini kamaytirishga harakat qildik va ma’lum darajada samaradorlikka erishdik.

O‘smirlarning guruhdagi xulq-atvor motivining mustaqillik sifati ham ijtimoiy-psixologik treninglardan so‘ng ijobiy tomonga o‘zgarganligini ko‘rishmiz mumkin. O‘smirlardagi mustaqillik guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirlik kabi milliy tarbiyani shakllanishiga xizmat qiladigan tayanch sifatlar bilan izohlanadi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglardan so‘ng o‘smirlarning guruhdagi xulq-atvor motivining muloqotmandlik sifati ham o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Muloqotmandlik o‘smirlarni guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o‘rnatishga intilish, bu aloqalarning ko‘pincha samarali ekanligini tasdiqlaydi. Qolaversa muloqotmandlik axborot almashinish jarayonini yaxshilaydi, shuningdek milliy tarbiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni ham oshiradi. Muloqotmandlikda so‘rash/bilish/tasdiqlash/anglash sodir bo‘ladi, bu komponentlar milliy tarbiyani shakllantirishda ta’sirchan hisoblanadi.

Bizga ma’lumki odamovilik milliy tarbiyani shakllanishida salbiy omil hisolanadi. Odamovi o‘smir tortinchoq bo‘ladi, tortinchoqlik bilish va anglash xususiyatlarini kamaytiradi. Qolaversa odamovilik – o‘smirlarni guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi, guruhdan ajralishga moyilligini bildiradi, bu kabi jihatlar milliy tarbiya shakllanishida ma’lum bir darajadagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglardan so‘ng o‘smirlardagi odamovilik sifatlari kamaydi. Bu esa o‘smirlarni faolashganligini, ijtimoiy bilimlarga yo‘nalganligini ham izohlaydi.

O‘smirlar orasida o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturimizdan so‘ng ulardagi kurashga tayyorlik sifatlari o‘sdi. Ya’ni o‘smirlarning guruh hayotida faol ishtirok etishga bo‘lgan ishtiyoqi, shaxslararo o‘zaro munosabatlarda yanada yuqoriroq mavqega ega bo‘lishga intilishi kuchaydi. Bu kabi omillar yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4.3-jadval

Guruhdagi xulq- atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasidan nazorat guruhidan olingan natijalarning qiyosiy-statistik ko‘rinishi (n=260)

№	Omillar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		Farqlanishlar	
		M	S	M	S	t	p
1	**qaramlik**	9,3	4,7	9,4	4,9	8,472	0,123
2	**mustaqillik**	7,3	3,8	7,5	3,9	7,915	0,234
3	**muloqotmandlik**	5,2	2,6	5,5	3,2	-13,171	0,104
4	**odamovilik**	3,9	2,1	4,1	2,3	-5,313	0,091
5	**“kurash”ga tayyorlik**	6,5	4,1	6,7	4,1	-8,105	0,211
6	**“kurash”dan qochish**	7,3	3,9	7,6	4,0	-11,505	0,073



4.9-rasm. Guruhdagi xulq- atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasidan nazorat guruhidan olingan natijalarning diagramma ko‘rinishi (n=260)

Shuningdek ijtimoiy-psixologik treninglar tajribadan so‘ng o‘smirlar xulq-atvorida kurashdan qochish sifatlarini kamayganligini ko‘rsatdi. Ya’ni o‘smirlarni kurashdan qochishi ularni o‘zaro aloqa, ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda betaraflikni saqlab qolishga intilishni ko‘rsatar edi. Shuning uchun ham biz ijtimoiy-psixologik treniglardan mazkur sifatni pasaytirishni nazarda tutgan edik va ma’lum darajada samaradorlikka erishdik.

O‘smirlarni guruhdagi xulq atvor motivatsiyasini bo‘lgan qaramlik, mustaqillik, muloqotmandlik, odamovilik, kurashga tayyorlik va kurashdan qochish kabi tayanch sifatlari nazorat guruhida deyarli sezilarli darajada o‘zgarmaganligini ko‘rsatdi. Mazkur sifatlar tajriba guruhida esa o‘zgargan, yuqoridagi jadvallarda ularni ilmiy va psixologik izohini keltirdik.

4.4-jadval

Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha tajriba guruhidagi o‘smirlardan olingan natijalarning qiyosiy-statistik ko‘rinishi (n=240)

№	**Omillar**	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		Farqlanishlar	
						t	p
		M	S	M	S		
1	Ui	7,5	2,7	9,6	4,7	2,35	0,005
2	Mi	7,3	2,6	9,0	4,4	2,14	0,004
3	Oi	6,2	2,1	8,9	3,8	2,12	0,005
4	Yi	6,1	2,1	7,1	3,3	1,87	0,006
5	Oi	6,2	2,1	9,8	4,9	1,91	0,002
6	Shi	5,4	1,9	9,7	4,9	2,11	0,000
7	Si	7,1	2,5	8,9	3,8	2,01	0,007

Ui-Umumiy internallik
Mi - Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik
Oi - Omadsizliklar sohasidagi internallik
Yi-Yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallik

Oi-Oilaviy munosabatlardagi internallik

Shi-Shaxslararo munosabatlardagi internallik

Si-Sog‘liq va kasallik bo‘yicha internallik

Quyida internallik ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymati, kvadratik og‘ishi va tafovutlari (farqlari) ifodalangan jadvalni keltiramiz. Olib borilgan korreksion dasturlarimizdan keyin tajriba va nazorat guruhlaridan sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillarida qay darajada o‘zgarishlar mavjudligini o‘rganish maqsadida Styudent mezonidan foydalandik. Tajriba guruhida eng yuqori natija “Shi-Shaxslararo munosabatlardagi internallik” omilida kuzatildi. Agar tajribalardan oldin o‘smirlar faqatgina o‘zi uchun maqul bo‘lgan muhitda o‘zini muloqotda “ochiq” tutsa, korreksion dasturlardan keyin esa o‘smirlarni shaxslaro munosabatlarida nafaqat o‘z yaqin insonlari bilan ochiq muloqotga kirishishlarini, balki, o‘ziga unchalik tanish bo‘lmagan insonlar bilan ham o‘zaro muloqotga kirisha olishini angalatadi. Keyingi o‘rinda “Oi-Oilaviy munosabatlardagi internallik”da yuqori statistik tafovut kuzatildi. Mazkur omilning yuqori bo‘lishi o‘smirlardagi oilaviy munosabatlarda ma’suliyatni hamda oilada bo‘layotgan turli xil holatlar uchun yuqori darajadagi javobgarlikni his qilishi bilan belgilanadi.

“Mi - Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik” omilida ham yuqori statistik tafovut kuzatildi. Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik o‘smirlarning faoliyatidagi erishilgan yutuqlar bilan bog‘liq vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Agar shaxs o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda ishonchsizlik qilsa, unga erishish jarayonlari ham shunchalik qiyinlashadi. Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallikni yuqori bo‘lishi o‘smirlar faoliyatidagi kamchiliklarini tan olinishini bildiradi. Har bir shaxs o‘z xatti-harakatlarini natijasini o‘zi oldindan prognoz qila olsa va bu harakatlardagi kamchiliklarni atrof-muhitdan emas, balki, o‘zidan qidirsa maqsadga muvofiqdir. Mazkur omilning pas darajada bo‘lishi shaxslarning hayotida bo‘layotgan turli ko‘rinishdagi omadsizliklarda o‘zini emas boshqalarni ayblashini bildiradi.

“Oi - Omadsizliklar sohasidagi internallik” da ham ishonchli farqlar kuzatildi. Ushbu omil o‘smirlarning sodir bo'lgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklar holatlariga

munosabatini anglatadi. Mazkur omilning yuqori bo‘lishi shaxslarning omadsiz degan xulosa chiqarilmaydi. Aksincha bunday shaxslar hayotida sodir bo'lgan yoki hali ham sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklar uchun ko'proq javobgarligini his qilishini ko‘rsatadi. Omadsizliklar sohasidagi internallikning past darajasi o‘zi bilan sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklari uchun javobgarlikni tashqi ta’sirlarga yuklaydi. O‘smirlarning milliy tarbiyalanganlik darajasida mazkur holat juda muhim sanaladi.



4.10-rasm. Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha tajriba guruhidagi o‘smirlardan olingan natijalarning diagramma ko‘rinishi (n=240)

“Ui-Umumiy internallik” mazkur omilda ham ishonchli farqlar kuzatildi. Umumiy internallik darajalarini o‘smirlarda yuqori bo‘lishi ularni nafaqat o‘quv faoliyatida, balki, shaxsiy hayotlaridagi voqea-hodisalarga nisbatan yuksak ma’suliyatlarini belgilab beradi. Agar eksternallikni yuqori bo‘lishi shaxslarning hayotida yuz berayotgan jarayonlarda doimiy ravishda kimnidir ayblash, o‘z imkoniyatlariga past nazar bilan qarash, barcha holatlarni “taqdirga yo‘yish” bilan belgilansa, umumiy internallikni yuqori bo‘lishi o‘zi uchun, o‘z xatti-harakatlari uchun, o‘zini hayotida yuz berayotgan barcha hodislarga

yuksak ma’suliyat hissi bilan qarashni ko‘rsatadi. Demak, o‘smirlarni tarbiyalangalik darajasini shakllantirishda yuqorida keltirilgan omillarni korreksiya qilinishi muhim hisoblanadi.

4.5-jadval

Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha nazorat guruhidagi o‘smirlardan olingan natijalarning qiyosiy-statistik ko‘rinishi (n=260)

№	**Omillar**	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		Farqlanishlar	
						t	p
		M	S	M	S		
1	Ui	7,7	3,7	7,9	3,8	,081	0,032
2	Mi	7,6	3,6	8,1	3,7	2,551	0,039
3	Oi	7,4	3,1	7,7	3,3	2,651	0,041
4	Yai	7,9	3,8	8,2	4,1	1,607	0,053
5	Oi	8,1	4,2	8,3	4,2	,992	0,086
6	Shi	7,3	3,3	7,5	3,5	3,117	0,019
7	Si	7,4	3,4	7,9	3,8	3,117	0,022



4.11-rasm. Sub’ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha nazorat guruhidagi o‘smirlardan olingan natijalarning diagramma ko‘rinishi (n=260)

4.6-jadval

MAS metodikasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhidan olingan natijalarning qiyosiy tahlili (n=560)

Sinaluvchilar guruhlari	Individual tipologik sifatlar	Eksperimentdan oldingi ko‘rsatkichlar		Eksperimentdan keyingi ko‘rsatkichlar		Statistik tafovut ko‘rsatkichlari (t-mezoni bo‘yicha)
		M_1	S^2_1	M_2	S^2_2	
Tajriba guruhi N=240	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	13,9	3,7	16,9	5,9	0,005
	Raqobatga intilish	10,3	4,4	14,8	4,1	0,003
	Maqsadga erishishga intilish	13,8	2,5	17,9	2,5	0,001
Nazorat guruhi N=260	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	14,4	3,5	15,0	3,4	0,114
	Raqobatga intilish	11,4	4,2	11,8	4,1	0,247
	Maqsadga erishishga intilish	14,2	2,1	14,7	2,5	0,101



4.12-rasm. MAS metodikasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha tajriba guruhidan olingan atijalarning diagramma ko‘rinishi



4.13-rasm. MAS metodikasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha tajriba guruhidan olingan natijalarning diagramma ko‘rinishi

M.Kubishkinaning «MAS» metodikasi bo‘yicha ham ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlaridan keyin nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan mazkur metodikani “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” shkalasi ham tajriba guruhida o‘sganligini ko‘rsatdi. Bunda asosan o‘smirlarda ijtimoiy nufuz, tengqurlar davrasida obro‘ga intilish sifatlari oshdi, bu ko‘rsatkich o‘smirlarda milliy tarbiyani shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Buni o‘smirlarni o‘z guruhida ijtimoiy faollik, mustaqillik, bunyodkorlik, ijobiy fazlatlarni namoyon qilish orqali ma’lum darajadagi nufuzini mustahkamlashga harakatlari bilan izohlash mumkin. Ijtimoiy faol o‘smir o‘zini mustahkam va ishonchli harakatlari, irodvaiy sifatlari jumladan jur’at, qat’iyat, matonatlaridan ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa mazkur jarayon ulardagi o‘ziga va o‘zgalarga bo‘lgan ishonchini ham o‘stiradi. Shuningdek ushbu ijtimoiy faollik ulardagi alturistik harakat va xulq-atvorni ham shakllanishiga zamin hozirlaydi. Mazkur alturistik harakatlar “Menlik” dan “Bizlikka” proeksiyalanadi, bu holat o‘z-o‘zidan o‘smir xulq-atvorida milliy tarbiyani shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAS» metodikasining “raqobatga intilish” shkalasi ham ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlaridan so‘ng nazorat guruhiga nisban tajriba guruhida rivojlanganligini ko‘rsatdi. O‘smirlardagi sog‘lom raqobatga intilish o‘zini rivojlantirish, guruhiy manfaatlarni himoyalash, o‘zi yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy normalarni bilish va amal qilish, shuningdek milliy qadriyatlarga yo‘nalganligini ifodalaydi. Chunki raqobat o‘ziga xos yangiliklarni anglash xususiyatni tezlashtiradi, faoliyatiga va o‘zligiga kerativ yondashuvini oshiradi, bunda o‘zligini anglash, o‘zligidagi ijobiy va salbiy sifatlarni yanada chuqurroq anglashini sodir etar ekan. Bunday jarayon esa ularda milliy tarbiyani shakllanishini jadallashtiradi. Milliy o‘zligini anglash milliy tarbiyani shakllantirishga ijobiy tasir ko‘ratar ekan.

Mazkur metodikaning “Maqsadga erishishga intilish” shkalasi ham ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlaridan so‘ng tajriba guruhida o‘sganligini ko‘rsatdi. Mazkur jarayon biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlarini samaradorligini ham ilmiy asoslaydi. O‘smirlarda maqsadga

erishishga initilishning rivojlanishi milliy tarbiyadagi milliy fazilatlar, xulq-atvordagi ijobiy sifatlarni ham rivojlanishiga zamin hozirlar ekan. O‘smirlar maqsadga intilish orqali ijtimoiy-psixologik munosabatida “puxta bilim olish”, “jamoatchilik ishlarida faoli bo‘lish”, “sinkovlik”, “kuzatuvchanlik” kabi sifatlarni qadrlashi ortar ekan, bu holat esa ulardagi o‘zini-o‘zi nazorat qilish va shaxsiy o‘sish riqojlanishini tezlashtiradi.

Maqsadga erishishga initilish milliy o‘zligini ham anglashini tezlashtiradi. O‘smirlar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadga erishish uchun o‘zi yashab turgan jamiyat va millatdagi ijtimoiy-norma, milliy qadriyat va milliy xarakterning o‘ziga xos jihatlarini puxta o‘zlashtirib olishadi. Sababi aynan shu jihatlar bilan hisoblashmay turib maqsadga erishish mumkin emas. Shuning uchun ham bizningcha mazkur holat milliy tarbiyani shakllantirishning ta’sirchan texnologiyasi hisoblanadi.

BOB BO‘YICHA XULOSA

1.Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy psixologik trening mashg‘ulotlaridan keyingi empirik tahlillarimiz o‘smirlada milliy odob-axloq normalari mohiyatini anglash, milliy odob-axloq qoidalariga rioya etish, milliy fazilatlarni o‘zlashtirish va hurmat qilish, yaqinlariga va atrofidagilarga axloqiy munosabatda bo‘lish, o‘zini va o‘zgalar shaxsini hurmat qilish kabi sifatlarini rivojlantirishi ilmiy aososlandi.

2.O‘rganishlarimiz yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari bo‘yicha o‘smirlarda milliy tarbiyani shakllantirishda nafaqat milliy fazilatlarga balki umuminsoniy normalarga ham yo‘naltirishimiz ular xulq-atvori va axloqida kengroq va mustahkam insoniy sifatlar shakllanishini ham ko‘rsatdi.

3. Empirik tahlillarimiz o‘smirlada milliy tarbiya shakllantirishda nazariy bilimlarga nisbatan amaliy mashg‘ulotlarni samarasi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. O‘rganishlarimiz tarbiya ishlarida “o‘rgatishga” nisbatan ko‘proq “tushuntirish” ishlarini amalga oshirilganligini ko‘rsatdi. Vaholangki tushuntirish nazariy bilimlarni asosida turadigan komponent bo‘lsa o‘rgatish amaliy bilmlarni asosida turadigan komponent ekan. Bizningcha tarbiyada ko‘proq ko‘rsatish/

o‘rgatish/ namuna bo‘lish kabi komponentlar tarbiyani amaliy samaradorligi oshiruvchi omil ekanligi ko‘rsatdi.

4. O‘smirlar orasida qaramlik mezoni tishuntirish, yoki ma’ruza tadbirlariga nisbatan ijitimoiy-psixologik treninglardan so‘ng korreksiyanlanganligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni tarbiyani shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatidigan kimlargadir tobelik, bog‘liqlik sifatlari kamaygan. O‘smirlardagi bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochish tendensiyalarini bildiradi. O‘rganishlaimiz o‘ta qaramlik o‘smirlarda ratsionalikni, sog‘lom va kreativ tafakkurni pasaytiradi, buning oqibatida esa o‘smir xususiyat, sifat va fazilatlarni yaxshi yomonga ajratishi qiyin kechadi, shuning uchun ham o‘smirlar orasida qaramlik sifatini kamaytirishga qaratilgan ijitimoiy-psixologik treninglar o‘tkazib borish maqsadga muvofiq.

5. O‘smirlarning guruhdagi xulq-atvor motivining “mustaqillik” sifati ham ijtimoiy-psixologik treninglardan so‘ng ijobiy tomonga o‘zgarganligini ko‘rishmiz mumkin. O‘smirlardagi mustaqillik guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirlik kabi milliy tarbiyani shakllanishiga xizmat qiladigan tayanch sifatlar bilan izohlanadi.

6. O‘smirlarning guruhdagi xulq-atvor motivining “muloqotmandlik” sifatini shakllantirish muhim ekan. Muloqotmandlik o‘smirlarni guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o‘rnatishga intilish, bu aloqalarning ko‘pincha samarali ekanligini tasdiqlaydi. Qolaversa muloqotmandlik axborot almashinish jarayonini yaxshilaydi, shuningdek milliy tarbiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni ham oshiradi. Muloqotmandlikda so‘rash/bilish/tasdiqlash/anglash sodir bo‘ladi, bu komponentlar milliy tarbiyani shakllantirishda ijobiy ta’sirchanlik hisoblanadi.

7. “Odamovilik” omili milliy tarbiyani shakllanishida salbiy omil hisolanadi. Odamovi o‘smir tortinchoq bo‘ladi, tortinchoqlik bilish va anglash xususiyatlarini kamaytiradi. Qolaversa odamovilik – o‘smirlarni guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi, guruhdan ajralishga moyilligini bildiradi, bu kabi jihatlar milliy tarbiya

shakllanishida ma’lum bir darajadagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

8. Olib borilgan korreksion dasturlarimizdan tajriba guruhida eng yuqori natija “Shi-Shaxslararo munosabatlardagi internallik” omilida kuzatildi. Agar tajribalardan oldin o‘smirlar faqatgina o‘zi uchun maqul bo‘lgan muhitda o‘zini muloqotda “ochiq” tutsa, korreksion dasturlardan keyin esa o‘smirlarni shaxslaro munosabatlarida nafaqat o‘z yaqin insonlari bilan ochiq muloqotga kirishishlarini, balki, o‘ziga unchalik tanish bo‘lmagan insonlar bilan ham o‘zaro muloqotga kirisha olishini angalatadi. Bu omil esa milliy tarbiyani shakllantirish uchun ijobiy holat hisoblanadi.

9. O‘smirlarni “Mi - Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik” omilida ham yuqori statistik tafovut kuzatildi. Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik o‘smirlarning faoliyatidagi erishilgan yutuqlar bilan bog‘liq vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Agar shaxs o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda ishonchsizlik qilsa, unga erishish jarayonlari ham shunchalik qiyinlashadi. Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallikni yuqori bo‘lishi o‘smirlar faoliyatidagi kamchiliklarini tan olinishini bildiradi. Har bir shaxs o‘z xatti-harakatlarini natijasini o‘zi oldindan prognoz qila olsa va bu harakatlardagi kamchiliklarni atrof-muhitdan emas, balki, o‘zidan qidirsa maqsadga muvofiqdir.

10. O‘smirlarni “Ui-Umumiy internallik” mazkur omilda ham ishonchli farqlar kuzatildi. Umumiy internallik darajalarini o‘smirlarda yuqori bo‘lishi ularni nafaqat o‘quv faoliyatida, balki, shaxsiy hayotlaridagi voqea-hodisalarga nisbatan yuksak ma’suliyatlarini belgilab beradi. Agar eksternallikni yuqori bo‘lishi shaxslarning hayotida yuz berayotgan jarayonlarda doimiy ravishda kimnidir ayblash, o‘z imkoniyatlariga past nazar bilan qarash, barcha holatlarni “taqdirga yo‘yish” bilan belgilansa, umumiy internallikni yuqori bo‘lishi o‘zi uchun, o‘z xatti-harakatlari uchun, o‘zini hayotida yuz berayotgan barcha hodislarga yuksak ma’suliyat hissi bilan qarashni ko‘rsatadi.

11. Ijtimoiy-psixologik trening mashg‘ulotlaridan keyin o‘smirlarda “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” shkalasi tajribada guruhida o‘sganligini ko‘rsatdi. Bunda asosan o‘smirlarda ijtimoiy

nufuz, tengqurlar davrasida obro‘ga intilish sifatlari oshdi, bu ko‘rsatkich o‘smirlarda milliy tarbiyani shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni o‘smirlarni o‘z guruhida ijtimoiy faollik, mustaqillik, bunyodkorlik, ijobiy fazlatlarni namoyon qilish orqali ma’lum darajadagi nufizni mustahkamlashga harakatlari bilan izohlash mumkin.

12.Ijtimoiy faol o‘smir o‘zini mustahkam va ishonchli harakatlari, irodvaiy sifatlari jumladan jur’at, qa’tiyat, matonatlarini yuqoriligida ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa mazkur jarayon ulardagi o‘ziga va o‘zgalarga bo‘lgan ishonchini ham o‘stiradi. Shuningdek ushbu ijtimoiy faollik ulardagi alturistik harakat va xulq-atvorni ham shakllanishiga zamin hozirlaydi. Mazkur alturistik harakatlar “Menlik” dan “Bizlikka” proeksiyalanadi, bu holat o‘z-o‘zidan o‘smir xulq-atvorida milliy tarbiyani shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA

«Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishinig ijtimoiy-psixologik omillari» mavzusidagi tadqiqotimiz bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari va vositalarini tahlil qilish ta'lim tizimida o'quvchilarni barkamol qilib tarbiyalash bilan bog'liq jarayonlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Milliy tarbiya mohiyati, tabiati hamda namoyon bolishiga nisbatan nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga, shuningdek yoshlarni xulq-atvorini normal va sog'lom shakllanishi, yoshlarni milliy va zamonaviy tarbiya xususiyatlariga moslashuvi, unda o'z o'rnini topishi, hayot yo'lini tanlashi borasidagi nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar dolzarbligi hamda bularning sonini o'sib borayotganligi ko'rsatib beriladi.

3. Milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlar sintezi ekanligi aniqlandi. Milliy tarbiya esa - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda tarbiyalash jarayoni ekanligini ko'rsatdi.

4. Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishda nafaqat geterostereotip (odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig'indisi) omili, balki avtostereotip (o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi) kabi omillar bo'yicha asosli, ob'ektv bilimlarga yanada ko'roq ahamiya berish kerakligi aniqlandi.

5. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishing ijtimoiy-psixologik omillari bo'yicha tadqiqot jarayonidan olingan empirik natijalar ularni kelgusi katta hayotga qadam qo'yishida muhim sifatlarning ortishiga, atrofdagilar bilan salbiy munosabatlarni oldini olishga, sog'lom xulq-atvor bo'yicha bilimlarni o'sishiga va muvaffaqiyatli bilim va ko'nikmalarning psixologik jihatdan rivojlanishiga samarali ta'sir qiladi.

6. O'smirlik davrida milliy tarbiyani shakllanish jarayonini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega, chunki bu davrdagi yigit va qizlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarga nisbatan salbiy sifatlarga moyillik ortib borar ekan, ular xulq-atvorida "aliyenasiya", "marginalizatsiya",

“egosentrizm”, “eskapizm”, “abuliya”, “apatiya” kabi illatlar namoyon bo‘ladi, bu holatlarni ulardagi akseleratsion va pubertatsion jarayonlar bilan izohlash mumkin.

7. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ta’sir etuvchi omil va vositalarni doimiy tadqiq etish natijada sog‘lom xulq-atvorga ega yoshlarda konstruktiv bilimlarning oshishiga va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

8. O‘rganishlarimiz tarbiya ishlarida “o‘rgatishga” nisbatan ko‘proq “tushuntirish” ishlarini amalga oshirilganligi ko‘rsatdi. Vaholangki tushuntirish nazariy bilimlarni asosida turadigan komponent bo‘lsa o‘rgatish amaliy bilmlarni asosida turadigan komponent ekan. Bizni empirik tahlillarimiz tarbiyada ko‘proq ko‘rsatish/ o‘rgatish/ namuna bo‘lish kabi komponentlar tarbiyani amaliy samaradorligini oshiruvchi omil ekanligibi ko‘rsatdi.

9. Empirik tahlil natijalariga ko‘ra anglanganlik, mustaqillik, muloqotmandlik, jamoaviylik, sog‘lom raqobatga intilish, tan olish, affiliatsiya, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, daxldorlik, ma’suliyat, o‘ziga ishonch kabi sifatlar shaxs xulq-atvorini sog‘lomligi va milliy tarbiyani shakllanishi uchun eng muhim tayanch mezonlar ekanligi ilmiy asoslandi.

10. O‘smirlarning guruhdagi xulq-atvor motivining muloqotmandlik sifatini shakllantirish milliy tarbiyani shakllantirish uchun muhim xususiyat. Muloqotmandlik axborot almashinish jarayonini yaxshilaydi, shuningdek milliy tarbiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni ham oshiradi. Muloqotmandlikda so‘rash/bilish/anglash/tasdiqlash sodir bo‘ladi, bu komponentlar esa milliy tarbiyani shakllantirishda ijobiy ta’sirchan hisoblanadi.

11. Empirik natijalar oiladagi ijobiy shaxslararo munosabatlar, o‘qituvchi shaxsi, referent guruh, mahalla, ommaviy axborot vositalari, shaxsning ijtimoiy va madaniy hayotidagi ma’lumotlar yoshlar milliy tarbiyasiga ta’sir etuvchi vositalar ekanligi asoslandi.

12. Yoshlarda sog‘lom xulq-atvor va milliy tarbiyani shakllantirish, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalar ta’siri vaziyatlarida ob’yektiv qaror qabul qilishlari uchun doimiy ravishda kognitiv va rivojlantiruvchi treninglarni tashkil etish ijobiy natijalar beradi.

Dissertatsion tadqiqot natijasida quyidagi **amaliy tavsiyalarni**

berishimiz mumkin:

1. Oilada, ta’lim muassasalari va jamoat joylarida ijtimoiy normalarga rioya etgan va sog‘lom xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ko‘proq rag‘batlantirib borish kerak.

2. Ota-onalar va pedagoglar yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi ijobiy taqlid, ijobiy motiv, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi baholash kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

3. Pedagoglar va profilaktika nozirlari yoshlarni xulq-atvorida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda yot, buzg‘unchi, va vayronkor odatlarga nisbatan “fazilatlarni saralash”, “salbiy odatlarga nisbatan himoyalanish”, “soxta qadriyatlarga nisbatan kurash” va “o‘zini-o‘zi boshqarish” singari yatakchi ijtimoiy –psixologik sifatlarni yanda rivojlantirishga e’tibor qaratishlari kerak.

4. Ota-onalar va pedagoglar yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishda “o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni ijobiyligi”, “o‘ziga ishonchni ijobiyligi”, o‘zini hurmat qilish”, “boshqalardan ijobiy munosabatni kutish”, “Menlikni”ni-“Bizlikka”ka proyeksalanishi” kabi omillarni inobatga olishlari lozim.

5. Ota-onalar, pedagoglar va profilaktika nozirlari yoshlarda milliy tarbiy fazilatlarini shakllantirishda “individual”, “jamoaviy” va “pragmatik” usullardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

6. Ota-onalar va pedagoglar yoshlarda milliy tarbiy shakllantirishda ijtimoiy xulqqa aloqador “tan olish”, “tartib-intizom”, “avtonomiya”, “affilatsiya”, “ko‘makni qabul qilish”, “ustunlik qilish”, “bo‘ysinish”, “ga’mxo‘rlik ko‘rsatish”, “chidamlilik” kabi omillarni inobatga olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Ota-onalar, pedagoglar va profilaktika nozirlari yoshlarda milliy tarbiy shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi “aliyenasiya”, “marginalizatsiya”, “egosenrizm”, “eskapizm”, “abuliya”, “apatiya” kabi illatlarga sezgir bo‘lishlari kerak.

8. Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishda ota-onalar “haddan tashqari g‘amho‘rlik qilish”, “hamma narsaga ruhsat berish”, “kuchli hissiy reaksiya bildirish”, “muloqotdagi qa’tiyatsizlik”, “rad etish”, “qarg‘ash” kabi usullardan foydalanishlari tarbiya ishlarini qiyinlashtiradi.

9. Pedagoglar yoshlarda milliy tarbiyalanganlik darajalarini aniqlovchi “Siz va farzandlaringiz” nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovdan foydalanishlari va uni natijalari asosida ota-onalar bilan hamkorlikda maqsadli va manzilli chora-tadbirlar belgilab borishlari lozim.

10.Maktablarda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi texnologiyasi” (TMIPMST), “Milliy tarbiya metodlari algaritmi” va “100 ijobiy fazilat” miyusidan foydalanishlari tarbiya ishlari samaradorligini oshiradi.

11.Ota-onalar, pedagoglar va profilaktika nozirlari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish modeli” dan va “O‘quvchilarda milliy tarbiya shakllantirish va uni baholash indikatorlari” nomli ijtimoiy – psixologik trening dasturidan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

12.Ota-onalar va pedagoglar biz muallifligimizda yozilgan “Yosh ota-ona kitobi”, “Baxtli bola ma’naviyati” va “Fazilatli avlod” nomli qo‘llanmalarida milliy tarbiya uchun eng so‘ngi ilmiy tadqiqotlar xulosalari asoslangan tarbiyaning milliy va zamonaviy metod, vosita va shakllaridan doimiy ravishda foydalanib borishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Yangi konstitutsiyasi 01.05.2023. https://lex.uz/uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarori https://lex.uz/docs/-4071203
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori https://lex.uz/ru/docs/-4320700
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 qarori https://lex.uz/docs/-5344692
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorih ttps://lex.uz/docs/-4676839
6. Mirziyoyev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lish kerak. –T.: O‘zbekiston. 2016 y.- 47b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiòti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr'. – Toshkent.: O‘zbekiston. NMIU. 2017.- 48 b
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 508 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

14. Abdullayeva B.S. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. –T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.

15. Akramova F.A. O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.05. – T., TDPU 2022.68 b.

16. *Atabaeva N.B Shaxsda altruistik xulqni rivojlantirishning psixologik asoslari.* psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.06. – T., TDPU 2022.66 b.

17. Abdurahmonova Z.X. “Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish” nomzodlik dissertatsiyasi. T.: 2006, - 140 b.

18. Адлер, А. Практика и теория индивидуальной психологии: Лекции по введению в психотерапию для врачей, психологов и учителей / А.Адлер. - М.: Изд-во Института Психотерапии, 2002. - 214 с.

19. Aripova M. “Talabalarda Vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari” nom dis. T.: 2009, - 157 b.

20. Anvarova D.M “O‘smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari” nomzodlik dissertasiyasi. T.: 2012, - 129 b.

21. Akramova Sh. “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” “Muharrir” nashriyoti T.: 2012,-126 b.

22. Abdujabborova M.L. O‘smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari: – p.f.n, dis. avtf. T: O‘PFITI, 2007, – B.22.

23. Alimova D. “Insoniyat tarixi-g‘oyalar va mafkuralar tarixidir” T.: Ijod dunyosi nashriyot uyi, 2002,-30 b.

24. Alimbaeva Sh “O‘smirlar o‘quv faoliyatida xavotirlani namayon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” nom dis T.: 2012,-149 b.
25. Abdullayeva Sh.X. Professional kompetentlikning ijtimoiy-psixologik asoslari: monografiya. – T: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2017. -180 b.
26. Axloq –odobga oid Xadis namunalari // - T.: Fan, 1990 - 171 b
27. Abdulla Avloniy turkey guliston yohud axloq/ - T.: «O‘qituvchi», 1992 - 14-b.
28. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. – B. 14.
29. Abdurahmon Qoya. Islom axloqi. – T.: Movarounnahr, 1997. – B. 6.
30. Abdurahmon Qoya. Islom axloqi. – T.: Movarounnahr, 1997. – B. 19.
31. Баратов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создание психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс.докт.психол.наук. – Т.,1998. – 37 с.
32. Baratov Sh.R. “Istiqlol g‘oyasining ijtimoiy psixologik asoslari” “Milliy istiqlol g‘oyasi targ‘ibotining ilmiy asoslari” mavzusidagi Res ilmiy-amaliy konf mat. T.: 2002,-B.80-82.
33. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. “Ko‘k kit” tuzog‘iga qarshi kurashishning psixologik mexanizmlari. Psixologiya. Ilmiy jurnal. Buxoro, 2017, 1-son (25) -B.2-
34. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari /O‘quv qo‘llanma, Buxoro, 2017, “Durdona” nash. 190 b.
35. Botirov B.M. “O‘zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta’sirining psixologik xususiyatlari” p.f.n. dis. T.: 2011. -166 b.
36. Bafaev M.M. “Globallashuv jarayonida milliy bag‘rikenglikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari” diss T.: 2020 y. - 150 b.

37. Baykunusova G.Y. «Shaxsda hasad hissi namoyon bo‘lishinig ijtimoiy-psixologik asoslari»/ diss (DSc)T.: 2022 y, - 203 b.

38. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса /

39. Бабанский Ю.К. - М.: Просвещение, 2002. - 114 с.

40. Богданова О.С. К развитию целостной лингвокультурологической картины мира: тесты и тексты: учеб. пособие. Иркутск: ИГЛУ, 2002. 121 с.

41. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте СПб Питер, 2008, - 400 с.

42. Божович Л.И.. - М.: Педагогика, 2008. - 544 с.

43. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте СПб Питер, 2008, - 400 с.

44. *Бодалёв А.А*. *Вершина* в *развитии взрослого человека*: *характеристики*и *условия достижения*. -*М*.: Флинта: Наука, *1998*, – 168 с.

45. Бандура А. Теория социального научения/ Альберт Бандура. - Санкт-Петербург, 2000. - 320 с.

46. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия: Изучение влияния воспитания и семейных отношений. — М.: Апрель Пресс: ЭКСМО-Пресс, 2000,- 509 с. (Психология. XX век).;ISBN 5-04-004214-0

47. Bandura A., Walters R. H. Social learning and personality development. – N.Y., 1963. – P. 329.

48. Бжезинский З. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивы).- М.:Меже отношения, 1998, –.442 с.

49. Богомаз С.А., Гладких А.Г. Психологическая безопасность и ее измерение с помощью шкалы базисных убеж дений. Вес ТГУ, “Психология и педагогика” науч жур., №318, 2008, - С.191-194.

50. Begmatov A., Rustamov R. Milliyo g‘oya targ‘iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. T.:”Ma'naviyat” nash, 2007, - 78 b.

51. Begmurodov M. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati.-T.: “Adolat” nash, 2003, - 56 b.

52. Bayaliev D. “Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy mafkuralarning o‘zaro ta'siri” , f.f.n dis T.: 201, – 169 b.

53. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. - T., O‘zbekiston. - 30 bet.

54. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. “Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti”. – T.: 1995, –26 b.

55. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari // O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari” mavzuidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani ma'ruzalarining qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993. –B. 109 -111.

56. Дюркгейм Э. Ценностные реальные суждения // Социологические исследования. – М.: издво “Рефл-бут”, 1991, № 2. – С. 109–110.

57. Друзин В.Н. Педагогическая профилактика игровой компьютерной аддикции подростков: Дис. . к.п.н. – Ярось: РЕВ МВУЗ ЯГПУ, 2010, – С. 254.

58. Доценко Е.Ж. Механизмы психологической защтиы от манипулятивного воздествия. Автореф. Д. К. Психол. Н. 19.00.01. М., 1993,-С.162.

59. Эриксон Э. Детство и общество. / Пер. с англ. - СПб.: ЛЕНАТО, 2011. – 592 с.

60. Фромм Э. Иметь или быть/пер. с нем. Э. Телятниковой - М.;АСТ: АСТ МОСКВА, 2008.;

61. Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции. М.: Наука, 1991.- 456 с. Dodd D. H.White R. M. Cognition: Mental structure and processes. Boston: Allyn and Bacon, Inc. 1980.;

62. Fayziyeva M.X. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (er-xotin misolida). Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent: 2005. - 185 b.

63. Galdieva M.D. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” diss. (PhD) – T. 2023. - 120 b.

64. Gaynutdinov R.Z. O‘qituvchiga tarbiya psixologiyasi haqida. – T.: Fan, 2007. – 88 b.

65. Гаджимирзаев М.М. Этноконфессиональная толерантность как фактора обеспечения мира и безопасности на Северном Кавказе: Автореф. дис. ... канд. полит.наук. – Ставрополь, 2003, – С.16.

66. Грачев Г.В., Мельник И.К. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия. - М.: Алгоритм, 2002, – 226. с.

67. Himmatov D. “Globallashuv sharoitida milliy mafkurani takomillashtirish muammolari” nomz. ... diss. – T.: 2006, - 103 b.

68. Измайлов А.Э. Народная педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Педагогика, 1991. – С. 144.

69. Isoqova M.T. “Milliy an’analar va ijtimoiy omillar ta’sirida ilk o‘spirinlarda ma’naviy tassavurlarni shakllanishi”. P.f.n diss. T.: TDPU,1999 y,-178 b.

70. Iminov B. “Manfaatlar-siyosat va mafkura manbai” O‘zbekiston Respublikasi “Minhoj” nash. T.: 2002, – 192 b.

71. Islomov Z. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari” O‘quv qo‘llanma. O‘.V.M xuzuridagi Toshkent islom universiteti.-T.:2013, – 246 b.

72. Ильин И.П.«Мотивация и мотивы» - СПб:Издательство «Питер», (Серия «Мастера психологии»)-2000.-512с.

73. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. - СПб:Издательство «Питер», (Серия «Мастера психологии»)-2000.-С.415-417.

74. Ионин Л. Культурный шок: конфликт этнических стереотипов/ Психология национальной нетерпимости. Минск: Харвест, 1998.- 280 с.

75. Jabborov A.M. Pedogogik texnologiyaning etnik asoslari. Toshkent: Zarqalam. 2006 – 200 b.

76. Jabborov A.M. “O‘zbek maktabi o‘qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari”: Psix. fan. dok. ... dis. – T., 1999, – 317 b.

77. Jabborov X.X. “Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari” nomli qo‘llanma.“Muharrir” nashriyoti, Toshkent 2017 y.

78. Jabborov X.X.“Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari” nomli qo‘llanma.“Durdona” nashriyoti, Qo‘llanma – Buxoro, 2017 y.
79. Jabborov X.X.“Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!” nomli qo‘llanma.“Ma'naviyat” nashriyoti T.: 2018 y.
80. Jabborov X.X.“Targ‘ibotchi yordamchi” nomli risola.“Ma'naviyat” nashriyoti T.: 2018 y.
81. Jabborov X.X “Targ‘ibot tadbirlarining ilmiy-amaliy ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari” nomli qo‘llanma.“Hilol media” nashriyoti, T.: 2019 y.
82. Jabborov X.X.“Globallashuv sharoitida aqidaparastlik, mafkuraviy tahdidlarning oldini olish” nomli qo‘llanma.“Muharrir” nashriyoti T:.2018 y
83. Jabborov X.X.“Jonajon O‘zbekistonim mangu bo‘l omon!” nomli qo‘llanma. “Mumtoz so‘z” nashriyoti, T.: 2019 y.
84. Jabborov X.X.“Rahbar ma'naviyati” nomli qo‘llanma.“Mumtoz so‘z” nashriyoti, T.: 2019 y.
85. Жабборов X.X. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. Социальный психолог журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.
86. Jabborov X.X. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
87. Jabborov X.X.O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari:diss. 2019 yil Toshkent 178-b
88. Jo‘raev N. G‘oyaviy immunitet yoki ma'naviy xaloskorlik tuyg‘usi.-T.: O‘zbekiston, 2002,- B. 64.
89. Jakbarov M, Abbasova Sh, Jo‘raev T, Yaxshiev A. “Milliy g‘oya – xavfsmzlik va barqarorlik omili”, T.: “Turon zamin ziyo”, 2014, – B.192-193.
90. Jo‘raeva Sh. Kichik maktab èshidagi o‘quvchilarga ta'lim berishda mul'timedia vositalaridan foydalanish. –T.: ―Fan va texnologiya. 2013. 31-bet.

91. Jonmatova H. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya to‘g‘risida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. B.19.

92. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 267-268 b.b.

93. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.

94. Karimova V, Qur'onov M Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. T.: Ijod dunyosi, 2002,- 150 b.

95. Karimova V.M. Oila ma'rifati (yoshlarga oila ilmi haqida birinchi risola). Ilmiy-ommabop nashr. - Toshkent: 2009. - 44 b.

96. Karimov X.K. O‘zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent: 1994. - 142 b.

97. Kenjaeva. D.T. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida barkamol shaxsni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.: p.f.n. dis. avtoref. – T., 2007, –22 b.

98. Kamilova N.G‘. Xulqi og‘ishgan yoshlar psixologiyasi // O‘quv qo‘llanma. - Tashkent, 2017. - 176 b.

99. Келли Дж. Л.. Общая топология. М <Наука>, 2001.

100. Карл Г. Юнг «Человек и его символы» -СПб.: Б.С.К., 1996.

101. Кон И. С. Ребенок ... – С. 143.

102. Караяни А.Г. Информационно-психологическое противоборство в современной войне. М.: Мысль, 1996. – 326 с.

103. Колотилова И.В. Индивидуально-психологические характеристики подростков, увлеченных ролевыми компьютерными играми: дис. . к.п.н. – М.: РГСУ, 2009. – 234 с.

104. Kulatova S.Y. “Voyaga yetmaganlarda axborot-psixologik xavsizliknita'minlashning shaxs xususiyatlari” O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari:diss. 2022 yil Toshkent 145-b

105. Латишев И.А. Семейная жизнь японцев. – М.: Наука, 1985. – С. 92.

106. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 1999. – 487 с.

107. Леонтьев Д.А. Личностный потенциал как потенциал саморегуляции // М.В.Ломоносова. Вып. 2 Под ред. Б.С.Братуся, Е.Е.Соколовой. М.: Смысл, 2006, – 287 с.

108. Lutfullayeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent: 2006. - 154 b.

109. Маслоу А.Г. Мотивация и личность/Перевод. с англ. Татлыбаевой А. М. СПб.: Евразия, 2004.;

110. Маргарет Мид. Культура и мир детства. – М.: Глав. ред. восточ. летературы, 1988. – С. 179.

111. Маргарет Мид. Культура и мир детства. – М.: Глав. ред. восточ. летературы, 1988. – С. 179-192.

112. Мария Земска. Семья и личность. ... – С. 74-75.

113. Моросанова В.И. Индивидуальная саморегуляция и характер человека // Вопр. психол. –М, 2007,- С 59-68.

114. Mamatov M. “Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari” – T.: “O‘zbekiston”, 1980. –62 b.

115. Mavrulov A. “Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008, – 80 b.

116. Muxtorov A. “Shaxs tarbiyasida milliy g‘oya, ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligi”. –T.: Yangi asr avlodi, 2003, - 260 b.

117. Mo‘minov A. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari.-T.: “Turon zamin ziyo” nash, 2013, -78 b.

118. Mahkamov U. “Yuqori sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari”: P.f.d. dis. - Toshkent: O‘PFITI, 1998. − 288 b.

119. Madaeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur – T.: Falsafa va huquq instituti, 2007. – 127 b.

120. Madraximova F. “Globallashuv va ommaviy madaniyat”, Chashma Print nashriyoti,.T.: 2013, –B. 179-181.

121. Maxmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.: p.f.n.. dis. avtoref. – T.:, 2004, – B.23.

122. Mirziyotov I. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom e'tiqodni shakllantirishning pedagogik asoslari”. P.f.n dis T.: 2008, - 145 b.

123. Mamashokirov S., Tog‘aev Sh. “Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari”. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2007, – 80 b.

124. Muxtorov E.M. “O‘smirlar guruxida o‘z-o‘zini psixologik muhofaza qilishning o‘ziga xos xususiyatlari”. P.f.n dis. T:., 2009, – 154 b.

125. Musurmonova O. Oilada bola tarbiyasining aktual masalalari. –Toshkent, 1988. – 174 b.

126. Mahkamov S. Islom dini va oila tarbiyasi. – Toshkent: “G‘. G‘ulom” nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 32 b.

127. Митина Л.М. Психологическая диогностика коммуникативных способностей учетля. Кемерова Обл. ИУУ.1994. 160 с.

128. Mirzo Xayrullo Xo‘qandiy. Axloqi zamima. – T.: Yozuvchi, 1994. – B. 27.

129. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.

130. Nishonova Z.T. “Oquvchilarda milliy xususiyatlarni tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari”. T.: Adabiyot uchqunlari.2018.- B.125

131. Nazarov Q. “Qadriyatlar falsafasi”. T.: 2004, – 222 b.

132. Nishonova S. “Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikrlari taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi”: p.f.d. dis. – T.: O‘PFITI, 1998, – 288 b.

133. Norqulov H. Oila va mahalla hamkorligi sog‘lom tarbiya kafoloti. //Xalq ta'limi. –Toshkent, 2004. −№ 3. – B. 20-22.

134. Nurmatova M., L.Muhammadjonova. “Ma'naviyatning axloqiy asoslari”. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2013. – B. 104.

135. Немиринкий О.В “Терапевтичкие отношения”. Психоанализ и гештальт-терапея.МПЖ, 1994г. №3.

136. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Вып. 3. – Ташкент, 1895. – С. 70.

137. Ochildiev A. “Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar” “Muharrir” nash T.: 2009,-B.5-6.

138. Otamuratov S. “Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik”. T.: “O‘zbekiston” nash. 2013, - 456 b.

139. Odob bo‘stoni va axloq gulistoni. – T.: FAN, 1994. – B. 6.

140. Преображенский К. Как стать японцем. – М.: Молодая гвардия, 2007. - С. 45-52.

141. Paxrutdinov Sh. “Tahdid-halokatli kuch”. –T.: “Akademiya” nash, 2001, - 250 b.

142. Петровская Л.А. Компетентность в общении.Социально-психологический тренинг. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1989, – 242 с.

143. Петровская Л.А. Социально-психологический тренинг. – М.: 1989.

144. Quronov M. O‘zbekiston umumta’lim o‘rta maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: P.f.d. dis. – T.: 1998. − 316 b.

145. Quronov M., X.Jabborov “Yosh ota-ona kitobi”.“Muharrir” nashriyoti T:.2018 y.

146. Quronov M., X.Jabborov “Baxtli bola ma’naviyati” nomli qo‘llanma // “Sano-standart” nashriyoti T:.2018 y

147. Quronov M., X.Jabborov "Fazilatli avlod” nomli qo‘llanma // “Sano-standart” nashriyoti T:.2019 y

148. Quronov M., L.Gaynutdinova X.Jabborov, Sh.Rustamovlarning “Shaxsning ahloqiy-ma’naviy indikatorlari hamda shaxsiy xususiyatlari va fazilatlarini aniqlovchi ijtimoiy - psixologik dastur” nomli metodik qo‘llanma. T.: - 2021. 63 б

149. Quronov M.. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210

150. Qur'onov M.Q. “Milliy tarbiya”. T.: “Ma'naviyat”, 2007, – 220 b.

151. Quronov M.Q. “Biz anglayotgan haqiqat”. T.:”Ma'naviyat”, 2008. – 196 b.

152. Quronov M.Q.Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. –T.: “Ma'naviyat”, 2015, – 112 b.

153. Quronov M.Q. “Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi”. T.: “Akademiya”, 2008, - 32 b.

154. Quronov M.Q. “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” mul'timedia ABU-MATBUOT KANSALT.2009.

155. Quronov M.Q, Jabborov X.X. “Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari”. “Muxarriri nashriyoti”, Toshkent. 2017, - B.47.

156. Quronov M. Otalar kitobi. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 78 b.

157. Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. P.f.d (DSc) diss avtoreferati. –Toshkent. 2019 yil. - 68 b.

158. Qosimov U.A. “Komil insonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”: p.f.n. .diss. avtoref. – T.: 2004, - 132 b.

159. Qosimova Z.H. Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari: p.f.n. . dis. − T.: 2003, –154 b.

160. Рубинштейн С.Л. Избранные философско-психологические труды. Основы онтологии, логики и психологии. – М.: Наука, 1997. – с. 463.

161. Роджерс К.Р. Взгляд на психотерапию. Становление человека./Пер. с англ. Общ. ред. и предисл. Исениной - М. 1994г, Прогресс.;

162. Расторгуев С.П. Информационная война. - М.: 2000, - С.321.

163. Ro‘zieva D.I. “Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari”: P.f.d dis. – T.: TDPU, 2007, – 254 b.

164. Rayimov Sh.K. “Oliy o‘quv yurti talabalarida ogohlik va fidoiylik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari”.: p.f.n. dis. avtoref. – T., 2007, – B. 19.

165. Rasulova Z. Zamonaviy o‘zbeklarning oila-nikoh munosabatlari. Monografiya. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2013. – 384 b.

166. Ro‘ziqulov F.R. O‘zbek oilalarida ajralishning ijtimoiy psixologik asoratlari.: Psixol. fan. nomz. ... dis. – Toshkent: O‘zMU, 2002. – 160 b.

167. Рудестам К. Групповая психотерапия. – М.: Прогресс - Унив 1993, – 368 с.

168. Ravshanov F. “Ma'naviy va g‘oyaviy taraqqiyotiga tahdidlar” Respublika milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. T.:2010, – B.19,22.

169. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. –B. 88–89.

170. Skinner B.F. Walden Two. Hackett Pub Co Inc. 2005.

171. Спок Б. Ребенок и уход за ним. – М., 1971. – С. 34–35.

172. Скиннер Б. Ф., Технология поведения (первая глава из книги «По ту сторону свободы и достоинства», 1971) // Вест НГУ. Псих. 2007, - С. 82-91.

173. Столин В.В. Познание себя и отношение к себе в структуры сомосознание личности: Дис.д.п.н-М.: 1985, - 530 б.

174. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligi, -T.: “Universitet”, 2015, -60 b.

175. Salieva N. “Yoshlar. milliy g‘oya. Tarbiya”.–T.: 2011, – B. 46.

176. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студентческой молодежи: Автореф. дис. док.псих.наук. - Т., 2006, – 38 С..

177. To‘laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar. “Universitet” nash, 2005, - 154 b.

178. Торндайк Э., Д. Б. Уотсон Бихевиоризм [Текст] / предисл., коммент. А. А. Карелина.— М.: АСТ-ЛТД, 1998.

179. Толмен Э.Ч. Бихевиоризм и необихевиоризм // Хрестоматия по истории психологии / Под редакцией П.Я. Гальперина, А.Н. Ждан. - М.: Изд-во МГУ, 1980.

180. Тоштемиров У. Современная семья и тенденции ее развития. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 71.

181. Tashanov A, Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar/ “Turon zamin ziyo”, Toshkent.: 2015, - 400 b.

182. Turdiboev N.. Ibn Sinoning ilm va axloqqa doir ba'zi risolalari. // Tarjimon va sharhlar muallifi N.Turdiboev. – T.: Falsafa va huquq, 2009, 28-sahifa.

183. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari: Psixol. fan. doktori ... dis. – T., 2009.

184. Umarov B.M. O‘zbek oilalarida er-xotin o‘rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog‘lom turmush tarzining o‘rni. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani konferensiya materiallari to‘plami. Qarshi, 2010. – B. 28 – 29.

185. Умаров Б.М. Возрастные и социально психологические особенности суицидального поведения у детей и подростков: Автореф. к.п.н. Т.: ТГПИ, 1993,- С. 21.

186. Umarov B., Nazarova F. O‘zbek oilaviy tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar // Xalq ta'limi. –Toshkent, 2003. − № 2. – B. 55-56.

187. Ubaydullayeva B. O‘zbek oilasida farzand tarbiyasi masalalari // O‘zbekiston tarixi. –Toshkent, 2008. −№ 4. – B. 26-35.

188. Уотсон Дж.Б. Психология как наука о поведении. М; Л., 1926; Он же. Психология с точки зрения бихевиориста // Бихевиоризм: Хрестоматия по истории психологии. М., 1980;

189. *Узнадзе* Д.Б, Экспериментальные основы психологии установки. 1949, М., 1966. -С. 248, 289-292.

190. Umarov B., Sh.Jabborov. Globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya muammolari. – T.: Akademiya, 2011. – B. 32-34.

191. Usmonov Sh. “Markaziy osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosini o‘rganishda milliy g‘oyaning tutgan o‘rni” T.: 2013, - 60 b.

192. Васильев И.А., Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием М. МГУ, 1991,- 144 с.

193. Воловик М.В., Вид Д.В. “Психологическая зашита” как механизм компенсации и ее значение в психотерапии болных шизофренией. Психологические проблемы психогигены, психопрофилактики и медицинской деонтологии. Под ред. М.М. Кабанова. Л. 1976, –С.26-28.

194. Вассерман Л.И., Клубова Е.Б. Психологическая диогностика индекса жизненного стиля. Санк-Петурбург. 2005,- С.54.

195. Васильенко Л.И., В.Е.Ермолаева. Вводн. Ст. Ю.А.Шрейдера.Глобальнўе проблемў и обіечеловеческие ценности: Пер. с англ. И франц., /Сост. -М.:Прогресс, 1990. – 495 с.

196. Харламов И. Ф. Педагогика / Текст.: учебное пособие для студентов вузов./ И.Ф. Харламов. - 4-е издание.- М.: Гардарики. 2006. - 517 с.

197. Xojieva M.“O‘zbekistonda tolerantlikning rivojlanish jarayonlari” O‘quv qo‘llanma. T.: 2008, - 260 b.

198. Xushmurodova I. “Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shar-sharoitlari” dis. T.:2008.- 161 b.

199. Xalilova N.I. “O‘smirlik davrida o‘zini-o‘zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari” n. dis. T.: 2010.- 141 b.

200. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 216 b.

201. Yuldasheva M. “Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining xususiyatlari..T.:2011, - 123 b.

202. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – B. 38.

203. Zakrullaev A. “G‘oyalar kurashi”. T.: “Movarounnahr” nash, 2000, - 148 b.

204. Засурский И.И. Масс-медиа второй Рес. - М.: Мысль, 1999, –246 с.

205. Зелинский С. А. “Манипуляции массами и психоанализ”, манипулирование массовыми психическими процессами посредством психоаналитических методик. – Санкт-Петербург: Скифия, 2008. – 235 с.

206. O‘tamurodov “Milliy g‘oya va ijtimoiy taraqqiyot” T.: 2016, - 71 b.

207. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya. Darslik. – T.: “Noshir” nashriyoti. 2012. - 316 b.

208. G‘oziyev E.G‘. Pedagogika-psixologiya, “Noshir” Toshkent.2014.-B.28-29

209. G‘oziyev E.G‘. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi // O‘zbek oilalarining etnopsixologik muammolari.- Resp. ilmiy-amal. anjum. ma'ruz. qisq. bayoni. - T., 1993. 8-9 b.

210. G‘oyibnazarov Sh. “Ommaviy madaniyat” T.: “O‘zbekiston”, 2012, - 240 b.

211. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. –T.: “O‘zbekiston”, 2009, - 144.b.

212. G‘aniev A. G‘arb olamidagi axloqiy muammolar. – Toshkent. 2007, - 32b.

213. Shoumarov G‘.B. Psixologi fani: yangiliklar, muammolar, yechimlar. “Ma’rifat ro‘znomasi” 16-oktyabr, 1996 yil. – B. 2-3.

214. Shoumarov G‘.B. Xaydarov I.O “Oila psixol” – T.: Sharq, 2008. 270 b.

215. Schneider W. The intelligence men: Makersot the IQ controversy. N.Y. Norton, 1985.;

216. Shamsiev O‘.B. “Oilada maktabgacha yoshi bola shaxsi o‘zini-o‘zi anglashining ijtimoiy psixologik omillari”. P.f.n. diss 2010,- 178 b.

217. Sharipov A. “Ijtimoiy hamkorlik to‘g‘risidagi zamonaviy qarashlarning tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi o‘rni” F.f. n. dis. , 2011, - 134 b.

218. Shabkarova N “O‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyalarini tarkib toptirish – mafkuraviy immunitetni shakllantirish vositasi sifatida” 2011.- 64 b.

219. Wollach M.A., Kogan N.A new look of the creativity - intelligence distinction. J. of Personality. 1965. V. 33. № 3. P. 348-369.

220. https://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

221. https://stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti

222. WWW.ziyonet.uz

223. https://ru.wikipedia.org/wiki

224. http://www.oilamarkazi.uz

225. http://www.ipfe.org/

226. https//www.dissercat.uz

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....3
Milliy tarbiya - ma’naviy taraqqiyot asosi sifatida 3
Kirish.....13
I BOB. MILLIY TARBIYA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA 17
1.1. Milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida.....17
1.2.Muammoning Sharq mutafakkirlari tomonidan o‘rganilishi 33
1.3. Tarbiya konsepsiyasi bo‘yicha xorij tajribasi.....53
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar 71
II BOB. MILLIY TARBIYANI TADQIQ QILISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....75
2.1. O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari.....75
2.2. Milliy tarbiya mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlari.....92
2.3. Milliy tarbiya shakllanishida fazilatlar irarxiyasining o‘rni va ahamiyati.....105
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....117
III BOB. MILLIY TARBIYA SHAKLLANGANLIGINI O‘RGANISHNING PSIXODIAGNOSTIK ASOSLARI 120
3.1.O‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik darajalarini tadqiq qilish usullari.....120
3.2. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari.....159
3.3. Milliy tarbiya asosida ta’lim muassalarida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlomlashtirish texnologiyasi 177
Bob bo‘yicha xulosalar 186
IV BOB. YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANTIRISHNING PSIXOKORREKSION ASOSLARI 190
4.1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tizimini rivojlantirish modeli.....190
4.2. Tajriba va nazorat ob’ektlaridan olingan empirik ma’lumotlar tahlili 212
Bob bo‘yicha xulosa.....226

XULOSA.....230
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: 234

Jabborov Xazrat Xusenovich

YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

“Bookmany print” nashriyoti
Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.
Bosishga ruxsat etildi: 27.01.2025.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 13,8. Shartli bosma taboq 14,7.
Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10